

**MAJIDOV SH.F.  
QURBONOV SH.SH.  
MAXKAMOVA N.A.**

**TARIHIY ATAMALARNI DARS  
JARAYONIDA QO'LLANILISHI**



**O'QUV QO'LLANMA**

**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI  
SAQLASH VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

**Majidov Sh.F., Qurbonov Sh.Sh., Maxkamova N.A.**



**TARIXIY ATAMALARNI DARS JARAYONIDA  
QO'LLANILISHI**

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 13 maydagi "166"-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan (166-634).*



UOK 81'373.46:94(075.8)

KBK 81.2-3ya73

M 15

Majidov Sh.F., Qurbonov Sh.Sh., Maxkamova, N.A.

Tarixiy atamalarni dars jarayonida qo'llanilishi [Matn] : o'quv qo'llanma /  
Sh.F. Majidov, Sh.Sh. Qurbonov, N.A. Maxkamova. - Toshkent:  
Samarqand, 2022. - 188 b.

**Tuzuvchilar:**

**Majidov Sh.F.**

Samarqand davlat tibbiyot instituti ijtimoiy  
va gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

**Qurbonov Sh.Sh.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik  
va biotexnologiyalar universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar,  
jismoniy madaniyat va sport kafedrasida o'qituvchisi

**Maxkamova N.A.**

Ya. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya  
instituti ilmiy xodimi, SamDTU qoshidagi akademik litseyi  
ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

**Ma'sul muharrir:**

**Maxmudova A.N.**

SamDTU "Ijtimoiy va gumanitar fanlar"  
kafedrasida mudiri, PhD

**Taqrizchilar:**

**Xalimbetov Yu.M.**

SamDTU "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasida dosenti

**G'offorov Sh.S.**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU "O'zbekiston tarixi" kafedrasida  
professori

Mazkur qo'llanma tegishli manbalar asosida tuzilgan bo'lib, butunlay yangicha uslub va mazmuni bilan ilgari yozilgan ma'ruza matnlaridan ajralib turadi. Qo'llanma asosida nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tishdan avval tavsiya etilgan manba va adabiyotlar bilan imkon qadar kengroq tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda tilimiz yangi so'zlar, atamalar bilan boyidi, rivojlandi. Bu zamonaviy lug'atlar, ensiklopediyalar yaratish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Bu yo'nalishda talay ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ayrim fanlardan atama lug'atlari unuman yaratilmagan. Ana shu ehtiyojni anglagan holda ushbu tarixiy atamalar to'plamini e'tiboringizga havola etmoqdamiz.

ISBN 978-9943-8782-3-5

© Majidov Sh.F., Qurbonov Sh.Sh., Maxkamova, N.A.

© Samarqand, 2022.y

## MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-BOB. DAVLAT VA XUQUQGA OID ATAMALAR.....	6
1.1. Davlat tuzumi va idora etish usullari bilan bog'liq atamalar .....	6
1.2. Davlat oliy kengashlari, tashkilotlari, siyosiy harakatlar va davlat xizmatchilari nomlari bilan bog'liq atamalar .....	30
1.3. Qonunlar, qarorlar va huquqiy xujjatlar bilan bog'liq atamalar .....	49
1.4. Harbiy atamalar.....	57
II-BOB. IQTISODIYOT VA IJTIMOIIY XAYOTGA OID ATAMALAR.....	84
2.1. Jamiyatdagi ijtimoiy toifalar, ular o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy - siyosiy harakatlarga doir atamalar .....	84
2.2. Iqtisod, yerga egalik qilish va moliya sohalariga doir atamalar.....	95
2.3. Fan, madaniyat va san'atga doir atamalar.....	109
2.4. Din va diniy e'tiqodlarga doir atamalar .....	127
2.5. Xalqlar, qabilalar va ijtimoiy guruhlariga oid atamalar.....	136
III-BOB. XALQARO VA DAVLATLARARO MUNOSABATLARGA DOIR ATAMALAR.....	151
3.1. Davlatlararo munosabatlarni bildiruvchi atamalar .....	151
3.2. Xalqaro tashkilotlar va shartnomalarga oid atamalar .....	160
3.3. Diplomatiya va xalqaro munosabatlarga oid atamalar .....	173
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR .....	185

## KIRISH

Atamashunoslik (terminologiya) ilmini talabalar bilimlarini yanada chuqurlashtirishga yordam beradigan fanlar sirasiga kiritish mumkin. Maxsus til sifatida fan va san'atda keng qo'llaniladi. Undan tashqari barcha sohalarni qamrab olgan alohida atamalar va terminlar lug'atlari mavjud. Biz ularni bircha sohalar uchun ishlatishimiz mumkin.

Antik davrda yashagan mashhur notiq va olim Sitseron o'zining asarlaridan birida "Tarix bu hayot murabbiyi" degan so'zlarni aytib o'tgandi. Shu sababli o'tmishni bilmasdan, o'rganmasdan kelajakni tushunib, anglab bo'lmaydi.

Tarixiy atamashunoslik va umuman terminlarni alohida kitob xoliga keltirish juda mushkul ish. Sababi uning mushkulligi faqat minglab atamalarni ko'rib, o'rganib chiqish bilan emas balki, juda muhim tarixiy voqea va xodisalarni ham o'rganib chiqishni talab qiladi.

Terminologiya har bir fan va bilim sohasining asosiy tushunchalarini va mazmunini anglatishi bilan birga shu sohani mukammal darajada o'rganish imkonini beradi.

Terminologiya atamalarni sistematik ravishda tartib bilan tuzib chiqishni talab qilishi bilan birga kishidan shu sohani juda chuqur egallashni ham talab qiladi. A.A. Reformatskiyning ma'lum qilishicha, terminologiya va atamalar har qanday ilmiy teoriya va ilmiy qarashlarning shakllanishi va ularni o'rganishda juda katta o'rin egallaydi.

Atamlarning aniq tarifi va ularni bir tizimga solish bilan ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi kishilar amalga oshirishadi.

Xalqaro terminalogiya komissiyasining taklifiga ko'ra har qanday termin va atamalar to'plami 100 ta atamadan kam bo'lmasligi talab qilinadi. Terminalogiya va atamashunoslik bilan davlat tashkilotlari, komissiyalari, ilmiy tekshirish institutlari va boshqa tashkilotlar shug'ullanishadi.

Chet mamlakatlarida, jumladan Rossiyada terminalogiya va atamashunoslik bilan "Terminalogiya-texnik komissiyasi" shug'ullanadi. Undan tashqari Butun Rossiya kodlashtirish va tizimlash davlat standart birlashmasi va Rossiya fanlar akademiyasi qoo'idagi fundamental fanlar sohasidagi ilmiy terminalogiya Qo'mitasi ham shu ish bilan shug'ullanadi.

Borisov M.K. terminologiya va atamaları tizimga solish kabi ikki guruhga ajratadi. Bugungi kunda ilmiy jamoatchilik va barcha sohalarda terminalogiya juda katta o'rin egallaydi. Shu sababli atamalarni bilmasdan turib biror bir fan sohasini chuqur o'rganib bo'lmadi.

Ilm fanning tez taraqqiy etishi natijasida yangi termin va atamalar ham paydo bo'lmoqda va ilmiy muomalaga kiritilmoqda. Shu sababli har bir sohada yangiliklar juda tez ilmiy ishlarda kuzatilganligi sababli ularni tushunish va o'rganishda terminalogiya fanining o'rni katta.

Har bir fan sohasida o'zining atamalar tizimi mavjud. Ulardagi atamalarning bir necha mingdan o'n minggachani tashkil etmoqda va ularning soni ham doimiy ravishda ortib bormoqda.

Atamalarining katta qismi xalqaro so'zlar sifatida ham qo'llanilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Terminlar va atamalar orasida lotin va grek tilidagi so'zlarning ko'pligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Undan tashqari turli xalqlarning bir biriga yaqinlashishi va aloqalarining kuchayishi natijasida atamalarning va terminlarning soni boshqa xalqlar tilidagi so'zlar bilan yanada boyib bormoqda. Ular orasida nemis, fransuz, ingliz, rus va boshqa tillardan olingan so'zlarning soni ham ortib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Taniqli atamashunos olim G.O. Vinokur terminalogiya tarixiy taraqqiyot jarayonlari natijasida turli fan sohalariga bo'linib borganligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Lottening D.S. ta'kidlashicha ilmiy terminalogiya va atamalarni jamlashni alohida fan sifatida ko'rsatish mumkin. Yana bir rus olimi S.V. Grinev terminologiyani uch guruhga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Ular alohida fanlarga oid terminlar, har bir tilda ishlatiladigan barcha so'zlar va fanni o'rganishda yordam beradigan atamalar. V.M. Leychikning ta'kidlashicha fan va texnikaning har qanday sohasida yuz bergan taraqqiyot natijasida atamalar ham shunga mos ravishda ko'proq ishlatila boshlaydi. Shu tariqa tamalar ham yanada kengroq ma'noda va mazmunda qo'llanila boshlaydi. S.V.Grinev va O.S.Axmanovalarning ta'kidlashlaricha terminalogiya bu alohida fan va bu fan atamalarni o'rganadi.

Albatta, mazkur qo'llanma ayrim kamchiliklardan holi emasligini anglagan holda mualliflar barcha o'quvchilardan har qanday taklif va mulohazalarni intizorlik bilan qabul qilib oladi.

## I-BOB. DAVLAT VA XUQUQGA OID ATAMALAR

### 1.1. Davlat tuzumi va idora etish usullari bilan bog'liq atamalar

**ABSOLYUTIZM, ABSOLYUT MONARXIYA** (lot. "Absolutus" - mutlaq cheklanmagan) - davlat boshqaruvining shunday shakli, unda cheklanmagan hokimiyat faqat bir kishida – monarxda bo'ladi. Absolyutizm mamlakat markazlashuvi eng yuqori bosqichga ko'tariladi. Vakillik organlari faoliyati to'xtatiladi, mavjudlari ham real hokimiyatdan mahrum bo'ladi. Absolyutizm G'arbiy Yevropa mamlakatlarida asosan XVII-XVIII asrlarda ravnaq topgan.

**ANARXIZM** (yunon. "anarchia" - hokimiyatsizlik, beboshlik) – davlat hokimiyatini va har qanday tuzumni rad etuvchi jamiyat to'g'risidagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy ta'limot. Antik davrda anarxizmga xos fikr yuritish alomatlari bo'lgan, qadimgi xristianlikda diniy shaklda, keyinchalik o'rta asrlar mazhablarida ham uchraydi. Lekin ilmiy nazariya sifatida anarxizm G'arbiy Yevropada 1840-1870-yillarda paydo bo'lgan. Nemis faylasufi K. Shmidt (Shtimer), fransuz olimi P. Prudon, rossiyalik M. Bakunin uning nazariyotchilari hisoblanadi. Anarxizm keng ma'noda hokimiyatsizlikni, ya'ni beqaror siyosiy vaziyatni anglatadi.

**ASSAMBLEYA** (frans. "assemblée" - majlis) - majlis, bir qator mamlakatlarda davlat hokimiyati oliy organining (milliy assambleya ko'rinishida), shuningdek ayrim xalqaro tashkilotlar oliy organining nomi (Bosh Assambleya ko'rinishida beriladi). Rossiyada Pyotr davrida 1718-yil majlis-ballar tashkil etilib, ularda taniqli xonadonlar ayollari ishtirokida Yevropadagi ballarga taqlid qilgan holda o'tkazilgan. Bugungi kunda Bosh assambleya, Milliy assambleya, Parlament assambleyasi, Butunjahon assambleya, Parlamentlararo assambleya va boshqa xalqaro organlar faoliyat olib bormoqda.

**AVTOKRATIYA** (yunon. "autokrateia", autos-o'zim, kratos-hokimiyat)- yakka shaxsning hech qanday qonun huquqiy me'yorlar bilan cheklanmagan yagona hokimligi. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim Imperiyasi, o'rta asr va yangi zamon Yevropasi mutlaq monarxiya tuzumi, kommunistik va fashistik diktatura davrida avtokratiya davlatning muhim belgisi bo'lgan. Hozirgi zamon siyosatshunoslik

adabiyotlarida «avtokratiya» tushunchasi ba'zan totalitar va avtoritar siyosiy tuzumlarni ham anglatadi.

**AVTONOMIYA** (yunon. autos -o'zi, va nomos – qonun, huquq). 1) O'z-o'zini boshqarish, ma'lum bir milliy-hududiy birlik aholisining mustaqil ravishda konstitutsiya yoki boshqa huquqiy hujjat asosida ichki boshqaruv masalalarini hal qilish huquqi, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruviga oid ayrim masalalarni mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi. Davlat tarkibidagi huquqiy maqomdan kelib chiqib avtonomiyaning darajalari farqlanadi. 2) qadimgi rimliklarda ayrim shaharlarning o'z qonunlarini chiqarish, shahar boshqaruv amaldorlarini o'zlari saylash va o'z tangalarini zarb qilish imtiyozlari.

**AVTORITAR** (lot. *auctoritas* - hokimiyat) - siyosiy tuzum, diktatorning boshqaruvi yoki noqonuniy ravishda o'zini davlat boshlig'i deb elon qilish. Siyosiy tuzum sifatida avtoritarizm har qanday inqilob natijasida paydo bo'ladi deb ko'rsatiladi. Avtoritarizm atamasini ilmiy muomalaga Germaniyaning Frankfurt maktabi vakillari kiritishgan. Avtoritarizm-birinchidan ijtimoiy va siyosiy tizim bo'lib, unda davlat rahbari yoki yetakchining o'mi alohida bo'ladi. Ikkinchidan - ijtimoiy holatlarda bir kishining yoki dohiyning o'mi juda yuqori bo'ladi va unga so'zsiz bo'ysinish talab qilinadi.

Mashhur nemis siyosatshunosi Dirk Berg-Shlosser avtoritarizmining zamonaviy shakllarini misollar bilan keltirib o'tadi va ular quyidagicha:

1. an'anaviy absolyut monarxiyalar (misol uchun Efiopiya 1974-yilgacha, Nepal 2007-yilgacha, Marokash, Saudiya Arabistoni va boshqalar);

2. Oligarxiya ko'rinishidagi an'anaviy avtoritar tartiblar. Lotin Amerikasi davlatlari uchun xarakterli (Kuba va Gvatemala 1959-yilgacha, Nikaragua 1979-yilgacha va boshqalar);

3. Gegemon avtoritarizm va yangi oligarxiya;

4. Harbiylar hokimiyat tepasida bo'lgan tartib.

Avtoritar tuzumning bir necha xil belgilari mavjud:

- avtokratizm yoki bir necha kishi tomonidan hokimiyatning egallanishi (diktator, harbiy diktatura, oligarxiya guruhlari);

- xalqni nazorat qilib bo'lmay qolgan tuzum. Unda biror bir siyosiy guruh to'liq nazorat o'rnatmaydi;



- hokimiyatning bo'linishi, bunda davlat boshlig'ining ma'lum bir huquqlari boshqa davlat organlariga beriladi;
- hokimiyat ustidan bir guruhning nazorati o'rnatilishi va boshqa muxolifatdagi kuchlarning tazyiq ostiga olinishi;
- tashqi kuchlarning ma'lum bir siyosiy kuchlarga yordam berishi;
- ommaviy qatag'onlarning kuchayishi va bu holatning hukumat tomonidan boshqarilishi;
- shaxsiy erkinliklar va inson huquqlarining hukumat tomonidan cheklanishi va boshqa belgilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**AVTORITARIZM** (lot. autoritas - hokimiyat) – davlatni idora qilish usuli. Avtoritarizm da siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki yetakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi. Avtoritarizm siyosiy hokimiyat shakli sifatida avtokratiga va diktatura bilan uyg'unlashib ketadi. Atama Frankfurt maktabi vakillari tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan. Avtoritarizm haqiqiy demokratiyaning yo'qligini anglatadi.

**BANTUSTANLAR** - milliy-ozodlik kurashini sustlashtirish uchun qabila belgisiga ko'ra aholini tarqoq holda joylashtirish maqsadida JAR va Namibiya hududida irqchilar hukumati tomonidan barpo etilgan asosan qora irq vakillari istiqomat qiladigan soxta davlatlar. Atama sifatida bantustan 1940-yillar oxirlarida paydo bo'lgan. Bugungi kunda bantustan atamasini tor ma'noda to'liq suverenitetiga ega bo'lmagan davlat yoki mintaqaga nisbatan qo'llash mumkin. 1959-yilda 10 bantustanlar tashkil etilgan. 1971-yilgi bantustanlar to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunga ko'ra ular kelgusida mustaqillikka erishishi belgilab qo'yilgan edi. Amalda bor yo'g'i to'rtta bantustanlar mustaqillikka erishganlar. Bu «davlatlar» Transkey (kosa qabilasi uchun, 1976-yilda asos solingan), Bofutatsvana (tsvana qabilasi uchun, 1977-yilda asos solingan), Venda (1976) va Siskey (1981), Sharqiy Kaprivi (Lozi), Kavangolend va Ovambolend (Namibiyada); yana ayrim bantustanlar – Kvazulu, Lebova, Kvakva cheklangan avtonomiyaga ega bo'lishgan. Suveren davlat sifatida ular xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan emas.

**BYUROKRATIYA** (frans bureau - byuro, idora va yunon. kratos - kuch hokimiyat, hukmronlik) dastlab hukumat rahbarlari va amaldorlari hokimiyati, keyinchalik jamiyatning turli sohalarida paydo bo'lgan yirik tashkilotdagi xizmatchilar qatlamini ifodalagan. Boshqaruv va

ma'muriyatning zarur qismi sifatida byurokratiya alohida ijtimoiy qatlarga aylana boradi. Byurokratiyaga xos xususiyatlar: quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma – bosqich bo'ysunishi, qattiq ish tartibi, maxsus ma'lumotni taqozo etuvchi rasmiy vazifalarni amalga oshirishda mehnat va ma'suliyat taqsimoti. Mazkur tartib aslida Yevropa davlatlarida feodal jamiyat davrida vujudga kelgan. XVII-XVIII asrlarda davlatlarning politsiya boshqarmalarida ustun bo'la bordi. Byurokratiya Rossiyada Pyotr I davrida to'liq shakllandi va qonuniylashdi. Bugungi kunda G'arb davlatlarida Angliyava Shveytsariyadan tashqari barcha davlatlarda u yoki bu darajada byurokratiya mavjud.

**DEMOKRATIYA** (yunon. demos-xalq va kratos-hokimiyat) - fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o'rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum. Bir so'z bilan aytganda davlat hokimiyatini boshqarishning huquqiy jihatdan xalqqa berilganligi. Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiyaning asosiy xususiyatlari: ko'pchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqliligi, ularning huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo'linishi, davlat boshlig'i va vakolatli organlarning saylab qo'yilishi. Demokratiyaning bevosita demokratiya (asosiy qarorlar yig'ilishlarda bevosita barcha fuqarolar tomonidan yoki referendumlar yo'li bilan qabul qilinadi) va vakillik demokratiyasi (qarorlar saylab qo'yiladigan organlar tomonidan qabul qilinadi) shakllari bor. Kishilik jamiyati paydo bo'lgandanoq, demokratiyaning kurtaklari bor edi va u hozir eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham o'zining so'nggi cho'qqisiga erishganicha yo'q. Davlat bilan birga vujudga kelgan demokratiya insoniyat tarixi davomida turli milliy-madaniy shart-sharoitlarga moslasha borgan. Har bir davlatda, millatda o'ziga xos qadriyatlar, mentalitet, an'analar mavjuddir. Ular jamiyatdagi demokratik jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi, binobarin demokratik muassasalarni shakllantirishda mazkur omillar, albatta, hisobga olinadi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmat, hayoti har narsadan yuqori turadi. Bunday davlat o'zini o'zi boshqarish, ko'ppartiyalilik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi. Biroq demokratiya hamma narsada xohlagancha erkinlik emas, qonunga asoslangan

erkinlikdir. Demokratiyaning ajralmas qismi intizom, qonunlarni hurmat qilish, boshqalarning haq-huquqini himoya qilishdir. Demokratiya tartibotlari huquqiy davlatda mukammal rivojlanib boradi. Demokratiyada:

1. Boshqaruv organlariga haqiqiy ovoz berish yo'li bilan saylangan, munosib kishilar tayinlanadi.
2. Xalq hokimiyatning birdan bir manbai deb tan olinadi.
3. Jamiyat boshqaruvida umumiy manfaatlar ustun bo'ladi.

**DESPOTIK** – despotizm (qadimgi yunon tilida - cheklanmagan hokimiyat, despot qadimgi yunon tilida hukmdor ma'nosini ham bildiradi), huquqi cheklanmagan, zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat. Qadimgi Yunonistonda keyinchalik Vizantiya imperiyasida despotat deyilganda imperatorga bo'ysinuvchi yirik amaldorlar tushunilgan. Despot atamasini birinchi bor Aristotel o'zining «Siyosat» asarida ishlatgan. Klassik despotiyalarga Qadimgi Ossuriya, Bobil, Yunoniston, Misr, Hind davlatlari, Xitoy, Ahamoniylar va Sosoniylar imperiyalarini va hukmdorlarini ko'rsatish mumkin.

**DIKTATURA** (lot. Dictatura - cheklanmagan hokimiyat) - davlat hokimiyatini nodemokratik usullar bilan amalga oshirish tizimini ifodalovchi tushuncha, avtoritar yoki totalitar rejim. Diktaturada hokimiyat to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlikka tayanadi va diktatorga bo'ysinadi. Siyosatshunoslikda diktatura davlat boshqaruv shakli sifatida tushuniladi va respublika tartiblarida ham diktatura amal qiladi. Diktatura o'zining tarixini ilk davlatlar va siyosiy tuzilmalar vujudga kelishi bilan birga boshlaydi. Bugungi davrda ham diktatorlikka asoslangan davlatlar mavjud bo'lib, ularga nisbatan xalqaro tashkilotlar tomonidan cheklovlar va boshqa jazo choralari doimiy ravishda qo'llanilib boriladi. XX asr 2-yarmiga kelib diktatorlik tartibi asosan uchinchi dunyo davlatlarida saqlanib qolgan. Qadimgi Rimda diktatura senat, konsullar tomonidan o'rnatilgan. Ular tomonidan tayinlangan diktator o'zining otliq qo'shiniga, 24 kishilik liktorlar guruhi bilan birga yurgan. Miloddan avvalgi 82-yilda Rimning birinchi umrbod diktatori sifatida Lusiy Korneliy Sulla saylanadi. Miloddan avvalgi 49-yilda diktator lavozimi Sezarga o'tdi. Umuman Sulla va Sezar Rimning oxirga diktatorlaridir. Qadimgi Yunonistonda diktatorlar «tiran» atamasi bilan nomlangan. Ayrim tiranlar, misol uchun: tiranlar Korinf Periandr yoki Afin Pisistrat juda odil va aqlli kishilar deb ta'riflanadi.

O'rta asrlarda diktatorlik sarkarda-kondotyerlar yoki knyazlar qo'lida bo'lgan. XX asrning 20-40-yillarida Yevropada diktator davlatlar soni keskin ko'payib ketdi. Ikkinchi jahon urushining tugashi diktator davlatlar sonini kamaytirib yubordi. Ammo Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida harbiy diktaturalar soni ko'payib ketdi. Bugungi kunda diktator davlatlar Afrika qit'asida ko'proq uchraydi.

**FASHIZM** (ital. *fascismo* so'zidan olingan *fascio* «ittifoq, birlashma bog'lam»), diktatorlikka asoslangan siyosiy boshqaruv tartiblaridan biri bo'lib, militarizm, totalitarizm kabi tushunchalar bilan birga ishlatiladi. Fashizm so'zi italyanча *Fascio di combattimento* - «quroldoshlar ittifoqi» ma'nosini bildirib, Benitto Mussolini asos solgan. Lotin tilida *fascis* - «bog'lam» ma'nosida ishlatilgan. Sobiq SSSR, Rossiya va MDH davlatlari va ayrim Yevropa davlatlari tarixshunosligida fashizm Germaniyadagi natsional-sotsialistlar partiyasi va unga asos solgan Adolf Gitlerning faoliyati natijasida hokimiyat tepasida bo'lgan kuchlar tushunilib kelinadi. Keyingi yillarda fashizm mavzusida ingliz tadqiqotchisi R.Griffinom, ispan tarixchisi Andreas Umlandlar yirik tadqiqotlar olib borishgan.

**FEDERATSIYA** (so'nggi lot. *foederatio* - birlashma, uyushma) - 1) davlat tuzilishi shakli; yuridik jihatdan muayyan siyosiy mustaqilligi bo'lgan davlat tuzilmalaridan tashkil topgan murakkab (uyushma) davlat. Federativ davlatni tashkil etuvchi davlat tuzilmalari (shtatlar, o'lka, kantonlar) federatsiya subyektlari hisoblanadi va o'z ma'muriy-hududiy bo'linishlari bo'ladi. Federatsiyada yagona konstitutsiya, yagona ittifoq (federal) davlat hokimiyati organlari bo'ladi, yagona fuqarolik, pul birligi va shu kabilar amal qiladi. Unitar davlatdan farqli ravishda federativ hokimiyat oliy organlarining ikki tizimiga - federal organlar va federal a'zolarining tegishli organlariga ega bo'ladi. Federal organlar mamlakatning hamma hududida o'z vakolat va vazifalarini amalga oshiradi. Federatsiya konstitutsiyasi bilan birga federatsiya subyektlari ayrim ta'sis mazmunidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlar (masalan, konstitutsiya, nizomlar, asosiy qonunlar) chiqarish huquqiga ega bo'lgan. Ba'zan federatsiya a'zolari ichida o'z fuqaroligiga, poytaxtiga, davlat ramzlariga ega bo'lish holati ham uchrab turadi. Federatsiyani tashkil etuvchi davlat tuzilmalari tom ma'noda davlat hisoblanmaydi. Ular suverenitetga, ittifoqdan bir tomonlama chiqish huquqiga ega bo'lmaydi, yuridik jihatdan xalqaro munosabatlarda qatnashish huquqidan mahrum.

Ittifoq konstitutsiya yoki qonunlari buzilgan taqdirda markaziy hokimiyat federatsiya subyektiga nisbatan majburlash choralarini ko'rish huquqiga ega. Federatsiyaning eng zarur belgilaridan biri bu federal parlamentning 2 palatali tuzilmasidir. Palatalarning bittasi umumfederal hukumat organi hisoblanib, deputatlar mamlakatning hamma joyidan saylanadi. Ikkinchi palata bo'lsa asosan federatsiya subyektining manfaatini himoya qiladi. Odatda, federatsiya a'zolarining o'z mustaqil konstitutsiyasi bo'ladi. Milliy (til) omilning ahamiyatiga qarab federatsiya tuzilishini belgilashda hududiy asosdagi federatsiya (AQSh, Avstraliya, Avstriya, GFR, Argentina, Venesuela, Braziliya, Meksika), milliy asosdagi federatsiya (Hindiston, Belgiya, Nigeriya, Pokiston) va aralash milliy-hududiy asosdagi federatsiya (Rossiya Federatsiyasi, Shveytsariya, Kanada) farqlanadi. Konstitusiyaviy huquq nazariyasida, shuningdek, ba'zan konstitusiyaviy federatsiya (AQSh, Kanada, Braziliya), konstitusiyaviy-shartnomaviy federatsiya (Rossiya Federatsiyasi) va shartnomaviy federatsiya (Shveytsariya, Birlashgan Tanzaniya Respublikasi, BAA), markazlashgan (Hindiston, bu yerda bitta shtatdan boshqa shtatlar o'z konstitutsiyasi va fuqaroligiga ega emas) va markazlashmagan federatsiya (AQSh, GFR, Shveysariya) o'rtasidagi farq ko'rsatib o'tiladi. 2005-yil holatiga ko'ra, jahonda 21 ta federativ davlat bor; 2) xalqaro yoki milliy jamoat tashkilotlari ham federatsiya deb ataladi. Masalan Xalqaro Futbol Federatsiyasi (FIFA).

**GEGEMON, GEGEMONLIK** (yunon. hegemonia – yo'lboshchi, boshliq, rahbar, gegemonlik - rahbarlik, hukmronlik) - hukmron bo'lishga, boshqa mamlakatlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilishga intilishga asoslangan siyosat. Gegemonlik davlatlar va xalqlar teng huquqliligining bevosita aksi, xalqaro munosabatlarda qaror topishi lozim bo'lgan idealning qarama-qarshisidir. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida O'zbekiston o'z siyosatida gegemonlikning har qanday ko'rinishlaridan voz kechish, barcha mamlakatlar va xalqlar bilan tengma-teng munosabatda bo'lish tarafdori ekanligi qayd qilingan. Tarixda gegemon tushunchasi boshliq, harbiy yo'lboshchi, kamdan-kam hollarda imperatorlarning unvonini anglatgan. Ikkinchi Korinf kongressida Aleksandr Makedonskiy Korinf ittifoqining gegemoni deb e'lon qilingan.

**GERONTOKRATIYA** (yunon. geron-urug', gerontos-oqsoqol, kratos- hokimiyat) – go'yoki hokimiyat oqsoqollarga tegishli bo'lgan

deb taxmin qilinadigan ijtimoiy tuzumining ilk shakli. Aslida, jamoa qariya a'zolarininig e'tiborli mavqeyi-ba'zi xalqlarning ibtidoiy tuzum davridagi yuqori hokimiyatning elementlaridan biri bo'lgan xolos. Atama XX asr boshlarida etnograf olim U.Rivers tomonidan kiritilgan. Uning qarashlari bo'yicha Avstraliya va Okeaniyadagi xalqlarda mazkur tuzum amal qilgan. Bugungi kunda bu atama faqatgina adabiyot va unga yaqin boshqa sohalarda qo'llaniladi.

**GINEKOKRATIYA** (yunon. ginaikos - ayol va kratos - hokimiyat) - ayollar hokimiyati bo'lib, dastlab Aristotelda shunday ma'lumotlar uchraydi. Jamiyat taraqqiyotining xo'jalikda ijtimoiy va siyosiy hayotda ayollar hukmronligidan iborat bosqichi. Fanda ko'pincha matriarxat atamasi ishlatiladi. Atamani ilk bor Shvetsariyalik olim I.Y.Baxofen qo'llagan. Yunonistonning qadimgi komediyalarida, misol uchun Aristofanning "Lisistrata" va "Ayollar xalq yig'inida" nomli komediyalarida ginekokratiya haqida ayrim jumlar bor.

**HARBIY KOMMUNIZM** - sobiq sovet davlatida 1918-1921-yillarda fuqarolar urushi davrida amalga oshirilgan ichki siyosat. Uning asosiy mazmuni iqtisodiyotni markazdan boshqarishga o'tkazish va milliy lashtirishdan iborat. 1917-yil 8-dekabrda banklarni milliy lashtirish to'g'risidagi dekret e'lon qilindi. 1917-yil 14(27)-noyabrda ishchilarning holati to'g'risidagi dekret e'lon qilinib, yangi tartiblar joriy qilindi. Xalq xo'jaligi Yuriy Larin tomonidan ishlab chiqilgan loyiha asosida qayta ko'rib chiqiladi va bunda harbiy holat davridagi vaziyat kabi boshqaruv harbiylar qo'lga topshiriladi. Rikov A. I. tomonidan Larinning loyihasi ko'p bora tanqid qilinishi natijasida asta-sekin iqtisodiy cheklovlarni olib tashlashga qaratilgan yangi takliflar bildirila boshlandi. 1920-yil yanvar oyida islohotlar borasida yangi takliflar bildirilishi natijasida harbiy kommunizmdan voz kechila boshlandi. Shu tariqa siyosatdan mamlakatda voz kechildi.

**IMPERIALIZM** (lot. *imperare*-boshqarmoq, frans, *imperium*-hokimiyat, hukmronlik) - keng ma'noda hududlarni bosib olishga, qaram qilishga, boshqa davlatlar ustidan siyosiy yoki iqtisodiy nazorat o'rnatishga qaratilgan davlat siyosati. U bir davlatning o'z hokimiyatini boshqa davlat hududida iqtisodiy va siyosiy foyda olish maqsadida qaram aholini, asosan, harbiy vositalar yordamida ezish hisobiga amalga oshirishini anglatadi. Imperiya, aslida, bosib olish va hukmronlik qilishning davlatlar o'rtasidagi siyosiy raqobatning qadimiy

shakli hisoblanadi. Tashqi siyosatda koloniyalar tashkil qilish, boshqa davlatlar iqtisodiyotini qaram qilishga qaratilgan siyosat hamdir. Imperializm borasida J. Gobbs o'zining fikrlarini 1902-yilda nashr qilingan kitobida bildirib o'tgan. Hozirgi kunda imperializm tugatilgan deb hisoblanadi. Imperializm iqtisodiy va siyosiy sohalarda bo'lishi mumkin. Imperializm aslida qadimgi Yunoniston va Rimda ham mavjud bo'lib, ular O'rtayer dengizi havzasida hukmronlik uchun harakat qilishgan. Ayniqsa Rim imperiyasi o'zining Yevropa miqyosidagi hukmronligi bilan cheklanmasdan sharqqa tomon doimiy ravishda qiziqish bilan qaragan va harbiy yurishlar uyushtirib turishgan.

**IMPERIYA** (lot. *Imperium*-hokimiyat) - imperator tomonidan boshqariladigan monarxiya davlatiga nisbatan qo'llaniladi. Boshqa manbalar bo'yicha esa mustamlakalari bo'lgan yirik davlatlar. Klassik geosiyosatchilar Karl Shmitt va Xelford Makkinder o'zlarining turli ilmiy izlanishlarida imperiyaning ko'rinishlari haqida mulohazalar bildirib o'tishadi. Qit'alarga yoyilgan imperiyalar Tellurokratiya deb ataladi. Unga qadimgi Rim, Napoleon va boshqa imperiyalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Qadimgi davrda Bobil podsholigi, Ahamoniylar davlati, Ossuriya, Makedoniya, Karfagen kabi imperiyalar mavjud bo'lgan. Antik davrning eng yirik imperiyasi bu Rim imperiyasidir. O'rta asrlarda Muqaddas Rim imperiyasi va Vizantiyani ko'rsatib o'tish mumkin. Yangi zamon davrida Rossiya, Portugaliya, Ispaniya, Fransiya va Angliyani ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda tor doirada AQSh va Yevropa Ittifoqi o'ziga xos imperiyalar sifatida ko'rsatiladi. Imperiyalar quyidagi jihatlarga ega bo'lishi kuzatiladi.

1. Kuchli armiya va politsiya;
2. Katta tashqi siyosiy ta'sir;
3. Qudratli davlat g'oyasi (din, g'oya);
4. Qat'iy va yagona hokimiyat;
5. Aholining yuqori darajadagi sodiqligi;
6. Faol tashqi siyosat, mintaqaviy masalalarga befarq bo'lmaslik va ekspansiya yo'nalishlarining mavjudligi;

Insoniyat tarixidagi eng yirik imperiyalar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: Arab xalifaligi (VII), Ossuriya imperiyasi (mil.avv.X-VI), Britaniya imperiyasi (1583-1997), Xunlar imperiyasi (IV-VI), Xitoy imperiyasi (mil.avv.221-1912), Makedoniya imperiyasi (mil.avv.338-309), Mo'g'ullar imperiyasi (1206-1368),

Boburiylar imperiyasi (1526-1857), Usmoniylar imperiyasi (1281-1923), Ahamoniylar imperiyasi (mil.avv. 550-330), Rim imperiyasi (mil.avv 27-milodiy 395), Vizantiya imperiyasi (395-1204 va 1261-1453), Rossiya imperiyasi (1721-1917), Franklar imperiyasi-Buyuk Karl (800-843), Muqaddas Rim imperiyasi (962-1806), Germaniya imperiyasi (1871-1918) va boshqalar.

**KAPITALIZM** – xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti va demokratik institutlarga asoslangan jamiyat turi. Ijtimoiy tafakkurning turli oqimlarida Kapitalizm, erkin tadbirkorlik tizimi, industrial jamiyat taraqqiyotining bosqichi deb qabul qilinadi. Kapitalizmning hozirgi davri esa “aralash iqtisodiyot”, “postindustrial jamiyat”, “axborot jamiyati” va boshqalar sifatida ta’riflanadi. Marksizmda kapitalizm ishlab chiqarish vositalariga, xususiy mulkchilikka va yollanma mehnatning kapital egasi tomonidan eksplutatsiya qilinishiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya deb talqin qilinadi. Kapitalizm XIV-XV asrlarda Italiya va Gollandiya shaharlarida yuzaga kelib, XVI asrdan boshlab Yevropada dastlabki sarmoya(kapital) jamg’arish deb atalmish jarayon natijasida qaror topdi. Kempbell R. Makkonnell, Stenli L. Bryu kabi iqtisodchilar kapitalizm raqobatga asoslangan jamiyat deb ta’riflashadi. Kapitalist so’zi dastlab jargon sifatida Yevropa birjalarida ishlatilgan. 1854-yilda ingliz adibi Uilyam Tekkerey o’z asarida kapitalist atamasini ishlatadi. 1867-yilda nashr qilingan «Kapital» asarida Karl Marks «kapitalizm» atamasini ishlatadi. Keyingi davrlarda ham dunyodagi ko’plab davlatlar olimlari kapitalizmga turli xil ta’riflar berib kelishmoqda.

**KOMMUNIZM** (lot. *Commūnis* - «umumiy») - marksistik tushunchaga binoan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tenglikka asoslangan jamiyat. XIX asrda kam hollarda ishlatilgan va turli olimlar tomonidan har xil talqin qilingan. Fridrix Engels 1847-yilning oktabrida kommunizmni proletariat (ishchilar sinfining nomlanishi) ni ozod qilish uchun ta’limot deb talqin qiladi. Karl Marks 1844-yilda kommunizm shaxsiy mulkdan umumiy mulkka tomon o’tishning eng yaxshi ko’rinishi deb ta’riflaydi. 1911-yilda nashr qilingan “Falsafa lug’ati” da kommunizmni davlatdagi barcha kishida shaxsiy mulk bo’lmagan va faqat davlat mulki bo’lgan jamiyat sifatida talqin qilinadi. Erriko Malatestaning 1917-yilda nashr qilingan “10 ta suhbatda anarxizmning qisqacha tartibi” asarida kommunizm jamoa boshqaruvining bir shakli



bo'lib, unda odamlar bir maqsad yo'lida birlashadilar va unda barcha boyliklar umumiy mulk sifatida bo'ladi deb ko'rsatiladi. Ingliz tilidagi lug'atda u totalitar boshqaruv tizimi va bir partiyaning avtoritar boshqaruvi deb ko'rsatilgan. XIX asrning 40-yillarida fransuz tilidagi *communisme* so'zidan olingan *commun* - «umumiy» manosini bildirgan. dastlab XIII-XIV asrlarda fransiskanlarning radikal qanoti a'zolari shaxsiy mulkning yo'qotilishini maqsad qilishgan. Chexiyada XV asrda yuz bergan guschilar harakati va XVI asrda Germaniyada yuz bergan dehqonlar urushi davrida ham shunga yaqin g'oyalar keng tarqalgan. XVI-XVII asrlarda gumanizimning yirik namoyondalari ham xususiy mulka qarshi chiqishgan. XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan sotsialist-utopist yozuvchilardan Sen-Simon, Sh. Furiye, R. Ouen va boshqalarning asarlarida ham kommunistik g'oyalarga alohida e'tibor qaratilgan. 1917-yilning fevralida Rossiyada monarxiyaning ag'darilishi natijasida kommunistlar hokimiyatga chiqishadi va davlatning asosiy g'oyasiga aylantiriladi. 1960-yillarda "Ilmiy kommunizm" atamasi ishlatila boshlandi. Fransiya, Italiya va Ispaniyadagi kommunistik partiyalar "Yevrokommunizm" atamasini qo'llashib, u orqali Yevropani birlashtirish jarayonini ko'rsatmoqchi bo'lishadi.

**KONFEDERATSIYA** (confoederatio - ittifoq, birlashma) - 1) davlat tuzilishining bir shakli; unga ko'ra, konfederatsiyani tashkil qilgan davlatlar o'z mustaqilligini to'la saqlab qoladi, o'z davlat hokimiyatini tuzadi; maxsus birlashgan organlar esa muayyan (harbiy, tashqi siyosiy) maqsadlarda harakatlarni muvofiqlashtirish uchungina tuziladi. Bir federatsiyaga a'zolikdan favrqli ravishda davlatlar bir paytning o'zida bir necha konfederatsiyaga a'zo bo'lishlari mumkin. Tarix shohidligi shundan guvoh beradiki, konfederatsiya tartibi barqaror emas, u yo tarqalib ketadi yoki federatsiyaga aylanib ketadi. Hozirgi vaqtda dunyoda Yevropa Ittifoqi konfederatsiyasi ma'lum. Konfederatsiyani kamdan-kam uchraydigan davlat tuzilishining bir ko'rinishi sifatida ham baholash mumkin. Konfederatsiyalarda yagona oliy qonunchilik organi va yagona fuqarolik ham yo'q. Davlatlar o'z ixtiyori bilan konfederatsiyaga a'zo bo'lishlari yoki undan chiqib ketishlari mumkin. Tarixda Amerika Konfederativ Shtatlari ma'lum; 2) biron-bir ijtimoiy yoki boshqa xil tashkilotlarning nomi (masalan, Fransiya Umummehnat Konfederatsiyasi).

**KONSERVATIZM** (frans. *conservatisme*, lot. *conservo* - saqlayman) - jamiyatda va davlatda ustun bo'lgan an'analarni, g'oyalarni, diniy etiqod, siyosiy tuzum va boshqalarni saqlashga qaratilgan harakatga nisbatan aytiladi. Siyosatda esa davlatda ustun bo'lgan tartibni o'zgartirishga bo'lgan har qanday radikal harakatlar hamda terrorizmga qarshi qarashlar va oqimlar. Tashqi siyosatda xavfsizlikni saqlash, harbiy kuchlar muvozanatini saqlash, iqtisodiy aloqalarda proteksion siyosatni qo'llash va boshqalar tushuniladi. Konservatizmning qaror topishida fransuz iyezuiti Jozef de Mestr (1753-1821), ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679) va Avstriya kansleri Klement Mettemix (1773-1859) larning o'rni katta bo'lgan. Hozirgi kunda konservatizm "Neokonservatizm" deb ataladi va uning eng yirik vakillari AQShning sobiq prezidenti Ronald Reygan va Buyuk Britaniyaning sobiq bosh vaziri Margaret Tetcherlardir. Yangi zamon davrida Yevropa davlatlarida demokratik kuchlarning o'sib borishi natijasida 1830-yillarga kelib ingliz konservatorlari o'z saflariga kapital egalari bo'lgan yirik korxonalar, savdogarlar va boshqalarni jalb qila boshlashdi. XIX asr oxirida Angliya liberal partiyasi o'z tarkibiga konservatorlar partiyasini qo'shib oladi. AQShda esa konservatorlar harakati Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda faollashdi. Rossiyada imperator Nikolay I eng ashaddiy konservator edi. Ammo shunday qarash egalari imperator Aleksandr II o'limidan (1881-yil) keyin saroyda va davlatda o'z mavqeylaridan ajralishadi.

**KONSTITUTSIYA** (lot. *constitutio* - tuzilish, tuzuk) - davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Bir biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy Konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik Konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy Konstitutsiya esa - shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o'z shakliga ko'ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan Konstitutsiya - konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan

tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi K. parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni qisman yozilgan bo'ladi. O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozi bilan malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiy qilish) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha Konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi. Davlat faoliyatining turli sohalarida Konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. "Konstitutsiya" atamasi Qadimgi Rimdayoq bor edi (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur "Tuzuklar"i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O'rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan. Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo'lgan Konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh - hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski Konstitutsiyalar. Bu xildagi konstitutsiyalarga 1787 yildagi AQSH Konstitutsiyasi, 1831 yildagi Belgiya Konstitutsiyasi, 1874 yildagi Shveysariya Konstitutsiyasi misol bo'la oladi. 2-guruhga XX asrning 2-yarmida qabul qilingan "yangi avlod" konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki konstitutsiyalardan xuquq va erkinliklar institutining, konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat qilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko'payishi bilan farq qiladi.

**KONSTITUTSIYAVIY MONARXIYA** - dunyoda konstitutsiya bilan cheklab qo'yilgan monarxiya davlatlarining umumiy nomlanishi. Qonun chiqarish davlatning oliy organi vazifasiga aylanishi natijasida monarxlarning hokimiyati qonuniy ravishda cheklanib qoladi. Odatda parlament tomonidan monarxning huquqlari olib qo'yiladi. Dualistik monarxiyalar odatda huquqiy jihatdan monarx vazirlar tomonidan cheklab qo'yilgan bo'ladi, ammo vazirlar an'anaviy ravishda unga hisobot berib turishadi. Parlamentar monarxiyada hukumat

parlament tomonidan shakllantiriladi va barcha sohalarga uning javobgarligi qonuniylashtirilgan bo'ladi. Monarxning o'rnini mamlakatda faqatgina kam holatlarda yoki ramziy mazmunga ega bo'ladi xolos. Dualistik monarxiyaga Quvayt, Lyuksemburg, Lixtenshteyn, Monako, Iordaniya, Marokash kabi davlatlarni kiritish mumkin. Parlamentar monarxiya: Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Belgiya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Ispaniya, Andorra, Yaponiya, Kambodja, Tailand, Butan, Lesoto, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya, Tonga, Solomon orollari, Grenada, Yamayka, Sent-Vinsent va boshqa davlatlarni kiritish mumkin.

**MODERNIZATSIYA** (frans. moderne, ingl. modern - eng yangi, zamonaviy, qayta tiklangan) - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar, texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi. Modernizatsiya sababli avval kimsasiz orol bo'lgan joylarda bugungi kunda yirik shaharlar mavjud, misol uchun San-Paulu va Rio-de-Janeyro (Braziliyada), Moskva va Sankt-Peterburg (Rossiyada) shaharlari.

**LIBERALIZM** - Yevropa mamlakatlarida XVII-XVIII asrlarda shakllangan fuqaroviy, siyosiy, iqtisodiy erkinliklarga oid asosiy qoidalarni e'lon qilgan g'oyaviy va ijtimoiy-siyosiy oqim. Dastlab L. J. Lokk, A. Smit, Sh. Monteskiyelarning qarashlarida o'z ifodasini topgan, ya'ni ularning mutlaq hokimiyatga qarshi qaratilgan nazariyalariga asoslanadi. Liberalizm rasmiy huquqiy hujjatlarda birinchi bor AQSh Konstitutsiyasi (1787) hamda Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida (1789) mujassam bo'lgan. Keyinchalik XIX asr va XX asr boshlarida liberalizm huquqiy davlat, demokratik siyosiy muassasalar, fuqarolik jamiyati, shaxs huquqlari va erkinliklari, xususiy tadbirkorlik va tijorat erkinligiga oid asosiy tamoyillari shakllangan. Bugungi kunda liberalizm erkin bozor mexanizmi samarali iqtisodiy faoliyat yuritish, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solib turish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi; ayni chog'da bozor va raqobatchilik normal sharoitda rivojlanishi uchun bu sohaga davlatning muntazam ravishda aralashuvi zarur. Siyosiy hayotda liberalizm oqimi parlament tartiboti, demokratik erkinliklar, erkin tadbirkorlik tarafdorlarini o'zida birlashtiradi.

**LOTIN AMERIKASI** – bu, aholisining ko'pchiligi so'zlashadigan til lotin tili negizida tashkil topgan Janubiy Amerikaga nisbatan ishlatiladigan atama. Mazkur davlatlarning aholisi asosan ispan va portugal tillarida so'zlashadilar, bu tillar esa lotin tili asosida shakllangan. Lotin Amerikasida dunyodagi eng uzun tog' tizmasi hisoblangan And tog'lari, dunyodagi eng baland Anxel sharsharasi, eng baland tog' ko'li Titikaka va dunyodagi eng katta daryo Amazonka joylashgan. Braziliya, Meksika, Argentina va boshqalar nafaqat mintaqada balki dunyoda ham eng yirik davlatlar sirasiga kiradi. Lotin Amerikasi davlatlari qimmatbaho metallar, neft, tabiiy gaz va boshqalarga boy.

**MAJORITAR SAYLOV TIZIMI** (frans. majorite - ko'pchilik) – saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning majmui. Saylov tizimi davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo'lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi. Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida saylov tizimining quyidagi turlari mavjud:

- Majoritar;
- Proporsional;
- Aralash turlari;

Majoritar saylov tizimi deganda vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan, mutloq va malakali ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika kabilarda. Mutlaq ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutloq (yoki oddiy) ko'p ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, qayta ovoz berish o'tkaziladi, bunda nomzodlar ro'yxatida nisbatan ko'p ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish o'rniga ikkinchi tur ovoz berish o'tkaziladi, buning natijalari boshqacha tizim bo'yicha aniqlanadi (masalan, Fransiyada Milliy majlis-parlamentga saylovlarda

mutlaq ko'pchilik ovozigga asoslangan majoritar tizim, ikkinchi tur ovoz berishda esa nisbatan ko'pchilikning ovozigga asoslangan majoritar tizim qo'llaniladi). Nisbatan ko'pchilik ovozigga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarning har biriga nisbatan ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi. Bu tizimda ko'pincha saylovchilarning qo'llab-quvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p o'ringa ega bo'lishi mumkin. AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa bir qancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo'llaniladi. Shuningdek, majoritar tizimning kamdan-kam hollarda qo'llaniladigan yana bir turi-malakali ko'pchilik ovozigga (umumiy ovozlarning 2/3, 3/4 qismiga) asoslangan majoritar tizim ham mavjud (masalan, Chilida parlamentning quyi palatasi - Deputatlar palatasiga saylovlarda shunday tizim qo'llaniladi). Biroq, bunda faqat juda oz nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bo'lganligi uchun, mandatlar, odatda, vakillikning proporsional tizimi bo'yicha taqsimlanadi. Har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki ko'p mandatli majoritar saylov tizimlari bo'lishi mumkin. Bir mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi. Ko'p mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir necha deputat saylanadi.

**METROPOLIYA** (yunon. metropolis meter – ona, polis - shahar) - koloniyalarga ega bo'lgan davlat. Dastlab qadimgi Yunonistonda yunonlar tomonidan asos solingan polislar va koloniyalarga nisbatan ishlatilgan. Davlatning o'z mustamlakasiga nisbatan munosabatini anglatgan.

**MILLIYLASHTIRISH (natsionalizatsiya)** – xususiy mulkchilikni davlat mulkiga aylantirishga qaratilgan davlat siyosati. Alohida shaxslar yoki aksionerlik jamiyatlari ixtiyorida bo'lgan yerlarga, sanoat korxonalariga, transport yoki boshqa mol-mulklariga nisbatan qo'llanilishgi mumkin. XX asrda milliylashtirish asosan davlatlar hududidagi xorij kompaniyalarga tegishli bo'lgan mulklarga nisbatan ko'proq qo'llanilgan holatni kuzatish mumkin. Masalan, Suvaysh kanalining milliylashtirilishi.

**MONARXIYA** (yunon. Monarchia - yakka hokimlik) - davlat boshqaruvi shakli. Bunda davlat boshlig'i monarx hisoblanadi. 2 turdagi monarxiya farqlanadi: 1) mutlaq (absolyut). Bu turdagi monarxiyada

monarxning (qirol, podsho, imperator, gersog, ersgersog, sulton, amir, xon, shoh va boshqalar) hokimiyatini cheklaydigan biror davlat organi bo'lmaydi; 2) konstitutsiyaviy monarxiya. Bunday boshqaruvda monarx hokimiyati konstitutsiya asosida amal qiladigan muayyan vakolatli organ bilan cheklangan bo'ladi, ya'ni qonunchilikni parlament, ijro hokimiyatini hukumat olib boradi. Ayrim mamlakatlarda davlat boshlig'i ayni vaqtda diniy rahbar ham hisoblanadi. Monarxiyalarda odatda hokimiyat merosiy tarzda avloddan-avlodga o'tadi.

**OLIGARXIYA** (yunon. Oligarchia - ozchilik hokimiyati) - davlat boshqaruv shakli bo'lib, unda siyosiy va iqtisodiy hukmronlik aristokratlar yoki boylarning kichik guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Atamani dastlab yunon yozuvchilaridan Aristotel, Polibiy o'z asarlarida qo'llashgan va uning yordamida boylarni ko'rsatmoqchi bo'lishgan.

Aristotel Sparta oligarxiyalarini eforlar deb ko'rsatgan bo'lsa, Karfagenda hokimiyat savdogarlar qo'lida deb aytgan.

Oligarxiyaning ko'rinishlari quyidagilar:

1. Hokimiyat ko'pchilik qo'lida bo'lib, asosan yirik-yirik boylar davlatni boshqaradi, ammo demokratik tartiblar qonun bilan ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

2. Kam sonli aholi qo'lida katta miqdordagi mulk to'planishi va ular tomonidan hokimiyatga intilishning kuchayishi bilan izohlanadi. Ammo ular qolgan aholining manfaatlarini cheklashga qonun yo'li bilan ham harakat qilishmaydi. Shu bilan birga ular doimo vaziyat o'zgarishi bilan barcha hokimiyatni o'z qo'llariga olishga va demokratik tartiblarni bekor qilishga tayyor turishadi.

3. Barcha lavozimlar xususiy mulk egalarining qo'lida bo'lib, ana shu lavozimlar odatda otadan farzandga meros bo'lib o'tadi va qonun ham mazkur tartibni himoya qiladi.

4. Xususiy mulkning miqdori juda katta miqdorda bir kishining qo'lida to'planishi bilan uning tarafdorlari soni ham keskin ravishda ortib boradi. Natijada sulolaviy boshqaruv shakllanib boradi.

1911-yil mashhur sotsiolog Robert Mixels «Oligarxiyaning temir qonuni» asarini nashrdan chiqaradi va unda demokratik davlatlarda ham oligarxiya hokimiyat tepasida bo'lishini AQSh misolida ko'rsatib o'tadi.

**PARLAMENT RESPUBLIKASI** - respublika shakllaridan biri bo'lib, bunda asosiy vakolatlar parlament ixtiyorida bo'ladi. Bunday

ko'rinishdagi respublikada hukumat prezidentning oldida emas, parlament oldida javobgar bo'ladi. Shu holatni parlamentar monarxiya bilan chalkashtirmaslik kerak. Parlament respublikasida hukumatni parlamentda ko'pchilik o'ringa ega chiqqan partiya deputatlari shakllantiradi. Ishonchni yo'qotgan hukumat o'z navbatida parlamentda deputatlarning ko'pchiligi qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'ladi. Bunday sharoitda hukumat iste'fo berishi yoki davlat boshlig'idan parlament tarqatishni va yangi saylovlarni belgilashiga erishishi mumkin. Bunday demokratiya tizimidagi saylovlar odatda partiya ro'yxati bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni saylovchilar nomzod uchun emas, partiya uchun ovoz beradi.

**PARLAMENTARIZM** - davlat hokimiyati tuzilishi. Bunda parlament imtiyozli mavqeyga ega bo'lib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarning funksiyalari aniq belgilab beriladi. Parlamentarizm hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida javob beradi. Parlamentarizm tarixi Angliyada 1215-yilda qabul qilingan «Erkinlikning Buyuk xartiyasi»dan boshlansada, XVI-XVIII asrlardagi inqiloblar davrida vujudga kelgan. Bu davrning ilg'or vakillari davlatni oqilona tuzish va tashkil qilish uchun hokimiyatni avvalo, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish kerakligini da'vat qilganlar va shu yo'l bilan mavjud davlat mexanizmi sistemasida mamlakatda qonun chiqarish va sudlovni amalga oshirish ustidan o'z nazoratini o'rnatishga, hatto hukumatni tashkil qilishda qatnashishga muvaffaq bo'lganlar. Natijada parlamentarizmning shakllaridan biri bo'lgan konstitutsiyaviy monarxiya (Angliya va boshqa mamlakatlarda) ta'sis qilingan. Ijtimoiy aloqalar tuzilishi murakkablasha borishi bilan ijro etuvchi hokimiyat (prezident, hukumat) vakolatlarining kuchayish jarayoni yuz bermoqda

**PERONIZM** (isp. Movimiento Nacional Justicialista, isp. Peronismo) - prezident Xuan Peron nomi bilan bog'liq Argentina siyosiy mafkurasi. Tanqidchilar peronizmni italyan fashizmi, shuningdek gollizm va frankizmning qorishiq nusxasi deb hisoblashadi.

**PREFEKTURA** (lot. *praefectura*) - hududiy birlik, yagona boshqaruvga ega bo'lgan viloyat, Rim imperatori Konstantin Buyuk davrida, IV asrdan boshlab qo'llanilib kelmoqda. Imperator Diokletian davrida imperiyaning to'rtta asosiy viloyati prefektura deb nomlanib, ular Sharq, Illirikum, Italiya va Galliya bo'lgan. Hozirda Fransiyada



prefektura ma'lum bir hududning markazi bo'lgan shahar tushuniladi va shu hudud boshqaruvchisi prefekt deyiladi. Shuningdek yevropaliklar tomonidan Yaponiyaning ma'muriy-hududiy birliklari ham prefektura deyilgan. Gretsiya va Albaniyada ma'muriy-hududiy birliklar ham prefektura deb ataladi.

**PREZIDENT** (lot. praesidens - oldinda o'tiruvchi) - 1) hozirda ko'pchilik (respublika shaklida idora qilinadigan) mamlakatlarda saylab qo'yiladigan davlat boshlig'i. BMT ga a'zo bo'lib kirgan 189 mamlakatning 140 dan ortig'ida prezidentlik lavozimi joriy qilingan (2000). Bunday boshqaruv shakli ilk bor AQShda 1787-yilda vujudga kelgan. O'zbekiston tarixida prezidentlik lavozimi 1990-yil 24-martda ta'sis etildi. 1991-yil 29-dekabrda esa muqobil asosda o'tkazilgan umumxalq saylovida Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi; 2) ayrim ilmiy va jamoat tashkilotlarida, partiyalar, jamiyatlar, uyushmalar (shu jumladan, xalqaro uyushmalarda ham) ijrochi organ boshlig'i prezident deb ataladi. Parlamentar respublikalarda prezident konstitutsiyada belgilangan muddatga parlament yoki asosini parlament tashkil etuvchi maxsus kollegiya tomonidan saylanadi. Prezidentlik respublikalarida prezident to'g'ridan-to'g'ri bevosita va bilvosita saylanadi.

**PREZIDENTLIK BOSHQARUVI** – favqulotda holatlar joriy etilganda davlat boshqaruvida qo'llaniladigan vaqtinchalik boshqaruv shakli. U, asosan, federativ tuzilishdagi davlat boshqaruvi (masalan, AQSh, Hindiston)da qo'llaniladi. Sub'yektlar federal konstitutsiya yoki qonunlarni, hukumatning qonuniy talablarini buzganda, inson huquqlari poymol etilganda, jiddiy tartibsizliklar ro'y berganda, federativ davlatning yagonaligiga xavf solinganda, kuchli zilzila, suv toshqinlari va shu kabilarda amalga oshiriladi. Prezidentlik boshqaruvi davlat boshlig'ining maxsus farmoni (dekreti) bilan e'lon qilinadi. Prezidentlik boshqaruvi paytida tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakolatlari to'xtatiladi, ularning vazifasini bajarish prezident tuzadigan organ yoki prezident tayinlagan mansabdor shaxs zimmasiga yuklanadi.

**RESPUBLIKA** (lot. respublica, res - ish va publicus - ijtimoiy, umumxalq) - davlat boshqaruvi shakli, unda barcha davlat hokimiyati organlari saylab qo'yiladi.

Hozirgi vaqtda jahondagi mamlakatlarning 140 dan ortig'i respublika tuzumidagi davlatlar hisoblanadi (2005 yilgi ma'lumotlarga ko'ra). XV asrda Leonardo Bruni «*republika*» atamasiga to'xtalib o'tadi.

Dastlabki respublikalar sifatida Gretsiya va Rimdagi boshqaruvni ko'rsatishadi («Afina demokratiyasi» va «Rim respublikasi»). Qadimgi respublikalar ikki xil ko'rinishda bo'lib, ular aristokratiya va demokratiyaga bo'lingan. O'rta asrlarda Shimoliy Italiyadagi ko'plab shaharlar va ularga qo'shni hududlar respublika tuzumida bo'lganlar. Ularda kommuna yoki Sinorlar boshqaruvi bo'lgan. Undan tashqari Shveysariya va ko'plab nemis shaharlari Gamburg, Bremen, Lyubek kabilarda ham respublika boshqaruvi amal qilgan. San-Marino (301-yildan boshlab), Dubrovnis respublikasi XIV asrdan 1808-yilgacha o'z mustaqilligini saqlab turgan. O'rta asrlar Rossiyada ham Novgorod respublikasi, Pskov respublikasi va Vyatsk yeri kabi respublikalar mavjud bo'lgan. Respublikaning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- Parlament respublikasi
- Prezident respublikasi
- Aralash respublika
- Sovet respublikasi
- Xalq respublikasi
- Demokratik respublika
- Islom respublikasi
- Federativ respublika

**SEPARATIZM** (lot. *separatus*, frans. Separatisme - ajratilgan) - ajralishga, alohidalikka intilish; davlatning bir qismini milliy, diniy, etnografik, siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko'ra, ajratib olib yangi davlat tuzilmasi tuzish yoki mamlakatning bir qismini muxtoriyatga aylantirish harakati. Separatizmning kuchayishi yoki pasayishi tashqi va ichki omillarga bog'liq bo'ladi. Mamlakat hududida har bir millat, elat, xalqning manfaatidan kelib chiqib siyosat yuritilsa, ularning har tomonlama rivojlanishi, o'zini shu mamlakatning teng huquqli fuqarosi sifatida his qilishi uchun huquqiy, siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsa, separatizmga o'rin qolmaydi va aksincha. Ko'pincha ichki sabablarni kuchaytiruvchi, gijgijlovchi, o'z maqsadi yo'lida foydalanuvchi kuchlar separatizmning paydo bo'lishi va kuchayishiga olib keladi. Tarixda separatizm harakatlari ko'p bo'lgan, ular aksariyat

hollarda mojarolarga, nizolarga olib kelgan va fuqarolar urushi orqali kechgan. Hozirgi vaqtda Turkiyaning kurdlar, Ispaniyaning basklar yashaydigan hududlari, Kanada Kvebekidagi harakatlari separatizmning ko'rinishlari hisoblanadi. Separatizmni milliy-ozodlik harakatidan farqlanadi. Separatizmni ikki ko'rinishga ajratish qabul qilingan: diniy va etnik. O'z maqsadiga ko'ra ham separatizm bir qancha guruhlariga bo'linadi. Birinchidan, alohida va mustaqil davlatga aylanish maqsadidagi separatizm, buning yorqin misoli sifatida Turkiyadagi kurdlar va Xitoydagi uyg'urlar separatizmini ko'rsatish mumkin. Ikkinchidan, ajralish orqali boshqa davlat tarkibiga qo'shilish maqsadidagi separatizm, masalan, Mo'g'ulistonga Xitoy Ichki Mo'g'iliston hududini qo'shish uchun harakat. Uchinchidan, davlat tarkibidan chiqmagan holda katta avtonomiya huquqlarni qo'lga kiritish maqsadidagi separatizm (masalan, Fransiya tarkibidagi Korsikaning o'z huquqlarini kengaytirish uchun kurashi).

**SOTSIALIZM** (lot. socialis ijtimoiy) – xususiy mulkni ijtimoiy mulkka aylantirish orqali erkinlik va tenglik baxt va farovonlikka erishish mumkinligi haqidagi ta'limot. Sotsializm tarafdorlari shu yo'l bilan qurilgan ijtimoiy tuzumni ideal jamiyat deb hisoblaganlar. Sotsializm atamasi Fransiya va Angliyada XIX asrning 30-yillarida (Sen-Simon, Furiye fikrlarida va Robert Ouen tajribalarida) muomilaga kirgan. Birinchi marta 1834-yilda Pyer Leruning «Individualizm va sotsializm» asarida atama sifatida ishlatilgan. Lekin ijtimoiy adolat jamiyati bilan bog'liq tasavvurlar “oltin asr” to'g'risidagi g'oyalarga borib taqaladi. Bu g'oyalarni asoschisi Platon hisoblanadi. Aristotel o'sha vaqtdayoq xususiy mulkchilikni yo'qotishga asoslangan jamiyat taraqqiyot yo'lining oxiri halokatli ekanligini takidlagan. Umumiy tenglik “oltin asr” borasidagi g'oyalar keyinchalik utopik Sotsializmning turlicha ko'rinishlarida o'z ifodasini topdi. K. Marks va F.Engels ishlab chiqqan ilmiy Sotsializm deb atalmish nazariyaga ko'ra, Sotsializm kommunizmning quyi fazasi hisoblanadi. Sotsializm ga 2 xil yo'l bilan erishish mumkin deb qarovchilar bo'lgan. Masalan T.Mor, T. Kampanella, G.B.Mabli, Marelli, N. Chernishevskiy, A. Bebel, va boshqalar uni tinch yo'l bilan amalga oshirish tarafdori bo'lgan. M. Bakunini, K. Marks, Parij kommunarlari, V.I.Lenin va boshqa qurolli qo'zg'alon yo'lini ilgari surishdi. 1990-yillarga kelib sotsializm mafkura sifatida o'zining ko'p sonli tarafdorlarini yo'qotdi (sotsializm tuzumi

inqirozi tufayli), bozor munosabatlariga bog'liq bo'lmagan siyosiy va sotsial falsafa sifatida rivojlanishda davom etdi.

**SUVERENITET** (nem. Souveranitat -, frans. souverainete – oliy hokimiyat) hokimiyatning ustunligi va mustaqilligi. Suverenitetni hurmatlash – xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarning asosiy prinsipi. U BMT ustavi va boshqa xalqaro hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaviy huquq fanida davlat Suvereniteti, millat Suvereniteti, Xalq Suvereniteti tushunchalari ishlatiladi. Davlat Suvereniteti – hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi. Davlat Suvereniteti haqidagi g'oya Jan Boden (XVI asr Fransiya)ga tegishlidir. Uning fikricha Suverenitet davlatning eng muhim belgisi hisoblandi. Bunda abadiy, mutlaq, bo'linmas oliy hokimiyat nazarda tutiladi. Davlat Suvereniteti tushunchasi keyingi davrlarda yanada rivojlantirildi va boyitildi.

**TOTALITARIZM** (lot. *Totalitas* - to'liq, yalpi, butun) - siyosiy tartib, davlat nazorati tizimi. Siyosatshunoslikda jamiyat va hokimiyat bilan aloqadorlikda deb ko'rsatiladi va har qanday siyosiy muxolifatga qarshi chiqishga nisbatan qo'llaniladi. Tarixiy tushuncha sifatida «totalitar davlat» (ital. *stato totalitario*) deb 1920-yillarda Benito Mussolini boshchiligidagi fashistik Italiya ko'rsatilgan. Totalitar davlatda qonunning cheklanishi, konstitusion huquqlarning buzilishi, repressiyalar, millatchilik kabilar asosiy o'rin egallaydi. Adolf Gitlerning Germaniyadagi, Iosif Stalinning sobiq SSSRdagi, Frankoning Ispaniyadagi, «qizil kxmerlar» ning Kampuchiyadagi, tolibonlarning Afg'onistondagi, Ahmat Zogu va Anvar Xo'janing Albaniyadagi, Kim Ir Sen va Kim Chen Irning Shimoliy Koreyadagi va boshqalarning tartiblarini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Totalitarizm atama sifatida XX asrdan boshlab ishlatila boshlangan bo'lsa-da, ammo qadimgi davrda ham shunday davlat boshqaruvi mavjud bo'lgan. Misol uchun, Aflotunning «davlat» tushunchasida ham aynan totalitarizmga o'xshash davlat boshqaruvi haqida fikrlar bildirilgan. Qadimgi Misr va Mesopatamiya, Xitoy kabi davlatlarda ham shunday boshqaruv amalda bo'lgan.

**TRANSIORDANIYA** - Iordan daryosining sharqiy hududlaridagi keng va sarhadsiz mintaqaning umumiy nomlanishi (salib yurishlaridan to 1946-yilgacha), qadimda Edom (Idumen) va Moav deb atalgan. Transiordaniya janubda Negev sahrosidan to Akab qo'ltig'igacha,

sharqda va shimolda aniq chegaralarga ega emas, g'arbda O'lik dengizgacha cho'zilgan. 1920-yillarda Buyuk Britaniya mandati ostida bo'lgan Falastinda inglizlarga bo'ysinuvchi va Falastin hududining  $\frac{3}{4}$  qismini tashkil etuvchi Abdulloh ibn Xusayn rahbarligidagi Transiordaniya knyazligi (amirligi) tashkil etiladi. 1946-yilda Transiordaniya o'mida mustaqil Iordaniya Hoshimiylar qirolligi tashkil topadi.

**UCHINCHI REYX** (nem. *Drittes Reich* - «uchinchi imperiya», «uchinchi podsholik») - fashistlar Germaniyasiga natsistlar bergan nom va u 1933-yil 24-martdan, 1945-yil 23-maygacha mavjud bo'lgan. Uchinchi reyx atamasi uch podsholik haqidagi o'rta asr mistik ta'limotiga asoslangan. «Uchinchi» yoki «ming yillik» reyx (dastlabki ikki reyx o'rta asrlarda mavjud bo'lgan «Muqaddas Rim imperiyasi» va 1871-1918-yillardagi Germaniya imperiyasi tushunilgan) haqidagi afsonada fashizm ijtimoiy taraqqiyotning «yakunlovchi» «oliy» bosqichi deb e'lon qilingan. Nemischa so'z «reyx» (*Das Reich*) tarjima qilinganda, davlat, imperiya ma'nolarini bildiradi.

Dastlab nemis yozuvchisi Myoller van den Bruk 1923-yilda nashr qilingan kitobida, birinchi reyx Muqaddas Rim imperiyasi (962-1806), Ikkinchi reyx- Germaniya imperiyasi (1871-1918) sifatida ko'rsatadi. Gitler 1925-yilda ana shu g'oyani o'z qarashlari uchun asos qilib oladi. Gitler hukumati ishsizlar sonini 6 million kishiga pasaytirdi. 1932-yildan 1937-yilgacha sanoat ishlab chiqarishi 102 %ga oshdi. 1940-yil harbiy sanoat yalpi ichki mahsulotning 15 % ini bergan bo'lsa, 1941-yil 19 %, 1942-yil 26 %, 1943-yil 38 %, 1944-yil 50 % ga yetgan.

Uchinchi reyx tarkibida Germaniya va unga qo'shib olingan hududlardan tashqari, Polsha bosib olingach, general-gubernatorliklar tashkil qilingan va ular quyidagilar: Niderlandiya, Norvegiya, Ukraina, Ostland, Moskoviya, Kavkaz, Turkiston Reyxskomissariatlari.

Uchinchi reyxning millatchilik, irqchilik, xalqlarni kamsitish, jismoniy yo'q qilishga asoslangan qarashlari keng targ'ib qilingan. Ammo ilm-fan taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratishgan. Shu maqsadda Kayzer Vilgelm jamiyatini tashkil qilib, unda fizika, kimyo, tibbiyot va boshqa fanlar bo'yicha alohida bo'limlar faoliyat olib borgan.

«Farben», «Seyss», «Simens», «Osram», «Telefunken» kabi ko'plab yirik konsemlar mazkur jamiyat bilan yaqindan hamkorlik qilardi. Ilmiy tadqiqotlar asosan qurollarning yangi turlarini yaratishga

qaratilgan. 1933-yil sentabrda Imperiya madaniyat palatasi tashkil qililib, uning asosiy vazifasi targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish edi. Uchinchi reyxning o'z bayramlari bo'lib, ular o'ntani tashkil qilgan.

**UNITAR** (lot. - birdamlik) davlat tuzilishi shakli, bunda hudud, federatsiyadan farqli o'laroq, muxtor qismlarga bo'linmaydi, balki faqat ma'muriy-hududiy bo'linishga ega bo'ladi. Har bir ma'muriy birlik belgilangan huquqlarga ega bo'lib, yagona konstitutsiya, huquqiy qoidalarga ega bo'ladi. Unitar davlatning asosiy belgilari quyidagilar:

Davlat mahkamalari uchun yagona huquqiy tartiblar butun mamlakat uchun amal qiladi.

Butun mamlakat uchun oliy davlat muassasalarining mavjudligi.

- Yagona qonunchilik tizimi;
- Yagona fuqarolik;
- Yagona pul birligi;
- Yagona davlat tili;

Unitar davlatning alohida qismlarining suveren huquqlari tan olinadi. Markazlashgan unitar davlatga Turkmanistonni misol keltirish mumkin. Bir avtonomiya davlatga Ukraina (Qrim avtonom respublikasi), ko'p avtonomiya davlatga Ispaniya, turli xil avtonomiya davlatlarga Xitoyni misol keltirish mumkin.

**UNIYA** (lot. birlashish) – yagona birlik. Shartnoma asosida bitta monarx yoki bir tomonlama akt orqali kuchli davlat hokimiyati ostiga birlashgan davlatlar ittifoqi (masalan, Shvetsiya, Daniya va Norvegiya birlashgan Kalmar uniyasi). Cherkov uniyasi ham bo'lib, bunda ikki yoki bir necha cherkovlar bittasi boshchiligida, boshqalarining o'ziga xos marosimlarini saqlagan holda uniyaga kiradi. Xalqaro huquqda uniyaning ahamiyati deyarli yo'q.

**XUNTA** (ispan. *junta* - «yig'in, qo'mita») - Ispaniya va ispan tili mamlakatlarda davlat boshqaruvdagi turli muassasalarni bildiradi. Misol uchun, Pinochet xuntasi. Portugal tili mamlakatlarda mazkur atama «junta» (port. *junta*) tarzida ishlatiladi. Zamonaviy rus tilida xunta so'zi harbiy diktatura manosida ishlatiladi va ular davlat to'ntarishini amalga oshirish orqali hokimiyat tepasiga kelgan deb ko'rsatiladi. Tarixda bir qancha harbiy xuntalar mavjud bo'lgan.

- Birinchi va ikkinchi Braziliya xuntasi (1930 va 1969).
- Nigeriya xuntasi (1966-1979 va 1983-1998).

- Gretsiya xuntasi, «Qora polkovniklar» yoki «Polkovniklar rejimi» (1967-1974).
- Peru xuntasi (1968-1980).
- Chili hukumat xuntasi (1973-1990).
- Efiopiya xuntasi (1974-1987).
- Argentina xuntasi (1976-1982).
- Polshadagi milliy qutqaruv harbiy qo'mitasi (1981-1983).

**SHOVINIZM** (frans. chauvinisme Napoleon I bosqinchilik siyosatining muxlisi fransuz askari Nicolas Chauvin ismidan olingan) - millatchilikning o'ta agressiv shakli. O'zga millatlarni kamsitish, tahqirlash, o'z millatini boshqa millatdan ustun qo'yish, milliy kalondimog'lik, milliy xudbinlik illatlarini o'zida mujassam etadi. Shoviniqlar g'oyaviy-nazariy jihatdan milliy manfaat va ustuvorlikka xizmat qilib, o'z g'oyalarini tazyiq va zo'rvonlik orqali amalga oshiradi. «Shovinizm» termini XIX asrning 30-yillarida Fransiyada paydo bo'lgan. Keyinchalik bu so'z milliy ekstremizmning turli ko'rinishlarini ifodalashda qo'llanila boshladi. Shovinizm biror boshqa millatning tarixiy taraqqiyot yutuqlari, insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, jahon tarixidagi o'rni, milliy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarini poymol qilishga harakat qilib, ayrim jihatlari bilan natsizm va fashizmga ham o'xshab ketadi. Shovinizm ko'p millatli davlatda ko'pincha bir millatning ustuvorligiga, cheksiz imtiyozlarga ega bo'lishiga olib keladi. Ba'zan esa muayyan davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlarini milliy manfaatlar niqobi ostida namoyon etib, o'zga davlatga tazyiq o'tkazishi ham mumkin. Bu hol buyuk davlatchilik shovinizmi sifatida ta'riflanadi. Shovinizm XX asrda dunyoning turli davlatlari va mintaqalarida o'zining mudhish maqsadlarini amalga oshirdi

**CHORIZM** – Rossiya podshosining yoki imperatorining (sar-O'rta Osiyo xalqlarida chor), cheklanmagan hokimiyatini asoslagan davlat tuzumi. Bolgariyada ham shunday podsholik bo'lgan

## 1.2. Davlat oliy kengashlari, tashkilotlari, siyosiy harakatlar va davlat xizmatchilari nomlari bilan bog'liq atamalar

**ADVOKAT** (lot. advocatus, advocare-yordamga chaqirish, taklif qilaman) - yuridik yordam ko'rsatuvchi shaxs, advokatlar fuqorolar

va fuqoroligi bo'lmagan shaxslarga yordam ko'rsatishadi. Advokatlik qadimiy kasblardan biri bo'lib, qadimgi Yunoniston va Rimda ularning xizmatlaridan barcha fuqarolar foydalanishlari mumkin bo'lgan. Bugungi kunda advokatlar jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, tergov harakatlari yuritilganda va sud majlisida, fuqaroviy ishlar sudida, xo'jalik nizolari xo'jalik sudlarida yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar sudya yoxud vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ko'rilganda ishtirok etadi, qonunda belgilangan vakolatga ega bo'ladi.

**AGENTURA** (lot. agens- harakatlanish) – odatda agentlar biror bir tashkilot yoki uyushmaga birlashgan holda faoliyat olib borishadi. Ana shunday uyushma yoki tashkilot agentura deyiladi. Biror davlat, tashkilot, ishlab chiqarish muassasasi va ayrim davlatlarda josuslik bilan shug'ullanuvchi agentlar ham mavjud yoki maxsus tashkil qilinadi. Agentlikka sinonim sifatida razvedka, maxfiy xizmat kabi so'zlar ishlatiladi.

**AD'YUTANT** (lot. adjutans, nem. adjutant – yordam beruvchi) – 1) boshliq (komandir, qo'mondon) huzurida turli topshiriqlarni bajaruvchi harbiy hizmatchi (zobit); 2) podsho Rossiyasi armiyasida shtab va boshqarmalarda harbiy devon mutasaddisi bo'lgan zobit lavozimi (katta polk, batalyon va divizion ad'yutanti); XVII asr 2-yarmida yasovul nomi bilab Rossiyada joriy etilgan, 1716- yilgi Harbiy Nizom bilan rasmiylashtirilgan; 3) monarx (podsho, imperator) huzuridagi harbiy mansablardan biri. General mansabidagi ad'yutant general-ad'yutant deb, zobit mansabidagisi fligel-adyutant deb atalgan.

**AMNISTIYA** (yunon. amnestia - kechirish, gunohidan o'tish) - oliy davlat hokimiyati organining xususiy akti, ayrim shaxslarni jinoiy jazodan ozod qilish, jinoyat ishini bekor etish, sudlanganlik maqomini olib tashlash yoki jazoni yengillatish to'g'risidagi qarori. Amnistiya xalq o'rtasida «umumiy afv» deb ham yuritiladi. Amnistiya aktini qo'llash ko'pincha gumanizmlilik bilan baholanadi, lekin aslida amnistiya aniq amaliy vazifalarni amalga oshirish uchun qo'llanildi: jazoni o'tash muassasalarni ortiqcha ko'paytirmaslik, ba'zan siyosiy maqsadlarda ham amalga oshiriladi (masalan, harbiy ziddiyatlarni to'xtatish uchun unda ishtirok etayotganlarga umumiy avf berilishi mumkin). Jahonning ko'pchilik davlatlarida amnistiya odatda katta bayramlar yoki yubiley sanalar oldidan chiqarilishi odat tusiga kirgan.



**ASESSOR** (lot. *assessor* – kiyintirilgan, burkangan) Qadimgi Rim va o'rta asrlar Yevropasida sud hokimiyati berilgan mansabdor shaxs; Rossiyada 8-darajali amaldor (kollej asessori): markaziy davlat idoralarida (XVIII asr), guberniya boshqarmalari qoshidagi (XIX–XX ars boshlari) mansab.

**BAN** (slav.) – 1) Xorvatiyada X asrdan 1921-yilgacha qirol noibi; qurolli kuchlar boshlig'i; 2) Bosniyada XII–XIV asrlarda hukmdor; 3) Yugoslavayada 1931–1941-yillarda viloyat (banovin) gubernatori; 1939–1941-yillarda muxtor Xorvatiya boshlig'i.

**BILL** (ingl. *bill*, lot. *bulla*-muhr, muhrli hujjat) – dastlab qo'lyozma, yorliq ma'nosiga ega bo'lgan. Asosan qonun loyihasi, Konstitutsiyaga tenglashtirgan hujjatlarning nomi.

**BOLSHEVIZM** (rus. *bolsheviki*-ko'plar) - Rossiya sotsial-demokratik ishchilar partiyasi (RSDRP) da Lenin boshchilik qilgan siyosiy oqim (fraksiya) vakillari. 1917-yil apreldan mustaqil siyosiy partiya tuzishgan. Bolshevizm tushunchasi RSDRP 2-syezdida (1903) Lenin tarafdorlari partiya rahbar organlariga saylovlarda ko'pchilik ovoz olganidan so'ng yuzaga kelgan. Shu sababli ular-bolshevik, kam ovoz olgan raqiblari esa-menshevik deb yuritila boshlagan. Bolshevizm g'oyasining asoschilari V.I. Lenin, N. Buxarin, E. Preobrajenskiy, Lev Trotskiy va Roza Lyuksemburklar hisoblanadi. I. V. Stalin Leninning Rossiyadagi barcha tarafdorlarini 1928–1939-yillarda yo'q qiladi va tor doirada «rus Bonapart-Robesperi» nomini oladi. XX asrning 90-yillari boshlariga kelib bolshevizm atamasi o'tmishga aylanib qola boshladi va o'zining ahamiyatini yo'qotdi.

**BOYARLAR DUMASI** – Rus davlatida dastlab knyazlar, so'ng podsho huzuridagi (1547- yildan) Oliy davlat kengashi. XIV asr oxiriga qadar asosiy hukmron sinf vakillarining jamoaviy kengashi. Boyarlar dumasi XVII asr oxiriga qadar faoliyat olib borgan va senat bilan almashtirilgan. Boyarlar dumasi–Moskva davlatining asosiy siyosiy organi bo'lib, unga faqatgina boyarlar kira olishardi. Boyarlar qadimiy slavyanlarda katta yer egalari hisoblanishgan. XVI asr boshlaridan Rusning Buyuk knyazlari дума tarkibiga oddiy dvoryanlarni kirita boshladi va dvoryanlarning mavqeini oshirib bordi. Boyarlar dumasining shakllanishida XIV va XV asrlar muhim bosqich hisoblanadi. Ivan Grozniyning faoliyati natijasida boyarlar dumasining mavqeyi pasayib

bordi. Pyotr davrida taxminan 1700-yillarda ham boyarlar dumasi faoliyat olib borgan bo'lsada, ammo ularning davlat boshqaruvidagi ishtiroki cheklab qo'yilgandi. 1711-yil 22-fevraldi Turkiyaga qarshi urushning e'lon qilinishi munosabati bilan mazkur vazifalar yangi tashkil qilingan senatga topshirildi va amalda boyarlar dumasining faoliyati tugadi.

**BUNDESRAT** (nem. Bundesrat, so'zma-so'z – «Federal kengash») – Germaniyada 1871-1918-yillarda parlamentning yuqori palatasi. GFRda 16 ta yerlarning (o'lka) vakillik organi. Hududdagi aholining soniga qarab taqsimlanadi, masalan, ikki million aholiga ega okruglar bundesratda uchta ovozga, 3-6 millionlik aholiga ega o'lkalar 4 ta ovozga ega bo'ladilar va shu taqlid ko'payib boradi. Muayyan hudud delegatsiyalariga shu hudud hukumatining boshlig'i raislik qiladi. Shu tariqa bundesrat orqali qonunchilik va ijroiya hokimiyati faoliyatida ishtirok etadilar. Bundesratda turli o'lka vakillaridan iborat bo'lgan jami 10 nafar doimiy a'zolar faoliyat ko'rsatadi. 2) Avstriyada parlamentning yuqori palatasi, Shveysariyada federal hukumat ham bundesrat deb ataladi.

**BUNDESTAG** (nem. Bundestag -federal majlis, Bund (ittifoq, federatsiya) tag, tagung (yig'in, majlis) - GFR parlamentidagi quyi palata-deputatlar palatasi, respublikaning oliy vakillik organi. 1949-yilda tuzilgan. Saylov tizimi bo'yicha 4 yil muddatga saylanadi. Saylovchilarning 5% idan kam ovozini olgan partiya bironta ham mandatga ega bo'lmaydi. 1871-yilda Germaniya imperiyasi tashkil topgach umumgerman parlamenti reyxstag chaqirilgan va vakolat muddati uch yil, 1888-yildan besh yilga oshirilgan. 1918-yil "noyabr inqilobi"dan keyin Germaniya monarxiyadan respublikaga aylandi va reyxstag o'z mavqeini saqlab qoldi. 1949-yilda G'arbiy Germaniyaning yangi konstitutsiyasiga muvofiq mamlakat parlamenti Bundestag deb atala boshladi. Bundestagning asosiy vazifasiga qonunlar qabul qilish, hukumat faoliyatini nazorat qilish, federal saylovlarni o'tkazish va boshqalar kiradi.

**BUNDESVER** – Germaniya qurolli kuchlari bo'lib, Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin o'n yil o'tib, 1955-yil 7-iyunda tashkil qilingan va shu kun Germaniya mudofaa vazirligi tashkil topgan kun sifatida nishonlanadi. Ammo mazkur nom Germaniyaning eski armiyasining nomi sifatida ishlatilmay keldi va faqat 1956-yildan boshlab yana

rasman ishlatila boshlandi. Germaniya armiyasini qayta tiklashga 1954-yil Parijda kelishildi va bu Germaniyadagi okkupatsion tartibning tugashi munosabati bilan amalga oshirildi. Shu orqali Germaniya NATOga ham qabul qilindi. 1994-yil 12-iyulda Germaniya Konstitutsion sudi nemis armiyasining xalqaro harbiy operatsiyalarda ishtirok etishiga doir qarorni qabul qilishi natijasida tinchlikni saqlash maqsadida harbiy kuchlarni dunyoning turli joylariga yubora boshladi. Bundesver quruqlik, harbiy-havo, harbiy-dengiz kuchlariga bo'linadi va 2000-yil uning tarkibida tibbiy-sanitar xizmati joriy qilindi. 2011-yil holatiga ko'ra, Bundesver tarkibida 204 ming harbiy xizmatchi va 75 ming fuqoro xizmat qilgan. 2001-yildan boshlab ayollar xizmati qonuniylashtirildi va 2006-yil armiyadagi xotin-qizlarning soni 6 mingdan oshib ketgan. Germaniya armiyasi saflaridagi musulmonlarning soni ortib borishi munosabati bilan 2011-yildan boshlab armiya tarkibida harbiy imom lavozimini joriy qilish borasida munozaralar bormoqda.

**BURGOMISTR** (nem. burgermeister) – ayrim mamlakatlar (Germaniya, Belgiya, Niderlandiya, Avstriya) mahalliy boshqaruv organlarida oliy mansabdor shaxs. Burgomistrlar mazkur organlarda yetakchi rolni o'ynaydi va markaziy hukumat vakili hisoblanadi. Munitsipal (mahalliy) xizmatchilarni ishga tayinlaydi va ishdan bo'shatadi. Budget tuzish, uni boshqarish ishlariga boshchilik qiladi.

**DAVLAT SIYOSIY BOSHQARMASI GPU** (rus tilida Gosudarstvennoye politicheskoye upravleniye, GPU) - sho'rolar davlatini muhofaza qilish maqsadida 1922 - yilda Butun Rossiya favqulotta komissiyasi o'rnida tuzilgan. 1923 - yilda siyosiy davlat boshqarmasi deb ataladi. Bu organ sobiq ittifoqda jumladan O'zbekistonda ham siyosiy qatag'onlar uyushtirgan.

**DEPARTIZATSIYA** (partiyasizlik) - partiyalar ustidan nazorat o'rnatish, ularning faoliyatini ta'qiqlash va davlat muassasalarida, hatto armiyani ham partiya tasiridan holi qilish. Bu jarayon odatda qonun yo'li bilan, parlamentning qarori va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Davlatlar ko'proq hududiy manfaatlarni yoki ozchilikning manfaati uchun xizmat qiluvchi partiyalar faoliyatini to'xtatishga urinishadi. Departizatsiya faqat mamlakat ichkarisida kuchga ega bo'ladi.

**DEPOLITIZATSIYA** (lot. de. qarshilik ma'nosini bildiradi va frans. politique-siyosat. Qo'shib yozilganda siyosatsizlik, siyosatdan holi bo'lish, ingl. depolitization va nem. entpolitisierung) - Sotsiologik jarayon bo'lib, bunda mamlakatdagi aholining ma'lum bir qismi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmaydi. Boshqa holatlarda esa davlatda hokimiyat tepasiga siyosiylashmagan yoki qonundan tashqari bo'lgan kuchlarning kelishiga nisbatan ishlatiladi.

**DEPUTAT** (lot. deputatus-vakil etilgan) - qadimda dastlab Vizantiya imperiyasida harbiy saflanishni nazorat qiladiganlar va jang maydonidan yaradorlarni olib chiqib ketuvchilar deputatlar deb atalgan. Bugungi kunga kelib davlat vakillik organining saylab qo'yilgan a'zosi. Deputatning asosiy vazifasi birinchi navbatda o'zi saylangan hudud saylovchi-fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Dunyodagi deyarli barcha davlatlarda deputatlar faoliyat olib borishadi.

**DIREKTORIYA** (lot va frans. directorium - boshqarma, rahbarlik) - Fransiya respublikasining 1795-1799-yillardagi hukumati. Hukumat 5 nafar a'zo (direktorlar)dan tashkil topgan. Direktoriya hukumati yirik burjuaziya manfaatini himoya qilgan. 1799-yil 9-noyabrda Napoleon Bonapart davlat to'ntarishi uyushtirib, direktoriyani ag'daradi va harbiy burjua diktaturasini o'rnatgan. Direktoriya Rossiya tarixida ham mavjud bo'lib, bu 1917-yilning sentabr-oktabr oylaridagi A. F. Kerenskiy boshliq besh nafar vazirlar kollegiyasidan iborat vaqtli hukumatni ko'rsatib o'tish mumkin. Undan tashqari Sibirning vaqtli hukumati (1918-yil iyul-noyabr) ham norasmiy ravishda direktoriya deb atalgan. 1918-1920-yillardagi Ukraina Xalq Respublikasining oliy organi ham direktoriya deyilgan.

**DOKTRINA** (lot. doctrina-ta'limot, fan, ta'lim, savodlilik) - ta'limot, ilmiy yoki falsafiy nazariya, siyosiy tizim, bosh nazariy yoki siyosiy prinsip. Leksik jihatdan "teoriya", "konsepsiya" tushunchalariga to'g'ri keladi. Siyosiy rahbarlik tamoyili. Sharqda doktorina iyeroglifi xitoychada 教 - *szhao*, yaponcha *kyo*, koreyscha *gyo* - falsafiy qarashlar ma'nosida qo'llaniladi. Islom ta'limotida doktrina Qur'on va hadislar orqali bildiriladi. Islom tarixining keyingi davrlarida islom ta'limotini

tartibga solish ishlari olib borilishi natijasida zamonaviy tartib va qoidalar majmuasi vujudga keldi.

**DUCHE** (ital. Duce - dohiy) - Italiyadagi fashistlar diktatori Benitto Amilkare Andrea Mussolinining unvoni. Qadimgi Rimda va Italiyada qabilalarning harbiy yo'l boshchilariga nisbatan ishlatilgan. Italiyada fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishi natijasida Mussolini Germaniya fashistlarining yo'l boshchisi Gitlarga nisbat qilib shu unvonni olgan. 1936-yilda Mussolini rasmiy ravishda «Benitto Mussolini janobi oliylari, hukumat boshlig'i, fashizm duchesini (dohiysi) va imperiya asoschisi» unvonini oladi.

**FYURER** (nemis. *Führer* - «dohiy», «yetakchi», «yo'l boshchi»), Germaniya 1934-1945-yillarda davlat boshlig'i va Natsional-sotsialist nemis ishchilar partiyasining (1921-1945), rahbari Adolf Gitlarning unvoni. «Fyurer» unvonini Gitler 1934-yil 9-avgustda Veymar respublikasi reyxsprezidenti Gindenburg vafotidan keyin oladi va mamlakatning prezidenti va reyxkansleri lavozimlarini birgalikda egallaydi. Germaniyada «bir xalq, bir davlat, bir dohiy» (nem. *Ein Volk, ein Reich, ein Führer*) shiori juda keng tarqaladi. Fyurer so'zining dunyo miqyosida Duche, Kaudimo, Konduktor, Dohiy va boshqa sinonimlari ham mavjud.

**GENERAL-GUBERNATOR** (rus. general-gubernator, ingl. *governor-general*) - bu atama ko'pincha mustamlaka hududlarini boshqarish uchun tayinlangan davlat boshlig'i yoki hukumatning vakilini anglatgan. Dunyoning qator davlatlarida qo'llanilgan. Masalan, hozirda Buyuk-Britaniya Hamdo'stligi mamlakatlari tarkibida bo'lib, ingliz qirolini davlat rahbari sifatida tan oluvchi ayrim davlatlarda (odatda, sobiq dominionlarda) ingliz qirolini nomidan ish yurituvchi mansabdor shaxslar. Odatga ko'ra, general-gubernatorlar ham ingliz qirolini ega bo'lgan barcha hokimiyatga ega bo'ladilar. To 1920-yilgacha general-gubernatorlar sifatida Buyuk-Britaniya hukumati tomonidan faqat britaniyaliklar tayinlangan bo'lib, ular shu dominiondagi Britaniya hukumatiga boshchilik qilgan. Hindistonda bu lavozim 1950-yilda bekor qilingan. Hamdo'stlik tarkibidagi 15 ta davlatda general-gubernatorlik hozirda ham saqlanib qolgan. 2) Rossiyada bu lavozim mahalliy ma'muriyatdagi oliy mansab sifatida Pyotr I hukmronligi davridan, 1703-yilda joriy qilingan. To 1917-yilgacha Chor Rossiyasida general-gubernatorlar mavjud bo'lgan. Uning qo'lida fuqarolik va harbiy

hokimiyat bulgan. 1775-yilda Rossiyada bir yoki bir necha guberniya yoki viloyat (oblast)lardan tashkil topgan ma'muriy-hududiy birliklar tuzilib, ularni boshqarish ham general-gubernatorlarga topshirilgan. Rossiya Turkistonni bosib olgandan so'ng, 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan. K.P.fon Kaufman Turkistonning birinchi general-gubernatori etib tayinlangan.

**GLAVKIZM** (rus) - "harbiy komunizm" davrida sovet xo'jaligi boshqaruv tizimi, yuksak darajada markazlashtirilgani bilan xarakterlanadi (1920-yili 50 tacha Glavklar bo'lgan: Glavneft, Glavsement, Glavodejda, Glavmuka va boshqalar). Boshqaruvning bu turi o'ta markazlashuvi, byurokratiyaning ildiz otishi, korxonalar musaqilligining batamom tugatilishiga olib kelgan. 1918-1920-yillarda amal qilgan bo'lib, uning faoliyati u qadar uzoq vaqt davom etmagan.

**KANSLER** (nem.*kanzler*, lot. *cancellarius*-kotib) – 1) O'rta asrlar feodal Yevropa davlatlarida qirol muhri saqlanuvchi qirollik devonxonasi va arxivga javobgar bo'lgan oliy mansabdagi shaxs kansler deb atalgan. Hozirgi kunda bir qancha davlatlarda oliy mansabdagi shaxs (masalan, Germaniya va Avstriyada federal kansler-hukumat boshlig'i; Buyuk Britaniyada xazina kansleri - moliya vaziri, lord-kansler-lordlar palatasining raisi); 2) Rossiyada 1917-yilgacha I-sinf (darajadagi) oliy grajdanlik mansabi. Odatda tashqi siyosat boshliqlari, tashqi ishlar kollegiyasi prezidentiga va tashqi ishlar vazirlariga berilgan. General-feldmarshal va general-admiral darajalariga to'g'ri kelgan. 1709-yilda joriy qilingan. Oxirgi marta 1867-yilda A.M.Gorchakovga berilgan. Rossiyada jami 11 nafar shaxs shu darajani olishga muvaffaq bo'lgan. 3) AQSh va Britaniya Hamdo'stligidagi davlatlarda oliy o'quv muassasalari rahbarlari ham shu mansab nomi bilan yuritiladi. AQShda universitetlarning nizomidan kelib chiqib kansler lavozimi universitet prezidenti lavozimiga almashtirilishi mumkin. Britaniya Hamdo'stligidagi davlatlarda oliy o'quv yurtlarida kansler lavozimi rasman universitet rahbari lavozimiga to'g'ri kelsa ham, ammo u ramziy ma'noni kasb etadi. Universitetni boshqarish vazifasi amalda vitse-kansler zimmasida.

**KAYZER** (nem. Kaiser, lot. Caesar yoki Sezar so'zidan) – germanlarda monarx unvoni. Qadimgi rimliklardagi "Sezar" (Caesar) unvonidan kelib chiqqan. Nemis tilida "imperator"ni anglatgan va barcha davrlardagi hukmdorlarga nisbatan qo'llanilgan. Yevropaning

boshqa tillarida Germaniya (1871-1918) ning 3 nafar imperatori: Vilgelm I, Fridrix III va Vilgelm II ga nisbatan ishlatilgan. Germaniya bu paytda "Kayzer Germaniyasi" deyiladi. Ba'zida Muqaddas Rim imperiyasi va Avstriya imperiyasi imperatorlarini anglatish uchun ham kayzer atamasidan foydalinilgan. Ba'zida Germaniyadagi siyosiy tarqoqlik davrida monarxning unvoni ma'nosida ham qo'llanilgan. Rossiyada XV-XVIII asrlarda Muqaddas Rim imperiyasi imperatorlari «Kesar» va «Sesar» so'zlari bilan izohlangan.

**KOMINTERN** (III kommunistik internatsional) – turli davlatlarning milliy kommunistik partiyalari kommunizm targ'ibotida va butun dunyoga inqilobni tarqatish maqsadida birlashtirgan xalqaro tashkilot. 1919-yilda bolsheviklar rahbari Lenin tomonidan Moskvada III internatsionalning 1-kongressida Zinovyev raisligida tashkil etilgan. 1920-yilda Moskvada o'tgan 2-kongressda dunyoning 37 ta davlatidan vakillar ishtirok etgan. Uning tarkibidan mo'tadil dasturlarga ega bo'lgan partiyalar majburiy chiqarib yuborilgan. 1943-yilda Stalin tomonidan komintern tarqatib yuborilgan, 1947-yilda o'zgargan Kominform – Yevropa kommunistlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kompartiyaning Informatsion byurosi tarzida qayta tashkil etilgan. 1956-yilda tarqatib yuborildi.

**KOMISSAR** (lot. *commissarius* «tayinlangan») - markaziy hukumatning biror bir hududni boshqarish uchun yuborgan vakili tushuniladi. Dunyoning ko'plab davlatlarida komissar lavozimi mavjud bo'lib, ular turli xil ma'noda qo'llaniladi. Rossiyada Pyotr I davridan boshlab ishlatila boshlangan va ular senatda, davlatga qarashli zavodlarda va boshqa joylarda faoliyat olib borishardi. 1765-1780-yillarda komissarlar ijro etuvchi lavozim egalari bo'lishgan bo'lsa, 1772-yildan uyezdlar boshqaruviga ham tayinlana boshlagan. 1917-yildagi voqealardan keyin Rossiyada guberniya va uyezd komissari lavozimlari joriy qilindi. Keyingi yillarda Xalq komissari (1917-1946), Davlat xavfsizligi komissari, militsiya komissari (1943-1973) kabi lavozimlar mavjud bo'lgan. Undan tashqari harbiy komissar (MDH va Rossiyada), Oliy komissar (odatda elchilar), Yevropa komissari, Italiya, Fransiya va Germaniyada politsiya komissari lavozimlari amalda.

**KONDUKATOR** yoki **KONDUKETOR** (rumincha *conduce* – "olib bormoq, yetaklamoq") - «yo'l boshchi», «dohiy», bir qancha rumin siyosatchilariga berilgan unvon, titul (Germaniyadagi «fyurer»,

Italiyadagi «duche» yoki Ispaniyadagi «kaudimo» ma'nolariga to'g'ri keladi). Birinchi marta qirol Karol II tomonidan o'z hukmronligining so'nggi yillaridan qo'llanilgan. Tezda 1940-yil 14-sentyabrida diktatorga aylangan marshal Ion Antonesku tomonidan qabul qilingan (bu vaqtda u rasman bosh-vazir bo'lgan). Keyinchalik Ruminiya sotsialistik respublikasi prezidenti Nikolay Chaushesku tomonidan 1968-yildan bu unvon qayta tiklandi. Ba'zan bu titul bilan birga kamdan-kam holatlarda «kirmach» (rum. carmaci—yo'l boshchi, rahbar) ham qo'llanilgan. Bu titul Chausheskuning shaxsiy hokimiyatini ko'rsatib, Valaxiya va Moldaviya knyazlari bilan ramziy bog'liqligini anglatgan.

**KONSERVATORLAR** (lot. «conser vator» - «muhofazakor», «saqlovchi») - konservativ qarashlar maslakdoshlari, u yoki bu islohotlar yohud o'zgarishlarga qarshilar. Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarda Konservativ partiya a'zolari. Konservatizm – an'anaviy qadriyatlar va tartiblar, ijtimoiy va diniy doktrinalarga g'oyaviy sodiqlik. Siyosatda – mavjud ijtimoiy va davlat tartiblari tarafdorlari bo'lib, «radikal» islohotlarga qarshilar. Tashqi iqtisodiy siyosatda proteksionizmga to'g'ri keladi. Konservatizm da asosiy e'tibor an'anaviy jamiyat, uning institutlari va qadriyatlarini saqlashga qaratiladi.

**KONSUL** (lot. maslahatchi) – 1) 1799-yilda Fransiyada tashkil etilgan oliy ijroiya, sud va qisman qonun chiqaruvchi hokimiyatni o'z qo'lida to'plagan oliy mansabdor shaxs; 2) bir davlatning boshqa davlat hududida o'z mamlakati fuqarolari manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga yordam berish uchun tayinlanadigan mansabdor shaxs.

**KORTES** (lot. va ispan, cortes-saroy, hovli) - o'rta asrlar Ispaniyada hududiy-tabaqaviy yig'inlar. XIX asrdan boshlab Ispaniya va Portugaliya davlatlarining parlamenti. Dastlabki korteslar 1137-yilda Leonda vujudga kelgan. 1188-yildan korteslarga shaharliklar a'zo bo'la boshlashdi va asosan ularning manfaatlarini ifodalardi. 1868-yildan korteslar konstitutsiyani tayyorlash ishlarini olib borishdi va keyingi davrlarda korteslar ikki palatadan iborat bo'la boshladi.

**LEYBORISTLAR** (*leyboristlar partiyasi*) (ing. *Labour Party* - Ishchilar partiyasi) - Buyuk Britaniyaning eng ta'sirli partiyalaridan biri. 1900-yilda Ishchilar vakilligi qo'mitasi nomi bilan tashkil etilgan. 1906-



yilda «Leyboristlar» nomini olgan. 1918-yilda partiyaning Nizomi – Leyboristlar Konstitutsiyasi qabul qilingan. Birinchi marta 1924-yilda hukumat tepasiga kelishgan. II jahon urushidan so'ng 1945-51, 1964-70, 1974-79-yillarda hukumatni shakllantirishga boshchilik qilgan. 1997-yilgi saylovlarda o'zlarining raqiblari bo'lgan konservatorlarni ortda qoldirishga erishgan. 2001-yilgi saylovlar ham bu partiyaning g'alabasi bilan yakunlangan. 2005-yilgi parlament saylovlarida leyboristlar 9 562 122 ovoz olib, Umum palatada 356 ta mandatga ega bo'lishgan (konservatorlar 198 ta mandatga qo'lga kiritgan). Shu yillardagi partiyaning muvaffaqiyati partiya islohotchisi Toni Bler nomi bilan bog'lanadi. 2007-yilda Toni Bler 2003-yilda boshlangan Iroq inqirozining cho'zilib ketganligidan norozi bo'lgan jamoatchilik bosimi natijasida iste'fo beradi. 2010-yildan leyboristlar muxolifatdagi partiya sifatida faoliyat olib bormoqda. Partiyaga keyingi yillarda Ed Milibend boshchilik qilmoqda.

**LIGA** (frans. *ligue*, lot. *ligare* - bog'lamoq) - jamoat yoki siyosiy birlashma, davlatlar ittifoqi yoki kishilarning o'ziga xos ittifoqi ham liga deb ataladi. Undan tashqari liga deganda uzunlik o'lchov birligi, musiqaga oid atama, katoliklar partiyasi, ayollarning ismi va boshqalar ham tushuniladi. Misol sifatida «Arab Davlatlari Ligasi», «Yevropa chempionlar ligasi» va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**LORD** (ingl. *lord* - janob, xo'jayin) - Buyuk Britaniyada dvoryanlik unvoni. Dastlab feodal qatlamidagi yer egasiga nisbatan ishlatilgan. Yevropaning boshqa davlatlarida ham shunday unvonlar mavjud bo'lgan va ular turli atamalar bilan izohlangan. XIII asrdan boshlab, Angliya va Shotlandiyada dvoryanlar parlamentda alohida palata tashkil qilib, uni "lordlar palatasi" (perlar palatasi) deb nomladi. Shu tariqa per unvoni beshta rangdan iborat bo'ldi va ular gersoglar, markizlar, graflar, vikont va baronlar. Lord unvoni aslida yuqorida ko'rsatib o'tilgan keyingi to'rtta rang uchun qo'llanilgan. Baron va boshqa unvonlar Angliyada keyingi davrlarga kelib lord atamasiga nisbatan kam ishlatiladigan bo'lib qoladi. Sababi Angliyada yuqori lavozimli kishilar va xo'jayinlarga nisbatan inglizcha *My Lord*, "mening janobim" so'zi keng miqyosda ishlatilgan. Aslida mazkur atama Angliyaga fransuz tilidan kirib kelgan. Perlardagi vorislik masalasi uzoq yillar eng katta o'g'il foydasiga hal bo'lib kelgan. Yangi zamon davrida katta yer egalarining mavqeyi pasayib, burjuaziyaning o'rni ortib borishi

bilan lord atamasi ismdan keyinga qo'shib aytiladigan va murojaat qilinayotgan kishining qaysi toifaga mansub ekanligini bildiradigan atamaga aylanib boradi.

**MANDAT** (lot. *mandatum* - topshiriq) - biror shaxsning vakolatini, muayyan narsaga huquqini tasdiqlovchi hujjat, masalan, deputatlik mandati. Saylov qonunchiligida bir mandatlik, ikki mandatlik yoki ko'p mandatlik saylov okrugi tushunchalari mavjud. Bu ana shu okrugda bir, ikki, uch yoki bir qancha deputatga ovoz berishni bildiradi.

**MAXARAJA** (sanskrit. «buyuk hukmdor») - Hindistonda knyazlarning unvonlaridan biri. Hindlar erishishi mumkin bo'lgan oliy unvonlardan biri. Tarixiy manbalarda mil. avv. II asrlarda Hindistonning katta qismi, Malakka, Sumatra va qo'shni orollarda hukmronlikni o'rnatgan hind qirolligi hukmdorining unvoni sifatida tilga olingan. Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylangach, ayrim vassal hind hukmdorlari ingliz hukumatidan shu unvonni olgan holatda hukmronlik qilgan. Masalan, Gvaliora, Indora, Vizyanagrama kabi hududlar maxarajalari.

**MER** (frans. *maire*, ingl. *mayor*, lot. *major* - katta, to'ng'ich) - Angliya, AQSh, Fransiya kabi mamlakatlarda o'z - o'zini idora qiluvchi mahalliy boshqarmada mansabdor kishi, ko'pincha shaharlarning hokimiga to'g'ri keladi. Ba'zi hududlarda, masalan, Litvada mer tumanlarni boshqaruvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

**OGPU** (Birlashgan davlat siyosiy boshqarmasi) - SSSR Xalq Komissarlar Kengashi huzurida 1923-yil 15-noyabrdan faoliyat ko'rsata boshlagan davlat xavfsizligini qo'riqlash idorasi. Keyin NKVD tarkibiga kiritilib, Davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasi deb o'zgartirilgan. OGPUni 1926-yil 20-iyulgacha F. E. Dzerjinskiy, keyin 1934-yilgacha V. R. Menjinskiy boshqargan.

**PARIJ KOMMUNASI** - Parij shahri mehnatkashlarning (1871-yil 26-mart - 26-may) tashkil etgan hokimiyat organi. Ular 92 kishidan iborat bo'lib, hukumatda ikkita fraksiyaga (ko'pchiligi blankachilar, kamchiligini prudonistlar tashkil qilgan) uyushgan edi. Parij Kommunasi ham qonunchilik, ham ijroiya hokimiyati vazifasini bajargan. Armiya o'miga Milliy gvardiya tashkil etildi, cherkov davlatdan ajratildi. Versalga qochib ketgan A. Tyer bilan kurash jarayonida faoliyatini olib bordi. Banklarni milliylashtirishdagi qo'rquv, passiv mudofaa taktikasi,

provinsiya va dehqonlar bilan hamkorlikka e'tibor bermaslik kabi omillar Parij Kommunasiyining qulashini tezlashtirdi.

**PARLAMENT** (frans. parler-gapirmoq) - demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Parlamentga o'xshash funksiyani bajaruvchi vakillik organining eng qadimgilari X asrda paydo bo'lgan Men orolidagi – Tinvold va Islandiyadagi – Alting hisoblanadi. 979-yilda tashkil topgan Tinvold o'zining butun tarixi davomida to'xtalishlarsiz faoliyat olib borgan bo'lsa, 930-yillar atrofida ilk bora chaqirilgan Alting garchi norasmiy yig'ilishlari o'tkazilgan bo'lsa ham, rasman 1801-1845-yillarda faoliyat ko'rsatmagan. Xalq vakillik organlari Qadimgi Rimda ham mavjud bo'lgan (xalq kengashi, oqsoqollar kengashi, Senat). Undan tashqari dunyoning turli davlatlari va xalqlarida komissiya, veche, qurultoy va shunga o'xshash kengashlar bo'lgan. O'rta asrlarga kelganda G'arbda tabaqaviy-vakillik tizimi keng tarqalgan (Fransiyada general shtatlar, Ispaniyada korteslar singari). Zamonaviy ko'rinishdagi parlament birinchi marta XIII asrda Angliyada qirolning hukumat a'zolari va taniqli amaldorlar bilan uchrashuvlari natijasida paydo bo'lgan. Simon de Monfor davrida (1265) qirolga qarshi turuvchi vakillik organiga aylangan. Odatda parlamentlar hokimiyat taqsimlanishiga ko'ra qonunchilik faoliyatini olib boradi, u yoki bu ko'rinishda ijroiya hokimiyatini shakllantiradi va uni nazorat qiladi (masalan, hukumatga ishonchsizlik bildirishi yoki prezident impechmentini joriy qilishi mumkin). Oliy vakillik organlari turli mamlakatlarda turlicha ataladi. Jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Belgiya va boshqa davlatlarda parlament; AQSh va Lotin Amerikasining aksariyat mamlakatlarida kongress, Rossiya Federasiyasida - Federal Majlis, Litva, Latviya, Polshada - seym, Ozarbayjonda - Milliy majlis, Qirg'izistonda Jogorku Kenesh, Ukrainada - Oliy Rada, Isroilda - Knesset, Mo'g'ulistonda - xural, Chernogriyada - Skupahina, Finlandiyada - Eduskunta, Shvetsiyada - Riksdag, Germaniyada - Bundestag va h.k. O'zbekistonda esa Oliy Majlis. Parlament bir palatali va ikki palatali tizim shaklida bo'ladi. Parlamentni tashkil qilish tartibi, vakolat muddati, vakolat doirasi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, ular Konstitutsiya hamda qonunlarda belgilab qo'yiladi.

**PARTIYA** (lot. partio - bo'laman, ajrataman) - g'oyaviy jihatdan maslak-dosh, manfaatlari mushtarak bo'lgan siyosiy guruhlar.

Davlatlarda hokimiyatga kelish uchun bir guruh yoki bir soha kishilarining jamoasiga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi, xalqaro savdoda bir manzilga bir vaqtda jo'natilgan tovarlar, sport va asosan shaxmatda esa muayyan natijagacha o'tkaziladigan o'yin. Musiqa, geologiya va boshqa sohalarda ham partiya so'zi keng qo'llaniladi.

**RADA** (g'arbiy slavyanchada. rada-kengash, nem. Rat - kengash) - turli slavyan (slavyan bo'lmagan) davlatlarda xalq kengashi, veche yoki parlament shu nom bilan yuritiladi. Tarixda Buyuk Litva knyazligida hukmdor boshchiligidagi oliy maslahat kengashi «Pani Rada» deb atalgan bo'lib, u magnatlar va oliy ruhuoniylardan tarkib topgan. Hozirda masalan Ukraina Oliy Radasi – so'zma-so'z Ukraina Oliy Kengashi 450 deputatdan iborat bo'lgan bir palatali Ukraina parlamenti shu nom bilan ataladi.

**REYXKANSLER** (nem. *reichskanzler* so'zma so'z «imperiya kansleri») - rasmiy ravishda Germaniyada 1871-1945-yillarda hukumat rahbarining nomlanishi (1918-yil noyabrdan, 1919-yil avgustga qadar). Kayzer Germaniyasida (1871-1918) reyxskansler kayzerdan mustaqil siyosat yurita olmagan va unga bevosita bo'ysungan. Veymar respublikasida (1919-1933) bu lavozim reyxspresident deb atalgan. 1933-yil 30-yanvarda Adolf Gitler reyxkansler lavozimini egallagandan keyin fyurer va reyxskansler so'zlari bir ma'noda qo'llanila boshladi. 1945-yil Gitlerning o'limidan keyin Yozef Gebbels 30-apreldan 1-maygacha bir sutka davomida reyxkansler lavozimini egallab turgan.

**REYXSRAT** (nem. Reich - davlat va Rat - kengash) - 1919-1934-yillarda Germaniya parlamentining o'lka va viloyatlar vakillaridan iborat bo'lgan, qonunchilik va boshqaruv masalalari bo'yicha mas'ul palatasi. Natsistlar (millatchilar) tomonidan 1934-yilda Germaniyaning federativ tuzilishi bekor qilingan paytda tarqatib yuborilgan. Reyxsrat asosan ikki palata: yuqori (Hukmron palata, *Herrenhaus*), va quyi (Deputatlar palatasi, *Abgeordnetenhaus*) dan iborat bo'lgan. 1883-yildan boshlab Reyxsrat majlislari parlament binosida o'tkaziladigan bo'ldi. Reyxsrat tushunchasi dastlab 1848-1849-yillardagi inqilob va Mart Konstitutsiyasi (1849), natijasida ishlatila boshladi. Avstriya monarxiyasi bo'linganidan keyin (Avstriya va Vengriya) Reyxsrat faqatgina imperiyaning Avstriya qismi uchun qaror qabul qila boshladi xolos. 1915-yilgacha Avstriya Reyxsrati rasman *die im Reichsrat*

*vertretenen Königreiche und Länder (qirollik va yer masalasi Reyxsrati)* deb nomlangan. Reyxsratning quyi palatasi uchun oxirgi saylovlar 1911-yilda bo'ldi va uning a'zolari 1918-yilgacha faoliyat ko'rsatishdi.

**REYXSTAG** (nem. Reich - davlat, Tag - majlis)- 1867-yildan 1945-yilgacha Germaniya parlamentining nomi. Yalpi saylov huquqi asosida saylangan. Hukumat reyxstag oldida javob bermas edi. 1933-1945-yillarda u rasman saqlanib, hukumat bayonotlarini (reyxstag nomidan) e'lon qilishda qulay vositaga aylandi. Parlament nomi reyxstag deyilardi. O'tmishda ham mavjud bo'lib ular quyidagilar:

- Reyxstag (Muqaddas Rim imperiyasi) - Muqaddas Rim imperiyasining oliy tabaqaviy-masul organi;
- Reyxstag (Germaniya imperiyasi) - Kayzer Germaniyasi (1871-1918) ning parlamenti;
- Reyxstag (Veymar respublikasi) - Veymar respublikasining va amalda Uchinchi reyx (1918-1945) ning parlamenti.;
- Reyxstag (Shimoliy Germaniya ittifoqi) - Shimoliy Germaniya ittifoqi parlamenti;
- Reyxstag (bino) - Berlindagi mashhur inshoot, unda Bundestagning majlislari o'tkaziladi.

**REYXSVER** (nem. Reich - davlat va Wehr - mudofaa) - 1919-1935-yillarda Germaniya qurolli kuchlari. 1919-yilgi Versal tinchlik shartnomasi asosida tashkil etilgan. 115 ming kishiga tushirilgan armiya va cheklangan kemalarga ega. Mamlakat mudofaasini ta'minlash maqsadida Reyxstag 1921-yil 23-mart kuni Germaniya qurolli kuchlari (Reichswehr) quruqlikdagi armiya (Reichsheer) va harbiy-dengiz floti (Reichsmarine) to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Reyxsver vaziri o'z navbatida harbiy-dengiz floti, quruqlikdagi qo'shinlarni ham bevosita boshqarardi.

Quruqlikdagi qo'shinlarning boshqaruvi beshta boshqarmadan iborat bo'lgan.

1. Qo'shin boshqarmasi (Truppenamt) - amalda bu bosh shtab vazifasini bajargan;
2. Kadrlar boshqarmasi;
3. Xo'jalik boshqarmasi;
4. Harbiy qurollar boshqarmasi;
5. Ma'muriy boshqarma.

Turli yillarda Reyxsverni Noske Gustav (1919-1920) Gessler Otto (1920-1928), Gryoner Vilgelm (1928-1932), Shleyxer Kurt fon (1932-1933), Blomberg Verner fon (1933-1935) va boshqalar boshqarishgan. 1935-yil 16-martda Germaniya bir tomonlama tarzda Versal shartnomasining harbiy moddalarini bekor qildi va yalpi harbiy majburiyatni joriy etdi

**SENAT** (lot. Senex - qariya) - 1. Qadimgi Rimda respublika davrigacha urug' oqsoqollarining (dehqon arsitokratiyasi va patritsiylar vakillari) yig'ini. Mil. avv. IV asr oxiridan Rim senatiga plebeylar ham saylana boshlagan. Odatda senatorlarning soni 600 kishidan oshmagan. Sezar davrida senatorlar soni 900 taga yetgan. Mazkur konsultativ (maslahat) organ merosiy (patritsiylarda) va umrbod (sobiq mansabdor shaxslar, ya'ni magistratlar) a'zolaridan iborat bo'lgan. Senat majlisini katta magistratlar sifatida konsullar boshlab bergan, qabul qilingan qaror bo'lsa Xalq kengashida tasdiqlangan. Qarorni xalqqa e'lon qilishdan oldin faoliyatdagi barcha darajadagi magistratlar uni senatga havola etishi kerak bo'lgan. Trakx davridan boshlab bu an'ana buzila boshlangan. Rim senati nufuzi ko'p jihatdan a'zolarining obro' va boyliklariga bog'liq bo'lgan. Ba'zan hatto imperatorlar ham rasmiyatchilik uchun «otalar» bilan maslahatlashishga majbur bo'lganlar. To eramizning III asrigacha barcha Rim tanganlarida «Senat dekretiga asosan» degan yozuv bo'lgan. 2. Rossiyada Pyotr I davrida, 1711-yilda tashkil etilgan qonunchilik vakolatiga ega bo'lgan oliy davlat boshqaruv organi ham senat deb atalgan. Senat tarkibiga kollegiyalar prezidentlari, general-prokuror, shuningdek, shaxsan monarxning o'zi tomonidan tayinlanadigan shaxslar kirgan. Keyinchalik qonunchilik vakolatini yo'qotdi va imperiyaning sud-appelatsiya mahkamasiga aylanib qolgan. 3. Hozirda ba'zi davlatlarda davlat hokimiyatining oliy organlaridan biri bo'lib, ko'pincha qonunchilik kengashining (parlamentlarning) yuqori palatasiga nisbatan ishlatiladi (masalan, AQSh senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini Senati).

**SEYM** (polyak.-sejm) - Polsha, Litva, Chexiya va Sharqiy Yevropaning boshqa ayrim davlatlaridagi tabaqaviy-vakolatli organlarning umumiy nomlanishi. Rech Pospolitay tarkibida Polsha qirolligi va Buyuk Litva knyazligining 1569-yildagi birlashuvi natijasida XVI-XVIII asrlarda birlashgan davlatning oliy vakolatli organi vazifasini bajarib kelgan. Keyingi davrda ham Polsha, Litva (1922-40-

yillar va 1992-yildan boshlab) va Latviyada (1922-1934) oliy qonun chiqaruvchi organning nomi. Seym turli davlatlarda va davrlarda turli ma'nolarda qo'llanilib kelgan. Rech Pospolitaya seymi - asrlar davomida tabaqaviy organ vazifasini bajarib kelgan. Polsha qirolligining seymi - Rossiya imperiyasi tarkibidagi Polsha podsholigining oliy qonun chiqaruvchi organi (1815-1831). Polsha Xalq Respublikasining bir palatali parlamenti (1947-1989). Finlyandiya seymi (Eduskunta) - Finlyandiya Buyuk knyazligi parlamenti. Bugungi kunda seym Polsha Respublikasi parlamentining quyi palatasi, Latviya parlamenti va Litva parlamentlarining umumiy nomidir.

**SIYOSIY PARTIYA** – o'z oldiga davlat hokimiyatini boshqarish huquqini saylov yo'li bilan qo'lga kiritish uchun kurashuvchi u yoki bu sinfning, qatlamning ilg'or, ongli, uyushgan qismini birlashtirgan tashkilot.

**SOVXOZ** (Sovetskoye xozyaystvo yoki sovet xo'jaligi so'zining qisqartmasi) - sobiq SSSR da qishloq xo'jaligidagi tashkilotlarning nomlanishi. Sovxozlarning ishchilari yollanma ishchi hisoblanib, ular oylik maosh bilan taminlangan. Sovxozlarni tashkil etish borasidagi dastlabki rejalar 1917-yildagi "Aprel tezis"ida berib o'tilgan. 1917-yilning 9-noyabridagi "Yer to'g'risidagi" dekretida katta yer egaligi o'mida sovxozlarni tashkil qilish haqidagi fikrlar bildirilgan. Sovxozlarning yer maydoni 1918/1919 - 2090 ming ga; 1919/1920 - 2857 ming ga; 1920/1921 - 3324 ming ga; 1921/1922 - 3385 ming gani tashkil qilgan. Sovxozlarni tuzishdan maqsad birinchi o'rinda don va don mahsulotlari yetishtirishni oshirish bo'lgan. 1930-yillardan boshlab sovxozlarning tarkibi va ularning tuzilishi borasida ko'plab ishlar amalga oshiriladi. Ayniqsa MTP (mashina traktor parki) lar ko'plab tashkil qilinadi. 1991-yildan keyin sovxozlar sobiq SSRning parchalanishi natijasida o'z mavqeyini yo'qota boshlaydi va ularning ko'pchilik qismi ochiq aksionerlik jamiyatlariga aylantirila boshlaydi.

**TA'SIS MAJLISI** – mamlakat hayotiga oid biror-bir muhim masalani hal etish uchun oliy vakolat berilgan va shu tufayli parlament vazifasini ham bajaruvchi majlis.

**TERMIDOR** (yunon. issiq, jazirama+xadya) – 1. Yakobinchilar joriy etgan yangi kalendardagi iyul oyining nomi. 1793-yil oktabridan 1806-yil 1-yanvarigacha muomalada bo'lgan. 2. 1794-yil 27-iyulda

(respublika kalendariga ko'ra 2-yil, termidor oyining 9 kuni) davlat to'ntarishi ishtirokchilari termidorchilar deb atalgan. Uning natijasida yakobinchilar diktaturasi ag'darildi va Direktoriya (1795-1799) o'rnatildi.

**TIYUL** – amaldorlarga xizmat vazifasini bajarish muddatiga yo'shoh oldidagi alohida xizmati uchun vaqtincha yoki umrbod muddatga beriladigan yer-mulk. Bunday yerlarni meros qoldirish mumkin bo'lmagan. Taxminan VIII asrdan boshlab merosiy ko'rinishni kasb eta boshlagan.

**TRED-YUNIONLAR** (ing. «trade» - «hunar, kasb» + «union» - birlashma») - ingliz kasaba uyushmalari harakatidagi oqim. Buyuk Britaniya va boshqa ingliz tilli davlatlarda kuzatiladi. Asosiy maqsadi hayotning iqtisodiy shart-sharoitlarini yaxshilash uchun kurash bo'lgan. O'z kurashi yo'lida tred-yunionlar 1868-yilda Britaniya tred-yunionlari kongressi (BTK) tashkil etilgan. Mazkur kongress 1871-yilda parlamentda kasaba-uyushmalarining manfaatini himoya qilish uchun parlament qo'mitasini tashkil etadi. 1889-yildan boshlab BTK mamlakat siyosiy hayotida ishtirokini faollashtirib yubordi va uning natijasida 1900-yilda Ishchilar hukumati qo'mitasi tuzildi. 1906-yilda bu qo'mita Leyboristlar partiyasiga aylandi.

**TRIBUNAL** (lot. tribunal «kreslo»). sud qilish joyi, alohida sud ma'nolarida qo'llaniladi. Qadimgi Rimda xalq tribunlarining o'tiradigan joyi bo'lib, ular sud ishlarini amalga oshirishgan. O'rta asrlarda inkvizitsiya ham tribunal deb nomlangan. XVIII asr oxirida Fransiyadagi inqilob davrida siyosiy jinoyatlarga doir ishlarni ko'rib chiqqan favqulodda sudlar. Rossiyada *tribunal* - Pyotr I davridan boshlab amalga oshirila boshladi). Ayrim mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlaridagi harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslar xizmat vaqtidagi jinoyat ishlari va ba'zi bir boshqa ishlarni ko'rib chiquvchi sudlar, shuningdek Xalqaro harbiy tribunal ham mavjud. Polsha konstitutsion sudi ham Konstitutsion tribunal deb qayta nomlangan.

**VITSE...** (lot. Vice - o'miga) - qo'shma so'zning tarkibiy qismi bo'lib, yordamchi, o'rinbosarlik lavozimi ma'nosi ifodasini anglatadi. Masalan, vitse-qirol, vitse-prezident, vitse-admiral). Ba'zi manbalarda lotincha «vices»- majburiyat degan ma'noni berib, biror bir majburiyatni



bajarishni, ya'ni qirol vazifasini – vitse-qirol, admiral vazifasini – vitse-admiral anglatadi deb keltirilgan.

**VITSE-PREZIDENT** – Prezident o'rinbosari ma'nosida qo'llanilib, ayrim davlatlarda (AQSh, Lotin Amerikasi mamlakatlari va boshqalarda) davlat boshlig'ining o'rinbosari, qoida bo'yicha, prezident bilan bir vaqtda saylanadi. U odatda maxsus vakolatga ega bo'lmaydi va prezidentning topshiriqlarini bajaradi, prezident lavozimidan chetlashtirilsa, vafot etsa, iste'foga chiqsa va boshqa hollarda prezidentning vakolatlari va vazifalari Vitse-prezidentga o'tadi. Vitse-prezident lavozimi asosan AQSh, Lotin Amerikasi, Afrika davlatlarida mavjud, Yevropada esa faqat Bolgariya va Shveysariyada mavjud. Undan tashqari ko'plab akademiyalar, ilmiy jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatlari, kompaniya va korporatsiyalarning rahbarlari o'rinbosarlari ham shu atama bilan nomlanadi. XVIII asrdan boshlab Rossiyada fanlar akademiyasida vitse-prezident lavozimi joriy qilingan.

**VITSE-QIROLLIK** (qirol o'rinbosari) – mustamlakachilik tizimining bir ko'rinishi bo'lib, mustamlaka yeriga boshliq vazifasini bajaruvchi shaxs bu yerda cheklanmagan vakolatlarga ega bo'ladi va to'g'ridan-to'g'ri mustamlakachi davlat hukmdorining o'rinbosari hisoblanadi. Odatga ko'ra, vitse-qirollik lavozimi merosiy emas. Turli davrlarda Ispaniya, Buyuk Britaniya, Portugaliya, Italiya, Neapol, Shvetsiya davlatlarida vise-qirolliklar mavjud bo'lgan.

**PREZIDIUM** (lot. praesidium-raislik qilish) - majlis, kengashni bamaslahat olib borish uchun saylangan shaxslar guruhi, hay'at; ayrim jamoat tashkilotlari, ilmiy muassasalar va boshqalarning doimiy rahbar organi.

**PROFESSIONAL PARLAMENT** – deputatlari doimiylik asosida ishlaydigan, asosiy vazifasi qonun yaratishdan iborat bo'lgan parlament.

**SKUPSHINA** (serb. skupiti - to'plamoq, umumiy, birgalikda) - aksariyat Bolqon davlatlaridagi (Serbiya, Chernogoriya, Bosniya va Gertsogovina) saylov asosida shakllantiriladigan xalq vakillari kengashi, parlamentning nomlanishi.

**SYEZD** - siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijtimoiy, professional va boshqa guruhlar vakillarining yig'ini. Syezd odatda partiya va boshqa oliy organlarning yig'ini sifatida saylab qo'yilgan

boshliq yoki rais tomonidan boshqariladi. Aynan syezd tashkilotlarning rahbariyatini saylashni va boshqa muhim masalalarni amalga oshiradi. Syezdlar reja bo'yicha bir yilda bir bora yoki besh yilda bir bora o'tkazilishi mumkin. Navbatdagi syezd o'tayotgan syezdda belgilab olinadi. Agarda juda muhim masala yuzasidan qaror chiqarish, kechiktirib bo'lmaydigan muammolarni hal qilish zarurati paydo bo'lsa, tashkilotning navbatdan tashqari syezdi o'tkazilishi mumkin.

### 1.3. Qonunlar, qarorlar va huquqiy xujjatlar bilan bog'liq atamalar

**EDIKT** – (lot. *edictum* - e'lon va *edicere* - e'lon qilmoq), qirolning alohida muhim farmoni. Huquqiy hujjat sifatida akt, dekret kabi so'zlar bilan bir manoda ham qo'llaniladi. «Edikt» atamasi qadimgi Rim huquqida birinchi bor qo'llangan. Rimda edikt hukumat tomonidan chiqarilgan yozma qarorlar, mahalliy buyruqlar sifatida tushunilgan. Rimda ediktni *edil* va *proter* sifatida ham aytishgan. Milodiy II asrda rimlik huquqshunos Salviy Yulian imperator Adrianning buyrug'i bilan Pretor edikti («Abadiy edikt»)ni tuzib chiqadi. O'rta va yangi zamon davrida edikt G'arbiy Yevropa davlatlarida qirollarning farmoni sifatida tushunila boshladi. Vorns edikti (1521), Sen-Jermen edikti (1562), Nant edikti (1598), Restitutsion edikti (1629), Potsdam edikti (1685) kabi hujjatlar o'rta va yangi zamon davrida imzolangan.

**DISKRIMINATSIYA** (lot. *diskriminatio* - farqlash) - davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlarining (boshqa davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlariga nisbatan) cheklanishi. Demokratik davlatlarning ichki qonunlarida hamda xalqaro huquqda diskriminatsiyaning barcha shakllari, jumladan, fuqarolar huquqlarini millati, irqi, jinsi, dini sababli amalda yoki yuridik jihatdan kamsitishga yo'l qo'yish ta'qiqlanadi.

**DEKRET** (lot. *decretum*-farmon,qaror) - oliy hokimiyat yoki boshqaruv organi yoki mansabdor shaxsning chiqargan va qonun kuchiga ega bo'lgan qarori. Qadimgi Rimda hokimiyat kollegial organi, xususan, senat va sud ishlari bo'yicha protorning chiqargan qarorlari dekret deb atalgan. Buyuk fransuz inqilobidan keyin Konvent va Fransiya Respublikalarining qonunchilik organlarining chiqargan qarorlari shu nom bilan atalgan. Natijada ijroiya hokimiyat boshlig'i (davlat boshlig'i) tomonidan chiqarilgan boshqaruv va qonunlarning ijrosi nuqtai nazaridan chiqarilgan buyruqlari dekretlar deb atala

boshlandi. Ko'pincha qonun kuchiga teng, ba'zan uning o'rmini bosadigan hujjatga aylangan. Sobiq SSSRda 1936-yilgacha davlat hokimiyati oliy organlarining eng muhim hujjatlari ham shu nom bilan atalgan. Hozirgi Fransiyada dekretni prezident va bosh vazir chiqaradi, bunda prezident dekreti bosh vazir yoki tegishli vazir imzo chekkandan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi. Ba'zi mamlakatlarda sud chiqargan qarorlar ham shunday ataladi.

**FAVQULODDA SUD** – alohida voqealar, hodisalar yoki sharoit talabi bilan joriy etiladigan sud.

**FAVQULODDA HOLAT** - ma'lum bir hududda avariya, xavfli tabiiy holatlar, ofatlar, stixiyali yoki boshqa turdagi falokatlar natijasida vujudga kelgan vaziyat. Buning natijasi kishilarning o'limiga, sog'ilig'iga yoki o'rab turgan atrof-muhitga zarar yetkazishi, ma'lum bir moddiy talofotlarni va insonlarning hayot sharoitining buzulishiga olib kelishi mumkin. Urushlar, mahalliy va mintaqaviy ziddiyatlar, ochlik, yirik ish tashlashlar, ommaviy tartibsizliklar, yong'inlar, turli xil tabiiy ofatlar favqulodda holatga sabab bo'lishi mumkin. O'z navbatida bir favqulodda holat boshqa favqulodga olib kelishi mumkin.

**GOMRUL** (ingl. *Home rule* «o'z-o'zini boshqarish») - Irlandiyada XIX-XX asrlarda avtonom huquqni talab qilib chiqqan harakat bo'lib, irlandiyalik liberal Ayzek Batt boshchiligida 1869-yilda vujudga kelgan. 1870-yilda Irlandiya o'zini-o'zi boshqarish assotsiatsiyasi tashkil qilinadi. 1874-yilda gomrul rahbari Charlz Styuart Parnell bo'lib, Liberallar partiyasi yetakchisi Uilyam Yuart Gladston (1886 va 1893) bilan ittifoqga kirishadi. Angliya tomonidan Irlandiyaning (Shimoliy Irlandiyadan tashqari) to'la mustaqilligi 1921-yil 6-dekabrda tan olinadi.

**GOMSTEDLAR TO'G'RISIDAGI QONUN** – AQSHda g'arbdagi bo'sh yotgan katta yer jamg'armasini fermer xo'jaligi yuritishni istagan shaxslarga bepul bo'lib berish to'g'risidagi qonun. 1863-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. XIX asrning o'rtalaridan boshlab AQShda g'arbdagi hududlarga ko'chish ommaviy tus ola boshladi. 1830-yillarda liberallar O'rta G'arbdagi yerlarni tekin tarqatishga harakati natijasida kishilarning g'arbgaga yurishi boshlanib ketdi. Avraam Linkoln prezident saylovlaridan keyin g'arbgaga ko'chishni qonuniylashtirishga kirishdi. Bo'sh yotgan deb hisoblangan joylardan har bir oilaga 160 akr (65 gektar) yer ajratilib juda kam 10 dollarga sotila boshladi. Qonun

chiqishi natijasida 2 mln gomstedlar berilib, uning umumiy maydoni 285 mln akr yoki 115 mln hektarni tashkil qiladi. Mazkur yerlar mamlakatning umumiy yer maydonining 12% ga teng bo'lgan.

**IMPICHMENT** (ingl. impeachment) - ayrim davlatlarda, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiyada oliy mansabdor shaxslar (mamlakat prezidenti, hukumat boshlig'i va sh.k.)ni javobgarlikka tortish va ularning jinoyatlari to'g'risidagi ishlarni sudga ko'rib chiqishning alohida tartibi, muddatdan oldin o'z vakolatini bajarishdan mahrum etish. Impichment vaqtida jinoiy ish qo'zg'atish va sudga berishni, odatda, parlamentning quyi palatasi amalga oshiradi, ishni ko'rib chiqish esa - yuqori palataning vazifasiga kiradi, ko'rib chiqish lavozimidan chetlatish (bo'shatish) bilan yakunlanishi mumkin. Impichment tartibida hukm qilingan shaxs o'z lavozimidan olinishi bilan birga umumiy tartibda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

**KODEKS** (lot. codex-kitob) - ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir turdagi sohasini tartibga soluvchi sistemalashtirilgan yagona qonun hujjati. Kodeks kitob shakllarida qadimgi Rimda paydo bo'lgan. Dastlab pergament yoki papirus, keyinroq qog'ozni daftar tarzida buklab, tikib tayyorlangan. VI asrdan kitobning asosiy shakliga aylangan. Kodeksda mavjud bo'lgan muqova, sahifa va ularni bezash tartibi hozirgi kitoblarda ham saqlangan. Dastlab lotinlar kodeks deganda daraxtning yog'och olinadigan asosiy qismini tushunishgan va keyinchalik jinoyatchilarning oyoqlarini bog'laydigan taxtakach, suzuvchi ko'priklar ham, umuman yog'ochdan yasalgan ko'plab narsalar ham kodeks deyilgan. O'rta asrlardan boshlab kodeks qonunlar to'plami sifatida tushunila boshlandi.

**LINCH SUDI** - (ingl. lynching, the Lynch law, o'ldirish), AQShda negrlar va demokratik harakat qatnashchilarini sud va so'roqsiz jazolash. Sudning nomi sudya Charlz Linch yoki kapitan Uilyam Linch nomidan olingan deb taxmin qilinadi. Asosiy farqi sudsiz jazolash hisoblangan. XIX asr va XX asr boshlarida Linch sudlarining 85% i janubda amalga oshirilgan. Linch sudi ham AQShda fuqarolar urushi natijasida vujudga kelgan va Ku-Kluks-Klan bilan bog'lashadi. 1882-1968-yillar oralig'ida taxminan 3500 afroamerikalik va 1300 nafar oq tanlilar linch sudi orqali qatl etilgan. 1936-yilda linch sudiga qarshi juda qattiq qonun chiqarildi va bu asosan janubiy shtatlardan saylangan

prezidentlarni himoya qilish uchun ishlab chiqilgan. Linch sudi bugungi kunda amalda tugatilgan.

**LITSENZIYA** (lot. licentia - ruxsatnoma, huquq) - vakolatli davlat organlariga tashqi savdo harakatlarini olib borish uchun beradigan ruxsatnoma. Eksport va importni, valyuta sarflarini nazorat qilish usullaridan biri. Odatda, 1 yil muddatga beriladi. Undan tashqari texnikaviy, iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun shartnoma asosida beradigan ruxsati ham litsenziya deyiladi. Odatda, litsenziya patent olingan yoki patent olish uchun talabnoma berilgan ixtirolarga nisbatan qo'llaniladi.

**MANIFEST** (lot. manifestum - chaqiriq) - 1) oliy davlat hokimiyatining mamlakat miqyosida amalga oshirilishi ko'zlangan biror bir siyosiy tadbir, ramziy sana va bayramlar yuzasidan aholiga qarata tantanali murojati. Ba'zi hollarda qonunchlik normalarini o'z ichiga oladi. Yoki muhim qonunlar qabul qilishi haqida xabar beradi; 2) siyosiy partiya, jamoat tashkiloti va boshqalarning o'z dasturi, qarashlari, qarorlari va boshqalar bayon qilingan yozma murojatnomasi yoki deklaratsiyasi. Ayrim hollarda badiiy adabiyot, sanat, madaniyatning boshqa yo'nalishlarida ham manifest atamasi u yoki bu yo'nalishni ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi.

**ORDER** (nem. order, frans. orde, lot. ordo - buyruq, qator, tartib) - 1) buyruq, ko'rsatma kabilarni o'zida aks ettirgan rasmiy hujjat. Masalan, tintuv to'g'risida order. 2) Arxitekturada order - me'moriy qurilmalardagi turli (vertikal va gorizontal) qismlarning o'zaro uyg'unligi, ularning tarkibiy va badiiy uslubi. Vertikal qismi ustun (kollona)dan iborat bo'lib, tana, kapitel (bosh) va poyustun, ba'zan pedestaldan tashkil topdi. Gorizontal (to'sin) qismi arxiv, friz va karnizni, ular birgalikda antablementni tashkil qiladi. Orderning mumtoz tizimi Yunonistonda paydo bo'lgan. Asosiy Orderlar yunon qabila va viloyatlarning nomlari bilan doriy, ioniy, korinf, orderlar deb ataladi. Orderning dastlabki har xil tizimlari Qadimgi Misr va Eron me'morchiligida qo'llanilgan. Qadimgi Rimda shakllangan mumtoz Orderlar tizimi jahon me'morchiligining yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

**PATENT** (lot. Patens - ochiq, aniq, ravshan) - texnik yechim (ixtiro)ning davlat tomonidan e'tirof etilganligini va ixtirochining o'z

ixtirosiga olgan mutloq huquqini tasdiqlovchi hujjat. Ayrim mamlakatlardagi qonunlarga ko'ra, patent 15-20 yil yoki 5-25 yil muddatga beriladi. Patent u berilgan mamlakat hududida amal qiladi. Patent tartibi O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi Qonuni (1994-yil 6-may)da belgilab berilgan. Patent idoralari turli davlatlarda har xil nomlarda ataladi.

Patentning zamonaviy tushunchalari 1474-yildan Venetsiya Respublikasida ishlatila boshlagan va dastlabki patentning faoliyat muddati 10 yil deb ko'rsatilgan. 1624-yil Angliyada «Monopoliya to'g'risida statut» qabul qilinib, unga ko'ra patent yangi ixtirolarga berila boshladi. AQShning birinchi patent qonuni (Patent Act) 1790-yil e'lon qilinadi. Rossiyada 1812-yildan shunday qonun e'lon qilingan bo'lsada, ammo rasman patent huquqi haqidagi tushuncha 1830-yil 30-martdagi qonundan keyin tushunila boshladi.

**PENSIYA** (lot. pensio - to'lov) - fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va umrbod to'lanadigan to'lovlar. Pensiya to'lovi dastlab Prussiyada 1825-yil davlat xizmatchilari uchun joriy qilingan. Yalpi va universal pensiya tartibi Germaniyada 1889-yil joriy qilinadi. Pensiyalar Buyuk Britaniyada 1908-yil, Fransiyada 1910-yil joriy qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 39-moddasiga binoan, «har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa xollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega»dir. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas. Pensiya ta'minoti masalalari O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni (1993-yil 3-sentyabr) bilan belgilangan.

Pensiyaning 3 xil turi mavjud: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchini yo'qotganlik pensiyasi. Yoshga doir pensiya 2 xil bo'ladi: umumiy asosda tayinlanadigan va imtiyozli asoslarda tayinlanadigan pensiyalar.

**PETITSIYA** (lot.) – oliy davlat yo hukumat boshlig'iga yoki mahalliy boshqaruv organiga ko'pchilik tomonidan birgalikda beriladigan rasmiy ariza, iltimosnoma.

**REFERENDUM** (lot. referendum - bildirilishi kerak bo'lgan) - umumxalq ovoz berish yo'li bilan qonunlar qabul qilish va davlat ahamiyatiga molik eng muhim masalalarni hal qilish shakli. Unda mamlakatlardagi barcha fuqorolarning xohish-istaklari inobatga olinadi. Demokratiyaning muhim vositasi. Referendumning saylovlardan asosiy farqi shundaki, u o'tkazilayotganda biron bir lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro'yxati uchun ovoz berilmaydi, balki unda muayyan masala-qonun, qonun loyihasi, konstitutsiya, konstitutsiyaga tuzatishlar, mamlakat xalqaro maqomiga taalluqli yoki ichki siyosatiga oid biron bir savol qo'yiladi.

**REMONSTRATSIYA** (lot.) - norozilik hujjati. Masalan, Buyuk remonstratsiya (1641) - Angliyada Uzoq parlamentning muxolifat a'zolari tomonidan Karl I ning 1625-yildan keyingi siyosatini muhokama etilib, cherkov va davlatda keskin islohotlar o'tkazish talabi ilgari surilgan hujjat

**SAYLOV SENZLARI** (lot. census, censeo - ro'yxatga olaman so'zidan) - konstitutsiya yoki saylov to'g'risidagi qonunlarda belgilangan saylov huquqini amalga oshirishda o'rnatilgan shart va cheklovlar. Senzlar turli xil bo'lishi mumkin: yosh, fuqarolik, savodlilik, ijtimoiy holat, mulkiy, ma'lumotlilik, o'troqlilik, jinsiy, irqiy, xizmat va til senzleri. Demokratik tartiblari rivojlanib borgani sari senzlar yo'qolib borgan. Masalan, oldinlari saylov huquqi faqat erkaklarga berilgan, XX asrga kelib erkaklar va ayollar huquqi tenglashtirilgan. XIX va XX asrlarda tabaqaviy va mulkiy senzlar keng qo'llanilgan. Muayyan tabaqa vakillari (ishchilar, dehqonlar va harbiy xizmatchilar va h.k.) ning saylovlarda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmagan, muayyan mulk va daromadga ega shaxslargina saylash huquqiga ega bo'lgan.

**SENZURA** (lot. censura - jiddiy muhokama, shafqatsiz tanqid, ro'yxatga olaman) - bosmadan chiqadigan mahsulotlar, ularning chop etilishi, tarqatilishi ustidan, shuningdek, sahna asarlari, radio-eshittirishlar va televizion ko'rsatuvlar ustidan rasmiy hokimiyat organlarining nazorat o'rnatishi. Ilk bor senzura XV asrda G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan va cherkov ma'murlari tomonidan qo'llangan. Sobiq sho'rolar davrida esa 1922-yildan Matbuotda davlat sirlarini saqlash Bosh boshqarmasi (Glavlit) va uning respublikalardagi boshqarmalari tomonidan senzura amalga oshirib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasiga muvofiq, senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Axborot olish va tarqatish kafolatlari o'g'risida «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida» (2002-yil 12-dekabr), «Axborotlashtirish to'g'risida» (yangi tahrirda, 2003-yil 11-dekabr), «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» (1997-yil 25-dekabr), «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida» (1997-yil 24-aprel)gi qonunlar qabul qilingan.

Senzurani harbiy, davlat, iqtisodiy, savdo, siyosiy, g'oyaviy va diniy kabi ko'rinishlarga ajratishadi. «Senzura» lotincha *census*, so'zidan kelib chiqib, Qadimgi Rimda kishilarni mulkiga qarab tabaqalarga ajratish ma'nosida qo'llanilgan. Davlatga qarshi kitoblarni yo'q qilish siyosati ko'plab davlatlarda o'tmishda ham amalga oshirib kelingan. Afinada (mil.avv 480-410-yillarda) faylasuf Protagoming xudo haqidagi kitoblari yoqib yuborilgan. Miloddan avvalgi 213-yilda Xitoy imperatori Sin Shi Xuandi imperiyaga qarshi mazmundagi barcha kitoblarni yoqib yuborishga buyruq bergan. O'rta asrlarda Rim katolik cherkovi o'ziga qarshi mazmundagi ko'plab kitoblarni taqiqlagan yoki yoqib yuborishgan.

**SUDEBNIK** – XIV-XVI asrlarda Gruziya, Buyuk Litov knyazligi, Rus davlati singari mamlakatlarda yaratilgan feodal huquq to'plamlarining umumiy nomi. Masalan, 1497-yilda Rus davlatida yaratilgan birinchi sudebnik ayni vaqtda dastlabki qonunchilik kodeksi hisoblanadi. Jami 68 moddadan iborat bo'lib, moddalarning deyarli barchasi proessual mazmunga ega. 1550-yilda yaratilgan navbatdagi sudebnikda moddalar soni 100 taga yetkazildi.

**XARTIYA** (lot. carta-"yozma hujjat", yunon. Chartes - qog'oz, yorliq) - 1) o'rta asrlardagi (shaharlar va kommunalar xartiyasi, Erkinlikning buyuk xartiyasi va b.) va yangi zamondagi (Buyuk Britaniyada 1838-yilgi Xalq xartiyasi, konstitusion xartiya va b.) ommaviy-huquqiy va siyosiy tusdagi hujjat. Qadimgi rimliklarda charta so'zi papirusdan bo'lgan, ba'zan kitobning qog'ozini anglatgan. Turli ko'mishdagi qog'ozlar farqlangan. Masalan, Charta Augusta, Charta Claudia, Charta Livia va boshqalar. Angliyada VII asrdan ma'lum bo'lgan va X asrlarda hukmdor yoki hukumat tomonidan berilgan hamda ma'lum bir huquq yoki belgilangan kontitusiyaning me'yorlarni namoyon qiluvchi yuridik guvohnoma. Odatda yerlarni tortiq qilish hujjatlari sifatida foydalangan. 1066-yildan to 1216-yilgacha bo'lgan



oraliqda ingliz qirollari 300 ga yaqin xartiyalar chiqargan. XVI asrdan boshlab xartiyalar savdo kompaniyalarga savdo qilish huquqi uchun beriladigan bo'ldi. Zamonaviy xalqaro huquqda odatda deklaratsiya so'zining sinonimi sifatida qo'llanib, majburiy kuchga ega bo'lmaydi, xalqaro aktning umumiy qoidalari va maqsadini ifodalaydi (masalan, Yangi Yevropaning Parij Xartiyasi). Ayrim mashhur bo'lgan quyidagi xartiyalar ma'lum:

- Xartiya - 08 - manifest, Xitoy ziyolilari tomonidan 2008-yilda imzolangan hujjat.
- Xartiya 77 - Chexoslovakiyadagi dissidentlarning siyosiy guruhi.
- Buyuk erkinliklar xartiyasi - 1215-yilda Angliyada qirol tomonidan imzolangan hujjat.
- Yevropa havfsizligi xartiyasi - XXI asrga mo'ljallangan jahon hamjamiyatining xavfsizlik konsepsiyasi.
- Xalq xartiyasi - Angliyada chartistlarning siyosiy dasturi.

**XARTIYA-77** – Chexosloviyada inson huquqlari uchun kurash harakati. 242 nafar fan, ziyolilar va cherkov vakillari tomonidan 1977-yilda imzolangan uchun ham shunday ataldi. Shu yilning oxirida 800 kishi hujjatga imzo qo'ydilar va uning oqibatida mamlakatni tark etishga majbur bo'lishdi. Hujjatda Chexoslovakiya hukumatidan BMTning «Inson huquqlari Butunjahon Deklaratsiyasi» asosida qonunlar ishlab chiqish va Xelsinki konferensiyasi qarorlarini bajarish so'ralgan edi. Hujjatni imzolaganlar ichidan Vatslav Gavel sotsializm tuzumi yemirilgach, Chexoslovakiyada taniqli siyosiy arbobga aylandi.

**ZABASTOVKA** (ital. va isp. *basta* - yetarli! bas!) ish tashlash - ishlab chiqarish korxonalarida uyushtirilgan holda jamoa bo'lib ish tashlash tushunilib, ular korxonaga egasi yoki hukumatga qarshi qaratilgan bo'ladi. Ayrim hollarda ish tashlash avvaldan ogohlantiriladi. Zabastovka amalga oshirilish holatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi.

- *Qarshilik zabastovkasi* - yaxshi turmush sharoitini yaratishni talab qilib amalga oshiriluvchi zabastovkalar.
- *Mudofaa zabastovkasi* - yetarli darajadagi turmush sharoitini saqlab qolish va ish haqlarining pasaytirilishiga qarshi zabastovkalar.
- *Siyosiy zabastovka* - siyosiy talablar bilan amalga oshiriluvchi zabastovkalar bo'lib, ular odatda hukumat almashinuvi yoki

qonunchilikning o'zgartirilishini talab qilishadi. Bunday zabastovkalar odatda butun mamlakatni qamrab olgan holda bo'lib o'tadi.

- *Polyakcha zabastovka (okkupatsion deb ham ataladi)* - Polsha tajribasidan o'tgan va birinchi bor shu mamlakatda bo'lib o'tganligi sababli shunday nomlangan. Bunda asosan ishlab chiqarish korxonalarining ishchilar tomonidan egallab olinishi bilan farqlanadi.

- *Italyancha zabastovka* - odatda ishlab chiqarish qisqarib ketishi va ish o'rinlarining kamayib ketishi holatlarida amalga oshiriladi.

- *Yerosti zabastovkasi* (Shaxtalardan chiqmagan holatda amalga oshiriladi) - shaxtyorlarning o'ziga xos norozilik chiqishi.

#### 1.4. Harbiy atamalar

**ADMIRAL** (niderl. *admiraal*, arab. "amir al-bahr" – dengiz hukmdori, hokimi) – harbiy-dengiz floti qo'mondonlariga beriladigan unvon. Yevropada XII asrdan boshlab muomilaga kira boshlagan. Unga qadar qadimgi yunon va rimliklar qo'llagan navarx, duumvir atamalari ishlatilgan. XVIII asrning birinchi choragidan boshlab admiral unvoni yanada kengroq miqyosda qo'llanila boshladi. Rossiyada Pyotr I davridan boshlab admirallarga to'rtta darajadagi unvonlar berila boshladi. Dunyodagi boshqa davlatlarning barchasida admiral unvoni harbiy-dengiz flotidagi yuksak unvon sifatida ko'rsatiladi.

**AKSEL'BANT** (nem. *achselband*, *achsel-yelka*, *band* – lenta, tasma) – ayrim mamlakatlar armiyalarida ba'zi harbiylarning yelkasiga taqiladigan oltin, kumush yoki zarbof chilvir. Odatda mundirning (kitelning) o'ng yelkaga (kamdan-kam holatlarda chap yelkaga) pogon yoki epoletlar (hashamdor zar pagonlar) ostidan taqiladi. Ilk bor XVII asrda G'arbiy Yevropa qo'shinlarida paydo bo'lgan.

**ANSHLYUS** (nem. "Anschluss" - qo'shib olish, ittifoq) - 1-jahon urushidan keyin Germaniyaning Avstriyani o'ziga qo'shib olishdan iborat zo'ravonlik siyosati. Anshlyus 1938-yil 11-12-martda fashistlar Germaniyasini Avstriyani bosib olishi bilan yakunlandi. Avstriya mustaqilligi 1945-yil aprelda, 2-jahon urushi davomida ozod etilgandan so'ng, tiklandi va anshlyusni ta'qiqlovchi 1955-yilgi davlat shartnomasi bilan qununiylashtirildi. Ko'pincha anneksiya sinonimi sifatida ham ishlatiladi.

**ARMADA** (ispan. katta flot) - Ispaniyada yirik harbiy kuchlar birlashmasi shunday nomlangan. Tarixda «Yengilmas armada» nomli harbiy-dengiz flotining (130 ta og'ir kemadan tashkil topgan) 1586-1588-yillarda Angliyaga yurishi mashhur. Portugaliyada ham shunday atama yirik harbiy-dengiz flotlari uchun qo'llanilgan va shu nomli kichik flotiliyalar Hindiston, Yaxshi Umid Burni va boshqalarga uyushtirilgan.

**ARMIYA** (lot. armare-qurollanmoq) - davlatlarning turli xil ko'rinishdagi qurolli kuchlari va harbiy qurollaridan iborat tuzilmalar. Armiya turli davlatlarda turli nomlar bilan qadimdan mavjud bo'lgan va shakllantirib kelingan. Asosan urush havfi yuzaga kelgan davrlarda tashkil qilingan va doimiy armiyalar ko'proq o'rta asrlar va yangi zamon davrlarida paydo bo'la boshlagan. Bugungi kunda armiyalarni harakatdagi armiya va Flot, qamal qiluvchi armiya, mudofaa qiluvchi armiya, ekspedision armiya, okkupasion armiya kabi turlarga bo'lib ko'rsatiladi.

**ARSENAL** (frans. arsenale, arab.dor as-sinoa-qurolsozlik ustaxonasi so'zidan) - quruqlikdagi qo'shinlar va dengiz qo'shinlari qurol-yarog'larini yasaydigan, tuzatadigan va ularni saqlaydigan joy. Arablardan fransuzlarga, so'ng ruslarga va boshqa tillarga o'tgan. XX asrda qurol-yarog' ishlab chiqarish sanoatning mustaqil tarmog'ga aylangandan so'ng, qurol-yarog' tayyorlash va saqlash uchun maxsus joylar ajratish zarurati tug'ilgach arsenal ilgarigi ahamiyatini yo'qotgan. O'rta asrlarda Movarounnahrda qurol-yarog' saqlanadigan joy jevaxona (jibaxona) deb atalgan.

**ATOM BOMBASI** - yadro zaryadi o'rnatilgan aviatsiya bombasi. Yadro ichki energiyasi kuchiga asoslanadi va b'azi holatlarda biologik va kimyoviy qurollar ham o'rnatilgan bo'ladi. Atom bombasi portlaganda katta miqdorda yadro energiyasi ajralib chiqadi. Birinchi marta II jahon urushi oxirida sobiq Ittifoq va AQShda tayyorlangan. 1945-yil iyulda amerikaliklar har qaysisining trotil ekvivalenti 20 ming tonnadan bo'lgan 2 ta atom bombasini Yaponiyanig Xirosima (1945-yil 6-avgust) va Nagasaki (1945-yil 9-avgust) shaharlariga tashlagan. Yadroviy portlash natijasida, to'lqin kuchi, kuchli yorqin nur, radiatsiyaning tarqalishi, elektromagnit impuls kabilar kuzatiladi. Barcha yadroviy qurollar 2 turga bo'linadi: «Atom» - bir fazali (uran-235 yoki plutoniya) deyilib, asosan yengil elementlardan tashkil topgan. Termoyadroviy

qurol («vodorod bombasi») - ikki fazali ikkita fizik jarayonda boradi, birinchi kuchli energiya ajralib chiqadi keyin qudratli to'lqin vujudga keladi. Atom bombasiga ega davlatlar Yadroviy klubni tashkil qilib, ularga AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlar kirib, ulardan tashqari JAR, Pokiston va Shimoliy Koreya davlatlari kuchsiz yadroviy davlatlar sifatida tan olinadi.

**AVANGARD** (frans. avant—oldinga va garde—qo'riqchi) – 1) harbiy safar vaqtida asosiy kuchlarni qo'riqlash uchun oldinda boruvchi askariy qism(harbiy qo'shilma, qism yoki bo'linma). Avangardning vazifasi asosiy kuchlarga dushman tomonidan bexosdan qilinidigan hujumlarning oldini olish, asosiy kuchlarning jang qilishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Avangard qadimgi turkiy harbiy qismlarda hirovul, avang'or, mo'g'ul askarlarida manqlay, mang'lay deyilgan. 2) Avangardizm birinchi navbatda Yevropa san'atida XIX oxirlari va XX asrlarda paydo bo'lgan oqimning umumiy nomi.

**AVAXTA** (nem. hauptwache—ayni ma'nosi bosh soqchi) – Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklari hududini bosib olib, Turkiston general- gubernatorligini tashkil qilingandan keyingi davrda chor ma'murlari tomonidan Turkiston o'lkasida ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni saqlash uchun tashkil etilgan va shu maqsadda maxsus jihozlangan joy, qamoqxona.

**BALLISTA** (lot.ballista, yunon. ballo—irg'itaman so'zidan) – qadimda (V asrgacha) keng qo'llanilgan irg'ituvchi qurol; novli yotiq dastgoh va eshilgan kamalik ipidan tashkil topgan qurilma. Ballista yordamida tosh, g'o'la, poykon va boshqalar otilgan. Yunonlarda bunday qurollar palintononam deb atalgan. Qadimgi rimliklar qurolni «ballista» deb atashgan va shu nom bu qurolga nisbatan keng qo'llaniladi. Ballistalar konstruksiyasiga ko'ra katapultalardan kam farq qilgan, ko'proq otish usuli bilan farqlangan. Katapultalar dushmanni jonli kuchini yo'q qilish uchun qo'llanilgan bo'lsa, ballistalar avvalo, mudofaa istehkomlarini vayron etish vazifasini o'tagan.

**BALLISTIK RAKETA** – dvigateli to'xtagandan so'ng ballistik trayektoriya (erkin otilgan jism trayektoriyasi) bo'ylab uchadigan raketa. Aerodinamik ko'tarish kuchi hosil qiluvchi sirtning yo'qligi bilan qanotli raketadan farq qiladi. Aerodinamik barqarorlik hosil qilish uchun ballistik raketalar, ba'zan, muvozanatlashtiruvchi moslamalar

bilan ta'minlanadi. Turli tipdagi jangovar raketalar (qit'alararo raketalar ham), eltuvchi va kosmik raketalar shular jumlasiga kiradi. Qo'llanilish doirasiga ko'ra ballistik raketalar strategik va taktik turlarga bo'linadi. Garchi bu turdagi raketalarni turlarga bo'lishning umumqabul qilingan me'yorlari bo'lmasa ham, ammo ko'pincha raketalarning uzoqlikka uchishiga qarab cheklovlar joriy qilingan. O'rta va yaqin masofaga uchuvchi raketalarni yo'q qilish haqidagi shartnomada ularning quyidagi turlari keltiriladi:

- Yaqin masofaga uchuvchi ballistik raketalar (500 dan 1000 kmgacha).
- O'rta masofaga uchuvchi ballistik raketalar (1000 dan 5500 kmgacha).
- Qit'alararo ballistik raketalar (5500 kmdan ko'p masofaga).

Raketalar haqidagi ilk nazariy izlanishlar 1896-yilda K.E.Siolkovskiy tomonidan tadqiq qilingan va bu bo'yicha «Siolkovskiy formulasi» deb ataluvchi formulani ishlab chiqqan. Bugungi kunda ham raketalarni loyihalashtirishdagi matematik apparatlarning bir qismi shu formula asosida ishlab chiqiladi.

**BATAL'ON** (frans. bataillon, ital. battaglione, battaglia-jang, kurashish) – quruqlikdagi, havo-desant va dengiz piyodalari qo'shinlaridagi asosiy taktik harbiy bo'linma. Odatda 800 kishigacha bo'ladi. Motoo'qchi, tank, dengiz piyodalari, aloqa, avtomobil va boshqa turdagi batal'onlar bo'ladi. Ular polk tarkibiga kiradi yoxud qo'shilmadagi alohida harbiy qism bo'lishi mumkin. 3-4 rota va boshqa bo'linmalardan tarkib topadi. Aslida bu so'zning o'zagi "Bataliya" so'zi bo'lib, to'rtidan bir manosini bildirgan.

**BATAREYA** (frans.batterie, batter - urmoq) – artilleriya qismlari va harbiy kemalarda 2-4 yoki undan ko'proq to'plardan iborat artilleriyaning birinchi o't ochuvchi va taktik bo'linmasi. Ikkita to'p otuvchi va bitta boshqarish vzvodidan iborat. Polk (divizion) tarkibida yoki alohida bo'lishi mumkin. Batareya yopiq va ochiq pozitsiyadan o't ocha oladi. Artilleriyada to'p, gaubitsiya, minomyot, havoga otadigan tanklarga qarshi hujumda boshqariladigan reaktiv snaryadlar batareyasi bo'ladi. Optik razvetka, meteorologiya, suratga olish, topografiya, radiotexnika, projector va boshqalarning ham batareyalari ham bo'ladi.

**BLOKADA** (ingl. Blockade -qamal, qurshamoq, o'zbek tilida ko'pincha blokada o'rnida «qamal» tushunchasi qo'llaniladi) - 1) harbiy

harakatni amalga oshirishning dushman obyektini ajratib, yakkalab, tashqi aloqalarini izdan chiqarishga qaratilgan alohida shakli. Bundan maqsad dushman davlatning harbiy-iqtisodiy qudratini sindirib, taslim bo'lishga majbur etishdan iborat; 2) (iqtisodiy-siyosiy) biror davlatni muayyan talabni bajarishga majbur etish maqsadida uning tashqi aloqalariga putur yetkazishga qaratilgan siyosiy tadbirlar tizimi. Siyosiy blokada davlatni diplomatik jihatdan yakkalab qo'yishda ifodalanadi. Siyosiy blokada ko'pincha iqtisodiy blokada bilan ham birgalikda qo'llaniladi. Masalan, Napoleon Bonapartning Buyuk Britaniyaga nisbatan qo'llagan siyosat tarixda «qit'a qamali» yoki «kontinental qamal» nomi bilan ma'lum.

**BLOKGAUZ** (nem. blockhaus – yog'och uy) aylanasiqa miltiq, pulumiyot, ba'zida artilleriya qurollaridan o'q otishga mo'jallangan mudofa inshootlari (yog'och, beton, metall va boshqa mahsulotlardan yasalgan devor, to'siqlarga ega bo'lgan, garnizon uchun yashash xonalari qurilgan). I va II jahon urushlarida, asosan, ko'priklarni, tog' yo'llarini, shaharlarni va boshqalarni himoya qilish maqsadida qo'llanilgan. Ulardan datlab 1878-yildan pruss armiyasida foydalana boshlashgan. Blokgauzlardan keng miqyosda birinchi bor 1899-1902-yillardagi anglo-bur urushlarida foydalanilgan. Urush davrida inglizlar 8000 blokgauz qurishgan. Birinchi jahon urushida Germaniyaning «Shliffen rejasi»ga ko'ra Sharqiy frontda blokgauzlardan keng foydalanish ko'zda tutilgan. Ularga odatda pulemyotlar joylashtirilgan.

**BRIGADA** (frans. brigade, ital. brigata – jamiyat, otryad) – barcha turdagi qurolli kuchlar, qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar bo'linmalarining taktik birlashmasi; turli mamlakatlarda XVI asrning 2-yarmidan, Rossiyada 1704-yildan quruqlikdagi qo'shinlarda mavjud. Quruqlikdagi qo'shinlarda brigada odatda bir necha batalyon va maxsus qo'shinlar brigadalaridan iborat bo'ladi. Brigada alohida yoki diviziya tarkibiga kirishi mumkin. XX asr boshlaridan boshlab, brigada barcha davlatlarning harbiy qismlarida mavjud bo'ldi.

**BRONEMASHINA**(broneavtomobil)-zirhli jangovar mashina. Pulemyot, ba'zan to'p bilan jihozlanadi. Bu texnika asosan aloqa va qo'riqlash vazifalarini bajaradi. Bronamashinalar yengil, o'rta, og'ir turlarga bo'linadi. Bu turdagi texnikalar birinchi jahon va ikkinchi jahon urushida qo'llanilgan.

**BUNKER** (nem. bunker) - turli xil materiallarni saqlash, tashish, o'tkazish uchun mo'ljallangan statsionar yoki harakatlanuvchi inshootlar yoki asboblari. Yaxshi mustahkamlangan himoya yoki mudofaa inshooti. Odatda yer ostida quriladi. Bunkerlar birinchi va ikkinchi jahon urushlari davrida ommaviy ravishda qurila boshladi. «Sovuq urush» davrida bunkerlar juda yirik mudofaa va boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda qurila boshladi. Dunyoga mashhur bunkerlar sirasiga AQSh va Kanada davlatlari hamkorligida qurilgan NORAD bunkerini kiritish mumkin bo'lib, u Shayenn tog'ida joylashgan. Undan tashqari ko'plab davlat arboblari Gitler, Saddam Husayn va boshqalar ham o'zlari uchun shunday inshootlarni qurdirishgan.

**DEMARKATSIYA CHIZIG'I** – harbiy ishda urushuvchi tomonlarni yoki davlatlarni vaqtincha yarash muzokaralari borayotgan vaqtda ajratib turuvchi chiziq (o't ochish to'xtatilgan chiziq). Undan tashqari urushda mag'lub bo'lgan davlat hududini zonalarga bo'luvchi chiziq ma'nosida ham qo'llaniladi. Yana bir ma'nosi qo'shni davlatlar o'rtasida da'volashilayotgan hududda doimiy chegara aniqlanguniga qadar vaqtincha chegarani belgilab beradigan chiziq shu nom bilan ataladi.

**DEMILITARIZATSIYALASHGAN ZONA** - xalqaro shartnoma yoki bitim bilan o'rnatilgan shunday hududki, unda harbiy-sanoat korxonalarini, istehkomlar qurish, belgilangan miqdordan ortiq qurolli kuchlar saqlash man etiladi. Quyidagi demilitarizatsiyalashgan zonalarga misollar:

Afrika qit'asida:

- Shimoliy Marokko va Ispaniyaga tegishli Seuta va Melilya hududlari.

Antarktikada:

- Antarktikaning barcha hududi (60 janubiy parallel)

Osiyo qit'asida:

- 1953-yilda Shimoliy va Janubiy Koreya o'rtasidagi demilitarizatsiyalashgan zona.

- Kambodja va Tailand chegarasi.
- Quvayt va Iroq chegarasi.
- Misring Sinay yarim oroli.
- Jolan tepaliklari zonasi.

Yevropada:

- Kipr orolidagi BMT zonasi.
- Serbiya va Kosovo o'rtasidagi chegara zonasi.
- Shpisbergen arxipelagi - Norvegiya boshqaruvidagi 1920-yildan demilitarizatsiyalashgan hudud.
- Aland orollari - 1856-yildan Finlandiya hududidagi demilitarizatsiyalashgan zona.

**DEMOBILIZATSIYA** (frans. *dyemobilisation*, *dye* - rad etish, *mobilise* - harakatga undash) - tinchlik davridagi harbiy kuchlar. Qurolli kuchlarni va mamlakat iqtisodiyotini harbiy holatdan tinchlik holatiga o'tkazish yoki urush tugagandan keyin harbiy qismlar, qo'shilmalar va muassasalarning shaxsiy tarkibini qayta tuzish bilan qurolli kuchlar shaxsiy tarkibini urushdan oldingi holatga keltirish, shuningdek harbiy xizmatchilarni urush tamom bo'lishi bilan, tinchlik davrida majburiy harbiy xizmat muddati tugashi bilan armiyadan bo'shatish. Demobilizatsiya ma'lum davlatlarda qonunlar yordamida amalga oshiriladi. Misol uchun ikkinchi jahon urushi yakuniga yetgach. 1945-yil 23-iyun kuni sobiq SSSRda armiyani demobilizatsiya qilish to'g'risidagi qonun chiqarilib, qo'shin sonini 1948-yilga qadar 11 mlndan 3 mlngacha qisqartirish ko'zda tutilgan. Demobilizatsiya o'z navbatida harbiy sanoat uchun ham qo'llanilib, bunda harbiy sanoat korxonalarini xalq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga o'tkaziladi yoki shunga moslashtirib boriladi.

**DESANT** (frans. *descente* - tushirish) - Garchi fransuzcha atama bo'lsada, Rossiya qurolli kuchlarida keng qo'llaniladi. Desant dushman egallagan hududda jangovar harakat qilishga mo'ljallab samolyot, vertolyot va dengiz, daryo orqali tushirilgan yoki shu maqsadda tuzilgan qo'shin. Bajaradigan vazifalari va maqsadi bo'yicha: strategik desant, operativ (tezkor) desant, taktik desant, maxsus vazifalarni bajaradigan desant, desant tushirish bo'yicha dengiz desantlari, havo desantlari, tank desantlari va boshqalarga bo'linadi. Desant bir vaqtning o'zida ham havodan, ham dengizdan tushirilishi mumkin. Eng yirik va mashhur desant tushirish bilan bog'liq harbiy operatsiyalarga Marokash-Jazoir operatsiyasi (1942), Italiyaga desant tushirish (1943), Normandiyaga ittifoqchi qo'shinlarning tushirilishi (1944) va boshqalarni kiritish mumkin.



**DEZERTIR (DEZERTIRLIK)** (frans. *désertion*) – harbiy qism yoki xizmat joyini tashlab ketish; harbiy xizmatdan bo'yin tovlash, chaqiriqqa bo'ysunmaslik, jang maydonini ruxsatsiz tark etish. Harbiy jinoyat. Keng ma'noda o'z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishni anglatadi. Harbiy yurishlar paydo bo'lgan vaqtdan boshlab dezertirlikka qarshi kurashib kelingan. Masalan, qadimgi misrliklarda jang vaqtida qochib ketganlik uchun tili kesilgan, yunonlar bo'lsa dezertirlarni faxriy unvonlardan mosuvo etilgan va uyatli kiyim kiydirishib, sochlarining yarmi olingan hamda shu holatda uch kun davomida bozor maydoniga sazoyi qilingan. Qochoq spartalik vijdotsiz kishi sifatida baholanib, unga bironta qiz turnushga chiqmagan. Qadimgi Rimda dezertirlik mol-mulkini musodara qilish va o'lim jazosi bilan yoki qul qilib sotib yuborilish bilan jazolangan. Qadimgi germanlarda dezertirlar jinoyatchi sifatida daraxtga osilgan, ba'zi qo'mondonlar bunday askarlarning quloqlarini, burunlarini, tilini kesib olish bilan cheklangan.

**DIVIZIYA** (lot. *divisio* - bo'linish) - ko'pgina davlatlarning turli xildagi qurolli kuchlari va qo'shin turlarida asosiy taktik birlashma. Motoo'qchi (motopiyoda, piyoda), artilleriya, zenit, tank, aviatsiya, havo-desant va shu kabi diviziyalarga taqsimlanishlari mumkin. Qo'shinning diviziyalarga taqsimlanishi davlatning qurolli kuchlari sonini ko'paytirishning natijasi bo'lib, qo'shinni boshqarishni yaxshilash uchun amalga oshirilgan edi. Dastlab Fransiyada XVII asrda. Rossiyada XVIII asr boshlarida paydo bo'ladi. Diviziya polklar (brigadalar) yoki batalonlar, shuningdek, turli qo'shin turlarining qism va bo'linmalaridan va maxsus qo'shinlaridan iborat bo'ladi. O'zR Qurolli Kuchlarida qo'shinlarni diviziyalarga ajratish yo'q.

**EFREYTOR** (nem *gefreiter* – ayni ma'nosi ayrim majburiyatlardan ozod qilingan oddiy askar) – harbiy qismlardagi eng kichik unvon. Dastlab Germaniyada XVII asr boshlarida paydo bo'lgan. Rus armiyasida Pyotr I tomonidan 1716-yili joriy qilingan, ammo 1722-yildan keyin amalda qo'llanilmaydi. Dastlab efreytorlar tajribali va ishonchli askarlardan tanlab olingan. Pavel I va Aleksandr I lar davrida gvardiya tarkibida joriy etiladi. 1826-yildagi harbiy islohot natijasida yana joriy qilinadi. XX asr boshlarida efreytor unvoni Rossiya, Germaniyada, Avstriya–Vengriyada va boshqa mamlakat qo'shinlarida mavjud bo'lgan. Bugungi kunda Germaniya qurolli kuchlarida oddiy

shtatdagi shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar va kichik mutaxassislar efreytor deyiladi.

**EKSPANSIYA** (lot. expansio-kengaytirish, yoyish) - yangi hududlarni, boshqa mamlakatlardagi bozorlarni egallash, ta'sir doirasini kengaytirish yo'lidagi iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy harakat. Ekspansiyaning hududiy, iqtisodiy, siyosiy ko'rinishlari bo'ladi.

**ESKADRON** (frans. escadron) – 1) Birinchi marta Fransiyada Karl V davrida paydo bo'lgan. Dastlab eskadronlar miqdoridan kelib chiqib rotalarga bo'lingan va bir necha yuz otliqlarni birlashtirgan. Lekin urush vaqtida bunday ko'p sonli eskadronlarni boshqarish qiyinchlik tug'dirgan. XX asr boshlariga kelganda eskadronlar odatda 120-150 otliqdan iborat tarzda shakllantirilgan. XX asr o'rtalariga qadar saqlanib qolgan. Turli davlatlar armiyalarida eskadron 120–200 kishidan tashkil topgan. 4–6 ta eskadronidan kavaleriya polki tuzilgan; 2) ayrim xorijiy davlatlar (Buyuk Britaniya) qurolli kuchlarida tank polkidagi taktik bo'linma (101 kishi); boshqaruv guruhi, 4 tank va xizmat ko'rsatish vzvodlaridan iborat. Tank polkida, shuningdek, shtab Eskadroni (100 kishi) va xizmat ko'rsatish Eskadroni (111 kishi) ham mavjud.

**EVAKUATSIYA** (lot. evacuo-tark etaman, bo'shataman) - jangovar harakatlar bo'layotgan yerlardan yarador, bemor, asirlar, shuningdek, ta'mirga muhtoj va ortiqcha asbob-uskunalar, harbiy o'ljalar va boshqa moddiy vositalarni front ortiga jo'natish. Undan tashqari dushman hujumi xavfi ostida qolgan yoxud tabiiy ofatlarga uchragan joylardan fuqarolar, korxonalar, idoralar, badiiy, san'at buyumlari va qadriyatlarni olib chiqish.

Evakuatsiya - aslida kishilarning tartibsiz harakati bo'lib, ularning yo'nalishi oldindan belgilab qo'yilmagan bo'ladi. Davlatlar o'rtasidagi doktrinaga muvofiq urush davrida avvalo harbiy ahamiyati yuqori bo'lgan korxonalar, buyumlar, hujjatlar ko'chirilishi kerak, undan keyin odamlarning ko'chirilishi ko'rsatilgan. Evakuatsiyaga tayyorgarlik ko'rish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- Evakuatsiya rejasi ishlab chiqiladi va unda harakatlanish yo'nalishi, manzil aniq ko'rsatilishi kerak.

- Vaqtincha yashash manziliga yetib borish uchun transport vositalari tayyor holatda bo'lishi kerak.

- Ko'chirilgan aholini zarur buyumlar bilan ta'minlash, ularning ta'lim olishi uchun sharoit yaratish.

- Evakopunkt hududida harakatlanish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, undan tashqari ko'chirilganlar uchun ta'minotning uzluksizligi rejasi ham bo'lishi zarur.

**FALANGA** (yunon. phalanx) - qadimgi Yunonistonda og'ir qurolli piyoda askar (goplit)larning jips safga tizilgan ko'p qatorli jangovar tartibi. Falangada askarlar orasidagi masofa 0,5-1 m ni tashkil etgan. Falanga 8-16 (ba'zan 25) qatordan iborat bo'lib, safda turgan 1000 jangchi 500-1000 m gacha frontga cho'zilgan. Falanga Troya urushigacha ham ma'lum bo'lgan. Makedoniyalik Filipp (Aleksandr Makedonskiyning otasi) falangaga o'zgarishlar kiritadi va uni suvoriylar bilan mustahkamlaydi. Makedoniya katta falangasi 16384 goplit, 8192 peltastlar va 4096 otliq askardan tashkil qilingan. Falanga Qadimgi Rimda (mil. av. IV asr oxiri) manipula (legion bo'linmasi) safi joriy qilingunga qadar qo'llanilgan.

Falanga so'zi Gomerining «Iliada» dostonida yozma manbalar orasida birinchi bo'lib tilga olingan. Podsho Fidon mil.av 669-yilda falanga yordamida spartaliklarni mag'lub qilgan. Miloddan avvalgi 197-yilda Kinokefal yaqinida bo'lgan jangda (Ikkinchi Makedoniya urushi davrida) Rim legionlari makedoniyaliklar falangasini mag'lub qilishadi va shundan keyin harbiy safning mazkur ko'rinishi taqiqlab qo'yiladi. Falanganing klassik, makedoncha, ispancha va otliq falanga kabi ko'rinishlari mavjud bo'lgan.

**FELDMARSHAL** (nem. Feldmarshall) - ayrim davlatlar armiyalaridagi oliy harbiy unvon. Birinchi marta XIV asrda nemis ritsarlarining Tevton ordeni tomonidan joriy qilingan. XVI asrda Avstriyada, Muqaddas Rim imperiyasida joriy qilinadi. XVII asrda Prussiyada ham joriy qilingan. Rossiyada 1699-yilda general-feldmarshal unvoni joriy etilib, 1917-yilda bekor qilingan. Feldmarshal mashhur harbiy va davlat arboblari, imperator xonadoni vakillari hamda ba'zi chet el harbiy arboblari berilgan. Feldmarshal unvoni bugungi kunda Buyuk Britaniya va boshqa ba'zi davlatlarda saqlangan. 1939-1945-yillarda Germaniya qurolli kuchlarining 26 nafar harbiy boshliqlari general-feldmarshal unvonini olishgan. Buyuk Britaniyada feldmarshal unvoni 1736-yildan boshlab joriy qilingan va bugungi kunda ham mavjud. Avstraliya, Afg'oniston, Bangladesh, Baxrayn, Braziliya,

Bruney (faqatgina mamlakat sultoniga beriladi), Butan, Gana, Misr, Iordaniya (qirol va uning oila azolariga berilishi mumkin), Yaman, Shimoliy Koreya, Lesoto (faqat qirolga beriladi), Malayziya, Marokash (faqat Marokash qiroli), Mongoliya, Nigeriya, Yangi Zelandiya (1954-yildan boshlab), Portugaliya, Saudiya Arabistoni (feldmarshal unvoni 1-darajali mushir deyiladi), Svazilend (faqat qirolga beriladi) kabi davlatlarda bugungi kunda ham mavjud bo'lsa, Sudan, Tailand, Albaniya, Iroq (1979-2003-yillarda Saddam Xusayn olgan), Eron, Ispaniya (general-kapitan unvoni feldmarshalga tenglashtirilgan), Kambodja, Kanada (1968-yilgacha), Xitoy, Mozambik (1975-1990-yillarda) Nepal, Nigeriya, Niderlandiya (oxirgi feldmarshal Niderlandiya qiroli Vilgelm I ning o'g'li shahzoda Frederik bo'lgan), Tunis, Turkmaniston, Uganda, Finlyandiya, Chili, Shvetsiya kabi ko'plab davlatlarda mavjud bo'lgan.

**FREGAT** (yunon. va ital. fregat) – G'arbiy Yevropa mamlakatlari harbiy flotida 3 mahlali harbiy kema. 60 tagacha to'pga ega bo'lgan. Asosan mustaqil harbiy harakatlar va razvedka maqsadlarida foydalanilgan. Zamonaviy fregatlar maxsus jihozlangan bo'lib, ular suvosti kemalarini topish va yo'q qilishga, shuningdek havo hujumi va raketa hujumidan kemalarni mudofaa etishga mo'ljallangan.

**FRONT** (frans. front, lot. Frons -peshona, old tomon) (harbiy ishda) - odatda, urush boshlanishi bilan qurolli kuchlar barpo etadigan operativ-strategik birlashma; harbiy harakatlar maydonidagi qo'shinlar old bo'linmalarining yoyilish va dushman bilan to'qnashuv chizig'i; safning harbiy xizmatchilar yuzlangan (mashinalarning old) tomoni.

Rossiyada «front» tushunchasi 1877-1878-yillardagi Rossiya-Turkiya o'rtasidagi urush vaqtidan qo'llanila boshlangan. Nemischada «front» tushunchasi o'rnida «Gruppa armiy» (nem., *Heeresgruppe* va *Armeegruppe*) inglizlarda «Armeyskaya gruppа» (ingl., *Army group*).

**FRONT ORTI** - 1) urushayotgan mamlakatning harbiy harakatlar zonasidan tashqari barcha hududi, uning aholisi, iqtisodiy resurslari. Masalan Ikkinchi jahon urushi davrida O'rta Osiyo davlatlari sobiq sovet davlatining front orti hududi hisoblanib, urush harakatlari bo'layotgan hududlardagi barcha strategik obyektlar va harbiy harakatlarga yaroqsiz aholi shu yerga ko'chirilgan. Odatda front orti

frontni ta'minlash vazifasini bajargan. 2) safning orqa, frontga teskari tomoni yoki bir qismi.

**GARNIZON** (frans. garnison, garnir – ta'minlamoq, jihozlamoq, qurollantirmoq) – shahar yoki qal'ada doimiy yoki vaqtincha joylashgan askariy qism va harbiy muassasa. Yevropa davlatlarida asosan chegara hududlarini qo'riqlash maqsadida o'rta asrlar davridan boshlab tashkil qilina boshlagan. Rossiyada Pyotr I davrida 1702-yilda tashkil qilinadi. Yangi zamon davriga kelib XIX asrning boshlaridan boshlab yirik davlatlarda garnizon maktablari ham tashkil qilina boshladi. Ular ham bir vaqtning o'zida harbiy maktablar vazifasini o'tay boshladi.

«**GELB**» operatsiyasi – Ikkinchi jahon urushi yillarida fashistik Germaniyaning hozirgi Benilyuks (Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg) davlatlarini bosib olish uchun amalga oshirgan harbiy operatsiyasi. To'liq ishlab chiqilgunga qadar «Rot» nomi bilan tayyorlab borilgan. Operatsiyaning boshlanishi bilan Vermaxtning 3000 dan ortiq samolyotlari, zirhli qo'shilmalari, 2,5 mingdan ortiq tanklardan iborat hujumkor tuzilmalar zaif qarshilikka uchrab oson yanchib o'tib, shimolga va Fransiya chegarasiga chiqishadi. Ikki kun ichida nemis qo'shinlari 110 km yo'lni bosib o'tib, Fransiya chegarasiga yetdilar. 14-mayda Gollandiya taslim bo'ldi, 20-mayda esa Germaniya qo'shinlari La-Mansh bo'g'oziga chiqib, Belgiya va Fransiyaning shimolini Angliya-Fransiya-Belgiya qo'shinlarining yirik qo'shilmasidan kesib qo'ydi. Qarshi hujum muvaffaqiyatsiz tugadi. 1940-yil 28-mayda Belgiya ham taslim bo'ldi. Shu tariqa harbiy operatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

**GENERAL** (lot. generalis-umumiy, bosh) - qurolli kuchlardagi oliy harbiy unvon (daraja). Dastlab, XVI asrda Fransiyada paydo bo'lgan va Rossiya tarixida ilk marotaba 1654-yil ma'lumotlarida uchraydi. Rossiyada general unvonini birinchi bor Avram Ilich Lesli olganligi ta'kidlanadi. General unvoni dunyoning ko'plab davlatlarida harbiy unvon sifatida mavjud. AQSh, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda general unvoni deyarli bir ma'noda qo'llaniladi. AQShda brigada generali, general – mayor, general-leytenant, armiya generali, Fransiyada - brigada generali, diviziya generali, korpus generali, armiya generali; Germaniyada - brigada generali, general-mayor, general-leytenant unvonlari mavjud. Estoniyada general unvoni «kindral» nomi bilan ataladi. Myanmada esa generallarning ikkita

ko'rinishi bo'lib, ular - Vice-Senior general (*Du Bo Gyoke Hmy Gyi*) va Senior general (*Bo Gyoke Hmy Gyi*) deb ataladi.

**GENERAL-KVARTIRMEYSTER** (nem. *Quartiermeister*, ingl. *Quartermaster*) – ayrim davlatlar armiyalarda (Buyuk Britaniya, Rossiya, Germaniya) shtab lavozimi. Odatda, shtabda harbiy o'petarsiyalarni ishlab chiqish va rejalashtirishga boshchilik qilgan. G'arbiy Yevropada XV - XVII asrlarda paydo bo'lgan. Rossiyada bosh qo'mondon yordamchisi sifatida G.K. lavozimi Pyotr I tomonidan 1701-yili joriy qilingan. Dastlab faqat urushlar paytida tayinlangan, lekin XVIII asr oxiridan muntazam faoliyat yuritadigan bo'lgan. Birinchi jahon urushidan so'ng G.k lavozimi ko'plab davlatlar qurolli kuchlarida tugatilgan, uning vazifalari bosh shtab va harbiy okruglar shtablari bo'limlariga topshirilgan. Rossiyada qizil armiyada mazkur mansab 1928-yilga qadar mavjud bo'lgan.

**GENERALISSIMUS** (nem. *generalissimus*, lot. *generalissimus* shaklidan kelib chiqqan bo'lib «eng oliy» ma'nosini bildiradi va *general* unvonidan olingan) - Dastlab Muqaddas Rim imperiyasidagi oliy harbiy unvon hisoblanib, knyaz Albrect Vallenshteyn (1583-1634) birinchi marta shu unvonni olgan. Rossiya, sobiq SSSR, Xitoy, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi kabi davlatlarda joriy qilingan. Fransiyada 1569-yil joriy etilgan. Rossiyada bu unvon sifatida birinchi marta 1696-yil 28-iyundan joriy qilingan. Petr I davrida rasman 1716-yilda joriy etilgan. A. D. Menshikov (1717), A. V. Suvorov (1799) va boshqalar shu unvonga sazovor bo'lishgan. Sobiq Ittifoqda generalissimus unvoni 1940-yilda ta'sis etilgan va faqat I. V. Stalinga berilgan. XX asrda Ispaniyada F. Franko, Xitoyda Chan-Kay-shi, KXDRda Kim Ir Sen va boshqalarning generalissimus unvoni bo'lgan. Yaponiyada bu unvonni faqatgina imperator oladi. Xitoyda generalissimus unvonini Yuan Shikay (1859-1916), Sun Yatsen (1866-1925), Chan Kayshi (1887-1975), Pu I (1906-1967) lar olishgan. Boshqa mamlakatlarda Fransisko Franko Baamonde (Ispaniya) (1892-1975), Frederik I (Shvetsiya qiroli), Rafael Truxilo (Dominikan Respublikasi), Fransisko Miranda (Venesuela), Kim Ir Sen (KXDR), Alfredo Stressner (Paragvay) kabilar mazkur unvonni olganlar.

**GESTAPO** (qisqacha gestapo, nem. Geheime Staatspolizei – davlat mahfiy politsiyasi) - 1933-yil 26-aprelda Geringning maxsus buyrug'i bilan tashkil etilgan. Germaniya Ichki Ishlar Boshqarmasi

tarkibida bo'lgan. 1936-yildan boshlab gestaponing imperiya boshqaruvchisi qilib Genrix Gimmler tayinlandi. 1939-yilda Xavfsizlik bo'yicha bosh imperiya boshqarmasi (RSXA) tashkil etilgach gestapo unga to'rtinchi boshqarma sifatida kirdi. Gestapo beshta bo'limlardan iborat bo'lgan. Ushbu bo'limlarga faoliyat doirasida cheklanmagan vakolatlar berilgan. Fashistik Germaniyasining barcha jinoyatlari amalda tashkilotning qo'li bilan amalga oshirilgan. Nyurnbergdagi xalqaro tribunal gestaponi 1946-yilda jinoyat tashkiloti sifatida tan oldi.

**GITLERYUGEND** (nem. *Hitler-Jugend*, eski orfografiyada *Hitlerjugend*, qisqartirilgan holatda *HJ*, «jigarrang kiyimlilar») - natsional-sotsialistlarning harbiylashgan yoshlar guruhi. «Gitleryugend» tashkiloti 1926-yil 3-4-iyun kunlari Veymar shahrida natsional-sotsialistik yoshlar harakati sifatida paydo bo'lgan. Gitleryugend tashkiloti saylovoldi tadbirlarida ham ishtirok etib, asosan yorliqlar va shiorlarni tayyorlash ishlari bilan shug'ullanishgan. 1936-yil 1-dekabrda «Gitleryugend to'g'risidagi qonun» qabul qilinadi, keyinroq 1939-yil 25-martda «Yoshlarning xizmat burchi to'g'risidagi qonun» qabul qilinib, tashkilotga Baldur fon Shiraxa rahbar etib tayinlanadi. Tashkilotga 10 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar birlashtirilib, yosh guruhga 10 dan 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar «Doyches yungfolk»-«Nemis yoshlari», 14 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar *gitleryugend* nomi bilan nomlangan tashkilotning bo'limiga birlashtirilgan. *Gitleryugend* tarkibida qizlar ham bo'lib, ular 10 dan 14 yoshgacha - «Yungmedelbund» («Qizlar ittifoqi»); 14 dan 18 yoshgacha - «Bund doycher medel» («Nemis qizlari ittifoqi») tashkilotlariga birlashgan.

**GWARDIYA** (ital. *guardia*- himoya qilmoq. skandinavcha. *warda*-himoya qilmoq) harbiy qo'shining saralangan, imtiyozli qismi. Gvardiya dastlab Italiyada XII asrda paydo bo'lib, davlat bayrog'ini qo'riqlovchi sara askariy qism (*karoichio*) ni anglatgan. Muntazam qo'shinlar (asosan yollanma askarlardan tuzilgan) vujudga kelishi bilan ichki va tashqi harbiy qismga bo'linib, boshqa qismlarga nisbatan qurol-yarog'i, kiyimi va ta'limi yaxshi bo'lgan. Keyinchalik Fransiya (XV asr boshi) Angliya, Shvetsiya, Rossiya, Prussiya (XVII asr) va boshqa mamlakatlarda paydo bo'lgan. Rossiyada Gvardiya (leyb-gvardiya) XVII asrning 90-yillarida Pyotr I tomonidan tuzilgan (1918-yil bekor qilingan). II Jahon urushi yillarida (1939-1945) sobiq sovet davlati

qurolli kuchlarining janglarida o'mak ko'rsatgan qismlari. Gvardiya mazmunidagi askariy qismlar O'rta Osiyo xalqlarida ham qadimdan mavjud bo'lgan. Masalan somoniylar davrida turk g'ulomlaridan iborat qism, Chingizxon va Amir Temur qo'shinida bahodirlar qismi. Antik davrda gvardiyaga o'xshash harbiy qismlar bo'lib, ularni Qadimgi Yunonistonda "Muqaddas qism", Makedoniyada "Hukmdorning sevimlilari", Qadimgi Eronda Doro I davrida 10 ming kishilik "O'lmaydigan qo'shin", Rimda imperator Avgust davrida pretorianlar nomli 1000 kishidan iborat harbiy guruh tuzilgan.

**G'ALATI URUSH** (frans. *Drôle de guerre*, ingl. *Phoney War*, nem. *Sitzkrieg* - «o'tirib urushish») - Ikkinchi jahon urushida 1939-yil 3-sentyabrdan 1940-yil 10-maygacha bo'lgan davrda G'arbiy frontda bo'lib o'tgan urush. Dastlabki nomi *Phoney War* (ruscha *soxta urush*) bo'lib, 1939-yilda amerikalik jurnalistlar fransuz jurnalisti Rolana Dorjeles tomonidan aytilgan *Drole de guerre* (*G'alati urush*), jumlasini o'zgartirib ko'rsatishgan. «G'alati urush» davrida Polsha kompaniyasi, «Vezeryubung» amalga oshirildi va «Gelb» operatsiyasi tayyorlandi. Adolf Gitler 1938-yil martda Avstriyani anshlyus qildi, sentabrda Chexoslovakiyani taqsimlash uchun amaliy qadam qo'yildi. 1939-yil 15-mayda polyak-fransuz protokoli imzolandi va Polshaga yordam berishga va'da berdi. 1939-yil 25-avgustda London shahrida ingliz-polyak ittifoqi va maxfiy shartnomasi imzolandi. Ammo 1939-yil fashistik Germaniyaning Polshaga hujum qilishi natijasida Angliya va Fransiya hukumatlari rasman Germaniyaga urush e'lon qilgan bo'lsa-da, ammo G'arbiy frontda hech qanday harbiy harakatlar sodir bo'lmaydi va tarixda bu urush shunday nom oladi.

**HARBIY DOKTRINA** -davlatlarning harbiy siyosati (mudofaa) borasidagi deklaratsiyasi. Bu tizim harbiy ishlab chiqarish, qurolli kuchlar va boshqalarni o'z ichiga oladi. Harbiy doktrina harbiy-siyosiy g'oyalarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va institutlar shu sohaga jalb qilinadi. Doktrina barcha fuqarolarni inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va harbiy-ilmiy doiralar harbiy ishlab chiqarishga, qurol-yarog'larning yanada takomillashtirishga jalb qilinadi. Harbiy doktrina quyidagilardan iborat - Konstitutsiya; -Milliy xavfsizlik konsepsiyasi; - Tashqi siyosat konsepsiyasi; - Turli qonun hujjatlari («Xavfsizlik to'g'risidagi qonun»,



«Mudofaa to'g'risidagi qonun», «Harbiy xizmat to'g'risidagi qonun» va boshqalar); - Jangovar va umumqo'shin hujjatlari.

**HARBIY-SANOAT KOMPLEKSI (HSK)** - harbiy mahsulot ishlab chiqaruvchi, harbiy kuchlar qurilishini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, yangi qurollanish tizimini tashkil etuvchi sanoat korxonalarini va bir qism davlat apparati birlashmasi. Dastlab AQShda vujudga kelgan. O'zida:

1. Davlat tashkilotlarini, aniqrog'i buyurtmachi tashkilotlarni birlashtiradi.
2. Ilmiy-tadqiqot muassasalarini birlashtiradi.
3. Mudofaa korxonalarini birlashtiradi va qurol-yarog'larni ishlab chiqarishga boshchilik qiladi.
4. Qurol-yarog'larning yangi turlarini sinovdan o'tkazishga boshchilik qiladi va amalga oshiradi.
5. Xalqaro miqyosdagi qurol-yarog' savdosida ishtirok etadi.
6. Harbiy sanoatni to'liq nazorat qiladi.

**INTERVENSIYA** (lot. *Interventio*-aralashish) - bir yoki bir necha davlatning boshqa davlat ichki ishlariga zo'ravonlik bilan aralashuvi, uning suverenitetini buzishi. Intervensiya BMT tomonidan agressiyaning bir ko'rinishi sifatida baholanadi va xalqaro huquqda rad etiladi. Intervensiyaga misol sifatida 1872-yil Avstriya va Prussiyaning Fransiya qarshi, 1849-yil Rossiyaning Vengriya qarshi harbiy harakatlarini ko'rsatish mumkin. Keyingi davrlar uchun AQSh ning Kubaga intervensiyasi, Misrning Yamanga, AQShning Vyetnamga va Dominikan respublikasiga, Varshava shartnomasi davlatlarining ChSSR ga 1968-yildagi intervensiyasi va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

**KADETLAR** (frans. *cadet* -«kichik», gaskon. *capdèt*- «komandir, boshliq», lot. *caput*- «bosh») – 1) o'rta asrlarda Fransiya va Prussiyaning zobitlikka erishguncha oddiy askar bo'lib xizmat qiluvchi yosh dvoryanlar; 2) 1917- yilga qadar Rossiya hamda ba'zi chet davlatlarda kadet korpuslari talabalari unvoni. Buxoro amirligining valiahdi Amir Olimxon ham Peterburgda Nikolayev kadet (pajlar) korpusida harbiy ta'lim olgan (1893-1896). XX asming 80-yillarida esa (AQSH, Fransiya va boshqa davlatlar) harbiy o'quv yurtlari kursantlarining unvoni bo'lgan. Hozirgi paytda Rossiya Federatsiyasida kadet korpuslari qayta tiklandi. Sportda esa 15 dan 17 yoshgacha bo'lgan sportchilar va yelkanli yaxtada suzuvchi sportchilar kadetlar deyiladi.

**KAPITAN** (lot. capitaneus-lashkarboshi, lot. caput-bosh so'zidan) - 1) ko'pchilik davlatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarida ofitserlik unvoni. O'rta asrlarda Fransiyada vujudga kelgan. 1558-yildan boshlab rotalar boshliqlari kapitan deb atala boshlangan bo'lsa, harbiy okrug boshliqlari general-kapitan deb nomlana boshlandi. 2) kema ekipajiga boshchilik qiluvchi va kemani boshqaruvchi shaxs. Ba'zi davlatlar Harbiy-dengiz flotida 1, 2, 3-rang kapitani, kapitan-leytenant unvonlari bor; 3) sport komandalarida komanda boshlig'i.

**KAVALERIYA** (frans. *cavalerie*, ital. *cavaleria*, lot. *caballus* - ot) - otliq askar suvoriylar. Quruqlikdagi qo'shin turi. Qadimda va o'rta asrlarda qo'shining asosiy turi hisoblangan. Ular piyodalarga yordam berish, manyovrlarni qo'llash kabilarda qo'l kelgan. XIX asr o'rtalarida harbiy texnikaning rivojlanishi natijasida kavaleriyaning ahamiyati pasaygan. XX asrning 50-yillarida tugatilgan. Otliq qo'shinlar yengil kavaleriya (gusar, ulan, otliq yegerlar) 450-500 kg, o'rta kavaleriya (dragun) 450-500 dan 600 kg gacha va og'ir kavaleriya (kirasir, karabiner, reytar, risar) 600 kg og'ir otlardan tashkil qilingan. Qadimgi dunyoda dastlabgi otliq qo'shinlar Ossuriya va Urartuda paydo bo'lganligi haqida yozma manbalar mavjud. Ahamoniyalar davlatida otliq qo'shinlar asosiy o'rinni egallagan. Rimda esa asosiy qo'shin turi piyodalar bo'lgan. Parfiya davlatida esa qo'shin faqat otliqlardan iborat bo'lgan. V asr oxiri va - VI asr o'rtalaridan kavaleriya Yevropada ham asosiy qo'shin turiga aylanadi. Kiyev Rusida IX-X asrlarda kavaleriya qo'shin turi sifatida paydo bo'ldi. O'q otar qurollarning yaratilishi natijasida XV asr oxirlarida ritsarlar kavaleriyasi o'z mavqeini yo'qotdi. Ivan IV (Grozniy) davrida rus otliq qo'shinlarining soni 50-80 mingni tashkil qilgan. Birinchi jahon urushi yillarida kavaleriya maxsus topshiriqlarni bajaruvchi qism bo'lgan va yuk tashishda keng qo'llanilgan. Ikkinchi jahon urushi arafasida va yillarida Germaniya va SSSRda ham otliq qo'shinlar tashkil qilinib, ularning o'rni alohida bo'lgan. 1950-yillarning o'rtalarida kavaleriya butunlay tugatildi. Bugungi kunda Qozog'istonda maxsus kavaleriya tashkil qilingan. Boshqa ko'plab davlatlarda esa kavaleriya faxriy qorovul tarkibida tashkil qilingan. Undan tashqari politsiya tarkibida ham otliq guruhlar faoliyat ko'rsatmoqda.

**KONSENTRATSION LAGER, KONSLAGER** (yangi lot. concentrates – to'plangan jamlangan, lot. con. (cum) – birga, birgalikda va centrum – markaz, ingl. concentration - «belgilangan vaqtda to'planish», nem. Konzentrations lager) - davlat, siyosiy rejim va boshqalarning haqiqiy yoki gumon qilingan dushmanlarini majburiy ajratib qo'yish uchun mo'ljallangan lager. Konsentratsion lager atamasi dastlab Angliyaning burlar bilan urushi davrida ishlatilgan. Konslager oddiy qamoqxonalarda oddiy asirlar uchun va qochoqlar lageridan farqli ravishda urush, keskinlashgan siyosiy kurash davrida maxsus dekret asosida tuzilgan. Dastlabki Konsentratsion lagerlar amerikalik Enn Eppelbaumning takidlashicha, birinchi bor Kubadagi ozodlik qo'zg'olonlarini boshlarida (1895) ispanlar tomonidan tashkil qilingan, shu bilan birga ingliz – burlar urushi (1899-1902) vaqtida inglizlar tomonidan, Rossiyada XKS ning “Qizil terror haqida” qarori (1918-yil sentabr) asosida tashkil qilingan. Konsentratsion lager rejim sharoitida maxsus maqsad va ommaviy qatog'on vaqtida lagerlarning nomi o'zgartirilgan. Angliya koloniyalarida konsentratsion lagerlarda jami 200 ming kishi saqlangan. Janubiy Afrikaning Barberton, Xeydelburg, Yoxanessburg, Klirksdorp, Middelburg, Pochefstrom, Standerton, Feriniging, Folksryus, Mafeking, Ayrin va boshqa joylarida shunday lagerlar bo'lgan. Fashistlar Germaniyasida Konsentratsion lager ommaviy davlat terori va genosid quroli bo'lib u bosib olingan mamlakatlarda tarqalgan. Gitlerchi fashistlar shu mamlakatlarning millionlab tinch aholisini, harbiy asirlarni, nemis vatanparvarlarini Konsentratsion lagerda qiynab o'ldirishgan. Ulardan eng yiriklari Arbaytsdorf (Germaniya), Birkenau (Osvensim, Polsha), Bergen-Belzen (Germaniya), Buxenvald (Germaniya), Varshava (Polsha), Gross-Rozen (Germaniya), Daxau (Germaniya), Kauyen (Litva), Plashov (Krakov, Polsha), Sobibor (Polsha). Ulardan tashqari Xorvatiya, Finlyandiya, Italiya, AQSh, Vyetnam, Chili, Xitoy, KXDR va boshqalarda ham shunday lagerlar turli davrlarda va bugungi kunda ham mavjud.

**LEGION** (lot. legio, legionis – harbiy yig'in, chaqiruv) – 1) qadimgi Rim qo'shinidagi asosiy tashkiliy va taktik birlik; manipula va turmalarda mil.avv I asr o'rtasidan kogortalardan tashkil topgan. Legion 5 mingdan 6 ming (ancha keyin 4320) nafar piyoda va bir nech yuz ko'pxollarda 300 nafar suvoriydan tashkil topgan. Har bir legion o'z raqami va nomiga ega edi. Respublika davrida legionni harbiy tribun

(Miloddan avvalgi 331 yildan boshlab), imperiya davrida esa legat boshqargan. Legion tarkibida «yunior» (18 dan 46 yoshgacha) va «senior» (46 yoshdankatta) lar guruhlar bo'lgan. Rim legionlarida turli xil zobitlik o'rinlari bo'lib, katta zobitlarga Lager Legati, Lager tribuni, Latiklaviy, Prefekt, Angustiklavi tribuni, Primipil, O'rta darajadagi zobitlarga Senturion, Kichik zobitlarga Akvilifer, Signifer, Opsion, Tesserariy, Dekan, Kornisen, Tubisen, Businator, Imaginifer, Veksillyariylar kiradi; 2) XVI – XIX arslarda Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiyada turli harbiy qismlar ham legion deb yuritilgan; (Masalan Sezar legioni, Temir legionlar va boshqalar). II Jahon urushi davrida Germaniya harbiy asirlardan turli xalqlarning legionlarini tashkil qildi.

**LEND-LIZ** (ing. lend - qarz, lease - ijara) – qurol yarog', o'q dori, strategik xom ashyo, oziq ovqat va hokazolarni berish (qarzga yoki ijaraga) tartibi; lend- liz asosida AQSh II jahon urushi davrida Gitlerchilarga qarshi koalitsiya bo'yicha ittifoqchilarga yuqoridagilarni yetkazib berib turgan. Lend-liz tog'risidagi qonun 1941-yil 11- martda AQSh kongressida qabul qilindi. Lend - liz bo'yicha AQShning xarajatlari shu kundan 1945-yil 1- avgustgacha 46 mlrd. dollarga yetgan. Jami yetkazilgan mahsulotlar esa 50,1 mlrd dollarga yetgan (2008 yildagi ekvivalentda taxminan 610 mlrd dollar), va uning 31,4 mlrd dollari Buyuk Britaniya 11,3 mlrd - sobiq SSSR, 3,2 mlrd - Fransiyava 1,6 mlrd - Xitoyga berilgan. Mazkur qarz va ijara mahsulotlarni olgan davlatlar 1946 yildan boshlab AQShga qaytara boshlashi lozim edi. Sobiq SSSRning lend-liz bo'yicha qarzi 1946 yilda 11 mlrd deb belgilangan va Rossiya tomoni keyinroq uning faqatgina 722 mln dollarini tan olgan.

**MANYOVR** (frans. *manœuvre* -harakat, operatsiya) transport vositalarining harakatiga nisbatan qo'llaniladi va o'z o'rnida harbiy kuchlarning harakatiga nisbatan, harbiy amaliyotlarni bajarishiga ishlatiladi. Garchi texnikalarning harakatiga nisbatan ishlatilib kelgan bo'lsada, ammo hozirgi kunda qurolli kuchlarning harbiy mashqlari sifatida qo'llanilib kelmoqda. Urush sharoitida qo'shinning ma'lum amaliyotlarni bajarishiga ham manyovr deyiladi.

**MARSHAL** (frans. *marchal*) - 1) o'rta asrlarda Fransiyada saroy mulozimlari unvoni. Dastlab marshal otlar qo'riqchisini yoki miroxurni anglatgan (fransuzchada hozirgacha taqachi *maryechal* deb ataladi).

Keyinchalik marshal oliy saroy amaldorlaridan biriga aylangan. Otton I hukmronligi davrida marshal imperatorga yaqin bo'lgan shaxslardan biriga aylangan; 2) qator davlatlarda armiyalaridagi oliy harbiy unvon; marshal unvoni XIX asrlarda Ispaniya, Turkiya (mushir), Italiya, Yaponiya, XX asrda Buyuk Britaniya, Hindiston, Polsha, Finlyandiya, Ruminiya, Xitoy, Koreya, Mo'g'uliston, Bolgariya va boshqa davlatlarda joriy etilgan. Buyuk Britaniya, Prussiya (keyinroq Germaniya), Avstriya (keyinroq, Avstro-Vengriya) va Rossiyada marshal unvoni general-feldmarshal unvoniga to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda ham Rossiya armiyasida oliy harbiy unvon; 3) Polshada ayrim mansabdor shaxslar unvoni ham marshal deb atalgan.

**MILITSIYA** (lot. militia - qo'shin, xalq ko'ngillilari) - ko'plab mamlakatlardagi politsiyaning ekvivalenti. Sobiq SSSR, Sovet Rossiyasi(2011-yilgacha), Bolgariya, Mongoliya, Polsha, Ruminiya va Yugoslaviyada ham qo'llanilgan. Hozirgi kunda Abxaziya, Belorussiya, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston va boshqa bir qancha davlatlarda mavjud. SSSR parchalanib ketgach, 1989-yil Bolgariya va Sloveniya, 1990-yil Polsha, Ruminiya, Estoniya, Litva, Moldaviya, Xorvatiya, 1991-yil Latviya, 1992-yil Mongoliya, 1993-yil Gruziya, 1997-yil Serbiya, 1998-yil Qozog'iston, 1999-Ozarbayjon, 2001-yil Armaniston, Tog'li Qorabog', Turkmanistan va 2011-yil Rossiyada militsiya politsiyaga almashtirildi. Militsiya atamasi Rossiyada ilk marta 1146-yilda, keyinroq Pyotr I hukmronligi davrida qo'llanilgan, 1806-yil oxirida rus-pruss-fransuz urushidan keyin Rossiya imperiyasida Napoleon bosqiniga qarshi turish uchun zobitlarga tenglashtirilgan, umumiy soni 612 ming kishidan iborat qo'shin tuzilib, uni militsiya deb nomlashgan.

O'zbekistonda konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlashga da'vat etilgan, fuqarolar hamda davlat mulkini, qonunchilikni, aholi, korxonalar va tashkilotlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashuvchi ma'muriy organ. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ichki ishlar idoralarida xizmat o'tash tartibi haqidagi vaqtinchalik nizom» (1993-yil 8-yanvar), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni (2001-yil 27-mart) asosida faoliyat yuritadi.

**MILITARIZM** (lot. *militaris* - harbiy) - davlat g'oyasi yoki muayyan mamlakat hukmron doiralarning davlatning harbiy qudratini kuchaytirish maqsadida foydalanadigan siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy vositalari tizimi. Militarizm qurollanish poygasi, harbiy byudjetning o'sishi, chet ellarda harbiy kuchlarni ushlab turishga zo'r berish, bosqinchilikni ko'zlovchi harbiy-siyosiy bloklar tuzish, mamlakat iqtisodiyoti va uning tashqi hamda ichki siyosatida harbiy-sanoat majmuining ta'sirini kuchaytirish ham militarizmga xos hususiyatdir. Militarizm atamasi birinchi bor XIX asr o'rtalarida Fransiyadagi Napoleon III ning tartibiga nisbatan qo'llanilgan. Fransiya-Prussiya urushi (1870-1871) dan keyingi yillarda, ayniqsa XX asrda militarizm keng miqyosga chiqib ketdi. 1869-yilda Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya, Germaniya va Avstriya-Vengriya qurolli kuchlarining umumiy soni 2111 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1889-yilda 2653 ming kishi, 1912-yilda 3184 ming kishi va birinchi jahon urushiga (1914-1918-yillarda) 74 mln kishi jalb qilinadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy harakatlarga 100 mlndan ortiq kishi jalb qilinib, urush natijasida ko'plab davlatlarning iqtisodi militarlashib bordi va bir necha o'n yillar davomida sobiq SSSR va AQSh o'rtasida qurollanish poygasi avj olib ketdi.

**MINOMYOT** (mina va metat - irg'itmoq) - mina irg'itqich, silliq stvolli artilleriya quroli. Rus ofitseri va muhandisi L.N.Gobyato tomonidan yaratilgan. Dushmanning ochiqlikdagi hamda okop, transheyaldagi kuchlarini, o't ochish vositalarini tor-mor qilishga mo'ljallangan. Oddiyligi, yengilligi, snaryadi (minasi)ning egri chiziq bo'ylab yo'nalishi kabi hususiyatlari bilan odatdagi artilleriya qurollaridan farq qiladi. Asosiy qismlari: stvol, qo'shoyoq, lafet, tayanch plitasi, prisel, boshqaruvchi mexanizm, gorizontni to'g'rilash mexanizmi. Minomyotdan oskolkali, tutovchi, yondiruvchi va fugas minalar otiladi. Minomyot birinchi marta rus-yapon urushi (1904-1905-yy) da rus qo'shinlari tomonidan qo'llanilgan. II jahon urushida hamma armiyalarda ishlatilgan. Minomyotlar 81 mm dan 240 mm gacha kalibrli bo'ladi. Ularning snaryadi 3 kg dan 130 kg gacha, otish masofasi 2.5 km dan 10 km gacha, jangovar holatdagi og'irligi 36 kg dan 3600 kg gacha. Reaktiv snaryad (mina) larni otish uchun reaktiv minomyotlar ham mavjud. Bunday minomyotlar II jahon urushi davrida «Katyusha» nomi bilan mashhur bo'lgan.

**OTRYAD** (rus. Harbiy guruh) - jangovar yoki maxsus vazifani (razvedka, qo'shin oldida boruvchi ilg'or guruh va boshqalar) bajarish uchun tuziladigan vaqtinchalik yoki doimiy harbiy tuzilma. Boshqa o'rinlarda ayrim davlatlar harbiy havo kuchlarida eskadrilya tarkibiga kiruvchi bo'linma. Shuningdek chegara qo'shinlarida taktik birlashma. Otryad odatda doimiy yoki vaqtincha tuzilgan harbiy birlashma sifatida dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. XIX asr va XX asr boshlarida Rossiya qo'shinida keng qo'llanila boshladi. Sobiq SSSR harbiy kuchlarining asosiy qismiga aylanadi. Qadimgi Rusda harbiy yurishlar davrida yo'llar va ko'priklar quruvchi maxsus otryadlar mavjud bo'lgan va knyazning harbiy polki otryad deb atalgan. Qadimgi Forsda saralangan otryadlar tuzilgan. Eramizdan avvalgi VI asrda Ahamoniylar imperiyasida birinchi marta «o'lim bilmaslar» otryadlari tuziladi. Qadimgi Yunonistonda an'anaviy ravishda otryadlar o'zida 300 kishilik harbiy guruhni birlashtirgan. «300 spartalik jasorati»da ham faqatgina bir otryad qoldirilib qolgan askarlar ortga chekinishgan.

**PENTAGON** (yunon. besh burchak) - AQSh Mudofaa Vazirligining binosi, barcha tomoni bir-biriga teng bo'lgan yirik inshoot, Virjiniya shtatida joylashgan (pochta manzili: Arlington, Virjiniya 22202, AQSh). Dunyodagi eng yirik binolardan biri bo'lib, uning qurilishi 1943-yil yanvar oyida o'z nihoyasiga yetgan. Barcha tomoni 281 metrdan. Karidorlarning umumiy uzunligi 28 km, barcha besh qavatning umumiy maydoni 604 000 m<sup>2</sup>. binoning ikkita yerosti qavati (chuqurligi taxminan 23,5 m) bor deb hisoblanadi, ammo bundan ko'p bo'lishi ham mumkin. Inshootning 7754 oynasi bo'lib, unda 26 000 kishi ishlaydi. Pentagon binosini amerikalik arxitektor Jorj Bergstr (1876-1955), loyihalashtirgan, uning qurilishini Filadelfiyalik (Pensilvaniya shtati) Jon Mak Sheynning qurilish kompaniyasi amalga oshirgan. Loyihani AQSh armiyasi buyurtma qilgan. Qurilish ishlari 1941-yil 11-sentyabrda boshlanib, amalda 1943-yil 15-yanvarda nihoyasiga yetkaziladi. Qurilish ishlariga AQSh qurilish armiyasi polkovnigi Lesli Grovs boshchilik qiladi. Pentagon binosi hududi 28,7 akr (116 000 m<sup>2</sup>), va undan tashqari ichki hovli 5,1 akr (21 000 m<sup>2</sup>).

**PIONERLAR** (frans. pionnier - boshlovchi) – fransuz, german va boshqa bir qator armiyalarda injenerlik qo'shinlar shaxsiy tarkibi nomi. Rossiya armiyasida XVIII asrning ikkinchi yarimi XIX asrda pioner rota

va batalon askarlari yo'l ko'prik va dala istehkomlarini qurishga mo'ljallangan. 1829-1844-yillari pionerlik batalonlari va rotalari nomi sapyorlik nomiga o'zgartirilgan. 2) Hali tadqiq qilinmagan hududga birinchi bo'lib kirib boruvchi yoki faoliyatning biror bir tarmog'i yoki sohasiga yangi yo'nalishni birinchi bo'lib boshlovchi kishiga nisbatan ham qo'llaniladi.

**POLISMEYSTER** (nem. Poliseimeister-polisiya boshlig'i) – Rossiyada 1782-yildan barcha guberniya va ayrim yirik shaharlarda (1718-yilda Peterburgda, 1722-yilda Moskvada ta'sis etilgan) politsiya boshliqlari, unga pristavlar bo'ysungan. 1917-yil Fevral inqilobi davrida tugatilgan. Peterburg, Moskva va Varshava shaharlarida bir necha polismeysterlar bo'lganligi bois ular ustidan rahbarlikni ober-polismeyster analga oshirgan.

**POLKOVNIK** (polyak. polkownik-polkni boshqaruvchi) - bir qancha davlatlar qurolli kuchlarida zobitlik unvoni. Polkovnik unvoni rus armiyasida XVII asrning 30-yillaridan mavjud bo'lgan. Sovet armiyasida 1935-yil 22-sentabrda joriy etilgan bo'lib, Harbiy dengiz flotidagi 1-rang kapitani unvoniga to'g'ri kelgan; RF qurolli kuchlarida saqlanib qolgan. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, soliq, bojxona, chegara va boshqa qismlardagi zobitlik unvoni.

**POSHO**, poshsho - Usmonli turk imperiyasida XV asrdan boshlab fuqarolar va harbiylarga berilgan faxriy unvon. Dastlab, vazir, beklarbegi va boshqa yuqori mansabdor shaxslar unga sazovor bo'lgan. Posho idora etgan viloyat (eyyalet) yoki tuman (sanjoq) posholik deb atalgan. XIX asrdagi islohot (Tanzimat)dan keyin muntazam armiya tuzilgach, posho general va vazirlarga ham berilgan. Unvon merosiy bo'lmagan. Kamdan-kam holatlarda va ba'zan ruhoniylarga ham berilgan. Ba'zi manbalarda posho saljuqlar davlatida forscha «podshox» tarzda ilk bora paydo bo'lgan deb ko'rsatiladi. Turkiya Respublika deb e'lon qilingach (1923), faqat generallargina posho unvoniga ega bo'lgan. Keyinchalik Turkiyaning o'zida (1934), so'ngra Misrda (1952), Iroqda (1958) bekor qilingan.

**QIZIL ARMIYA** (Ishchi-Dehqonlar Qizil Armiyasi, ruscha RKKA) – Sovet Rossiyasi va sobiq SSSRning 1918-1946-yillardagi qurolli kuchlari. O'sha vaqtlarda (1918-1925) harbiy ishlar bo'yicha xalq komissari mansabida bo'lgan K.A.Trotskiy tomonidan tuzila



boshlangan. Rossiya bolsheviklar hokimiyatini saqlab qolish va ularning dushmanlariga qarshi kurashish maqsadida tashkil etiladigan bo'lg'usi armiya ko'ngilli ravishda va deyarli xarajatlarsiz safarbar qilinadigan bo'lishi kerak edi. Shuning uchun bo'lsa kerak yangi shakllangan armiyaning asosini ishchilar va dehqonlar tashkil qilgan. Dastlab asosiy e'tibor chaqiriluvchilarni o'qitishga va disiplinaga qaratilgan. Ammo bu ishlarni bajarish uchun Trotskiy sobiq chor zobitlari xizmatidan foydalanishga majbur bo'lgan. Rossiyadan tashqarida Qizil Armiya 1920-yilda Polshaga amalga oshirilgan muvaffaqiyatsiz harbiy yurishni amalga oshirgan. 1922-yilda Rapallo shartnomasining imzolanishidan so'ng Germaniya bilan hamkorlik bu armiya harbiy qudratining oshishiga olib keldi. Stalinning ehtimoliy muxolifatni yo'qotish maqsadida uyushtirilgan «tozalashlardan» Qizil Armiya ham chetda qolmadi. II Jahon urushi yillarida bu armiya dunyodagi eng yirik armiyaga aylandi (tax. 5 mln). Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng g'olib chiqqan bu armiya Sovet Armiyasi deb atala boshlangan.

**REMILITARIZATSIYA** (nem. Remilitarisierung - qaytadan harbiylashish) – qaytadan qurollanish, ilgari qurolsizlantirilgan hududni yoki mamlakatni qaytadan qurollantirish; xalqaro shartnoma asosida qo'shinlar chiqarilib yuborilgan yerga yana qo'shin kiritish. Masalan, Versal shartnomalariga xilof ravishda fashistlar Germaniyasi tomonidan Reyn zonasi remilitarizatsiya qilindi.

**REKRUT** – soni oldindan belgilab qo'yilgan dehqonlar va posad xonadonlaridan bittadan kishini askarlikka olish. Rus armiyasida 1705-1874-yillarda rekrutlik majburiyati asosida umrbod xizmatga olingan shaxs ham shunday nomlangan. Krepostnoy dehqonlardan rekrutlikka olinsa, ular qaramlik (krepostnoylik) dan ozod etilgan. Dvoryanlar tabaqasi rekrutlikdan ozod etilgan. Keyinchalik savdogarlar tabaqasi, cherkov xizmatchilari oila a'zolari, faxriy fuqarolar, Bessarabiya va Sibirning ayrim rayonlari aholisi ham ozod qilingan. 1793-yilda umrbod xizmat muddati 25 yil bilan cheklangan bo'lsa, 1834-yil 20 yilga qisqartirildi.

**REVANSH** (frans. Revanche -to'lov, qasos olish) - urushda mag'lubiyatga uchragan agressiv doiralarning urushdan oldingi chegaralarni, xalqaro munosabatdagi tartiblarni qayta tiklash bahonasi bilan yangi urush tayyorlashga qaratilgan siyosati. Mazkur so'z birinchi bor Fransiyada 1870-yillarda paydo bo'ldi va uning sababi, 1870-1871-

yillardagi Fransiya-Prussiya urushida mamlakat Germaniyaga yengilishi, boy berilgan Elzas va Lotaringiyani qaytarishga urinish natijasida edi. Revanshizm odatda mamlakatni urushga tayyorgarlik ko'rishga chaqirish bilan birga yangi urush o'choqlarini paydo bo'lishiga olib keladi. Birinchi jahon urushidan keyin Versal tinchlik shartnomasi natijasida Germaniyada boy berilgan 10% hududni qaytarib olishga bo'lgan urinish va yangi urushga chaqirish kuchayib ketdi, bunda «nemislarniki bo'lib kelgan barcha narsalar, yana nemislarniki bo'lishi lozim» degan shior eng ko'p qo'llanilardi. Xuddi shunday holat Italiyada ham mavjud bo'lishi natijasida Yevropada ikkita yirik urush o'chog'i paydo bo'lgandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Germaniya, Italiya va Yaponiyada ham shunday holat yuzaga kelmasligi uchun barcha choralar ko'rilgan.

**ROTMISTR** (nem. rittmeister, nem. ritt so'zidan - otliq otryad va nem. meister - boshliq) – kavaleriyada katta zobitlik mansabi. 1) XV asrdan XX asrgacha Polsha otliq qo'shinlari harbiy unvon. Dastlab Rotmistr piyodalar qismi (rota) ni ham, otliqlar qismi (xorugv)ni ham boshqarish mumkin bo'lgan. Keyinchalik Eskadron qo'mondoni Rotmistr deb atalgan va shu holatda 1947-yilgacha saqlanib qolgan; 2) Germaniya va Avstriya-Vengriyada Rotmistr kapitanlik unvoniga mos kelgan. I Jahon urushi davrida Rotmistrlar Eskadronlarni ba'zida polklarni boshqargan. Vermaxtda rotmistr unvoni kavaleriya qismlarida va ayrim artilleriya qismlarida saqlangan, gauptman unvoniga mos kelgan; 3) Rossiyalar Rotmistrlar XVII asrda paydo bo'lgan. Imperiya davrida otliq qo'shinda zobitlik unvoni. Piyoda qo'shinning kapitani, kazaklar qo'shinida yesaul, kapitan-leytenant, keyinroq flot katta leytenanti va fuqarolik xizmatidagi kollej asessori mansablariga mos kelgan. 1917-yil bekor qilingan.

**«SEELEVE» operatsiyasi («Dengiz sheri»)** – Angliyaga shu nomli desant tashlash operatsiyasini tayyorlash to'g'risidagi direktiva Ikkinchi jahon urushining boshlanish davridayoq e'lon qilingandi. 1940-yil 2-iyulda rasman tasdiqlangan. Operatsiya 1940-yil 15-avgustga belgilangan edi, keyinroq bu muddat 21-sentyabrga ko'chiriladi, biroq operatsiya, Angliya flotining yaqqol ustunlikka ega bo'lgani tufayli, amalga oshirilmay qoldi. Operatsiya rasman 1940-yil oktabr oyida bekor qilinadi va bu Angliyaning katta g'alabasi deb e'tirof etildi.

**SIPOHI** (fors. qo'shin, jangchi) – 1. Buyuk Britaniya zobitlari rahbarlik qilgan hindlardan tuzilgan yollanma qo'shin. 1857-1858-yillarda sipohilar Hindistonda Buyuk Britaniya ma'muriyati joriy qilgan yangi o'q-dorilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishi milliy ozodlik kurashiga aylanib ketdi. 2. Usmoniy imperiyasida otliq qo'shin qismlaridan biri. To XVIII asr o'rtalarigacha yanicharlar bilan birgalikda sipohilar davlatning asosiy harbiy bo'linmalaridan biri bo'lib kelgan. Safarbarlik vaqtida har o'ninchi sipohi davlatdagi ichki tartibni ta'minlash uchun uyida qoldirilgan. Harbiy xizmat evaziga yer-mulk (timar, zeamet) olgan.

**SULH** - urush harakatlarini to'xtatish uchun tuzilgan bitim. Xalqaro shartnomalarning bir turi.

**STRATEGIYA** (yunon. "qo'mondon san'ati") - urush san'ati, shu bilan birga harbiy qo'mondonlarning qo'shinni boshqarishiga doir tartiblar. Strategiya urushlarda odamlarni kamroq qurbon bo'lishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Karl Klauzevisning qarashlariga ko'ra harbiy strategiyaning ikki ko'rinishini ajratib ko'rsatishadi:

- Alohida urushlarda qo'shinni boshqarish;
- Urushning maqsadidan kelib chiqib qo'shinni boshqarish.

**TROTIL**, "Trinitrotoluol (*trotül, TNT, 2,4,6-trinitrometilbenzol*) - portlash kuchi o'lchov birliklaridan biri. Odatda kuchli harorat bilan amalga oshirilib, 80,85 °C ni tashkil qiladi. Tarkibida alyumotol, ammonal, ammonit va boshqa portlovchi uskunalar o'rnatilgan. AQShda tog'-kon sanoatida trotil kuchiga teng portlashlardan 1990-yillardan boshlab foydalana boshlashgan. Trotilning to'liq nomi Trinitrotoluol bo'lib, uni 1863-yilda nemis kimyogari Yulius Vilbrand yaratgan va fanga kiritgan.

**VERMAXT** (nem. wehrmacht, wehr – qurol, himoya va macht – kuch, davlat) - fashistlar Germaniyasining 1935-1945 – yillarda qurolli kuchlari nomi. Qurolli kuchlar tuzish haqidagi qonun Gitler hokimiyat tepasiga kelgan vaqtdan 2 yil keyin – 1935-yil 16-martda qabul qilingan. Qurolli kuchlar quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy dengiz floti va harbiy havo kuchlaridan tashkil topgan. Qonunga ko'ra diviziyalar soni 36 taga, quruqlikdagi qo'shinning tarkibi 500 ming askarga yetishi belgilab qo'yilgan. Yangi armiyaning tuzilishida general-polkovnik Xans fon Sekt katta rol o'ynagan. Birinchi jahon urushidan keyin Germaniya 100

minglik armiya va 15 ming kishilik moryaklar qismiga ega bo'lishi belgilangan. 1936-yildan 1944-yilgacha «Die Wehrmacht» nomli jurnal nashr etib borilgan.

**VODOROD BOMBASI (termoyadroviy qurol)** - vayron qilish kuchi katta bulgan portlovchi bomba. Ta'siri termoyadro reaksiyasiga asoslangan. Birinchi vodorod bombasi 1953-yilning avgustida sobiq Sovet davlatida portlatish natijasida sinovdan o'tkazilgan. 1952-yil noyabrida AQShda sinovdan o'tkazilgan dastlabki termoyadroviy zaryadlar sinovi bomba bo'lmasdan, o'ziga xos laboratoriya namunasi edi. 1961-yilda sobiq Sovet davlatida eng katta vodorod bombasi portlatish orqali sinovdan o'tkazilgan edi. Bu tadbir asosan siyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan bo'lib, shundan so'ng termoyadro qurollaridagi ustunlik amalda AQShdan sobiq Sovet davlatiga o'tib ketdi.

## II-BOB. IQTISODIYOT VA IJTIMOIV XAVOTGA OID ATAMALAR

### 2.1. Jamiyatdagi ijtimoiy toifalar, ular o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarga doir atamalar

**ABOLITSIONIZM** (lot.-yo'qotish, bekor qilish) – qoratanli aholini (negrlarni) qullikdan ozod qilish harakati; abolitsionistlar–Amerikada qullikni bekor qilish tarafdorlari. XVIII asrda anglikan cherkovining kvakerlar sektasi tomonidan qullikka qarshi shakllantirilgan. XIX asr boshlarida Yevropaning aksar davlatlari qullikka qarshi chiqishdi. 1807-1808-yillarda Britaniya koloniyalaridan AQShga qullarni keltirish taqiqlandi. 1833-yilda esa Britaniya imperiyasida qullar savdosi va qulchilik butunlay taqiqlandi. AQShda esa 1865-yilda qullik bekor qilindi. 1948-yilda BMT tomonidan e'lon qilingan «Inson huquqlari butunjahon deklaratsiyasi»da qullik butun dunyoda bekor qilindi. Mashhur abolisionistlar sifatida Uilyam Lloyd Garrison, Frederik Duglass, Garriyet Tabmen, Jon Braun, Uendell Fillips, Garriyet Bicher Stou, Jon Xopkins, Jon Rokfeller va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

**ABSENTEIZM** (lot. absentia–yo'qlik, hozir emaslik) – aholining vakillik organlari va mamlakat rahbari saylovlarida ishtirok etishdan bo'yin tovlashi. Mavjud boshqaruv tartiblariga, siyosiy institutlar faoliyatiga norozilik bildirish shakli sanaladi. Absenteizmni mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy jarayonlarga befarqlik, odamlardagi siyosiy madaniyatning pastligi, o'z huquqlariga befarqligi bilan tushinish mumkin. Boshqa ma'noda ish joyida yo'qotilgan ish kunlari (yoki soatlari) yoki ishga chiqmaslikning umumiy miqdori ham shunday deb atalgan.

**EKSPLUATATSIYA** (frans. *exploitation*-foydalanish, daromadni o'zlashtirish) – mulkdorlarning boshqalar mehnati mahsulini o'zlashtirib olishi. Dastlab Qadimgi Misr, Ikkidaryo oralig'i, Rim va Yunonistondagi qullar mehnatidan foydalanishga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik o'rta asrlarda katta yer egalarining dehqonlar mehnati mahsulini o'zlashtirishiga, yangi zamon davrida korxonalar egalarining ishchilar mehnatidan foydalanishiga ham mazkur atama ishlatilgan. Undan tashqari bu atama texnikalardan, tabiiy zahiralardan va boshqalardan foydalanishga nisbatan ham qo'llaniladi.

**GULAG** - Axloq tuzatish-mehnat lagerlari va qamoq joylari Bosh boshqarmasi, 1934-yilda tashkil etilgan 1956-yilgacha faoliyat ko'rsatgan NKVD (Ichki Ishlar Xalq Komissarligi) tarkibidagi boshqarma. Axloq tuzatish-mehnat lagerlari (ATML) tizimini boshqargan. GULAG maxsus boshqarmasi mamlakatning turli burchaklaridagi ATMLlarni: Karaganda ATML (Karlaga), Dalstroy NKVD, Soloveskiy ATML (USLON), Belomor-Bol'tiq ATML va NKVD kombinati, Vorkutinskiy ATML va boshqalarni birlashtirgan. GULAG tizimida 30-50-yillardagi shaxsga sig'inish davri omnaviy qatag'onlari hamda SSSRdagi totalitar tuzum qurbonlari saqlandi. 1973-yilda A. I. Soljenitsinning "GULAG Arxipelagi" kitobi nashrdan chiqqach GULAG atamasi NKVD va umuman totalitar tuzumning lagerlari va qamoqxonalari sinonimiga aylandi.

**KATORGA** (yunon. katergon-galera-katta eshkakli harbiy kema) - mahbuslarni og'ir jismoniy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan jazo turlaridan biri. Qadimgi Rimda vujudga kelgan va asosan davlat jinoyatchilari deb hisoblangan kishilargina shunday joylarga yuborilgan, ular dastlab katta harbiy kemalarda eshkakchi sifatida ishlatilgan. Ularning kuchidan vodoprovodlar va boshqa juda muhim deb hisoblangan inshootlarni qurish ishlarida ishlatilgan. Rossiyada katorga XVII asr oxirida paydo bo'lgan. Ammo XVI asrda ham juda xavfli deb topilgan jinoyatchilarni uzoq joylarga surgun qilish mavjud bo'lgan. Katorgaga hukm qilinganlar mehnatidan qal'alar qurishda, flotda, konchilik va boshqalarda foydalanishgan. XIX asr oxiri - XX asr boshida markaziy katorga turmalari tizimi ko'rinishida mavjud bo'lgan. 1648-yildagi podsho farmoniga binoan jinoyatchilarni Sibirga surgun qilish boshlab yuborildi. Pyotr I tomonidan 1699-yil 24-noyabrda ayrim kishilarni Azov dengizi bo'ylariga oilaviy ravishda majburan surgun qilish amalga oshiriladi. Katorga so'zi o'sha davr jumallarida «galera» yoki «galey» shaklida tilga olingan. Sobiq SSSRda katorga Gulag tarzida ishlatilgan va qariyb 70 yillik tarixi davomida millionlab kishilar o'sha joylarga majburan ko'chirilgan. Buyuk Britaniyada XVIII asrdan boshlab ko'plab jinoyatchilar o'lim jazosining o'rniga uzoqdagi Britaniya mustamlakalariga surgun qilingan. 1786-yildan Avstraliyada ana shunday katorgalar paydo bo'la boshladi. Undan tashqari Afrika, Janubiy Amerika va Osiyoning bir qator davlatlari - Argentina, Misr, Zambiya, Hindiston, Iroq, KXDR,

Senegal, Turkiya kabi davlatlarda bugungi kunda ham katorgalar mavjud.

**KOMISSIYA** (lot. *Comittere* -topshiriq, boshqarmoq, *comer* - boraman, tayyorlanaman) - kollegial organ, biron-bir vazifani bajarish yoki maxsus tadbirlar o'tkazish uchun tuziladi. Fuqarolik huquqida - shartnoma; unga ko'ra, bir tomon ikkinchi tomonning topshirig'iga binoan muayyan haq evaziga o'z nomidan, lekin komitetning manfaati va hisobiga uchinchi shaxs bilan bitim tuzadi.

**KOMMUNA KENGASHI**- 26-martda o'tkazilgan saylovdan so'ng Parijda tashkil etilgan ham qonun chiqaruvchi, ham ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi organning nomi.

**KOOPERATIV** - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarni ko'zlab kishilar tomonidan tuzilgan o'ziga xos tashkilot bo'lib, undan a'zolar o'zlariga ulush (pay) olib turishadi. Kooperativlar ko'pincha iqtisodiy sohada qo'llaniladi va unda har bir paychi alohida bir ovozga ega bo'ladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida 700 mln kooperativ turli sohalarda faoliyat olib bormoqda va ular ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, uy joy, iste'mol krediti, sug'urta, iste'mol jamiyatlari va kooperativlarga bo'linadi. Birinchi kooperativlar XIX asr boshlarida Buyuk Britaniyada ishchilarning sharoitini yaxshilash maqsadida vujudga kelgan. Dastlabki kooperativlar ishchilarga do'konlardan mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish imkoniyatini yaratib berardi. 1844-yilda Angliyaning Rochdeyl shahri to'quvchilari o'zlarining iste'mol kooperativini tashkil qiladi. 1860-1880-yillarda Germaniya, Italiya, Fransiya, Shveysariya, Belgiya va Skandinaviya mamlakatlarida kooperativlar faol vujudga kela boshlaydi.

**KORPORATSIYA** (lot. *corporatio*-birlashma, uyushma, hamjamiyat) - rivojlangan yirik aksiyadorlar jamiyati, biron bir faoliyat uchun uyushgan huquqiy va jismoniy shaxslar majmui. Korporatsiya bir kasb yoki faoliyat sohasida fuqarolarni birlashtirishi ham mumkin. Hozirgi ko'rinishdagi korporatsiyalar XIX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Lekin korporatsiya ko'rinishidagi birlashmalar qadimgi Rimda paydo bo'lgan. Rimda respublika boshqaruvi paytida mavjud qonunchilikka inkor etmaydigan bo'lsa, yangi korporatsiyalar tashkil etishga ruxsat berilgan. Lekin imperiya

vaqtida korporatsiyalar tuzish qiyinlashdi, sababi bu uchun senatning maxsus ruxsatnomasi talab qilingan. Dunyodagi eng birinchi korporatsiya Shvetsiyaning Falun shahrida joylashgan Stora Kopparberget nomli mis konlari hisoblanadi. Bu korporatsiyaning nizomi 1347-yilda qirol Magnus Eriksson tomonidan tasdiqlangan. XVII asrdagi mustamlakachilik avj olgan sharoitda ko'pchilik Yevropa davlatlari korporatsiyalarga koloniyalar bilan savdo qilish huquqini bera boshlaydilar. Natijada kompaniyalar zomanaviy korporatsiyalar ko'rinishini kasb eta boshladi. Masalan, Ost-Indiya, Gudzon kompaniyalari.

**KORPORATIV MANFAAT** – korporatsiyaga kiruvchi firma, kompaniya, tashkilotlar uchun umumiy manfaatlar. Bu manfaat birgalikda tovar yoki xizmat bozorlariga kirib borish, unda o'z o'rmini topib, mavqeyini mustahkamlash, raqobat kurashida g'olib chiqib, foydani yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, mahsulot sifatini keskin yaxshilash shaklida bo'lishi mumkin. Korporativ manfaat o'zida bir nechta maqsadlarni aks ettiradi. Manfaaddorlik mexanizmi ko'p va sifatli mahsulotni kam xarajat bilan ishlab chiqarish, mahsulot tannarxini kamaytirish, xom ashyo, material, energiya, yoqilg'i va pul mablag'larini tejashni, iqtisodiy maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi va foyda hamda daromadni ko'paytiradi. Korporativ manfaat ko'p bosqichli hususiyatga ega bo'lib, korporatsiyada ishlovchi har bir xodim, tarkibiy bo'limlar va umuman korporatsiyaning manfaatlaridan shakllanadi

**KORPUS** (lot. corpus - tana, yagona, bir butun) - fan texnikada inshoot, mexanizm, asboblari, apparat, qurilmalar va ba'zi transport mashinalarining qismi; diplomatiyada biror maxsus ish bilan mashg'ul bo'lgan mutaxassislar hay'ati (masalan, diplomatik korpus), armiyada esa ofiterlar korpusi kabi atamalar ishlatiladi. Biologiyada korpus odam yoki hayvonning boshsiz tanasiga nisbatan ishlatiladi. Texnikada kema, mashinalar va boshqalarning alohida qismiga nisbatan ishlatiladi. Me'morchilikda esa bir necha inshootlarning jamlanmasi yoki biror bir tashkilot va muassasaning yaxlit binosiga nisbatan ham qo'llaniladi. Harbiy sohada harbiy o'quv yurtlari, qurolli kuchlarning alohida turlari, harbiy qo'shilmalar (diviziyalar, brigadalar va boshqalar) korpus deb nomlanadi.



**KORRUPSIYA** (lot. corruptio-aynish, poraga sotilish) - mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiste'mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Korrupsiya ayniqsa, davlat apparati va parlament faoliyatida avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kompaniyasini o'tkazish xarajatlarini ko'tarish korrupsiya ko'rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko'rsatib «o'z qarzini» qaytaradi). Aksariyat korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha «Lokxid ishi» eng yirik korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi. Porani xaspo'shlash uchun yirik bitishuvlarda ko'proq «xizmat haqi» to'lash amaliyotidan foydalaniladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishni targ'ibot qilish maqsadida BMT 9-dekabri Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni deb e'lon qilgan.

**LENDLORDIZM** (ing. Land lord. Katta yer egasi yoki pomeshchik) - Buyuk Britaniyaga xos bo'lgan yirik mulkdorlik tizimi; yirik yer egalari – lendlordlarning yerga nisbatan monopoliyasiga asoslangan. Lendlordizm Angliyada XIV-XV asrlarda shakllana boshladi. Lendlordizm asoslari Anliyadagi burjua inqilobi davrida mustahkamlandi. “G'ov tutish” natijasida XVIII asrga kelib dehqonlarni yerdan mahrum etish nihoyalandi. Lendlordlar qo'lida ulkan yer maydonlari to'plandi. Bu paytda ularning manfaatlarini torilar partiyasi himoya qilar edi. XIX asrda sanoat burjuaziyasining o'sishi, lendlordlar ta'sirini pasaytirdi. Ular uchun foydali bo'lgan “Non qonunlar”i bekor qilindi (1846 yil), 1832-1867 – yilgi va boshqa islohotlar bilan ularning imtiyozlari cheklandi. Lendlordlar va ijarachilar (1927 va 1954-yilgi aktlar) munosabatlari XX asr birinchi yarmida qonun bilan mustahkamlab qo'yildi.

**LOBBI, LOBBIZM** (ing. Lobby- kularlar, xos xonalar) – davlat idoralari, qonunchilik, ijroiya, sud hokimiyatlarining mintaqalar iqtisodiyoti, ayrim tarmoqlari va sohalarini korxonalar, ijtimoiy guruhlarini obyektiv zarurat taqozosi bilan emas, balki ma'lum bir manfaatlarini ko'zlab ba'zan mansabdor shaxslarni sotib olish yo'li bilan

qo'llab quvvatlashga qaratilgan faoliyati. Lobbistlar hokimiyat vakilari qiyofasida o'z himoyasidagilarga katta foyda beradigan davlat buyurtmalari, kreditlar, yordamlar, imtiyozlar, litsenziyalar olishda iqtisodiy va tijorat faoliyatida yangi korxonalar ochish va uni ro'yxatdan o'tkazishda, raqobatchilarni sindirishda qulay sharoitlar yaratishda ko'maklashadi. Agrar lobbi va sanoat lobbiga bo'linadi. Lobbizm o'z o'rnida siyosiy institut sifatida ham ko'rsatiladi. Bugungi kunda esa lobbizimni ayrim guruhlarining manfaati yoki qiziqishlari sifatida ko'rsatish mumkin.

**LOKAUT** (ingl. *lock out*, so'zma-so'z - kim uchundir eshikni yopib qo'yish yoki hech kimni eshikdan kiritmaslik) - XIX asrda Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan harakat yoki tushuncha bo'lib, bunda vaqtincha ishni to'xtatish tushunilib, asosan ish haqining berilmasligi sharoitida yoki ishchilarga nisbatan bosimning ortib ketishi natijasida amalga oshirilgan.

**MAFIYA** (lot. *maffia*, ital. *mafia* - maxfiy, jinoiy jamoa) - zo'rlik, qo'rqitish, terror, qotillik, ig'vogarlik usuli bilan iqtisodiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun tuziladigan maxfiy uyushma; uyushgan jinoyatchilik tashkiloti. Mafiya so'zi birinchi bor Palermodagi jinoiy guruhga 1843-yilda Gaetano Moska va Djuzeppe Rissottolarning «Vikaria turmasidagi mafiozlar» asarida ishlatilgan. Mafiya bir-biri bilan o'zaro bog'langan va poraga sotilgan davlat amaldorlari, davlat organlaridan yordam oladigan jinoyatchi guruhlar. XVIII oxiri - XIX asr boshlarida Italiyaning Sitsiliya orolida paydo bo'lgan. XX asrda shaharlarda avj oldi. Mafiya odatda, qimorbozlik, bangilik, fohishabozlik kabi ijtimoiy axloqsizlikni uyushtiradi va o'z homiyligiga oladi, siyosiy hayotga faol aralashadi. Italiya parlamenti deputati Leopoldo Franchetti Sitsiliyaga sayohat qilib, shu asosda 1876-yilda mafiya atamasini uyushgan jinoyatchilarga nisbatan ishlatadi. Yevropada fashizm davrida mafiyaga qarshi kuchli kurash olib borilgan. Italiyada 1960-1970-yillardan boshlab mafiyaga qarshi kuchli kurash olib borila boshladi.

**NATSIZM** - Germaniya fashizmi nomlaridan biri. 1933-yilda hokimiyatni egallab, mamlakatda fashizm tuzumini o'rnatgan Natsional-sotsialistik partiya nomidan kelib chiqqan va 1945-yilgacha Germaniyadagi asosiy g'oya. Natsizmga kishilarning milliy va irqiy mansubligiga qarab munosabatda bo'lish yetakchi o'rinda turadi.

Ko'plab davlatlarda qonun bilan ta'qiqlanishiga qaramasdan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda ham natsistik qarashlar ko'plab davlatlarda ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalib bormoqda.

**NEOFASHIZM** (neo. iltal. fascismo, faskio – bog'lam, tutam, birlashma) – hozirda o'ng radikal harakatlarni anglatuvchi tushuncha bo'lib, 1920-1940-yillarda faoliyat ko'rsatgan va II Jahon urushidan keyin tarqatib yuborilgan fashistik tashkilotlarinig siyosiy-g'oyaviy izdoshlari faoliyatini ifodalaydi. Neofashistlar siyosiy eksremizmga moyil bo'lib, faoliyatning terrorchilik yo'lini tutadilar. Neofashizm ashaddiy shovinizm irqchilik va jaholatparastlik g'oyalariga suyanadi. Hozirgi davrda bunday kayfiyatdagi guruhlar turli davlatlarda paydo bo'lmoqda (Angliyada "milliy front", Gollandiya, Belgiya, AQSh, Rossiya va boshqalarda).

**OPPOZITSIYA, muxolifat** (lot. *Oppositio* «qarshi qo'yish, e'tiroz, qarshilik») - siyosatda hukmron partiya yoki qarashlarga qarshi turuvchi ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi partiyalar yoki guruhlar. Shuningdek, hukumat faoliyat yo'nalishiga va hukmron bo'lgan partiya bilan davlat hokimiyati uchun kurashuvchi partiyalar, guruhlar va harakatlarning siyosiy faoliyati ham oppozitsiya deyiladi.

**POZITSIYA** (lot. *positio* - holat, vaziyat) - biron narsaning joylashishi, dastlabki o'rni bo'lib, sportda, ayniqsa shaxmatda donalarning joylashish holatini pozitsiya deyishadi. Falsafada biron-bir masala yuzasidan bildirilgan fikr, nuqtai nazar, dalil, voqea, hodisaning muayyan bahosi, shu bahoga muvofiq amalga oshirilgan xatti-harakatga ham pozitsiya deyiladi. Harbiy sohada qo'shinlar egallab turgan marra yoki muayyan hudud ham shunday ataladi.

**PROPORSIONAL SAYLOV TIZIMI** – bu saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ro'yxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniqlash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish

uchun zarur bo'lgan ovozlarning miqdori (odatda, kamida 4-5% qilib) o'rganiladi. Bunda, shartga ko'ra, muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarni taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlarning miqdori deputatlik o'rinlarining soniga bo'linadi. Shunda bitta mandat doirasidagi ovozlarning soni ma'lum bo'ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlarning alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlarning miqdoriga bo'linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o'rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlarini sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda mavjud.

**RADIKAL** (lot. radix-ildiz) - jamiyatda tub, qat'iy va keskin choralar, harakatlar, dasturlar tarafdori.

**REAKSIYA** (lot. *re.*-qarshi + lot. *actio* - harakat) harakatga qarshi aks ta'sirni bildiradi. Siyosatda ma'lum bir tizimni himoya qilishga harakat ham reaksiya deyiladi. Reaksiya atama sifatida boshqa soha va fanlarda qo'llaniladi, ayniqsa kimyo fanida. Siyosiy reaksiya bu ma'lum bir tartibni saqlab qolishga urinish va shu yo'lda olib boriladigan harakat yoki inqilobiy chiqishlar ham tushuniladi. Siyosiy reaksiya odatda progressiv yoki aksincha regressiv ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek reaksiya liberal, radikal, diniy-fundamental, klerikal, feodal, monarxistik va boshqalar bo'lishi mumkin.

**REPRESSIYA** (so'nggi lot. *repressio*-bosim, tazyiq) - davlat organlari qo'llaydigan jazo chorasi, qatag'on qilish. Asosan, mustabid, totalitar, mustamlakachi davlat tomonidan xalqqa nisbatan qo'llaniladigan jazolash, qatli om, qatli nufus, ommaviy tarzda zulm o'tkazish tushunchalarini ifodalaydi. Ommaviy jazolash, qiynoqqa solish choralari mustabid davlatlarning xalqni asoratda ushlab, qo'rqitish, bosim o'tkazish qurolidir. Mustamlakachi davlatlar o'zlariga tobe o'lkalarda xalqning noroziligini, ijtimoiy-siyosiy, ozodlik harakatini bostirish, tag-tugi bilan yo'qotish uchun harbiy, siyosiy, iqtisodiy repressiyani qo'llaganligi tarixdan ma'lum. Jahon tarixida ham

Xitoy, Kambodja singari davlatlarda ommaviy repressiya qo'llanilganligi ma'lum.

**REZERVATSIYA** - (lot. *Reservatio* - ajrataman, saqlayman) nimanidir saqlash, zahiraga olib qo'yish ma'nosida qo'llanilgan. Ammo keyinchalik AQSh, Kanada, Braziliya, Avstraliya, JAR kabi davlatlarda mahalliy aholi vakillarini alohida hududlarga ajratish uchun qo'llanilib kelmoqda. Rezervatsiyalarning bir qancha ko'rinishlari mavjud. Hindular rezervatsiyasi - AQSh, Kanada va Janubiy Amerikadagi mahalliy xalqlarga ajratilgan joylar. Bantustan - JAR da mahalliy aholini yevropaliklardan ajratish uchun tashkil qilingan rezervatsiyalar. Hindular koloniyasi - AQShdagi rezervatsiyalarning bir ko'rinishi. Rancheriya - AQShdagi uncha katta bo'lmagan rezervatsiyalar. Gavayya xoumlendleri - 1921-yilda qabul qilingan qonunga ko'ra mahalliy aholiga ajratilgan yerlar shunday nomlanadi.

**SEGREGATSIYA** (lot. *segregacio*-ajratish) - biron irq yoki etnik guruhni chegaralangan hududga majburlab yoki ixtiyoriy yo'l bilan ko'chirish yoxud alohida maktablar, transport vositalari, xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish yoki bo'lmasa, boshqa diskriminatsiya choralari orqali ajratib qo'yish. Segregatsiya-diskriminatsiyaning alohida ko'rinishidir. Tarixda qonunlashtirilgan segregatsiya hollari bo'lgan. Masalan, segregatsiya AQSh janubida XIX asr 2-yarmining boshida negrlar ozod qilingandan so'ng XX asrda ham uzoq vaqt saqlanib turdi. JARda XX asrning 90-yillari boshigacha segregatsiyaning eng yomon shakli - aparteid saqlanib kelgan. Irqiy kamsitishning har qanday shaklini tugatish to'g'risidagi 1965-yildagi xalqaro konvensiyaga muvofiq, unda ishtirokchi davlatlar irqiy segregatsiya va aparteidni qoralash bilan birga o'z hududlarida bunday tusdagi har qanday harakatga yo'l qo'ymaslik, ta'qiqlash va yo'qotish majburiyatini oldilar. Ikki ko'rinishdagi segregatsiya farqlanadi: de-yure va de-fakto. De-yure segregatsiyasi yoki ma'muriy segregatsiya o'rta asr va yangi zamon davrida german va anglosakson mamlakatlarida shuningdek koloniyalarda (Germaniya, AQSH, Britaniya, JAR, Irlandiya, Boltiqbo'yi) juda keng tarqalgan. De-fakto bo'lsa irqiy, til, milliy va diniy asosda ajratish siyosatidir. Hozirgi kunda ba'zi davlatlarda shu xildagi segregatsiya hamon saqlanib qolgan (masalan, qora tanlilar uchun alohida oliy o'quv yurti singari).

**SENZ** (lot) – fuqarolarning saylov huquqidan foydalanishlarini cheklaydigan shartlar.

**SINXAY** - sinxay o'zbek tilida «yil» degan ma'noni anglatadi. Xitoy oy kalendariga ko'ra inqilob bir yil davom etgani uchun u Sinxay (bir yil davom etgan inqilob) deb atalgan. 1911-yilda Uxandagi qo'zg'olon bilan boshlangan.

**SIONIZM** (Iyerusalimdagi Sion tog'i nomidan olingan) - yahudiylarning siyosiy harakati bo'lib, ona vatanlari Eres-Israelni tuzishga qaratilgan. Atama dastlab 1890-yilda Birnbaum jurnalida «Selbstemancipacion» ishlatilgan. 1893-yildan Sion jamiyati deb nom olgan. 1892-yil 23-yanvar kuni Vena shahrida sion atamasi borasida dastlabki munozara ham o'tkaziladi. Siyosiy sionizm XX asr boshlarida vujudga kela boshladi. Teodor (Benyamin-Zeev) Gersl 1896-yilda o'zining «Yahudiy davlati» (nem. *Der Judenstaat*), nomli asarini nashrdan chiqaradi va u Bazel shahrida Butunjahon sionistlar kongressini tashkil qildi va unda Butunjahon Sionistlar Tashkilotini tuzdi.

**SIYOSIY MAHBUS** – mavjud tuzumga yoki hukmdorga qarshiligi uchun qamoqqa tashlangan shaxs.

**STACHKA** – tarixiy atama, hozirgi zamonda zabastovka, ish tashlashga to'g'ri keladi. Tashkilot yoki korxonada biror-bir talablarga erishish maqsadida uyushtiriladigan uyushgan jamoaviy ishni to'xtatish harakati. Shuningdek, maxfiy fitna ma'nosida ham qo'llaniladi.

**TERROR** (lot. terror - qo'rqinch, dahshat) - siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo'rvonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqalar). Terror yakka tartibdagi va guruhli terror (masalan, ekstremistik siyosiy to'dalarning harakatlari kabi) toifalarga bo'linadi. Siyosatshunoslikda davlat terrori tushunchasi ham qo'llanadi (diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari). Terror o'rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab turgan. Lekin XX asrning oxirlaridan uning yangi ko'rinishlari vujudga keldi (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib

qochish, odamlarni garovga olish va h.k.). Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terror oshkora siyosiy tus ola boshladi. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi. Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo'liga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, elektron terrorchilik paydo bo'ldi. Ko'p hollarda terror diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog'likligi, chatishib ketishi kuzatila boshladi. Terror-turli vaziyatlarda yuzaga kelib, takrorlanib va kuchayib boruvchi qo'rquvning dahshatga aylanishi. Terrorizm- zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishga asoslangan uslub va vositalar yordamida siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tizimli va uyushtirilgan, siyosiy mazmunga ega jinoiy harakat.

**TERRORIZM** (lot. *terror* - qo'rquv, dahshat) «zo'rlash», «qo'rqitish» so'zlari bilan ma'nodosh. 1960-yillarning oxirlarida xalqaro terrorizm atamasi ishlatila boshlandi. Xarakteriga ko'ra terrorizm quyidagi ko'rinishlarga bo'linadi:

1. Individual yoki boshqarilmaydigan
2. Boshqariladigan, jamoaviy - terrorchilik tashkilotlari (misol uchun Al-Qoida) dunyoning turli joylarida qo'poruvchilikni amalga oshirishadi.

Maqsadlariga ko'ra terrorizm quyidagilarga bo'linadi.:

1. Milliy - milliy ozodlik-ozodlik uchun separatistik harakatlarni amalga oshirish;
2. Diniy - diniy qarashlarning mos kelmasligi va bir joyda yashashi natijasida (misol uchun hinduizm va musulmonlar, musulmonlar va yahudiylar) yoki bir din ichidagi mazhablar (misol uchun katolik-protestantlar, sunniy-shia) o'rtasida.

3. G'oyaviy, ijtimoiy - mamlakatlardagi siyosiy va iqtisodiy tartib, tuzum yoki boshqa muammolarning vujudga kelishi natijasida yuzaga keladi. Misol uchun fashizm va shularga yaqin boshqa qarashlar.

Mutaxassislarning fikricha terrorizmga qarshi ikki yo'l bilan kurash olib borish mumkin va ular «progressiv» hamda «konservativ».

• «Konservativ» muzokaralar yo'li orqali terrorchilar bilan aloqa bog'lagan holda ularning qisman talablarini bajarish yoki to'lov to'lash.

• «Progressiv» terrorchilarni butunlay yo'q qilish bo'lib, ular bilan muzokaralar olib bormasdan dunyodagi demokratik davlatlarning kuchini birlashtirish orqali ularni yo'q qilish.

Qadimgi dunyoda va o'rta asrlarda ham uning ko'rinishlari mavjud bo'lgan, misol uchun Aleksandr Makedonskiyning otasi, Filipp II ham shu harakatning qurboni bo'lgan. 1090-yilda Hasan ibn Sabbah hozirgi Iroq hududidagi Alamut qalasini egallab olib, davlatga qarshi chiqadi. XIII asr o'rtalarida mo'g'ullar Sharqdagi terrorchilik ko'rinishidagi barcha guruhlarni yo'q qilishgan.

Yangi va eng yangi davrda terrorchilar va terrorchilik tashkilotlari juda ko'payib ketadi. 1960-yillardan keyin dunyoning deyarli barcha davlatlarida ular tomonidan qo'poruvchiliklar amalga oshirildi. Terrorchilardan eng ko'p darajada zarar ko'rgan davlatlarning ro'yxatini AQSh, Rossiya va Hindiston boshqaradi.

## **2.2. Iqtisod, yerga egalik qilish va moliya sohalariga doir atamalar**

**AKR** (ingl. acre) - Angliyada qo'llangan yer o'lchovi birligi, hozirda ayrim davlatlarda qo'llaniladi (masalan, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada Avstraliya va boshqa davlatlar).  $1 \text{ akr} = 4840 \text{ kv. yard} = 4046,86 \text{ m}^2 \approx 1/250 \text{ km}^2 = 0,37 \text{ desyatina} = 0,405 \text{ gektar} = 1/640 \text{ mil}^2$

**AKSIONERLIK JAMIYATI** – daromad topish maqsadida hissadorlik qoidalari asosida uyushgan sherikchilik jamiyati. Mazkur jamiyatlar yirik korporatsiya va firmalar shakllanishi natijasida yanada faollashdi. Hozirgi kunda aksionerlik jamiyatlari dunyoning barcha davlatlarida mavjud, ayniqsa rivojlangan davlatlarda ularning faoliyati qonuniy ravishda yaxshi yo'lga qo'yilgan va ular davlatlarning bozorlarini boshqarib turishadi.

**ALIMENTATSIYA** (lot.alimentatio, alimentum – oziq- ovqat, boqish) – Qadimgi Rimda kam ta'minlangan oilalar va yetim-yesirlarga davlat yordam tizimi; mayda va o'rta mulkdorlarning davlatdan olgan qarzlari foizidan hosil qilingan. Imperator Nerva (96-98) tomonidan joriy etilib, III asr o'rtalariga qadar mavjud bo'lgan. 18 yoshgacha o'g'il bolalarga oylik to'lov miqdori 16 sestersiyni, 14 yoshgacha qizlarga 12 sestersiyni tashkil etgan. Dastlab bunday fondlar faqat Italiyada faoliyat yuritgan, keyinchalik provinsiyalardagi shaharlarning munitsipal doiralari tomonidan ham tuzila boshlangan. Shuningdek, davlat



kishilarining xayr-ehsoni hisobidan mablag' bilan to'ldirilgan shaxsiy alimentatsiya fondlari ham faoliyat olib borgan.

**ARAMKO** yoki «Saudi Aramco» (ingl. Arabian-American Oil Company) - arab-amerika neft kompaniyasi. 1933-yilda AQSHning eng yirik neft kompaniyasi «Standard Oil of California» tomonidan Saudiya Arabistoni neft konlarini o'zlashtirish uchun tashkil etilgan. 1973-yildan Saudiya Arabistoni hukumati uning aksiyalarini asta-sekin sotib olib boshladi va 1980-yildan ARAMKOning yagona egasi bo'ldi. Qarorgohi Daxran shahrida joylashgan. 1988-yilning noyabrida kompaniya «Arabian American Oil Company» nomini «Saudi Arabian Oil Company» (yoki «Saudi Aramco») nomiga o'zgartirdi. Kompaniya Saudiya Arabistoni neft zahirasi 99% ga egalik qiladi. 2008-yil holatiga ko'ra daromadi 2,16 trln. AQSh dollarini, neft zahirasi 259,9 mlrd. barrelni, neft qazib chiqarish yiliga 3,26 mlrd. barrelni, neft eksporti hajmi 2,5 mlrd. barrelni, suyultirilgan tabiiy gaz eksporti hajmi siqilgan tabiiy gaz (STG) 283,9 mln. metr kubni tashkil qilgan.

**AVTARKIYA** (yunon. avtarkia-o'z-o'ziga yetarli) - mamlakatning o'z-o'zini ta'minlash qoidasiga asoslangan, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalardan uzilib qolgan biqiq xo'jalik yuritish siyosati. Avtarkiya siyosatining asosiy vositalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishda sun'iy ravishda turli to'siqlar qo'yish va hk.

-iste'mol mahsulotlari narxini oshirish;

-mamlakatga kiritiladigan tovarlar uchun yuqori cheklovlar joriy etish;

Avtarkizm sharoitida mamlakat yo boshqa mamlakatlar bilan aloqa qilmaydi, yoki bu aloqalar o'ta chegaralangan bo'ladi. Bunday mamlakatlar hozirgi kunda yopiq davlatlar sifatida etirof etiladi. Ba'zi yillarda Germaniya, Italiya, sobiq SSSR, Yaponiya va boshqa bir qancha davlatlar avtarkiya sharoitida bo'lib kelishgan. Fashistik Germaniyaning avtarkiya doktrinasini Gering 1936-yil 17-dekabrda Prussiya landtagining Berlinda bo'lib o'tgan yig'ilishida e'lon qiladi. 1994-yil Shimoliy Koreya prezidenti Kim Ir Sen «chuchxe» g'oyasini ilgari suradi va bu kuchiga tayangan holda jahon savdosiga qo'shilish va o'z yo'nalishiga ega bo'lishni rejalashtirgan. *Avtarkik xo'jalik*

mamlakatning barcha zarur mahsulot turlari bilan o'z-o'zini ta'minlashiga asoslangan xo'jalikni vujudga keltirishiga nisbatan qo'llaniladi.

**BARREL** (ingl. *barrel*-bochka) – qadimgi ingliz suyuqlik o'lchovi birligi. Qisqartmada br. Dastlab pivo o'lchovi sifatida ishlatilgan. Vaqtlar o'tishi bilan miqdori o'zgarib borgan. Hozirda 14 (ingliz) barreli = 4,5 bushel = 257,66 litr suyuqlik hajmiga teng. Bugungi kunda xalqaro 1 barrel (neft) = 42 gallon (4,55 litr)  $\approx$  158,988 litr = 0,158988 m<sup>3</sup>

**BIRJA** (niderl. *beurs*, nem. *börse*, frans. *bourse*, ital. *börsa*, ispan. *bolsa*, ingl. *exchange*) – tovarlar va qimmatbaho qog'ozlar ulgurji savdosi bozori. XIII-XV asrlarda Venetsiya, Genuya, Florensiya, Shanpan, Bryuggeda shakllana boshlagan. Bryuggedagi «van der Burse» oilasining gerbida uchta charm hamyon ko'rsatilgan va shu sabab birja so'zi hamyon ma'nosida qo'llaniladi. Birinchi birja hozirgi Belgiya hududida 1406 yilda tashkil qilingan. Birjalar tovar, fond, valyuta, fyucher va boshqa turlarga bo'linadi.

**DAVLAT-MONOPOLIYA IQTISODIYOTI** – Bu davlat tomonidan iqtisodiyotning tartibga solinishi, banklar, xom ashyo taqsimoti va harbiy buyurtmalar ustidan davlat nazorati o'rnatilishini anglatadi.

**DEPRESSIYA** (lot. «*depressio*» tushkunlik) - mamlakatlar iqtisodiyotida vaqti-vaqti bilan yuz berib turuvchi ortiqcha ishlab chiqarish inqirozidan so'ng ro'y beradigan, iqtisodiyot turg'unlik, savdo mahsulotlarga talab kam bo'lishi, ommaviy ishsizlik bilan belgilanadigan davr. Tarixda «Buyuk depressiya» deb nom olgan 1929-1933-yillardagi iqtisodiy inqiroz dunyo davlatlarini juda og'ir ahvolga solib qo'ygan tushkunlik davri hisoblanadi.

**DISPETChER** (ingl. *dispatcher*, to *dispatch* - «tez bajarmoq, yubormoq») - ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida. uning har bir jarayonini maxsus texnika vositalari yordamida operativ nazorat qilish, muvofiqlashtirish va markazlashgan boshqaruvni amalga oshiruvchi xizmatchi. Shu bilan birga asosiy hamkasb deb ham tushuniladi. Dispatcher xizmatidan asosan ichki ishlar, yong'in havfsizligi xizmati, tez tibbiy yordam, aviatsiya, jamoat transporti xizmati, temiryo'llar, elektr energiyasi ta'minoti va boshqa sohalarda keng foydalaniladi. Dispatcher xizmati nazorat qilish ma'nosida ham ishlatiladi.

**DIVIDEND** (lot. *dividendum* – taqsimlanadigan narsa) – aksiyadorlar jamiyati foydasining aksiya egasiga har yili beradigan va uning daromadiga aylanadigan qismi. Divident bir yilda bir necha marta ham berilishi mumkin. Divident odatda naqd pul bilan beriladi va ayrim hollarda aksiya yoki boshqa kelishilgan narsalarda ham berilishi mumkin.

**DOTATSIYA** (lot. *dotatio* - tuhfa, qurbonlik qilish) - ma'lum xarajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir subyekti tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag'i berilishi. Dotatsiya odatda, davlat byudjetidan ajratiladi. Ammo firmalar, korporatsiyalar va uyushmalar o'z tarkibiga kiruvchi turli bo'linma va shoxobchalarga ham moliyaviy ko'mak tariqasida dotatsiya beradi. Ko'p hollarda dotatsiya narxlarni tushirish, xizmatlarni arzonlashtirish yoki turlarini ko'paytirish ko'rinishida amalga oshiriladi. Qadimgi Rimda dotatsiya xudolarga qurbonlik qilish yoki qashshoqlarga hadya tarqatish ma'nosida ham tushunilgan.

**DZAYBATSU** (yapon. – zaibatsu, xususiy mulk, so'zma-so'z tarjimasi-moliyaviy guruh yoki konglomerat) - Yaponiyadagi XIX asming oxiridan rasman Ikkinchi jahon urushi tugagunga qadar faoliyat olib borgan sanoat va moliyaviy monopoliyalarni anglatish uchun ishlatilgan atama. Amalda XX asming 80-yillariga qadar faoliyat olib borgan. Odatda alohida oilalarga tegishli bo'lgan. Eng katta dzaybatsularning 4 tasi Edo davrida tashkil etilgan. Bular «Misubisi», «Mitsui», «Sumitomo» va «Yasuda». Keyinchalik boshqa dzaybatsular tashkil topdi.

**EKSPROPRIATSIYA** (lot. *yex-dan* va *proptius* - shaxsiy) - davlat hokimiyati tomonidan majburiy ravishda (haqini to'lab yoki to'lamasdan) mulkdan mahrum qilish. Ekspropriatsiyaning asosiy turlari: natsionalizatsiya, rekvizitsiya, musodara hisoblanadi.

**FAKTORIYA** (lot. *factoria*) – xorijiy savdogarlar tomonidan (ko'pincha yevropalik savdogarlar) o'zga davlat yoki o'z mustamlaka mamlakatlaridagi tashkil etgan savdo idoralari va qarorgohlari. Dastlabki faktoriyalarga buyuk geografik kashfiyotlar davrida portugallar tomonidan Afrikaning g'arbiy qirg'og'i va Janubiy Sharqiy Osiyoda asos solingan. Rasmiy birinchi faktoriya sifatida portugal shahzodasi Enrike Dengizchi buyrug'iga bilan 1445-yili G'arbiy Afrika

qirg'oqlari – Argumda asos solingan Mavritaniya faktoriyasi qabul qilingan. Lekin ma'lumki Buyuk Ipak yo'lida azaldan so'g'diylar faktoriyaga o'xshash savdo qarorgohlaridan yoki manzillaridan foydalanib kelishgan. Undan tashqari yevropaliklar Hind okeaniga kelgunlariga qadar musulmon savdogarlari Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ko'plab savdo manzilgohlarini tashkil etishgan. Aynan shu manzilgohlar ta'sirida ushbu mintaqaga islom dini kirib borgan va keng tarqalgan. XV asrning 2-yarimida eng mashhur faktoriya hozirgi Gana hududidagi San-Jorji-da - Mini bo'lgan. XV – XVI asrlarda portugallar G'arbiy va Sharqiy Afrika, Hind okeani, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Amerikada 50 ga yaqin faktoriyaga asos solganlar. Faktoriyalar mamlakatdagi "Hindiston uyi" deb nomlangan qirollik tashkiloti tomonidan boshqarilgan. Faktoriyalar keyinchalik boshqa Yevropa davlatlari tomonidan ham tuzilgan va mustamlakachilikning keng yoyilishiga zamin hozirlagan.

**FERMER** – xususiy yoki uzoq muddat ijaraga olingan yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi tadbirkori, fermer xo'jaligi egasi. Angliya mustamlakasi bo'lgan AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi davlatlarda paydo bo'lgan. Fermer xo'jaliklari dastlab Angliyada paydo bo'lgan va uning asosiy xususiyati yerni ijaraga olib ishlash edi. XVII asrda dehqon xo'jaliklarining to'liq barham topishi natijasida fermer xo'jaligi asosiy ishlab chiqaruvchi bo'lib qoldi. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda fermerlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yetakchilik qilmoqda. AQShda 67% mahsulot aynan fermerlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida fermerlar mustaqillik yillarida paydo bo'ldi.

**FURGON** (frans. *fourgon* - usti aylanasiga yopilgan arava) – savdo aravasi sifatida o'rta asrlarning so'nggi davrida Yevropa davlatlarida keng qo'llanilgan. AQShda esa yovvoyi g'arbga ko'chishda kishilarning asosiy turar joyi va texnikasi hisoblanib, odamlarni yomg'ir, qor va sovuqdan saqlagan. Shu sababli usti yopiq arava Amerikada g'arbga ko'chishning ramziga aylangan. Keyinchalik avtomobillar ixtiro qilinishi bilan dastlab AQSh va Yaponiyada usti yopiq mashinalardan pochta xizmatida foydalana boshlagan. Bugungi kunda furgonli mashinalar deyarli barcha sohalarda keng miqyosda foydalaniladi.

**GOELRO** (Rossiyani davlat miqyosida elektrlashtirish) *rejasi* - Rossiya xalq xo'jaligini tiklash va yuksaltirish borasidagi 10-15 yilga mo'ljallangan birinchi istiqbolli reja. 1920-yilda e'lon qilingan. Unda mamlakatni elektrlashtirish asosida xo'jalikni tubdan qayta qurish ko'zda tutildi. Umumiy quvvati 1,75 mln kVt bo'lgan jami 20 ta issiqlik elektr stansiyalari va 10 ta gidroelektr stansiyalarni qurish rejalashtirilgan edi.

**IMPORT** (lot. *importo*-olib kirish, keltirish) - mamlakatning ichki bozorida sotish uchun, shuningdek, ularni uchinchi mamlakatga o'tkazib yuborish uchun chet el tovarlari, xizmatlar, texnologiyalar, kapitallar, qimmatli qog'ozlar va boshqalarni keltirish. Ayrim davlatlar import qiluvchi davlatlar hisoblanadi va import hamda eksport savdo aylanashini tashkil qiladi. Odatda import-davlatlarning asosiy tashqi aloqalarini belgilab beruvchi muhim ob'yektdir. Bunda davlat budjetiga kelib tushuvchi mablag'larning miqdori muhim hisoblanadi. Importning ko'rinishlari sifatida sanoat mahsulotlarini sotish, iste'mol mahsulotlarini yetkazib berish va nihoyat xom ashyo tashishni ko'rsatib o'tish mumkin. Bugungi kunda importyorlarning uchta asosiy shaklini ajratib ko'rsatishadi: 1) dunyoning barcha qismidan mahsulotlarni izlab topish va ichki bozorga yetkazib beruvchi; 2) tashqi yetkazib beruvchilardan imkon qadar arzon narxlarda mahsulotlarni oluvchi. Bugungi asosiy e'tibor dunyo mamlakatlari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri eksportni amalga oshirishga qaratilmoqda.

**INDUSTRIYA** (lot.-faoliyat) - mamlakatlar iqtisodiyotida sanoat, xususan, yirik sanoatni anglatuvchi atama. Ayrim o'rinlarda industriya atamasi sanoat so'zining o'mida ham qo'llaniladi. XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida g'arb davlatlaridagi zavod va fabrikalarda mashina ishlab chiqarishga o'tishi munosabati bilan industriya so'zi keng miqyosda qo'llanila boshladi. XXI asrning boshlariga kelib «industriya» tushunchasi metallurgiya bilan birga turizm, kinomatografiya va boshqa sohalar uchun ham ishlatila boshladi.

**INFLATSIYA** (lot. ko'tarilish, bo'rtish) - qog'oz pullarning qadrsizlanishi va real tovar taklifiga nisbatan muomalada ularning haddan tashqari ko'payib ketishi bilan bog'liq bo'lgan xarid qobiliyatining pasayish jarayoni. Tarixda inflyatsiyaga o'xshash holatlar kuzatilgan. Chunonchi, Amerika q'it'asi ochilgandan keyin Yevropaga yangi yerlardan ko'plab oltin va asosan kumush keltirilishi natijasida XVI asrning dastlabgi ellik yili davomida kumushning miqdori 60 marta

oshib ketadi. Natijada asr oxiriga borganda mahsulotlarning tan narxi 2,5-4 barobar oshib ketdi. 1840-yillarning oxirida Kaliforniyada yangi oltin konlari topildi. Tez orada Avstraliyada ommaviy ravishda oltin qazib olinib boshlandi. Natijada dunyo bo'yicha oltin qazib olish 6 marta, narx-navo 25-50% ga o'sib ketdi.

**INVESTITSIYA** - sarmoyaning biror-bir korxonaga yoki ishga uzoq muddatga joylashtirilishi. Iqtisodni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda turli tarmoqlarga uzoq muddatli kapitalning kiritilishi. Investitsiya—bu xususiy sarmoyador yoki davlat tomonidan iqtisodning turli sohalariga hamda qimmatli qog'ozlarga uzoq muddatga qo'yilgan mablag'dir. Uning lug'aviy ma'nosi kapital tushunchasiga to'g'ri keladi. Investitsiyaning moliyaviy, real kabi turlari mavjud.

**KAPITAL** (nem. kapital; lot. capitalis - bosh, asosiy va ustunlik), sarmoya - keng ma'noda - o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'lar. Bugungi kunda kapital atamasi bilan birga investitsiya atamasi ham birgalikda ishlatilib kelinmoqda. Kapital iqtisodchilar tomonidan doimiy ravishda harakatda bo'lgan mablag' sifatida tushuntiriladi.

**KARTEL** (ital.- qog'oz, hujjat) - bir tarmoqdagi mustaqil kompaniyalar, firmalarning ishlab chiqarish va sotishning umumiy hajmlari, narxlari, sotish bozorlari, har bir ishtirokchilik ulushi va boshqalar to'g'risidagi bitimi asosida tuzilma.

**KOLXOZ** (ruscha kollektivnoye xozyaystvo, tarjimasi jamoa xo'jaligi) - boshqa davlatlarda kolxozlarning boshqa xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular Isroilda Kibus va Xitoyda Xalq kommunasi nomlari bilan ataladi. Jamoa xo'jaliklari Rossiyada 1918-yildan boshlab tashkil qilina boshladi. 1929-yilning iyun oyi holatiga ko'ra mamlakatdagi barcha xo'jalikning 6,2% ini kolxozlar tashkil qilgan. 1929-yilning bahoridan boshlab sobiq SSSRda ommaviy ravishda kolxozlashtirish amaliyoti boshlab yuborildi. 1930-yillarning boshlarida kolxozlarning ustavi ishlab chiqiladi. 1935-yilda mazkur ustav yangi tahrirda qabul qilinadi. Mamlakat miqyosida 1932-yildan boshlab pasport tizimi joriy qilingan holda qishloq aholisi pasport olishdan mahrum bo'ldi. 1974-yilda pasport tartibi bo'yicha yangi holat joriy qilinib, 1976-yil 1-yanvardan 1981-yil 31-dekabrigacha 6 yil davomida to'liq pasport bilan ta'minlanib, kolxozchilarga 50 mln pasport tarqatiladi. Faqatgina 1980-

yillarga kelibgina kolxozchilar mamlakatning teng huquqli fuqarosiga aylanishadi.

**KOMPENSATSIYA** (lot. *compesatio*-«tovon», «badal») yetkazilgan zararni qoplash, ko'pincha pul mablag'i hisobida amalga oshiriladi.

**KONSENTRATSIYA** (lot. birga, markaz) – biror narsaning muayyan bir joyda to'planishi.

**KONSERN** (concern-ishtirok, manfaat) - manfaatlar, shartnomalar, kapital, hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok umumiyligi asosida uyushgan korxonalarining yirik birlashmasi. Ishlab chiqarish diversifikasiyasi asosida tarkib topadigan yirik, ko'p tarmoqli korporatsiya. Aksariyat hollarda korxonalarining bunday guruhlari shu korxonalar aksiyalarining asosiy qismini o'z qo'lida to'plagan bosh korxonalar (xolding) atrofida birlashadi. Konsern tarkibiga (sanoat, transport, savdo, bank sohasi) turli tarmoqlarga tegishli, ayrim hollarda, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida joylashgan o'nlab va yuzlab korxonalar ixtiyoriy asoslarda kiradi. Turli mintaqalarda joylashgan, ayrim tovarlarni ishlab chiqaradigan va konsernga nominal kiradigan korxonalar bosh kompaniyaning sho'ba filiallari, sho'ba kompaniyalari hisoblanib, o'z xo'jalik mustaqilligini saqlab qoladi. Amalda konsern tarkibidagi korxonalar ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish taraqqiyoti, shuningdek, investitsiya, moliya, tashqi iqtisodiy faoliyat, korxonalariga xizmat ko'rsatishni tashkil etish sohalaridagi vazifalarni markazlashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi. Korxonalar umumiy moliya, yagona ilmiy-texnika potentsiali va kooperatsiyalashgan barqaror aloqalarga ega bo'ladi. Ayrim konsernlar murakkab mahsulotlarni tayyorlashning jami ishlab chiqarish siklini amalga oshirish mumkin. Tarmoq va tarmoqlararo konsernlar bor. Bir korxonalar faqat bir konsernga kira oladi. «Konsern» atamasi nemis tiliga ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, atama asli lotin tilidagi «concernere»- «aralashtirmoq, qorishmoq» so'zidan kelib chiqqan. Lekin bu degani ilk konsernlar Germaniyada vujudga keldi degani emas. Dastlabki konglomerat ko'rinishidagi konsern o'rta asrlarda Florensiyada Kozimo Medichi tomonidan tashkil qilingan.

**KONSESSIYA** (lot. *Concessio* -yon berish) - davlatga tegishli tabiiy boyliklar, korxonalar va boshqa ob'ektlarni xorijiy davlatlarga,

kompaniyalar va ayrim shaxslarga ma'lum muddatga foydalanishga berish haqida shartnoma. Shuningdek xorijiy firmalarga korxonalarni yoki yer maydonining bir qismini ishlab chiqarish faoliyati uchun berish to'g'risida shartnoma, shunday shartnoma asosida vujudga kelgan korxonalar ham konsessiya deb ataladi.

**KONSORSIUM** (lot. consortium - qatnashuv, uyushma) - bir necha bank yoki mustaqil sanoat kompaniyalarining qarzlarni birgalikda joylashtirish yoki umumiy qimmat turuvchi loyihani birgalikda amalga oshirish maqsadida vaqtinchalik kelishuvi. Xalqaro savdoda konsorsium buyurtmalarni olish uchun birgalikda kurashish maqsadida tuziladi. Konsorsium ishtirokchilari o'zlarining to'liq xo'jalik mustaqilliklarini saqlab qoladi va ixtiyoriy ravishda istalgan boshqa tashkilotlar tarkibiga kirishi mumkin. Konsorsium a'zolarining badal mablag'lari hisobiga yagona moliyaviy va moddiy fondga ega bo'ladilar.

**KONTRIBUTSIYA** - (lot. contributio - umumiy xazina, jamoadan yig'iladigan umumiy buyumlar) - mag'lub davlatning g'olib davlatga to'laydigan to'lovi. Kontributsiya aslida qadimgi davrlardan vujudga kelgan va g'olib mag'lubning yerini va boshqa boyliklarini o'zlashtirib olishgan. Kontributsiyaning qonuniy asoslari 1785-yildan boshlab AQSh va Prussiya o'rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq belgilana boshladi. Odatda kontributsiya tinch aholidan yig'ib olish orqali to'lab kelingan va u mahsulot yoki boshqa ko'rinishlarda amalga oshirilgan. Tarixdan ham bunga ko'plab misollarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**LATIFUNDIYA** (lot. *latus* «keng» + *fundus* «ferma, ko'chmas mulk») - odatda juda katta maydondagi yer maydoni yoki yerga egalik shakli. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan alohida viloyatlar sifatida Gretsiya, Sitsiliya, Misr, Shimoliy Afrika, Ispaniya va Qadimgi Rimning provinsiyalari uchun xos bo'lib, ularda qullar mehnatidan foydalanilgan. Bugungi kunda latifundiya faqatgina Lotin Amerikasi va Italiyada saqlanib qolgan. Mustamlakachilik davrida Boliviya, Braziliya, Meksika, Venesuela, Urugvay, Kuba, Chili va Argentinada yirik latifundiya xo'jaliklari vujudga kelgan. Qadimgi Rimda latifundiya yerlari mil.avv V da paydo bo'la boshladi. 367-yildan latifundiylarning miqdori 500 yuger (125 ga) kam bo'lmasligi qonuniylashtirildi. G'arbiy Rim imperiyasi tarixining oxirgi kunlariga qadar latifundiya xo'jaliklari saqlanib qolgan.



**MOLIYA** - maqsadli pul jang'armalarini vujudga keltiravchi, jamlash, taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq munosabatlar.

**MOLIYA OLIGARXIYASI** – moliya tizimida tor doiradagilar guruhi bo'lib, rivojlangan davlatlarda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayoti ustidan nazorat o'rnatgan monopoliyalarga nisbatan qo'llaniladi. Asosan kapitalizmning yuqori bosqichi hisoblangan imperializm davrida shakllana boshlagan va ishlab chiqarish hamda bank tizimini birlashtirgan yirik guruhlar vujudga kela boshlagan. Moliya oligarxiyalari asta sekin oilaviy yoki koalitsion guruhlarga aylanib bordi. Moliya oligarxiyalari o'nlab aksiya paketlari va yuzlab aksionerlik jamiyatlariga a'zo edilar. Buyuk Britaniya, Italiya, Argentina, Braziliya va boshqa davlatlarda moliya oligarxiyalari katta yer egaligini ham qamrab olgan.

**MONOPOL HUQUQ** – yagona, yakka, davlatning yoki shaxsning savdo qilish va ishlab chiqarishga egalik qilishi.

**MONOPOLIYA** (yunon. mono-tanho, poleo - sotaman) - iqtisodiyotning bir sohasida tanho hukmronlik; bozorni tashkil etish shakli. Bunday bozorlarda yagona sotuvchi o'z tovari bilan faoliyat ko'rsatadi, boshqa tarmoqlarda bunday tovarning o'rinbosari bo'lmaydi. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining ozchilik korxonalar, sohibkor shaxslar yoki davlat qo'lida to'planishi natijasida paydo bo'ladi. Monopoliya ko'rinishlari qadimdan mavjud. Noyob mahsulot yetishtiriladigan yerlar, konlar, suv havzalari, o'rmonlar va b. tabiiy manbalar ozchilik qo'lida to'planib, egalariga monopol mavqeyi bergan, ular ma'lum mahsulotni bozorga tanho yetkazib beruvchilarga aylanib, u yerda hukmron bo'lganlar. Monopoliya o'z tabiatiga ko'ra ishlab chiqarishda turg'unlik paydo qiladi, chunki monopol mavqeyiga tayanib, sarflarni kamaytirmay foyda ko'rish, raqobatning yo'qligi yoki zaifligidan foydalanib bozorga o'z izmini o'tkazishi mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababli hatto bozor iqtisodiyoti hukmron davlatlar monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni ko'radilar. Monopoliyaning asosiy shakllari-kartel, sindikat, trest, konsernlar hisoblanadi

Monopolist-firmalar odatda mamlakatlar byudjetiga tushadigan soliqlardan qochishga harakat qilishadi, sababi ular har qanday yo'l va vositalar bilan bo'lsada o'zlarining raqobatchilarini yo'q qilishga, ulardan o'zib ketishga urinishidi. Dastlabki yirik monopoliyalar G'arbiy

Yevropa va AQSh uchun xos edi va ular o'z mamlakatlari ichki va tashqi siyosatiga ham ta'sir o'tkazish qudratiga ega bo'lishgan. Keyingi davrlarda monopoliyalar xalqaro miqyosga ko'tarilib bordi, ammo bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlarida monopoliyaga qarshi qonunlar amalda.

**NEGOSIANT** – ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi savdogar. Bu atama ko'pincha chet ellar bilan savdo qiladigan savdogarlarga nisbatan ishlatilgan.

**RAZVYORSTKA** - savdo huquqiga oid atama. Soliq, shu bilan birga soliq organlarida avvaldan to'ldiriladigan biror hujjatning nomi. Bunday soliq turida avvaldan soliq miqdori belgilanib, barcha to'lovchilarga soliq teng taqsimlanadi. Bu esa soliqlarni to'liq yig'ib olish imkonini bergan. Bugungi kunda razvyostka qo'llanilmaydi, balki qa'tiy soliq tartibi amal qiladi. 1921-yil Rossiyada amalga oshirilgan "Harbiy kommunizm" siyosati davrida razvyostka tartibi qo'llanilib, soliqlar mahsulot sifatida olingan. Hozirgi kunda birorta davlat qonunchiligida razvyostka tilga olinmaydi va ishlatilmaydi.

**REKONSTRUKSIYA** (re..«qayta» va lot. constructio - qurilish) - 1) mavjud narsa (korxonalar, shahar, bino)ni yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish; 2) qoldiqlariga, yozma manbalarga asoslanib, biror narsa (masalan, me'moriy yodgorlik) qiyofasini, dastlabki ko'rinishini tiklash, qurish. Rekonstruksiya chizma, rasm, tasvir, loyiha va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Yodgorliklarning ilmiy rekonstruksiyasi uning keyingi restavratsiyaga bog'liqdir. Masalan, Krit orolidagi Knossa saroyidagi mil. avv. XVII-XVIII asrlarga oid saroy qoldiqlari keng miqyosda rekonstruksiya qilingan. Undan tashqari AQShda fuqarolar urushidan so'ng Janub rekonstruksiyasi amalga oshirilgan.

**REKONVERSIYA** (lot. re-«yana, qaytadan» va conversion- «murojaat, munosabat») – iqtisodiyotni qayta tashkil qilish, ya'ni harbiy mahsulot ishlab chiqarish o'rniga fuqarolar (tinch sharoit uchun) mahsulot ishlab chiqarishga aylantirish. Bu ishlab chiqarish hajmining vaqtinchalik kamayishiga, o'z navbatida oylik ish haqlarning kamayishiga, ma'lum qism ishchilar va mutaxassislarning o'z ish joyidan ajralishiga, o'rnatilgan xo'jalik aloqalarining buzilishiga olib keladi. Vaqtlar o'tishi bilan hammasi o'z izmiga tushadi. Ikkinchi jahon

urushidan keyin mazkur jarayon barcha urushda ishtirok etgan davlatlarda sodir bo'ldi. Xo'jalikni qayta tiklashda davlat katta rol o'ynagan. Rekonversiya «sovuq urush» munosabati bilan yana sekinlashgan, chunki G'arbda va sobiq Sovet davlatida yana qaytadan harbiy ishlab chiqarish o'sa boshlaydi.

**SANATSIYA** (lot. santio – sog'lomlashtirish, davolash, sano – davolayman so'zidan) – bankrotlik xavfidan qutqarish. Banklar (ko'pincha davlat ishtirokida) bankrotlikni bartaraf etish va korxonaning raqobatbardoshligini oshirish uchun amalga oshiradigan chora-tadbirlar tizimi (subsidiya, imtiyozli kreditlar, to'liq yoki qisman milliylashtirish va sh.k.) Sanatsiya bozor iqtisodiyoti uchun tabiiy narsa, chunki bozor qonuniyatiga ko'ra bir korxonaning gullashi boshqasining tang ahvolga tushishi yuz beradi. Sanatsiya orqali davlat bozor iqtisodiyotiga ta'sir etadi. 2. Polshada 1926-1939-yillarda amalda bo'lgan avtoritar siyosiy tuzum ham sanatsiya deb ataladi. 3. Organizimni tuzalishidagi davolash-proflaktika tadbirlari tibbiyotda sanatsiya deb ataladi.

**SANOAT TO'NTARISHI, SANOAT INQILOBI** – qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura sanoatidan mashinalashgan yirik industriyaga, agrar iqtisodiyotdan sanoat ishlab chiqarishiga o'tish jarayonini ifodalovchi iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy o'zgarishlar tizimi. Buning natijasida agrar jamiyat industrilashgan jamiyatga aylanadi. Turli mamlakatlarda turli davrlarda ro'y bergan bo'lsa ham, lekin asosan XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, XIX asrda davom etgan. Bu tushuncha XX asr ikkinchi yarmida A.Toynbi tomonidan kiritilgan. Sanoat inqilobida ishlab chiqarish mashinalarining ixtiro qilinishi bilan boshladi va mashinalarni mashina tomonidan ishlab chiqarish, ya'ni mashina sanoati (og'ir sanoat) paydo bo'lishi bilan yakunlandi. Sanoat inqilobi faqat texnikaviy emas balki ijtimoiy, iqtisodiy burilishdir. Chunki u kapitalistik munosabatlarning to'la shakllanishiga olib keldi.

**SAVDO MONOPOLIYASI** – savdo sohasida tanho hukmronlik qiluvchi tashkilotlar.

**SHOK TERAPIYASI** – yangi hukumatning iqtisodiyotni qayta qurish bo'yicha chora-tadbirlari bo'lib, rejali, markazlashtirilgan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga tezkor o'tish. Iqtisodiy atama bo'lib, davlatning inqirozli holatidan chiqarishga qaratilgan choralar. Urushdan keyin Germaniyada 1947 va 1948-yillarda qo'llanilgan va

natijada nemis iqtisodiy mo'jizasi (Virtshaftsvunder) nomini olgan. Ammo mazkur atama Polshada amalga oshirilgan islohotlar natijasida shu nomni olgan va mashur bo'lgan. Shok terapiyasi Janubiy-Sharqiy Yevropa, Lotin Amerikasi, Rossiya va boshqa mamlakatlarda qo'llanilgan. Shok terapiyasi quyidagi holatlarda qo'llanilgan:

- Inflyatsiyaning yuqori darajasi;
- Ishlab chiqarishning tushib ketishi;
- Ishsizlikning yuqori darajasi;
- Yashash sharoitining tushib ketishi;
- Ijtimoiy muammolarning ko'payib ketishi;
- Davlat qarzining o'sib borishi;
- Siyosiy beqarorlik;
- Xorij sarmoyasiga kuchli qaramlik;
- Tashqi savdo balansining nomuvofiqligi.

**SHOP STYUARDLAR** (ingl. shop-steward, shop-ustaxona. sex va steward-boshqarmoq). Angliyada korxonalar, fabrikalar va boshqa ishlab chiqarish muassasalaridagi o'ziga xos boshqaruv tartibi bo'lib, ishchilar tomonidan saylab qo'yilgan yetakchilari shunday nomlangan. Ular ishchilarning turmush darajasini yuksaltirish uchun ommaviy ishchilar harakatining tashkilotchilari sifatida shakllangan. Shop-styuardlarning harakatlari va faoliyati tred-yunionlar faoliyatidan ko'ra keskinroq edi.

**SINDIKAT** (yunon. birgalikda ishlash) - bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar birlashmasi. Sindikatda buyurtmalarni taqsimlash, xomashyolarni sotib olish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish yagona idora (markaz) orqali amalga oshiriladi. Sindikat ishtirokchilari ishlab chiqarish mustaqilligini saqlab qolsa-da, ammo tijorat erkinligidan mahrum bo'ladi.

**STANDARTLASHTIRISH** - keng miqyosda ishlatiladigan tushunchalardan biri bo'lib, ishlab chiqarish sohalari, mahsulotlarning sifati, erkin raqobatni taminlash kabilarning bir tartibga tushurish va xomashyo, mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqalarda davlat miqyosida yagona tartib o'rnatish tushuniladi. Undan tashqari xizmat ko'rsatish, axborot almashish, fan-texnika yangiliklarini joriy qilish, barcha tabiiy zahiralarni ham himoya qilish uning faoliyat doirasiga kiritiladi. Davlatlarda yuridik va jismoniy shaxslar orasida ishsizlik va

boshqa ijtimoiy muammolarning ortib borishi natijasida yangi ko'rilayotgan choralarga nisbatan ham ishlatiladi. Standartlashtirish kam samarali bo'lishi mumkin, qachonki, unga ma'sul muassasalarning faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lmasa.

**SUBSIDIYA** (lot. subsidium - yordam, nafaqa, qo'llab-quvvatlash) - davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag'lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag'i yoki natura shaklidagi yordam. Jahon bozoridagi narxni ushlab turish uchun bozorga qo'shimcha tovarlarni chiqarmaslik zarur bo'lganda davlat o'z tovarlarini zaxiraga o'tkazib turgan firmalarga subsidiya berib, tovarlarni saqlab turish xarajatlarini qoplaydi.

To'g'ridan to'g'ri subsidiyalar ilmiy tadqiqotlar, konstruktorlik ishlanmalari, yangi texnika va texnologiyalar ishlab chiqarish va mutaxassislar tayyorlashga jalb qilinadi. Bunda qishloq xo'jaligidagi yangiliklarga ham alohida e'tibor qaratiladi.

**SUG'URTA** - tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, yong'in va b.), har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Sug'urtaning yordam ko'rinishida qadimgi dunyo tarixiga borib taqaladi. Xammurapi qonunlarida, qadimgi Yunoniston va Rimda dastlabki sug'urta ko'rinishlarini uchratish mumkin. Sug'urta muassasalari dastlab o'rta asrlarda, dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavf-xatarlar bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. Muassasalarning paydo bo'lishi sex va gildiyalarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Asta-sekinlik bilan sexlarda sug'urta uchun ma'lum bir pul to'lovlari tizimi joriy qilina boshlangan. Shu tariqa natural sug'urta pul sug'urtasiga aylana boradi. XIV asrning o'rtalaridan «tijorat sug'urtasi» paydo bo'la boshladi. XVII asrning oxirida sug'urta bozorida maxsus sug'urtachilar - aksionerlik jamiyatlari tashkil topa boshlagan.

**CHAKANA SAVDO** - tovarlarni donalab yoki maydalab tortib sotish va sotib olish.

**TREST** (ing. trust-ishonch) - korxonalar, firmalar birlashmasi. Sanoat monopoliyalarining XX asr 20-yillardagi eng yuqori shakli.

Trest tarkibiga kirgan ishtirokchilar o'z ishlab chiqarish-savdo mustaqilligini yo'qotadi va bu sohalardagi faoliyatida markaziy boshqarma qaroriga amal qiladi. Nisbatan XIX asrda trestlar keng faoliyat olib borgan. Eng mashhur trestlardan biri AQShda 1879-yilda tashkil etilgan Rokfellingning «Standart Oil» tresti hisoblanadi.

**VAUCHER** (ingl. voucher-tilxat) - xususiylashtirish cheki, qimmatli qog'oz, shuningdek u yozma ravishdagi guvohlik, mahsulotlar, xizmatlar va narxlardagi ayrim imkoniyatlarga nisbatan ham ishlatiladi. Davlat tasarrufidan chiqarilayotgan korxonalarining aksiyalariga almashtirish yo'li bilan xususiylashtirishda ishtirok etish huquqini beradi. Vaucherning xususiylashtirilgan mulk ulushiga ko'ra belgilangan nominal qiymati va korxonada daromadining aksiyalarga taqsimlangan dividend miqdoriga qarab belgilanadigan kursi mavjud. Vaucherni korxonalar aksiyalariga ayirboshlash, dividendlarni taqsimlash, aksiyalar bilan oldi-sotdi operatsiyalarini o'tkazish investitsiya fondlari orqali amalga oshiriladi. Vaucherni xohlagan investitsiya fondiga topshirish yoki sotish, sotib olish mumkin. Sobiq ittifoq respublikalariga vaucher atamasi XX asrning 90-yillarida boshlangan xususiylashtirish natijasida kirib keldi.

**YAGONA ICHKI BOZOR** – bir xil o'lchov (metr), og'irlik (kg) va yagona pul birligining qaror topganligi.

**YER RENTASI** - yerdan foydalangan uchun yer egalardan muntazam ravishda olib turladigan daromad turi.

### 2.3. Fan, madaniyat va san'atga doir atamalar

**ABSTRAKSIONIZM** (lot. abstractio-voz kechish, rad etish) – tasviriy san'at va haykaltaroshlikda realizmdan, ya'ni real (ya'ni haqiqatdagi holati) predmet va holatlarni tasvirlashdan voz kechgan yo'nalish hisoblanadi. Uning asosiy uslubi ijodning tartibsizligi va g'ayrihuuriyligini dog'lar va hajmlar harakatida ifodalashdan iborat. Vasiliy Kandinskiy, Kazimir Malevich, Natalya Goncharova va Mixail Larionov, Pit Mondrian birinchilardan bo'lib shu yo'nalishda ijod qilganlar. Birinchi abstrakt yo'nalishdagi surat Vasiliy Kandinskiy tomonidan 1900-yillarning oxirida yaratilgan. Abstraksionizm yo'nalishiga kubizm yo'nalishi nisbatan yaqin turadi.

**AKADEMIK** (frans.) – yuksak ilmiy unvon. Odatda mazkur unvon Fanlar akademiyasining a'zolariga berilgan. Akademik unvoni akademiyaning a'zolari tomonidan ovoz berish natijasiga binoan beriladi. Akademik unvoni umrbod beriladi. Ayrim davlatlar misol uchun AQShda akademiklar nafaqaga chiqariladi va ularga «xizmat ko'rsatgan» unvoni beriladi. Bugungi kunda dunyodagi deyarli barcha davlatlarda akademik unvoni mavjud.

**AKKULTURATSIYA** (ingl. acculturation, lot. ad-ra, cultura – ta'lim, rivojlanish) – madaniyatlarning bir birga ta'siri, bir xalq tomonidan boshqa xalq madaniyatining to'liq yoki qisman qabul qilinishi. Akkulturatseyani assimliyatsiya bilan chalkashtirmaslik kerak. Assimliyatsiyada biror bir xalq nisbatan dominant bo'lgan boshqa xalq bilan aloqada tili va madaniyati to'lig'icha yo'qoladi. Shunga ko'ra akkulturatsey to'liq assimliyatsiyalashuv yo'lidagi dastlabki bosqich bo'lishi mumkin. Atama XIX asr oxirlarida amerikalik antropologlar (F. Boas, U.Xolms, U.Mak-Ji, R.Lui) tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan. 1910-yilda nemis etnologi V.Krikenberg Janubiy Amerikadagi ayrim qabilalar o'rtasidagi madaniy aloqadorlik mazmunidan kelib chiqib qo'llagan.

**AMBITSIYA** (frans. ambition lot. ambitio) – o'zining fikrini ustun qo'yish, o'zini juda aqlli hisoblash, o'zini hamnadan yuqori qo'yish.

**ANTIKVARIAT** (lot. antiquus- qadimgi) – ma'lum bir qimmatga ega bo'lgan turli-tuman qadimiy narsa buyumlarni anglatuvchi atama. Antikvar buyumlarga ko'proq ko'hna va noyob san'at asarlari, mebel, antikvar kitoblar, va h.k.nikiritadilar.

**ASKETIZM** (yunon) – tuyg'u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish.

**ASTROLYABIYA** - *usturlob* (yunon. *astrolabon*-«yulduzlarni oluvchi») – XVII asrgacha xizmat qilgan joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, yulduzlarning chiqish va botish paytini aniqlovchi astronomik asbob. Yevropalik ustalar arablardan o'rganishgan va ma'lumotlarga ko'ra dastlab qirollar saroyida kolleksiya sifatida saqlangan. Astrolyabiya dastlab Qadimgi Yunonistonda qo'llanilgan. Miloddan avvalgi III asrda Apolloniy Pergskiy, Vitruviylar «Memorchilik haqida o'nta kitob» asarida mazkur asbobni astronom

Yevdoks yasaganligini aytib o'tishgan. Miloddan avvalgi II asrda Klavdiy Ptolemey, milodiy IV asrda Teon Aleksandriyskiylar shu asbob haqida yozishgan. Sharq davlatlarida astrolyabiya haqida Xorazmiy, Astrulabiy, Zarkaliy, Sijiziy, Farg'oniy, Sufiy, Beruniy, Nosir ad-Din Tusiy va boshqalarning asarlarida eslab o'tilgan. XII asrdan boshlab asbob G'arbiy Yevropada mashhur bo'la boshladi. XVI asrda flamandlik usta Gualterus Arsenius yasagan astrolyabiyalar o'zining aniqligi bilan mashhur bo'lgan.

**BOGEMA** (frans. "Boheme" - ayni ma'nosi "lo'lichilik") – ayrim mamlakatlarda moddiy jihatdan ahvoli og'ir yoki doimiy daromadga ega bo'lmagan, betartib hayot kechiruvchi intelligentlar tabaqasi: asosan artistlar, mashshoqlar, rassomlar va h.k. Atama XIX asr birinchi yarmida Fransiyada paydo bo'lgan. Mazkur atamaning kelib chiqishiga ko'ra fransuz tilida lo'li (sigan) lar bogema yoki Bogemeyada yashovchi aholi sifatida tushunilgan. Atamani Anri Myurje «Bogemalar hayotidan lavhalar» (1849) asarida qo'llagan, keyinroq Puchchini (1896) va Leonkavallo (1897) operalarida ham shu atama ishlatilgan.

**BURKA** (arab. «burku», Pokistonda «barka»-ustki kiyim) Tanani yopib turuvchi ustki kiyim. Afg'onsiton va Pokistonda kiyib yurish joriy qilingan. Hindiston musulmonlari va boshqa musulmon davlatlarida ham uchraydi. Kavkazda kigizdan qilingan oq, qora va boshqa rangdagi yengsiz plash ham shunday nom bilan ataladi.

**DEIDEOLOGIZATSIYA** (mafurasizlik)–ijtimoiy-siyosiy konsepsiya, unga binoan zamonaviy jamiyatlarda mafkuralarning roli pasaytiriladi. Mafkuralar ijobiy bilimlar bilan siqib chiqariladi. Mafurasizlik tarafdorlarining shiori: mafkurachilar ijtimoiy inqilob bilan erishmoqchi bo'lgan narsalarga ilmiy-texnik inqilob orqali ancha samaraliroq erishish mumkin. XX asrning 50-60-yillarida G'arbiy Yevropada mafurasizlik tamoyillari bilan nafaqat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorlashuvi, balki ongni modernizatsiyalash an'anaviy utopizmi va irrasionalizmni ham yengishga umid bog'lashgan.

**DEKADENTLIK** (lot.-tanazzul) - Yevropa madaniyatidagi inqiroz holatini umumiy tarzda ifoda etuvchi tushuncha. Tanazzulga yuz tutishlik, umidsizlik kayfiyati, hayotdan bezishlikni o'zida aks ettiruvchi oqim. Dastlab milodiy II-IV asrlarda Rim imperiyasi madaniyatidagi tushkunlikka nisbatan qo'llanilgan. Keyinchalik, XIX asr oxiri va XX



asr boshlari uchun xos bo'lgan modernistik yo'nalish. XIX asrda Yevropa, asosan fransuz adabiyotida dekadentlik yo'nalishi kuchayib bordi. Dekadentlik g'oyasi XVIII asrda Monteskye, keyinroq Dezire Nizar asarlarida uchray boshladi. 1880-yillarda bir qator fransuz adabiyotchilari o'zlarini dekadentlar deb hisoblaydilar. Britaniyada dekadentlikning asosiy vakili Oskar Uayld edi. Dekadentlikning yorqin vakillariga Sh. Bodler, Mariya Korelli, P. Verlen, Meterlink, Gyuismans, Stanislav Pshibishevskiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

**DEMAGOGIYA** (qadimgi yunon. «xalqni boshqarish») - notiqlik va shunga o'xshash boshqa yo'llar orqali siyosiy maqsadlarni amalga oshirish maqsadida xalqqa tasir o'tkazish yoki xalqni boshqarish. Demagog Qadimgi Yunonistonda diktator va demokratlarga nisbatan qo'llanilgan, undan tashqari xalq siyosatchisi sifatida ham talqin qilingan. Tasdiqlanmagan manbalarga ko'ra mazkur atamani birinchi bor Aristotel qo'llagan deb ko'rsatiladi. Undan tashqari demagog so'zi bilan birga "prostat" (himoyachi, xalq manfaatining himoyachisi) atamasi ham ishlatilgan. Har ikkala atama dastlab Periklga nisbatan ishlatilgan. Keyingi davrlarda mazkur atamaning ishlatilganini aniq aytib o'tish qiyin, XIX asrda Yevropaning ayrim ilmiy adabiyotlarida demagog atamasi uchraydi. 1954-yilda nashr qilingan "Xorijiy so'zlar lug'ati"da demagog "Xalq orasida mashhur bo'lgan siyosiy shaxs" deb talqin qilingan. Taniqli olim V. I. Dal o'zining asarlarida demagog - «yolg'onchi demokrat, xalq nomidan hokimiyatga intiladi va xalq nomidan davlatni boshqarishga harakat qiladi» deb ta'riflagan..

**DEMOKRATIK ADABIYOT** -hukmron tabaqalar manfaatiga emas, xalq manfaatlariga, uning kelajagiga xizmat qiluvchi, kishilarni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalovchi, voqelikni haqqoniy aks ettiruvchi adabiyot.

**DISSIDENTLAR** (lot. dissidens. boshqacha fikrlovchilar) - Angliyada XVI-XVII asrlarda paydo bo'lgan atama. Dissidentlar yoki dissenterlar shaklida qo'llanilgan va protestant guruhlariga hamda ularning hammaslamlari dissidentlar deyilgan. Polsha va qisman Rossiyada «dizunit» (*dyszunity*) lar shaklida XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. Sobiq Sovet Ittifoqida boshqacha fikrlovchi, davlat ichki va tashqi siyosatida davlat nuqtai nazarini yoqlamaydigan va mamlakatdagi hukmron g'oyaga qo'shilmaydigan fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan.

**EKSPRESSIONIZM** (lot. *expressio*-namoyon etish, bildirish) voqelikning yagona in'ikosi sifatida insonning sub'ektiv ruhiy olamini tan oldi, uning ifodasini esa san'atning bosh vazifasi deb hisobladi. Asosan XX asrning birinchi choragida taraqqiy qilgan G'arbiy Yevropa (asosan Germaniya va Avstriyada) va qisman Amerikada taraqqiy qilgan. Ularning asarlarida tashqi olam buzuq, tasqara va irratsional aks ettirildi. Ekspressionistlar voqelikka qarama-qarshi bo'lgan sof abstrakt asarlar yaratish yo'lini tanladilar. Chunki oqim namoyondalariga Birinchi jahon urushi, turli ijtimoiy inqirozlar katta ta'sir o'tkazgan. Bu yo'nalishning taniqli namoyondalar ichida yozuvchilardan G. Kayzer, V. Gazen-klever (Germaniya), F. Verfel (Avstriya), rassomlar E. Nolde, F. Mark, P. Kleye (Germaniya) O. Kokoshka (Avstriya), kompozitorlar A. Shyonberg, A. Berg (Avstriya), nemis kinorejissyorlari F. V. Murnau, R. Vine, P. Leni alohida ajralib turganlar.

**EKZISTENSIALIZM** (frans. *existentialisme*, lot *existentia* - borliq) – Falsafadagi irratsionalistik yo'nalish. XX asr boshlarida Rossiyada, Birinchi jahon urushidan keyin Germaniyada, 2-Jahon urushidan keyin Fransiya va boshqa mamlakatlarda shakllandi. G'oyaviy manbalari: Kyerkegora ta'limoti, hayot falsafasi, fenomenologiya. Mazkur yo'nalishning markaziy muammosi hayotda inson mavjudligi ma'nosini izlash. Ushbu ma'no o'lim bilan to'qnash keladigan vaziyatlarda: kurash, azob chekish, o'lim xavfida namoyon bo'ladi. Ekzistensiyaning ma'nosiga yetgach (ekzistensiya – markaziy tushuncha bo'lib, inson mavjudligini ob'ekt va sub'ektning bo'linmas butunligi sifatida talqin etadi.) inson erkinlikka erishadi. Lekin bu erkinlik insonga jahonda ro'y berayotgan voqea-hodisalar uchun ma'suliyat hissini yuklaydi.

**EMBLEMA** (qadimgi yunon tilida «namoyish») – ramziy yoki ma'lum bir belgilangan buyum bo'lib, biror-bir ma'noni anglatadi. Misol uchun oq kabutar tinchlik ma'nosini va boshqalar. Emblema odatda aniq mazmunga ega bo'ladi, ammo tomoshabin har doim ham uning mazmunini oson bilib ololmaydi. Rassomlar, shoirlar, yozuvchilar va boshqa san'at sohasi kishilari emblemalardan ko'proq foydalanishadi. Emblemalar juda qadimdan boshlab kishilar tomonidan qo'llanilib kelingan va o'rta asrlar davrida ayniqsa faollashgan. Bugungi kunga kelib emblemalardan barcha sohalarda keng foydalanishadi va uning o'ziga xosligini ajratib ko'rsatadi.

**ETATIST** (frans. etat-davlat)-g'oya va oliy jamiyat to'g'risidagi qarashlar jamlanmasi. Davlatni jamiyat taraqqiyotining yuqori natijasi va maqsadi hamda o'z navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy, hal qiluvchi omili deb hisoblovchi ijtimoiy tafakkur yo'nalishi. Etatizm terminini birinchi bor shveysariyalik siyosatshunos N. Dro XIX asrda qo'llagan. Uning asosiy belgilari fashistlar Germaniyasi singari totalitar davlatlarda amalga oshirilgan. SSSR, Sharqiy Yevropa, shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida davlat iqtisodiyoti aslida etatistik iqtisodiyot bo'lgan edi. Iqtisodiyot etatistik modelining samarasizligi SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining sinishida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlandi. Etatizm eng muhim siyosiy institut sifatida faqatgina davlatni ko'rsatishadi

**FALSAFA** - (qadimgi yunon tilida - sevgi, muhabbat, donishmandlik, so'zma-so'z: donishmandlikni sevaman) - tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan. Falsafaning asosiy ko'rinishlari qisqa dono jummalarda namoyon bo'ladi va shu orqali kishilarning dunyoqarashini, fikrlashini boyitadi. Qadimgi Yunoniston falsafasi o'zining taraqqiyotini miloddan avvalgi VI asrdan boshlagan bo'lib, uning rivojiga Suqrot, Fales, Demokrit, Pifagor, Zenon va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Qadimgi hind falsafasi miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Upanishadlarda berib o'tilgan. Hindistonda lokayatlar, darshanlar, yogalar, nyayalar va boshqalarning o'ziga xos falsafiy qarashlari shakllangan. Ayniqsa buddizm, hinduizm, jaynizm, sikkizm va boshqalar keng tarqalgan. Qadimgi Xitoyning falsafa maktabi ham juda boy bo'lgan. Konfutsiy va daosizm ta'limotlari fikrimizning isbotidir. O'rta asrlarda Yevropa va Sharq mamlakatlarida o'ziga xos falsafa maktablari shakllandi va bir-birining rivojiga katta hissa qo'shdi. Islom va xristian falsafasi juda xilma-xil va keng miqyosda tarqaldi. XVII asr boshlaridan falsafa o'zining taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarildi. Gumanistik qarashlar natijasida fanning diqqat markaziga inson ko'tarildi. Kont, Spinoza, Leybnis va boshqalarning falsafiy qarashlari ko'plab tarafdorlarga ega bo'ldi.

**FAN** (arab. so'z) - to'g'riligi amalda tasdiqlangan, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda atrof muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi.

**GIMNAZIYA** (yunon. *gymnasion* - gimnastika mashg'ulotlari o'tkazish uchun joy, sport zal) - O'zbekiston va ayrim xorijiy mamlakatlarda umumiy o'rta ta'lim o'quv yurti. Gimnaziyalar muayyan fan bo'yicha ixtisoslashtirilgan bo'lib, shu fandan chuqurlashtirilgan ta'lim beradi. Dastlab Fransiyaning Strasburg shahridagi o'rta maktab (1538-y) gimnaziya deb atalgan. O'quv muassasasi sifatida gimnaziyalarning paydo bo'lishi antik davrga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston, Misr, Suriya va Kichik Osiyo shaharlarida uchraydi. Ikkinchi ma'noda «mashq bajaruvchi joy» ma'nosini anglatadi. To 1912-yilgacha gimnaziyalarda bajarilgan mashqlar - «gimnastika» istalgan shakldagi jismoniy mashqlarni anglatgan. Gimnaziyalarda qilichbozlik, qo'l jangi, chavandozlik, gigiyena, raqs, musiqa, ritorika va matematika o'rgatilgan. Qadimgi Yunonistonda ikki xil turdagi gimnaziyalar bo'lgan. Bular Aleksandriya va Sparta gimnaziyalari. Birinchisida fuqarolik umumta'lim fanlari o'qitilgan bo'lsa, ikkinchi tur gimnaziyalarda hatto qiz bolalarga ham jismoniy tarbiya va harbiy ish o'rgatilgan.

**GUMANITAR** (frans. *humanitaire* - insoniy tabiat, bilimlilik) - inson shaxsiga, inson huquqi va manfaatlariga oidlikni anglatuvchi tushuncha. Shu bilan birga fanlar tizimi sifatida ham tushuniladi va uning doirasiga diniy, madaniy, ijtimoiy fanlarni kiritishadi. Bu borada. E. Gusserl, M. Xaydegger, L. Vitgenshteyn, F. Rozensveyg, O. Rozenshtok-Xyussi, M. Buber, M. Baxtin va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Gumanitar fanlarga-madaniy antropologiya, jurnalistika, san'atshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik, lingvistika, adabiyotshunoslik, muzeyshunoslik, pedagogika, siyosatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, filologiya, falsafa, estetika, etika, etnografiya fanlarni kiritishadi.

**GUMANIZM** (lot. *humanitas* -insoniylik, *humanus* - insoniy, *homo* - inson) - odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amxo'rlik qilish. Uyg'onish davri (XIII-XVI asrlar)da sxolastikaga va cherkovning ma'naviy hukmronligiga qarshi turgan dunyoviy hurfikrlilik. Ular inson huquqi va olijanob fazilatlar, ilm-ma'rifat va hurriyat uchun, kishilarning har tomonlama erkin rivojlanishi uchun kurash olib bordilar. Gumanizمنى ilmiy tadqiq qilishni amerikalik talaba Uorren

Allen Smit 1949-yildan boshlagandi. Gumanizimni olimlar davrlarga bo'lib ko'rsatishadi. Qadimiy *gumanizm* - Aristotel, Demokrit, Epikur, Lukresiy, Perikl, Suqrot; *Klassik gumanizm* - Bekon, Bokkachcho, Erazm Rotterdamskiy, Monten, Tomas Mor va Petrarka; *Diniy gumanizm* - yaratganning insonni ulug'lashi haqidagi qarashlarga asoslanadi. *Ateistik gumanizm* - Jan-Pol Sartr; *Kommunistik gumanizm* - Karl Marks; *Ilmiy gumanizm* - insonning qadr-qimmatini va shaxsiy erkinligini himoya qilishga qaratilgan qarashlar. XX asrda gumanizm oid qator hujjatlar qabul qilingan: ulardan Gumanistik manifest I (1933), Gumanistik manifest II (1973), Dunyoviy gumanizm deklaratsiyasi (1980), Gumanistik manifest 2000 (1999), Amsterdam deklaratsiyasi (2002) va boshqalar.

**ILM** (arab.) - kishining o'qish, o'rganish va hayotiy tajribasi orqali orttirgan bilimi. Ilm so'zi Qur'onda ham qadrlanadi va 750 marta tilga olinadi. Qur'onda ko'rsatilgan muallim so'zi qisqartirilib «ilm» harflarida ifodalanadi. Arabcha muallim boshqa tillarga o'qituvchi, uztoz va shu kabi so'zlarni bildiradi.

**ILOHIYOT** – diniy qoidalar va ular haqidagi Xudo ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan asosiy diniy ta'limot.

**IMPRESSIONIZM** (frans. impression - taassurot) - san'atda XIX asming oxiri-XX asming boshlaridagi yo'nalish. Impressionistlar mavjud borliqni harakatda, o'zgarishda tabiiyroq tasvirlashga, o'z lahzalik taassurotlarini ifodalashga intilib, tasvirning jonli, haqqoniylikka erishgan. Voqelikning tabiiyligi, inson va muhit birligida uning doimiy o'zgaruvchanligi ifoda etildi. Dastlab 1860-yillarda fransuz rassomchiligida vujudga kelgan. E. Mane, K. Mone, O. Renuar hayotdan olgan bevosita jonli taassurotlarini tasodifiy harakat, favqulodda holatlar ifodasida namoyon etdilar. Impressionistlarning birinchi muhim ko'rgazmasi 1874-yilning 15- aprelidan – 15-mayigacha fotograf Nadarning ustaxonasida tashkil etildi. Unda 30 ta rassomning 165 ta asari ko'rgazmaga qo'yilgan. Shular ichida Xolst Monening «Taassurot, chiqayotgan quyosh» (*Impression, soleil levant*) nomli asari ham bor edi. Manzara, portret, ko'p shaklli kompozitsiyalarda rassomlar tomonidan dastlabki taassurotlar kuchi va sofligi, betakror xususiyatlari mayda detallariga berilmasdan tasvirlandi. Impressionistlar ilk bor zamonaviy shahar hayotining serqirra ko'rinishlarini yaratib, asarlarida shahar manzarasi va undagi odamlar

qiyofasida uning o'ziga xosligini aks ettirdilar. XX asrning o'rtalariga kelib impressionizm uslub sifatida o'z umrini tugatgan bo'lsada, turli mamlakatlar ijodkorlari orasida bu yo'nalishda asarlar yaratayotgan yoxud ijodiy evolyutsiyasining muayyan bosqichida unga ergashgan yozuvchilar topiladi. Xususan, o'zbek adiblaridan X. Do'stmuhammad («Ko'z qorachig'idagi uy», «Jajman» va b.), N. Eshonqul («Maymun yetaklagan odam» va b.) ijodida shu yo'nalishning ta'siri seziladi.

**ISLOHOT** – biror sohadagi mavjud tartiblarni tubdan o'zgartirish. Agrar islohot - yer-suv, yerga egalik va yer-suvdan foydalanishga oid tartibni qayta o'zgartirishdir. O'zbekistonda mustaqillik yillarida barcha sohalarda keng miqyosdagi islohotlar amalga oshirila boshladi va ularning samarasi dunyo davlatlari tomonidan tan olinmoqda.

**KASHFIYOT** – izlab topish, tekshirish natijasida topiladigan, yaratiladigan ilmiy yangilik.

**KLERIKALIZM** (lot.) - jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida cherkov va ruhoniylarning yetakchilik mavqeyini ta'minlashga intiladigan diniy-siyosiy oqim.

**KOSMOPOLITIZM** (yunon. kosmopolites – kosmopolit, jahon fuqarosi) – “jahon fuqaroligi” deb atalgan g'oyani targ'ib qiluvchi mafkura. Dastlab Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lib, Diogen va Suqrot tomonidan ishlatilgan. Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida mazkur fikrlar yanada kuchliroq bildirilgan. O'rta asrlarda kosmopolitizm ko'proq diniy manoda ishlatilgan. Uyg'onish va Ma'rifatchilik davrlarida jahon fuqaroligi ideali olg'a surilib (Dante, Kampanella), individning zamindor boylar zulmidan ozod bo'lish g'oyasini (Lessing, Gyote, Shiller, Kant) ifodalagan. Kosmopolitizm milliy ananaviy va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechishga – bevatanlikka da'vat etadi. 1544-yilda Giyom Postel qaytadan «kosmopolitizm» atamasini ishlatadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda mazkur tushuncha yanada rivojlanabordi, misol uchun 10-dekabr 1948-yilda «Inson huquqlari butun jahon deklarasiyasi» qabul qilinadi. XXI asrda kosmopolitizm globalashuv jarayonining bir qismi sifatida qaralmoqda. Unga qarshi patriotizm yoki vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi ko'plab oqimlar va guruhlar mavjud. Misol uchun mashhur rus adibi Lev Nikolayevich Tolstoy kosmopolitizmga qarshi fikrlar bildirgan.

**KUBIZM** (frans. *cubisme*) - XX asr boshlarida vujudga kelgan tasviriy san'atdagi modernistik yo'nalish. Kubizimga rasman 1906-1907-yillarda Pablo Pikasso va Jorj Braklar asos solishgan, ammo «kubizm» atamasi 1908-yildan boshlab ishlatila boshlangan. Bunga tasviriy san'at tanqidchisi Lui Vosel tomonidan Jorj Brakning yangi asarlarini «kubsimon mo'jizalar». (frans. *bizarrieres cubiques*) nomi bilan atashi asos bo'lgan. Kubizmda keyinchalik sezannov (1907-1909), analitik (1909-1912) va sintetik kubizm (1913-1914) oqimlari vujudga kelgan.

**MAGISTRATURA** (lot. magistratus - rahbariyat) – Qadimgi Rimdagi davlat lavozimlarining umumiy nomi. Respublika o'rnatilishi davrida paydo bo'lgan (mil.avv. VI asr oxiri) oliy magistratura (dictator, desemvirlar, konsullar, pretorlar, senzorlar) va quyi magistratura (xalq tribunlari, edillar, kvestorlar va boshqalar)larga ajratilgan. Oliy magistratura yuqori hokimiyatga ega bo'lishgan, ularning mulozimi bo'lgan. Qolganlari esa o'z majburiyati doirasida farmon chiqarish va jarima solish huquqiga ega edilar. Imperiya davrida magistrlar o'z hokimiyatini yo'qotgan. Undan tashqari magistratura ayrim davlatlarda oliy o'quv yurtlarida talim bosqichi sifatida va sudlarning maxsus tashkil qilingan korpusi sifatida ham ishlatiladi.

**MA'RIFATCHILIK** – madaniyat va ma'naviyat sohasidagi oqim. Uning negizini fan va bilim imkoniyatlariga katta ishonch tashkil qiladi. Marifatchilar bilim yordamida ijtimoiy hayotdagi nomutonosibliklar va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkinligiga ishonganlar. Shu nuqtai nazardan ma'rifatchilikni mafkuraviy, ijtimoiy, falsafiy oqim deyish mumkin. Ilm fanni egallash va targ'ib qilish qadimgi zamonlarda boshlangan bo'lsada, ma'rifatchilik oqim sifatida G'arbda XVII asr oxiri XVIII boshlarida Sharqda esa XIX oxiri XX asr boshlarida maydonga keldi. Marifatchilik quyidagi oqimlarga bo'linadi:

- Madaniy marifatchilik
- Sanitar marifatchilik
- Psixologik marifatchilik
- Pedagogik marifatchilik
- Siyosiy marifatchilik

Marifatchilikning eng yirik namoyondalarida Angliyada yashab ijod qilishgan va ulardan - J. Lokk, J. A. Kollinz, J. Toland, A. E. Sheftsberi, Fransiyada - Volter, Sh. Monteskye, J. J. Russo, D. Didro, K. A. Gelvesiy, P. A. Golbax, Germaniyada - G. E. Lessing, I. G. Gerder,

F. Shiller, I. V. Gtote, AQShda - T. Jefferson, B. Franklin, T. Peyn, Rossiyada - N. I. Novikov, A. N. Radishyev.

**MODERNIZM** (ital. «zamonaviy qarashlar») - XX asr san'atidagi yo'nalish bo'lib, rassomchilik, memorchilik, badiiy sanat va boshqalarda vujudga kelgan. G'arb davlatlari jamiyatida XX asrning birinchi yarmidan shakllana boshladi. Modernizm tasviriy san'atda impressionizm, modern, ekspressionizm va postimpressionizm, fovizm, kubizm, futurizm kabi yo'nalishlarga bo'linadi. Adabiyotda esa ko'plab ijodkorlar ijod qilishgan bo'lib, buni Dostoyevskiy (1821-1881), Akakuka Karamazovlar (1880), Uitmen (1819-1892) (1855-1891), Bodler (1821-1867) va boshqalarning asarlarida ko'rish mumkin. Faylasuf yozuvchilardan Fridrix Nitshe, Anri Bergson, Uilyam Jeyms va boshqalar. Undan tashqari Anna Axmatova (1889-1966), Gabriele d'Annunzio (1863-1938), Giyom Apolliner (1880-1918), Andrey Beliy (1880-1934), Gotfrid Benn (1886-1956), Konstantinos Kavafis (1863-1933), Djozef Konrad (1857-1924), Alfred Dyoblin (1878-1957), Xilda Dulitl (1886-1961), Tomas Sternz Eliot (1888-1965), Uilyam Folkner (1897-1962), Frensis Skott Fisjerald (1896-1940), Ernest Xeminguey (1899-1961), Tomas Mann (1875-1955) va boshqalarni ham ko'rsatib o'tish mumkin. Memorchilikda ham funksionalizm 20-30-yillarda, konstruktivizm va ratsionalizm 20-yillar Rossiyada, «bauxaus» harakati Germaniyada va boshqa ko'rinishlarda paydo bo'ldi va uning yirik namoyondalari Frenk Lloyd Rayt, Valter Gropius, Rixard Noytra, Lyudvig Mis van Der Roe, Le Korbyuzye, Alvar Aalto, Oskar Nimeyer va boshqalar

**NATURALIZM** (frans. naturalizme, lot. Naturalis - tabiiy) - XIX asrning oxirgi choragida Yevropa va AQSh adabiyoti va san'atida yuzaga kelgan oqim. Unda real borliqni obyektiv, aniq va hissiz aks ettirishga intilgan. Naturalizm insonni va uning jamiyatdagi hayotini tadqiq qilgan, uning maksimal darajadagi realligini ko'rsatishga harakat qilgan. Ushbu yo'nalishning nomi tabiat va jamiyatning o'xshashligi g'oyasidan kelib chiqqan: yozuvchi tabiatshunos olim tabiatni o'rganganidek jamiyatni o'rganishi mumkin, yangi qonuniyatlarni ochishi va o'zaro aloqadorlikni o'rnatishi mumkin. Oqimning asosiy tasvir obyekti - inson, uning tabiiy va fiziologik hayot tarzi; tabiat va atrof muhitni uning maishiy va moddiy muhiti deb bilgan. Naturalizmning adabiyotdagi asoschisi fransuz adbi E.Zolya hisoblanadi



(u tarkibiga 20 ta roman kiruvchi «Rugon-Makkari» romanlar siklining muallifidir) u o'zining romanlarida jamiyatning quyi qatlam vakillari hayotini tasvirlaydi. Zolya atrofida 1870-yillarda naturalizm maktabi shakllandi. XIX asrning 80-yillari oxirida bu maktab tarqab ketadi. Shundan so'ng boshqa davlatlarda ushbu oqim vakillari yetishib chiqdi: A. Xols va G. Gaupman (Germaniya), X. Garlend va S. Kreyn (AQSh).

**NAZARIYA** - bilimning biror sohasiga oid asosiy g'oyalar tizimi; voqelik qonuniyatlari va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli. Nazariya borliqning muayyan sohasiga oid tajribalardan umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida kelib chiqadi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi, tajribalar bergan dalillarni izohlash, shu bilan birga, narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yuzaga keladigan yangi narsa va hodisalarni oldindan ko'ra olishdan iborat. Har qanday nazariya ilmiy bilishning natijasi sifatidagi bilish shakli bo'lsa-da, lekin uni tugallangan, o'zgarmas, mutlaq bilim deb qaramaslik kerak. Nazariya bilish jarayonida biz to'plagan bilimlarning natijasigina emas, balki yangi bilimlar hosil qilish yo'lidagi boshlang'ich asosdir. Nazariya hamma vaqt amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'ladi va shundagina u harakat va rivojlanishning quroliga aylanadi. Nazariyaning boshlang'ich shakli gipotezadir. Amaliyotda gipotezaning to'g'ri, haqiqat ekanligi isbotlansa, shu asosda yangi nazariya yuzaga kelishi mumkin. Ilmiy bilish jarayonida kishilarning ilmiy nazariyalar bilan qurollanganligi unga ilmiy oldindan ko'rish - ilmiy bashorat qilish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, yangi qonuniyat va yangi nazariyalarning shakllanishiga olib keladi.

**NIGILIZM** (lot. nihil - hech nima) – mavjud ijtimoiy hayot shakli va axloqiy me'yorlari, madaniy meros hamda ideallarni inkor etish. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot inqirozga uchragan davrlarda, ayniqsa, keng yoyildi. O'rta asrlarda Rim papasi Alekandr III ning 1179-yilgi anafemasida nigilizm ta'limoti haqida gap boradi. Nigilizm atamasini birinchi marta nemis faylasufi F.G. Yakobi (1743-1819) qo'llagan. Keyinchalik Nigilizm termini inqilobiy mafkura va demokratik harakatni tahqirlash uchun ishlatilgan.

**PANTEIZM** (yunon. pan-«hamisha, har qanday»+teos-«xudo, iloh») – xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi, deb hisoblovchi ta'limot.

**PASIFIZM** (lot. *pacificus* - tinchlikparvar, *pax* - tinchlik *facio* - qilaman) - tinchlik uchun kurashni targ'ib qiluvchi g'oya. Asosan militarizm va imperializmga qarshi qaratilgan. Tarixda jaynizm, buddizm va bir qancha qarashlar unga mos keladi. Undan tashqari xrestian dinida ham pasifistik qarashlar mavjud bo'lgan. Imperator Konstantin davrida pasifistik qarashlar butunlay yo'q qilindi. Katarlar, valdenlar, fransiskanlar, guschilar va boshqalarda ham pasifistik qarashlar paydo bo'lgan. Birinchi pasifistik tashkilotlar AQSh va Buyuk Britaniyada Napoleon urushlari davrida paydo bo'la boshladi. 1880-yillardan bunday tashkilotlar soni ko'payib ketadi. Rossiyada pasifistik qarashlarga Lev Tolstoy asos solgan deb ta'kidlanadi. Dunyoga mashhur kishilardan pasifizmning yirik namoyondalari sifatida Ilya Sazonov, Alfred Nobel, Alfred Eynshteyn, Mahatma Gandi, Muhammad Ali va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**PLYURALIZM** (lot. *pluralis* -ko'pchilik, har xil qarashlar) - jamiyatdagi turli xil fikrlarning ma'lum bir pozitsiyada bo'lishi va o'z tomonida qat'iy turishi tushuniladi. Mazkur atama turli sohalarda birdek qo'llanilib, falsafiy plyuralizm, siyosiy plyuralizm, diniy plyuralizm, g'oyaviy plyuralizm va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**POP-ART** (ingl. pop art, popular art iborasining qisqartma shakli - hammabop san'at) - zamonaviy tasviriy san'atda avangard yo'nalish; abstrakt san'at ta'sirida yuzaga kelgan, dadaizm (ayniqsa, M. Dyushan ijodi) va syurrealizm bilan aloqada bo'lgan. 1950-yillarning ikkinchi yarmida eng avvalo AQSh (R. Raushenberg, K. Oddenberg, J. Rozenkvist kabilar) va Buyuk Britaniya (P. Bleyk, R. Gamilton kabilar)da paydo bo'lgan, so'ngra Fransiya (N. de Sen-Fal), Germaniya (P. Vunderlik) kabi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida tarqalgan. Abstrakt san'atning borliqdan, real hayotdan ajralib borishiga qarshi harakat ko'rinishida shakllangan. Pop-art vakillari real borliqqa qaytish, keng ko'lamda ishlab chiqarilayotgan buyumlarning estetik qiymatini ommaviy yo'llar (reklama, foto, reproduksiya, komiks va h.k.) vositasida yoritishni asosiy maqsad qilib oldi. Shahar hayotida keng ishlatiladigan buyumlar (uy-ro'zg'or anjomlari, o'rov qutichalari, mashina bo'laklari va h.k.) ni xuddi o'ziga o'xshatib ishlab, ularning o'zidan (ko'pincha kollaj va boshqa usullar yordamida) kompozitsiyalar tuzadi. Pop-artda tanlangan buyumlar tasodifiy, bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan holda birlashtirilishi mumkin. Muhimi bir-biri bilan mos tushmaydigan buyumlarni

birlashtirish orqali tomoshabin fikri va tasavvuriga zid hissiyotlarni uyg'otishdan iborat. Masalan, rassom ramkaga tortilgan toza matoga uning diagonali bo'yicha rangli sharifni bog'lashi yoki unga dastro'mol qo'yib ko'rgazmada namoyish etishi mumkin. Pop-artda texnika imkoniyatlaridan keng foydalanadi, fotosurat, slayddan polotno (yuza)ga tushirilgan tasvir konturlarini yorqin bo'yoqlarda ishlaydi, sanoatda ishlab chiqarilayotgan yorqin rangli buyumlarni o'z asarlarida ko'rsatadi, ulardan kompozitsiyalar tuzadi. «Pop-art» atamasi birinchi marta 1966-yilda ingliz tanqidchisi Lourens Ellouzning gazetadagi maqolasida ishlatilgan edi.

**PRAGMATIKA** (yunon. pragma, pragmatos - ish, harakat) - tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi, boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Pragmatika haqidagi asosiy g'oya XIX asrda amerikalik olim Charlz Pirs tomonidan o'rta tashlangan.

Uilyam Jems, Jon Dyui va Jorj Santayanlar uning rivojiga katta hissa qo'shganlar. XX asrda Uillard Kuayn, Uilfrid Sellars va boshqalar pragmatikaga o'zlarining hissalarini qo'shishdi. Tarixda birinchi bor yunon faylasufi Polibiy pragmatik fikrlarni bildiradi.

**PSIXOANALIZ** - avstriyalik shifokor va ruhshunos olim Z. Freyd tomonidan ilgar surilgan asab kasalliklarini davolash usuli. Freyd ta'limotiga ko'ra, insonning psixik hayoti tug'ma, ongsiz mayillarga bog'liq. Insondagi turli ruhiy kechinmalar, amalga oshmagan istaklar yo'qolib ketmaydi. Ular ong doirasidan chiqib, ongsizlik holatiga o'tadi va insonning ruhiy hayotiga faol ta'sir ko'rsatadi. Bu hol asabiylikda namoyon bo'ladi. Uni davolashning asosiy usuli - mayillarni g'ayritabiiy yo'l bilan qondirish yoki ularni boshqa faoliyat sohasiga (masalan, ijod, siyosat, mehnat va hokazo) ko'chirishdir.

**REALIZM** (frans. *réalisme*, lot. *Realis* «haqiqiy», *rēs* «narsa») - voqelikni, mavjud borliqni badiiy adabiyot va san'at (tasviriy san'at, teatr, musiqa, falsafa va boshqalar)ning ifoda vositalari orqali o'ziga o'xshash shakllarda haqqoniy aks ettirish usuli va metodi. Adabiyotda realizm - hayotni voqelikdagi voqea va hodisalarga muvofiq ravishda obrazlar orqali aks ettirish metodi. Realizm adabiyotning o'zini va tashqi olamni bilish vositasi sifatidagi

ahamiyatidan kelib chiqqan holda voqelikni barcha ziddiyatlari bilan qamrab olishga intiladi, yozuvchiga hayotning barcha tomonlarini cheklanmagan holda aks ettirish imkoniyatini beradi. Realizm metodiga asoslangan adabiyotda hayot haqiqatini tasvirlash tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Binobarin, realizm adabiyoti jahon adabiyoti taraqqiyotidagi eng yuksak bosqich hisoblanadi.

Realizm keng ma'noda Gomer va Dante, Shekspir va Rasin, Firdavsiy va Navoiy ijodiga ham xos xususiyat, zero, hayotiylik va samimiylik bu mumtoz ijodkorlarning asarlarida katta mahorat bilan ifoda etilgan. Ammo realizm adabiy metod yoki adabiy yo'nalish sifatida yozuvchidan voqelikni hayotiy va haqqoniy aks ettirish tamoyiliga izchil rioya etishni, inson va tashqi olamni ongli ravishda o'rganish va bilishni taqozo etadi. Shu ma'noda jahon adabiyoti XIX asrga kelibgina o'z taraqqiyotining realizm metodiga asoslangan yangi bosqichiga erishdi.

Realizmning metod sifatida paydo bo'lishi masalasi adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar hayotni realistik tasvirlash usullari qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgani va bu usullarning turli bosqichlarni bosib o'tganini nazarda tutib, antik realizm, Uyg'onish davri realizmi, ma'rifatparvarlik realizmi va sotsialistik realizm tushunchalarining mavjudligi haqidagi qarashlarni olg'a surib keladilar. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, realizm ijodiy metod sifatida XVII asrda oilaviy-maishiy va ijtimoiy-maishiy romanlar yaratilishi bilan bir vaqtda maydonga kelgan. Realizmning XIX asr 30-yillarida Yevropa adabiyotida shakllana boshlaganligi haqidagi fikr aksar adabiyotshunoslar tomonidan qabul qilingan bo'lib, bu fikr Yevropa xalqlari adabiyotlarida voqelikni haqqoniy tasvirlash tamoyili yuksak ijtimoiy-tahliliy shakllarda keng va teran ifodalanganligi bilan tasdiqlanadi.

Romantizm bilan XIX asrning 1-yarmidagi realizm o'rtasida aniq chegara yo'q. Bu hol O. Balzak («Sag'ri teri tilsimi»), G. Stendal («Parma ibodatxonasi»), V. Gyugo, qisman Ch. Dikens asarlarida yorqin ko'rinadi. Ayni paytda romantik motivlar realistik asarlarning badiiy to'qimasida yashashda uzoq vaqt davom etdi (Stendalning «Qizil va qora», M. Yu. Lermontovning «Zamonamiz qahramoni»). XIX asr o'rtalarida Yevropa adabiyotlarining romantizm an'alaridan keskin uzoqlashishi bilan realizmning metod sifatida shakllanishida yangi davr boshlandi (G. Flober, G. Mopassan, U. Tekkerey va b).

**RENESSANS** (frans. qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq) – G'arbiy Yevropada Uyg'onish davrini anglatuvchi atama. Aynan shu ma'noda bu atamani birinchi marta XVI asrda yashab o'tgan arxitektor, rassom va san'at tarixchisi Jordjo Vazari muomalaga kiritdi. Dunyoviy fikrlash va ijodiyot, gumanizm, inson madhi, uning imkoniyatlari, adabiyot va san'atdagi realizm, antik madaniy merosga bo'lgan chuqur katta qiziqish kabilar G'arb renessansi uchun xos jihatlar hisoblanadi. Renessans butun bir fanlar majmuasini, shu jumladan, falsafa, astronomiya, tabiiy fanlarning rivojiga turtki berdi. Renessansning vatani Italiya hisoblanadi. Italiyaning o'zida Uyg'onish davri bir necha bosqichga bo'linadi. Masalan, ilk uyg'onish davri XIII asr oxiri - XIV asrlar bilan belgilanib, xuddi shu davrda Dante, Bokkachcho, Petrarka kabi gumanistlar ijodiyoti gullab-yashnagan. Niderlandiya, Fransiya, Germaniya singari davlatlarda Renessans davri (mazkur hudud uchun Shimoliy Uyg'onish davri tushunchasi qo'llaniladi) XV asr oxiri – XVI asrlarda paydo bo'ldi. Renessans davrining eng taniqli namoyondalari sirasiga Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Rafael, Tisian, Veroneze, Breygel, Dyurer, Shekspir, Servantes, Rable, Erazin Rotterdamskiy kabilarni kiritish mumkin.

**SFRAGISTIKA** (yunon. sphragis – muhr) yoki sigillografiya (lot. sigillum - muhr) – tarix fanining muhrlarini o'rganadigan sohasi. XVIII asrda diplomatiyaning bo'limi sifatida shakllana boshlagan. Yaqin Sharqda boshlangan ommaviy arxeologik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ko'plab muhrlarni o'rganish natijasida alohida tarix fani sohasiga aylanib bordi. XIX asr oxiridan Sfragistikaning qadimgi davlat muassasalarining shakllanishi va rivojlanishi tarixini o'rganadigan fan sifatidagi yangi davri boshlangan.

**SIVILIZATSIYA** (lot. civilis – fuqarolikka, davlatga ta'lluqli), **TAMADDUN** – 1) keng ma'noda ongli mavjudotlar mavjudligining har qanday shakli; 2) madaniyatning zamon va makonda chegaralangan tarixiy tili (Misr Sivilizatsiyasi, Mesopotamiya Sivilizatsiyasi va boshqalar; 3) Yovvoyilik va vaxshiylikdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi. Sivilizatsiya tushunchasi XVIII asrda "madaniyat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Fransuz faylasuf ma'rifatparvarlari aql va adolatga asoslangan jamiyati sivilizatsiyalashgan jamiyat moddiy-texnika yutuqlarini, madaniyat deganda esa faqat uning ma'naviy qadriyatlarini tushunishgan. Ularning

ayrimlari bu tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yganlar. Chunonchi, O. Shpengler fikricha sivilizatsiya har qanday madaniyat taraqqiyotining muayyan tugal bosqichini bildiradi. Sivilizatsiyani bunday davr tanazzuli sifatida tushunish madaniyatning bir butunligi va tabiiyligiga ziddir.

**STERILIZATSIYA** (lot. "toza") - meditsina va biologiyada turli moddalar, bog'lov materiallari, oziq-ovqat mahsulotlarini zararli mikroorganizmlardan butunlay tozalash.

**STUDENT** (lot. qunt bilan shug'illanuvchi) – O'zbekistonda oliy o'quv yurti, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa ayrim mamlakatlarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchisi. Qadimgi Rimda va o'rta asrlarda ilm egallash bilan shug'ullanuvchi istalgan shaxs shu nom bilan atalgan. Yevropada universitetlar paydo bo'lishi bilan mazkur atama universitetlarda ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarga nisbatan qo'llanila boshlangan. O'qituvchilarga ilmiy darajalar (magistr, professor) berila boshlangach student faqatgina ta'lim oluvchilarni anglatadigan bo'ldi.

**SYURREALIZM** (frans. surrealisme–yuqori realizm) XX asrning 10-20-yillari oralig'ida Fransiyada shakllangan oqim. Uning asoschisi va g'oyaviy tashabbuskori shoir va yozuvchi Andre Breton hisoblanadi. Atoqli namoyondalari: A. Breton, F. Supo, J. Arp, M. Ernst, S. Dali, X. Blum va boshqalar. Syurrealizm vakillari san'at manbai deb ost ong sohasi (tuyg'ular, gallyutsinatsiyalar va tushlar)ni, san'at uslubi deb esa ost ongdagi jarayonlarning erkin ifodasini e'lon qildilar. Shov-shuv ketidan quvish, aks ettirilgan buyum va holatlarning qo'rqituvchi notabiiyligi syurrealizmning asosiy hususiyatlariga aylandi.

**TEZIS** (yunon. qoida, isbot) – bahsda yoki biror ta'limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr. XVIII asr boshlarida muqaddas yoki tarixiy shaxslar tasviri bilan birga ilohiy yoki falsafiy matnlar tushirilgan gravyuralar ham tezis deb atalgan.

**TRIVIUM yoki triviy** (lot. Trivium - uch yo'lning kesishgan joyi) - o'rta asrlardagi «yetti erkin san'at»ning boshlang'ich va asosiy bosqichi. Antik davrdan meros qolgan. Trivium deyilishiga sabab unda asosan uchta fan: grammatika, ritorika dialektika o'qitilgan. Shu fanlarni o'qitish orqali ta'lim oluvchilar fanlarning nisbatan murakkab qismi bo'lgan kvadriumba tayyorlangan. Kvadriumba arifmetika, geometriya,

astronomiya, musiqa o'qitilgan. Ikkalasi birlashgan holda «yetti erkin san'at»ni tashkil qilgan. Triviumning fan sifatidagi dastlabki tushunchalar: (trivium atamasini qo'llanmagan holda) IV asrda Avgustin Avliyoning «Tartiblar haqida» degan asarida berib o'tiladi. Trivium atamasi (boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan fanlar sifatida) Karolinglar Uyg'onish davridan qo'llanila boshlangan.

**URDU TILI** - Pokistonning ingliz tili bilan bir qatorda rasmiy va Hindiston Konstitusiyada tan olingan 15 ta asosiy adabiy tillardan biri. Genetik va tuzilish jihatidan hindiy tiliga o'xshaydi. Hind-yevropa tillari oilasining hind-oriy tillari guruhiga kiritilgan. Pokistonda, asosan, yirik shaharlar - Karachi, Lohur, Islomobod va boshqalarda so'zlashiladi. Urdu tili XIII asrdan shakllana boshlagan va bu jarayon XIX asrda o'z nihoyasiga yetgan. Pokiston urdusida leksikaning boyish manbai, asosan, arab va fors tillari bo'lsa, Hindiston urdusida hindiy (sanskrit) tilidir. Pokiston aholisining 7 foizi urdu tilini o'z ona tili sifatida qabul qiladi. Hindistonda 40-60 mln. kishi so'zlashadi. 1999-yilgi ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 104 mln kishi shu tilda so'zlashgan. Hindistonda 3000 ta nashr aynan urdu tilida chiqariladi, ularning 405 tasi haftalik gazetalardir. Urdu tili Fors qo'ltig'i mamlakatlari, Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Avstraliya va boshqalarda keng tarqalgan. Urdu alifbosida 38 ta harf mavjud va arab alifbosidan foydalaniladi. Inglizlar mustamlakasi davrida urdu tilining lotin alifbosidagi ko'rinishlari ham keng qo'llanila boshlagan.

**UTOPIYA** (yunon. – xayoliy, yo'q joy, ikkinchi ma'noda “eu”-faravon, “topos”-joy, ya'ni “faravon makon”) – XVI asrda Angliyada yashab ijod qilgan Tomas Mor yozgan «Utopiya» kitobining nomidan olingan. T. Mor xususiy mulkchilik bo'lmagan orol haqida yozgan va uni Utopiya deb atagan. Shundan keyin ilohiy fantastikaga yaqin bo'lgan badiiy adabiyot janriga aylandi. Aslida «utopiya» atamasi ancha oldin Platonning «Davlat» traktatida «yo'q joy» ma'nosida qo'llangan. Qolaversa, utopik motivlar dunyoning deyarli barcha xalqlari afsonalarida keltirilgan. XVII asr davomida bir qator Yevropa mamlakatlari yozuvchilari asarlarida utopik falsafiy qarashlar ilgari surilgan: T.Kampanellining «Quyosh shahri», F.Bekonning «Yangi Atlantida» va hk.

**XARIZMATIK** (yunon. “xarizma” - ilohiy qobiliyat) ko'pincha yetakchilik qobiliyatiga ega kishilarning hususiyati sifatida

tushuntiriladi. Qadimgi yunon mifalogiyasida xarizma ilohiy go'zallik, sarvqomatlilik kabilarga ishlatilgan. Xristianlikda esa xudoning in'omi sifatida tushunilgan bo'lsa, inglizlarda «grace» minnatdorlik ma'nosida qo'llanilgan. Zamonaviy sotsiologiyada Ernst Trelich tomonidan tushuntirib berilgan. Unda guruhlarni tashkil qiluvchi va boshqaruvchilar deb ko'rsatadi. Mashhur diniy xarizmatik insonlar sifatida - Iso Masih, Budda, (Sidxartxa Gaumata) va Muhammad payg'ambarlar ko'rsatiladi. Siyosatda esa Chingizxon, Amir Temur, Napoleon Bonapart, Adolf Gitler, Mussolini, Ruzvelt, Lenin, Stalin, Maxatma Gandi, Martin Lyuter King va boshqalar ko'rsatiladi.

**SEMENARIYA** (lot. semenarium – ko'chatzor, ko'chma ma'noda maktab) - o'rta maxsus bilim yurtlarining bir turi. XVI asming ikkinchi yarmidan G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlariga diniy o'quv yurtlarini shu nom bilan atalgan. Semenariya XIX asming birinchi yarmida shvetsariyalik pedagog I.G Pestolossi g'oyasi asosida rivojlandi. 1917-yilga Rossiya va Ukrainada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlaydigan pedogogika o'quv yurtlari o'qituvchilar semenariyasi deb atalgan. Faoliyat turiga qarab turli xil mutaxassislarni tayyorlagan. Masalan diniy seminariyalar xristian ruhoniylarini tayyorlagan.

#### **2.4. Din va diniy e'tiqodlarga doir atamalar**

**ANSORLAR** (arab. yordamchilar, safdoshlar) - Muhammad (s.a.v) sahobalari bir tabaqasining nomi. (Ular 622-yilda Makkadan Madinaga ko'chib borgan musulmon muhojirlarga va Rasulullohga yordam bergan hamda islom dinini qabul qilgan Madinaning avs va hazraj qabilalarining a'zolari bo'lganlar).

**ANTISEMITIZM** (yunon.) - millatchilikning semit xalqi-yahudiylarga qarshi qaratilgan ko'rinishlaridan biri. Antisemitizm tushunchasi yahudiylar va yoki iudeylarga (lekin barcha semit tilli guruhda so'zlashuvchi xalqlarga emas) qarshi qaratilgan munosabatlarni anglatadi. Ilk bora «antisemitizm» atamasi 1870-1880-yillarda paydo bo'lgan. Ba'zan antisemitizmning ma'nodoshi sifatida yudofobiya atamasi qo'llaniladi. Antisemitizm o'z tarixi davomida turli xil shakllarni (yolg'on ayblovlar, majburiy ko'chirish – deportatsiya, ommaviy qirg'in va genosid) qo'llagan. Eng dahshatli antisemitizm



siyosati fashistlar Germaniyasi tomonidan 1930-40-yillarda amalga oshirilgan.

**APARTEID** (afrika. *apartheid*. ajratish) - mazkur so'zni birinchi marta 1917-yilda Yan Xristian Smets o'zining maqolalarida ishlata boshlaydi. 1948-1989-yillarda mahalliy qora tanli xalqlar vakillarining huquqlarini cheklashdan iborat Afrikaning tub joy aholisiga nisbatan Janubiy Afrika Respublikasida olib borilgan irqiy diskriminatsiya va segregatsiya siyosati. Dastlab mamlakatning 12% hududini tashkil qiluvchi bantu xalqlari yashaydigan Bantustanda qora tanli aholini alohida ajratilgan joylarga ko'chirish yoki ajratib qo'yish siyosati. Bu siyosat tub afrikaliklarni fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish, ularni alohida kvartallarga joylashtirish, bir hududdan ikkinchisiga erkin o'tishni cheklash va hokazo kamsitishlardan iborat. Apartheidning ramzi sifatida «Robben-Aylend» qamoqxonasini ko'rsatishadi. 1973-yilda BMT bosh assambleyasida apartheid siyosati qoralab chiqildi va uni tugatishga kirishildi.

**DALAY-LAMA** (tibetcha. mo'g'ul. *Dalay bagsh*) - Gelug Tibet buddizm maktabidagi vorislik an'anasining davom ettiruvchilari. Ildizi 1391-yilga borib taqaladi. XVII asrdan boshlab dalay-lamalar to 1959-yilgacha analda Tibetning hukmdori bo'lib kelishdi. Shuning uchun ham bugungi kunda dalay-lama tibetliklarning ma'naviy rahnamosi sifatida qaraladi. Dalay-lamaga nisbatan «Xazrati oliylari» tituli qo'llaniladi. Ko'pincha dalay-lamani Gelug maktabi boshlig'i deb hisoblashadi, garchi bu maktabga rasman Genden tripa boshchilik qilsada, «Dalay» mo'g'ul tilida «okean» ma'nosini berib, bu so'z «Buyuk» so'ziga ma'nodosh sifatida qaraladi (Chingizxondan keyin taxtda o'tirgan xonlar «Dalay-xan» titulini olgan), «lama» so'zi sanskrit tilidagi «guru» so'zining tibetcha talqini (ekvivalenti) bo'lib, «o'qituvchi» ma'nosini anglatadi. Dalay-lamaning vafotidan keyin rohiblar yangi dalay-lamani ma'lum bir alomatlariga ega yosh bolalar orasidan izlash va sinov marosimini bajarishadi. Bu holat bir necha yillar davom etishi mumkin. Keyin topilgan bola Tibet markazi Lxasuga yuboriladi va u yerda tajribali lamalar unga dars bera boshlaydi. Dalay-lama va Panchen-lama bir-biri bilan xuddi ustoz va shogirddek qaraladi, ulardan qaysi biri katta bo'lsa, shu ustoz hisoblanadi. Xitoy hukumati 1959-yilda Tibetni to'la egallab olgach, Dalay-lama XVI Hindsitonga qochib ketadi va 2011-yilgacha quvg'indagi Tibet hukumatining

boshlig'i bo'lib turdi. Shu yili u rasman dunyoviy hokimiyatdan voz kechadi. Shu vaqtgacha 14 ta Dalay-lama o'tgan.

**MITROPOLIYA** – patriarxlikning bo'limi. Xristianlikda odatda bir qancha eparxiyalardan iborat bo'lgan mitropolit boshchilik qiluvchi hudud. Ko'proq xristianlikning provaslav mazhabida kuzatiladi.

**FANAT** ( fan, fen; tarzida ham uchraydi. *fanatik*, yunoncha «so'qir ishonch», lot. *fanaticus* «o'ta qiziquvchan») – diniy e'tiqodiga yoki biror ta'limotga qattiq yopishib oluvchi. Kishilarning biror-bir aniq narsaga bog'lanib qolishi yoki qattiq ishonishi. Dastlab dinda kuzatilgan bo'lsa bugungi kunda asosan sport muxlislariga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek musiqa, kino, tasviriy san'at va boshqalarga ham qiziquvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

**FUNDAMENTALIZM** (lot. *fundamentum* - asos, asoslash) - keng ma'noda - muayyan ta'limot aqidalarining o'zgarmasligini e'lon qiladigan, e'tiqodni aql dalillaridan ustun qo'yadigan, ilohiy kitoblardagi vahiy qaysi ma'noda bayon etilgan bo'lsa, shu ma'noda qabul qilinishini talab etadigan, ayni vaqtda ularni majoziy ma'noda talqin etishga har qanday urinishlarni rad etadigan, din asoslarini og'ishmay bajarishni qattiq talab qiladigan ijtimoiy, mafkuraviy, diniy yo'nalishlar. Tor ma'noda - protestantizmdagi ortodoksal oqimlar. 1910-yillarda AQShning janubiy shatatlarida paydo bo'lgan. Ular xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonchni mustahkamlashni, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qiladilar. 1919-yil Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assosiatsiyasiga asos solindi. XX asrning 70-yillaridan bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etish va ilk islomga qaytishni targ'ib qiladi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar «fundamentalistlar» deb atalmoqda. Islom fundamentalizmi turli yo'nalish va kayfiyatdagi guruhlarni o'z ichiga olib, ular o'z maqsadiga erishishning turli-tuman deyarli jinoiy topiladigan usullardan foydalanishadi. Hozirgi davrda islom fundamentalizmi vakillari butun dunyoga yoyilib, har yerda o'z maslakdoshlarini topishga intilmoqda. Bevosita shularning xatti-harakatlari natijasida islom diniga bo'lgan munosabat G'arb dunyosida o'zgarib bormoqda. Aslida fundamentalizm har bir dinda hozirda mavjud. Atama sifatida fundamentalizm dastlab XX asrning boshlarida

AQShda kuchaygan protestant harakatlarining tor yo'nalishdagi diniy maslagiga nisbatan qo'llanilgan. XX asrning 50-yillarigacha fundamentalizm atamasi ingliz tilining Oksford lug'atiga kiritilmagan.

**GENOTSID** (yunon. *genos* - urug', qabila va lot. *caedo* - o'ldiraman) – milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansublikka qarab butun bir aholini (to'liq yoki qisman) yo'q qilishga qaratilgan harakat. Xalqaro huquqda genotsid xalqaro jinoyat deb tan olingan (BMTning 1948-yilgi Konvensiyasi). Genotsid ommaviy ravishda Gitler Germaniyasida, Pol Pot va Iyeng Sarining qizil kxmerlari tomonidan Kambojda amalga oshirilgan. «Genotsid» atamasining o'zi birinchi marta 1943-yilda polshalik huquqshunos Rafael Lekin tomonidan qo'llanilgan. Uchinchi Reyx tomonidan slavyan va yahudiylarni, shuningdek 2-Jahon urushida egallangan hududlardagi aholiga nisbatan qo'llanilgan ommaviy qirg'inga nisbatan ishlatilgan.

**HIJOB** (arab. - parda, yoping'ich) - musulmon ayollarning ko'chaga chiqqanda tanasining aksar qismini berkitib turadigan yoping'ich. Hijobning bir necha turlari bor. O'zbek ayollarining milliy kiyimi shaklan hijob kiyimi bilan uyg'unlashib ketgan. Bugungi kunda hijob diniy ekstremistlarning asosiy yashirin quroliga aylangan. Afg'oniston, Saudiya Arabistoni, Eron kabi rasman o'zlarini islom davlatlari deb e'lon qilgan davlatlarda hijob ayollar uchun majburiy kiyimdir. Aksariyat asosiy aholisi islomga e'tiqod qiluvchi davlatlarda qonun bilan dunyoviy muassasalarga, oliygoh va maktablarga hijobda kelish ta'qiqlangan.

**INDUIZM** (sanskrit. *sanātana dharma* - «boqiy din», «abadiy yo'l» yoki «boqiy qonun») - induizm hindlarning diniy e'qodlaridan biri bo'lib, ildizlari Veda, Xarappa va Dravid sivilizatsiyalariga borib taqaladi. Dinning o'ziga xosligi shundaki, uning yagona asoschisi yo'q, u yagona e'tiqod tizimi va umumiy ta'limotdan ham holi. Induizm o'zida monotizm, politizm, panteizm, monizm va hatto ateizmga asoslangan turli-tuman diniy an'analar, falsafiy tizimlar va e'tiqodlarni o'zida namoyon etadi. Shuningdek, kakdxarma, karma, sansara, moksha va yogalar ham induizmga xos jihatlar hisoblanadi. Induizm da juda ko'plab muqaddas matnlar (bitiklar) mavjud bo'lib, ular ikkita asosiy kategoriyaga bo'linadi: shrutlar va smritlar. Eng muhim induizm matnlariga Vedlar, Upanishadlar, Puranlar, «Ramayana», «Maxabxarata», «Bxagavad-gita» va Agam kiradi. Hozirda e'tiqod

qiluvchilar soniga ko'ra dunyoda xristian va islomdan keyingi uchinchi yirik din hisoblanadi.

**JAYNIZM** (sanskrit. jaina-«g'olib») -1) Hindistonda tarqalgan dinlardan biri (qariyb 3 mln. kishi e'tiqod qiladi). Mil. av. VI asrlarda paydo bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu din asrlar osha 24 ustoz-payg'ambar orqali yetib kelgan. Bularning eng so'nggisi Jinna (ya'ni g'olib, dinning nomi shundan olingan) va Maxavira taxallusini olgan kshatriy kastasiga mansub Vardxamana (tax.599-527) bo'lib, shu din asoschisi hisoblanadi. Jaynizm qadimgi hind jamiyatidagi harbiylar (kshatriy) bilan ruhoniylar-braxmanlar o'rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi oqibatida vujudga kelgan. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, jaynizm buddizmning bir mazhabidir. Jaynizm buddizm kabi braxmanizmning murakkab rasm-rusmlariga va tashqi shakliga qarshi chiqishadi. Vedalarning muqaddasligini, qurbonliklar qilishni, ruhoniylar va xudolarning inson taqdiriga hal qiluvchi ta'sirini inkor etdi. Jaynlar jamoasiga kirish barcha varna (kasta)dagi erkak va ayollarga yo'l ochiq. Jaynizm da markaziy o'rinni jon haqidagi ta'limot egallaydi. Bunga ko'ra, inson joni barcha qilmishlari uchun javobgar, chunki bu qilmishlar karma qonuni asosida ro'y beradi, karma qonuni tanni jon bilan bog'laydi, insonni yerdagi ishlarga zanjirband etadi va uning keyingi qayta tug'ilishlarini belgilab beradi. Kishilar «o'z jonini o'zi xalos qilishi», «qayta tug'ilishlardan ozod bo'lishi» mumkin. Bunga erishish uchun Jinnaga e'tiqod qilish, Jinna ta'limotiga ishonish, Jinna belgilagan axloq me'yorlariga rioya qilishi kerak. Jaynizm da axloqiy kamolotga yetishishning va karma qonunidan qutulishning birdan-bir yo'li zohidlik hisoblanadi. Jaynlar zohid-rohiblar va fuqarolar (savdo-sudxo'rlik bilan shug'ullanuvchilar)ga bo'linadi. Jaynizm tarafdorlari hozirgi kunda asosan bankdorlar, sudxo'rlar, sarroflar va zargarlardan iborat. Ular jondorlar bilan savdo qiladilar, boshqa tijorat ishlari bilan ham shug'ullanadilar. Jaynizmning ikkita asosiy yo'nalishi mavjud: digambarlar («oq kiyinganlar») – barcha qadimgi matnlarni yo'qolib ketgan deb hisoblovchilar, shvetambarlar («havorang kiyinganlar») – yo'qolgan matnni tiklash harakatidagilar. 2) falsafiy ta'limotlardan biri. Mil. av. II–I asrlarda jaynizm dini asosida shakllangan. Jaynizm falsafasining asosiy manbai «Jayna sutra» («Jayna aforizmlari») hisoblanadi. Jaynizm falsafasiga tattvalar - mohiyatlar haqidagi ta'limot asos qilib olingan. Ikki asosiy tattva

bo'lib, biri - mohiyati ong bo'lgan ruh (jiva), ikkinchisi - ruh bo'lmagan hamma narsa (ajiva).

**KONTRREFORMATSIYA** – XVI–XVII asrlar o'rtalarida Yevropada Rim papasi rahnamoligida reformatsiyaga qarshi qaratilgan diniy-siyosiy harakat. Asosan Lyuter, Kalvin va Svingli qarashlariga qarshi ravishda amalga oshirilgan. Mazkur atama uzoq muddat bahsli bo'lib kelgan va «katolik reaksiyasi» deb ham nomlangan. Kontreformasiya 1520-yil 15-iyunda papa Lev X ning bullasi e'lon qilinishi bilan boshlangan. Papa Adrian VI (1522-1523) davrida yanada kuchaytirilgan. Natijada yangi monaxlik ordenlari soni juda tez ko'paya boshladi. Xususan: teatinlar, fransiskanlar, kapusinlar, karmelitlar, bonifratlar, muqaddas Ursula va boshqalar. Kontreformatsiya natijasida cherkov boshqaruvida o'zgarishlar yuz berdi, papaning markazlashgan hokimiyati zaiflashdi va reformatsiyaga qarshi kurash natijasiz tugadi.

**KREMATSIYA** (lot. cremation - yondirish) – murdalarni yoqish, ko'plab qadimgi xalqlarda, buddizm va hinduizmga e'tiqod qiluvchi xalqlarda keng tarqalgan. Eng qadimgi davrlardan ma'lum. Ibtidoiy odamlar bu ishni marhumni narigi dunyoda ilohlar himoyasiga olish uchun qilishgan degan qarash mavjud. Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda ham keng tarqalgan. Xristianlikda krematsiya majusiylik belgisi sanalgan, shu bois mazkur dinning keng yoyilishi krematsiya o'rmini yerga ko'mish egallashiga olib keldi. Milodiy 400-yillardan boshlab Yevropaning aksariyat xalqlari krematsiyadan voz kechishgan. Buyuk Karl 785-yili krematsiyani ta'qiqladi, buyruqqa bo'ysunmaganlarni o'lim jazosi kutardi. Krematsiya Yevropaga XVIII asrning ikkinchi yarmida yana qaytadi. Sababi shaharlar kengayib, qabristonlarda joy qolmaganligi natijasida murdalarni dafn qilish, yoqish bilan almasha boshlaydi. 1873-yilda professor Bruno Brunetti dunyodagi birinchi krematsion pechni yaratdi va uni Venadagi xalqaro ko'rgazmada namoyish qiladi. 1792-yili Amerikada birinchi xujjatli krematsiya ish boshladi. 1913-yilda Shimoliy Amerikada 52 ta krematsiya ishlab turgan. Islom va iudaizm dinlarida krematsiyani qoralashadi va taqiqlashadi.

**MAHDIY** (arab. Alloh tomonidan to'g'ri yo'lga yetaklovchi) - islomda zamona oxir bo'lganida kelib, yerda adolat o'rnatadi, deb ishonuvchi payg'ambar.

**MAHDIYLIK** (arab.) - zamona oxiri bo'lganda inom Mahdiy yerga qaytib keladi va adolatli tuzum o'rnatadi deb hisoblaydigan diniy ta'limot. Ammububorada "Quron" damalumotlar berilmagan. Bu ta'limot dastlab shialar o'rtasida kelib chiqqan, keyinchalik sunniylar orasida ham tarqalgan. Dastlab mazkur talimot xalifalarga qarshi kurashish maqsadida Abdulloh ibn az-Zubayr tomonidan "Maxfiy inom" sifatida talqin qilinadi. Islom mamlakatlarida mahdiylik g'oyalarida ayrim mamlakatga qarshi harakatlarning rahnomolari ham foydalangan, masalan: Mahdiy g'oyasi Fotimiylar sulolasi asoschisi Ubaydulloh al-Mahdi (909-1171); Almohadlar sulolasi asoschisi, Muhammad ibn Tumartlar tomonidan ham ilgari suriladi Bobiylar qo'zg'aloni boshlig'i Ali Muhammad hamda 1881-yil Sudanda dehqonlar va ko'chmanchilarning qo'zg'aloniga rahbarlik qilgan Muhammad ibn Ahmad (1848-1885) va boshqalar o'zlarini mahdiy deb e'lon qilganlar.

**MISSIONER** (lot. *missio* - jo'natma, topshiriq) - biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish. Missionerlik asosan, xristianlikka xos. Milodiy IV asrdan paydo bo'lgan. XIII-XVI asrlarda xristian missionerligi Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga kirib bordi. Katolik cherkovida missionerlik Ispaniya va Portugaliya imperiyalari tashkil topgach (XV-XVI asrlar), faoliyatini kuchaytirdi. Shuningdek missionerlik Rim imperiyasiga yangi yerlarni o'z ta'siri ostiga olishda katta yordam berdi. Katolik missionerligiga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662-yilda Diniy targ'ibot kongregatsiyasini ta'sis etdi va u o'zining faoliyatini 1967-yilga qadar davom ettirdi. Missionerlik XIX-asrda faollashdi, ayniqsa, xristian missionerlari Afrikada faoliyatlarini kuchaytirdilar va o'z navbatida AQShda ham uning o'rni doimiy ravishda ortib borib, mamlakat tashqi siyosatining alohida jihatlarini o'zida mujassam qilgan.

Islomda missionerlik faoliyati bilan asosan savdogarlar, so'fiylar shug'ullanishgan. Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin missionerlik ko'plab davlatlarda qonun yo'li bilan man etila boshladi.

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni 5-moddasiga ko'ra, O'zbekistonda har qanday missionerlik faoliyati taqiqlanadi.

**MONASTIR** (yunon. Monasterion - monaxlar maskani) - cherkovning muayyan yo'l-yo'riqlari asosida birgalikda yashovchi

monax (rohib)lar jamoasi; monaxlar jamoasi foydalanadigan ibodatxona, turar joy va xo'jalik binolari majmui. Xristianlik va buddaviylikda uchraydi. Dastlabki buddaviylik monastirlari mil. avv. 1-ming yillik o'rtalarida Hindistonda paydo bo'lgan. Keyinchalik Birma va Tailandda (II-III asrlar), Vyetnam va Xitoyda (IV asr), Koreya va Yaponiyada (VI-VII asrlar) hamda Indoneziyada (VII asr) buddaviylik monastirlari paydo bo'lgan. Xristianlikdagi ilk monastirlar III-IV asrlarda Misrda paydo bo'lgan. So'ngra Rim imperiyasiga va undan Yevropaga tarqalgan. O'rta asrlar davrida monastirlar yirik yer egalariga aylanib, diniy mafkura markazi bo'lib qolgan. Qolaversa madaniyat markazlari vazifasini ham uzoq yillar monastirlar bajarib kelgan. Chunki bu yerda ta'lim berilishdan tashqari kitoblar ham chop qilingan. O'zbekistonda Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasiga qarashli 3 ta monastir bor: Svyato Nikolsk Troisk ayollar monastiri, Svyato Pokrovsk ayollar monastiri, Svyato Georgiyevsk erkaklar monastiri. Monastirlarning quyidagi turlari uchraydi:

- Abbatlik monastirlari – yepiskopga, ba'zan Rim papasiga bo'ysinuvchi erkak yoki ayol abbat tomonidan boshqariladigan katolik monastirlari.

- Kinoviya – yotoqxonalar nizomli monastirlar.

- Lavra – ayrim yirik pravoslav dinidagi erkaklar monastirlari.

- Podvorye – shahar tashqarisidagi monastir, monaxlarining shaharda yashash turish maskani.

- Pustin – rus pravoslav cherkovida kuzatiladigan odatda asosiy monastirdan ajratilgan monaxlar manzilgohi.

- Skit - zohidning istiqomat qiladigan maskani. Bu inshoot monastir qoshida bo'lishi mumkin.

**MONAXLAR**, rohiblar (yun. Monachos - yolg'iz, tanho) - ijtimoiy diniy guruh. Ular tarki dunyo qilishi, mol-mulkdan voz kechishi, nafsini tiyishi (oila qurmasligi), qarindoshlik va ijtimoiy aloqalardan holi bo'lishi, qat'iy intizomga rioya qilishi kerak va h. k. Monaxlar monastirda yashashi va uning qoidalarini bajarishi shart hisoblanadi.

Monaxlik dastlab mil. av. 1-ming yillikda Hindiston (buddizm)da, keyinchalik Xitoy, Yaponiya, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo va Qadimgi Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan. Xristianlikda monaxlik III-IV asrlarda vujudga kelgan. Bu dinda monaxlikka o'tgan kishi sochini

oldirib, yangi ism qabul qiladi, alohida kiyim kiyadi. Islom dinida monaxlik bo'lmagan, lekin mohiyatan ularga yaqin turgan o'ziga xos oqim vakillari - sufiylar deb ataladi. Ko'pincha darveshlarni islom dinidagi monaxlar deb hisoblashadi. Ammo bu juda bahsli. Chunki ular boshqa dindagi monaxlarga qo'yiladigan talablarga javob bermaydi. Ular oila qurishlari, farzandli bo'lishlari va hatto o'z uylariga ega bo'lishlari mumkin. Buddizmda faqat erkaklar, xristianlikda erkaklar bilan birga ayollar ham rohib bo'lishlari mumkin.

**MONAXLIK ORDENLARI** – katolitsizmda markazlashgan monaxlik uyushmalari. Ular o'z faoliyatlarida Rim papasi tasdiqlagan nizomlarga amal qiladilar. Ilk monaxlik ordenlari benediktchilar uyushmasi bo'lib, unga VI asrda Italiyada asos solingan. XII-XIII asrlarda Fransiyada katoliklarning bir necha monaxlik ordenlari tuzildi. Odatda bu ordenlar diniy-gadoylik ordenlari (fransiskan, dominikan kabilar) sifatida faoliyat olib borgan. Salib yurishlari davrida monaxlik ordenlarining yana bir shakli bo'lgan diniy-ritsarlik ordenlari (teyton, tampliyer, ioannit va h.) paydo bo'ldi. Katolik monaxlik ordenlari a'zolarining ko'pchiligi monastirlarda yashaydi. Sharqiy katolik cherkovida slavyancha chin deb ataluvchi monaxlik ordenlari ham bor.

**MUJOHID** (arab-fors. din uchun kurashuvchilar) - musulmon Sharqidagi mamlakatlarda turli xil ijtimoiy va diniy harakatlar qatnashchilari. Eronda 1905-1911 yillardagi inqilobiy harakatlarda muhim rol o'ynagan vatanparvar kuchlar ham shunday nom bilan atalgan.

**PARANJI** (arab. hijob - yoping'ich) - islomda odatga kirgan ayollar yoping'ichining o'zbeklar va tojiklar orasida tarqalgan turi. Ayollarning gavdasini, yuz-ko'zini yashirib turishga xizmat qilgan. Paranji uydan tashqarida yopinilgan. Paranjining old tomoni to'rsimon chachvon (chinmat; tojikcha chashmband - ko'zto'sar) bilan berkitilgan. Islom tarqalgan boshqa mamlakatlarda bunday yoping'ichlarning juda ko'p turlari (masalan., Eron va Afg'onistonda chodira, turkmanlarda yashmal va h.k.) tarqalgan. Paranji yopinib yurish odati deyarli qolmagan bo'lib, u ayrim marosimlardagina foydalaniladi. XVI asrlarda O'rta Osiyoda paranji ko'rinishidagi xalatlarni ayollar bilan birga erkaklar ham kiyishgan. Ko'pincha ayrim adabiyotlarda paranjini musulmon ayollarining yopinchiqlari bo'lgan burka, niqob, chodiralar bilan adashtirishadi.



**RASIZM, IRQCHILIK** - irqiy kamsitish siyosati. Inson irqLARining jismoniy va ruhiy jihatdan har xilligi, irqiy tafovutlarning jamiyat tarixi va madaniyatiga hal qiluvchi ta'siri, odamlarning azaldan oliy va past irqLarga ajratilganligi haqidagi qoidalarga asoslanadi. Shu da'volarga ko'ra, «oliy irq»lar go'yo boshqa irqLar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan, sivilizatsiyaning birdan-bir bunyodkorlaridir, past irqLar esa yuksak madaniyatni yaratishga va uni hatto o'zlashtirishga ham qobiliyatsizdir. Fransuz J.A. Gobino XIX asrning o'rtalarida birinchi bor irqchilik g'oyasini ilgari surib, oriylarni «oliy irq» deb e'lon qiladi. Irqchilik fashizmning rasmiy mafkurasiga aylangan. «Rasizm» atama sifatida birinchi marta fransuz lug'atshunosi Larussa tomonidan 1932-yilda «bir irqiy guruhlarning boshqasidan ustunligini tasdiqlovchi tizim» sifatida izohlab beradi. Rasizm-irqchilikning hozirgi zamon tushunchasining shakllanishida fransuz faylasufi Alber Memmining «Rasizm» asarining o'rnida katta bo'ldi.

**VIJDON ERKINLIGI** – har bir fuqaroning xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

**SHAYXLAR** (arab.) - islomda mashhar dindorlarga beriladigan unvon. Dastlab Arabiston yarim orolida qabila boshliqlari shayxlar deyilgan. Boshqa manolari esa diniy guruhlarning boshliqlari, shuningdek eshonlar, guruh bo'lib ziyoratga boruvchilarning rahbarlari, O'rta Osiyo qishloqlarida ko'zga ko'ringan dindorlar ham shayxlar deyiladi.

**CHODRA** (fors.-chodir, palatka) - oq, ko'k va qora rangdagi ayollarning yengil yopinchig'i. Uydan chiqishda kiyilgan va ayol tanasini boshdan oyoqqacha yopib turgan. Odatda musulmon ayollari madaniy-diniy qarashdan kelib chiqib kiyingan.

## 2.5. Xalqlar, qabilalar va ijtimoiy guruhlarga oid atamalar

**ABORIGENLAR** (lot. ab origine-qadimdan, boshdan) - biror mamlakat, o'lkaning qadimdan o'sha joyda yashab kelayotgan tub aholisi. Qadimgi Rim rivoyatlariga ko'ra, Apennin tog'lari etaklaridagi Latsiyada yashovchi qadimgi qabila aborigenlar deb atalgan. Ular O'rta Italiyada Tibr daryosi bo'yida istiqomat qilayotganligi ham keltirilgan. Odatda aborigenlar deganda bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi ibtidoiy jamoa qoldiqlari saqlangan etnik guruhlar

(Amerika hindulari, eskimoslar, Yangi Zenlandiyadagi maorilar va h.k) tushuniladi. Ularning huquqiy maqomi alohida xususiyatlarga ega. Bu maqom aborigenlar uchun maxsus rezervatsiyalar tashkil etish, umumiy fuqarolik majburiyatlari (soliqlar, harbiy xizmat) dan ozod qilish, an'anaviy o'zini-o'zi boshqarish institutlarini e'tirof etish uchun va boshqalarni nazarda tutadi.

**ASSIMILYATSIYA** (lot. "assimilation", assimilo – taqqoslayman so'zidan) – bir xalqning boshqa xalqqa singib ketishi, bunda ulardan biri o'z tili madaniyati, milliy o'zligini yo'qotadi. Ba'zi mamlakatlarda millatchilik sharoitida majburiy assimilatsiya o'tkazilishi mumkin.

**BAOTSZYA** (xitoy) – 1949 yilga qadar Xitoyda maxsus birlikdagi (bao- 100 ta hovli, szya – 1000 ta hovli) dehqon xo'jaliklarida ma'muriy – politsiya tashkilotlar tizimi. Mazkur tizim aslida qadimda tashkil qilinib, undan ko'zlangan maqsad soliqlarni yig'ishni osonlashtirish bo'lgan. Undan tashqari markaziy hokimiyatga muxolifatdagi unsurlar bilan kurashish vazifasini ham bajargan.

**BEY** - turklarda harbiy unvon va ma'muriy mansabni anglatuvchi atama. Dastlab qadimiy turkiy qabilalardagi bek-yo'l boshchi, dohiy manosini bildiruvchi so'zdan kelib chiqqan. Ammo qabilalardagi sardorlar o'zlariga xon unvonini olishib, beklar ulardan keyingi o'rinda turuvchi kishilar hisoblanishgan. Boshqa turkiy qabilalarda esa bek yoki bey atamasi bir vaqtning o'zida er, turmush o'rtoq va oila boshlig'i ma'nosida ham ishlatiladi. Keyinchalik turklarda davlat vujudga kelib, xoqonlik va sultonliklar shakllana boshlashi natijasida beklar begi atamasi bek hamda beylardan yuqori turuvchi mansab sifatida ko'rila boshladi. Ular ma'muriy boshqaruvni amalga oshirishardi. Usmoniylar imperiyasida bey bilan birga pasha, og'a va efendi kabi atamalar ham qo'llanilgan. Hozirgi kunda Turkiya va Ozarbayjonda, shuningdek, Qrim tatarlari orasida «bey» so'zi hurmat ma'nosida qo'llanilib, Yevropadagi gospodin, mister, mesye, sinor, pan va boshqalar bilan teng ishlatiladi. Kumik, qorachoy va balkarlarda biy - bu knyaz; ullu biy - katta knyaz degani.

**BURJUA** (frans. bourgeois va nem. byurger. Har ikkalasi ham shaharlik yoki boy ma'nosida qo'llaniladi) - 1) G'arbiy Yevropada o'rta arslarda shahar aholisi; 2) XV asrdan boshlab burjua shaharliklarning yuqori tabaqasi, boy savdogarlar, bankirlar pul maydalovchi va sanoat korxonasi egasi ma'nosida ishlatilgan; 3) shaharlik, meshchan kosib,

savdogar va sudxo'rlar. Uzoq davr mobaynida burjua uchinchi tabaqa ma'nosini bildirgan va Niderlandiya, Angliya hamda Fransiya kabi davlatlarda yuz bergan inqiloblar natijasida hokimiyat tepasiga chiqishadi.

**BURJUAZIYA** (frans. *bourgeoisie*; nem. Burg - shahar) - savdo, sanoat, kredit-moliya, tadbirkorlik faoliyati natijasida daromad oluvchi ijtimoiy sinf. XVI-XX asrlardagi inqilob va islohotlar natijasida yuzaga kelib, muhim iqtisodiy va siyosiy ta'sirga ega bo'ldi, sanoatlashgan jamiyat va bozor iqtisodiyoti, liberalizm va demokratiya qadriyatlari qaror topishiga ko'maklashdi. O'rta asrlardayoq aholi shaharlik va dehqonlarga ajrala boshladi. XV asrda burjuaziya jamiyatdagi uchinchi tabaqani tashkil qilardi. Asta-sekin burjuaziya jamiyatning erkin kasb egalariga aylanib borishardi. Ular Fransiya, Italiya va Gollandiyaning tajribali ustalari, hunarmandlari va boshqalarning orasidan yetishib chiqa boshladi. Keyinroq burjuaziya yirik va mayda guruhlariga ajralib ketadi. XIX asrdagi o'zgarishlar natijasida burjuaziya Yevropaning ko'plab davlatlarida hokimiyatni o'z qo'llariga olishadi. XX asrga kelib burjuaziya yirik, o'rta va mayda guruhlariga ajralib ketadi. Sobiq sovetlar davlatida burjuaziya atamasi uzoq yillar G'arbiy Yevropa va Amerika davlatlaridagi boy qatlam yoki umuman barcha kapitalistik davlatlarni anglatardi.

**DEMOGRAFIK HOLAT** (yunon.- demos-xalq, grafiya-yozmoq) - biror mintaqa, mamlakat va dunyo aholisining holati.

**DEMOGRAFIYA** (yunon. demos-xalq va grafo-yozaman) - har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rmini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadigan fan. «Demografiya» atamasi 1855-yilda birinchi marotaba fransuz olimi A. Giyarning «Insoniyat statistikasi elementlari yoki solishtirma demografiya» («Elementi statistiki cheloveka ili Sravnitel'naya demografiya») kitobida qo'llangan edi. 1882-yil Xalqaro gigiyena va demografiya kongressining Jeneva sessiyasida rasmiy qabul qilingan. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida keng tarqaldi. O'zbekistonda, asosan 1960-yillardan qo'llanila boshladi.

**DEPORTATSIYA** (lot. «*deportatio*» - quvg'in qilish, majburan ko'chirish) - davlat tomonidan majburan yoki ixtiyoriy ko'chirilishga

nisbatan ishlatiladi. Deportatsiya atamasi Fransiya qonunchiligida XVIII-XIX asrlardan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlabki siyosiy deportatsiya Gvianaga 1791-yilda amalga oshirilgan. Sobiq SSSRda deportatsiya repressiyaning bir ko'rinishi sifatida qo'llab kelingan. 1942-1945-yillarda Sibirga qalmiqlar, nemislar, finnlari, qrim tatarlari, qorachoylar, chechenlar, balkarlar, mesxetin turklari va boshqalar deportatsiya qilingan.

**DIASPORA** (yun. "*diaspora*" - tarqalish) - o'z vatanidan tashqarida yashovchi etnik guruhlariga aytiladi. Bunda nazarda tutilayotgan etnik guruh ma'lum bir ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda tarixiy zarurat sabab o'z vatanidan tashqarida yashashiga tog'ri kelgan bazan esa majbur bo'lgan bo'ladi. Undan tashqari diaspora deganda juda uzoq vaqt davomida qabila, millat yoki e'tiqod a'zolarining o'z vatanidan ajralib, boshqa joylarda ozchilik bo'lib yashashlari ham tushuniladi. Zamonaviy dunyoda tez o'zgaruvchan iqtisodiy tuzilmalarga moslasha olmagan va sanoatlashtirish bilan ijtimoiy harakatchanlikning kuchayishi ularni iqtisodiy sabablarga ko'ra uylarini tark etishga va hayotning yuqori sifatini ta'minlash uchun boshqa mamlakatlarga ko'chib o'tishga olib keldi.

**DISKRIMINATSIYA** (lot. "*diskriminatio*" - farqlash) - davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlarining (boshqa davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlariga nisbatan) cheklanishi. Demokratik davlatlarning ichki qonunlarida hamda xalqaro huquqda D.ning barcha shakllari, jumladan, fuqarolar huquqlarini millati, irqi, jinsi, dini sababli amalda yoki yuridik jihatdan kamsitishga yo'l qo'yish taqiqlanadi.

**EMIGRANT** (frans. "*emigre*") - fransuz tilida o'z mamlakatini siyosiy yoki diniy sabablarga ko'ra tashlab chiqib ketgan manosida qo'llaniladi. Shu sababli Yevropada emigrantlar faqatgina ikkita sababga ko'ra paydo bo'ladi deb ko'rsatishadi. Yevropada emigrantlar masalasi asosan XIX asrda paydo bo'lib, mazkur atama ko'proq Fransiyada yuz bergan burjua inqilobi davrida mamlakatdan chiqib ketgan dvoryanlarga nisbatan qo'llanilardi. Emigrantlarga misol sifatida fransuz gugenotlarining Lyudovik XIV davrida Germaniya, Angliya, Gollandiya va Amerikaga chiqib ketishini ko'rsatish mumkin.

**EMIGRATSIYA** (lot. "*emigre*" - ko'chib ketmoq) - aholining muayyan mamlakatdan boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik

yashash uchun (ixtiyoriy yoki majburiy) ko'chib ketishi. Emigratsiya tushunchasi uchun yagona ta'rif mavjud emas, har bir davlatning o'z mezonlari bor. XIX asrning 70-yillariga qadar Yevropa davlatlarida bu jarayon kuchli bo'lgan. Faqatgina 1946-1961-yillarda Yevropadan Amerikaga 6,9 mln. emigrant ketgan. AQSh, Kanada va Avstraliyaga aholining ko'plab ko'chib ketishiga sabab ishchi kuchiga bo'lgan talabdir. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida Yevropadan AQShga aholining ko'chib ketishi jarayoni bundanda kuchli bo'lgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yashab kelayotgan rus, ukrain, qrim-tatar, yahudiy kabi millatlarning ma'lum qismi o'z tarixiy vatanlariga ko'chib keta boshladi. Masalan: 1996-yilda O'zbekistondan ketgan emigrantlar soni 59,7 ming, 2002-yilda 86,5 ming kishini tashkil etgan. Emigratsiya odatda majburiy ravishda amalga oshirilmasa-da, ammo ayrim davlatlarda aholini majburiy ko'chirish – deportatsiyalar amalga oshirilgan. Misol uchun sobiq SSSR da taxminan 70 yil davomida bir necha mln kishi majburan yashab turgan joylaridan ko'chirilgan. Bugungi kunda emigratsiyaning asosiy sabablari qatag'onlar, diniy va milliy nizolar, tabiiy va ekologik xavf, urushlar, shaxsiy masalalar, oilaviy rejalar yoki muammolar, ilmiy-texnikaviy talablar va boshqalardir. Emigrantlarning o'zlarining avvalgi joylariga qaytishi reemigratsiya deyiladi.

**ETNIK MILLATCHILIK** - millatni etnosning rivojlanish fazasi deb biladi va qisman o'zini fuqaroviy millatchilikka qarshi qo'yadi. Bugungi kunda "millatchi" deb etnik millatchilikka urg'u beradigan harakatlar ataladi. Etnik millatchilik nuqtai nazaridan, millat a'zolarini umumiy me'ros, til, din, an'analar, tarix, bitta qon, ona yerga hissiy bog'liqlik birlashtiradi va ular hammasi butun xalqni, qoni bir jamiyatni tashkil qilishadi. Madaniy an'analar va etnik mansublik millatchilikning asosini tashkil etishi uchun ular jamiyatga mayoq bo'la oladigan hamma qabul qilgan tasavvurlarni o'zida mujassam etishi lozim.

**ETNOSIMVOLIZM** (perennializm) - iqtisod bilan birga millatchilikning o'zagi etnik mansublikdir degan nuqtai nazarni e'tirof etadi. Etnosimvolistlar millatni tabiiy tuzilma deb hisoblamasa-da, ular uning asosida nisbatan qadimiy tarix va milliy o'zlikni anglash yotadi, deb hisoblaydilar.

**EVROPA ITTIFOQI** to'g'risidagi shartnoma, odatda **MAASTRIXT SHARTNOMASI** sifatida tanilgan. Evropa Ittifoqining

(EI) asos shartnomasidir. 1992-yilda Yevropa hamjamiyatiga a'zo bo'lgan o'n ikki davlat o'rtasida tuzilgan "Yevropa integratsiyasi jarayonining yangi bosqichi", asosan, umumiy Yevropa fuqaroligi qoidolari, yakunda yagona valyutani joriy etish va umumiy tashqi siyosat va xavfsizlik siyosati uchun. Garchi bular "Federal Evropa"ni oldindan ko'rishi keng tarqalgan bo'lsa-da, konstitutsiyaviy munozaralar 2007-yil oxiridagi Lissabon shartnomasiga qaratildi. 2009-yildan boshlab Evrozonada yuzaga kelgan qarz inqirozidan so'ng, Maastrixt shartnomasiga eng barqaror havola valyuta ittifoqi uchun "Maastrixt mezonlari"ga rioya qilish qoidolari bo'ldi.

**FALLOH** (arab. fallax-dehqon) – arab mamlakatlarida o'troq qishloq aholisi, dehqonlar. Arab tilida qo'shchi, ziroatchi degan ma'noni beradi. Islom tarqalish vaqtida bu atama ko'chmanchi badaviylardan mahalliy qishloq aholisi bo'lgan fallohlarni ajratish uchun qo'llanilgan. Misr arablar tomonidan bosib olingandan keyin islomni qabul qilgan misrliklar arab zodagonlari tabaqasiga yaqinlashib, mavaliy maqomiga erishganlar. Xristian dinida qolgan ko'ptlar zimmiylarga aylangan. Kam sonli arablarning imtiyozlari yuqoridagi shaklda yangi zamon davrida ham qishloq joylarda saqalanib qolgan bo'lib, u yerlarda arab badaviy qabilalari misrlik fallohlar bilan qo'shni bo'lib yashagan. Eng yangi zamon davrida ham misrlik dehqonlar shu atama bilan atalishda davom etgan.

**FRAKSIYA** - (frans., lot., nem. "fraktion" - guruh) Parlament deputatlarining biror siyosiy partiyaga mansub guruhi. Deputatlarning guruhi sifatida parlamentdagi o'rinlardan ko'prog'ini egallashga harakat qiladi. Hozirgi kunda dunyodagi deyarli barcha davlatlarning parlamentlarida mavjud.

**GARVIZM** (Garvey) Markus (1887-yil, Yamayka oroli - 1940-yil 10-iyun London) - Yamayka milliy qahramoni, amerikalik negrlarning «Ortga-Afrikaga» deb ataluvchi millatchilik ruhdagi harakati (garvizm)ning g'oyaviy rahbari; negrlarning ahvolini yaxshilash bo'yicha Umumjahon assotsiatsiyasi asoschisi (1914-yildan). Yamayka mamlakatini o'zini-o'zi boshqarish huquqiga ega bo'lishi uchun kurashgan. 1920-1930-yillarda Amerikadagi negrlarni Afrikaga qaytishga va u yerda negrlarning davlatini tuzishga chaqiradi. Markus Garveyning vafotidan keyin ham 1960-yillarda garvizm g'oyasi tarafdorlari mavjud edi va ular faol ravishda o'z

qarashlarini targ'ib qilishgan.

**IMMIGRANT** (lot. "immigro" - ko'chib keluvchi) bir davlatdan boshqa bir davlatga doimiy yoki uzoq vaqt yashash uchun ko'chib kelgan shaxs. Immigrantlarning paydo bo'lishiga iqtisodiy, siyosiy va harbiy sabablar mavjud. Tarixda ham aholining ko'chishi katta miqyoslarda kuzatilgan va ularga ham yuqoridagi sabablar bilan birga tabiiy sharoitning o'zgarishi kabi sabablar ham ta'sir etgan.

**IRQCHILIK** - irqiy kamsitish siyosati. Inson irklarining jismoniy va ruhiy jihatdan har xilligi, irqiy tafovutlarning jamiyat tarixi va madaniyatiga qal qiluvchi ta'siri, odamlarning azaldan oliy va past irklarga ajratilganligi haqidagi qoidalarga asoslanadi. Shu da'volarga ko'ra, oliy irqlar go'yo boshqa irklar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan, sivilizatsiyaning birdan-bir bunyodkorlaridir, past irklar esa yuksak madaniyatni yaratishga va uni hatto o'zlashtirishga ham qobiliyatsizdir. Irqchilik xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan bir qancha hujjatlarda, jumladan, Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tu-gatish to'g'risidagi xalqaro konvensiyada keskin qoralangan. O'zbekiston Respublikasi 1995 yil 31 avgustida da mazkur Konvensiyaga qo'shilgan.

**JAMIYATGA YOT UNSURLAR** - jamiyatdan tashqarida qolgan ishsiz, muqim yashash joyi va kasbi yo'q odamlar bo'lib, ularni terror va qonunsizlik oqimiga tortish oson. Bugungi kunda ko'plab davlatlarda bunday aholi qatlamlari sonini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

**KESKIN MILLATCHILIK** - ko'pincha ekstremizm bilan bog'lanadi va ichki yoki xalqaro nizolarga olib keladi. Ko'pchilik mamlakatlarda keskin millatchilik rasmiy tarzda ijtimoiy xavfli hodisa deb tan olinadi. Radikal davlat millatchiligi fashizm va natsizm asoslarini tashkil etadi. Ko'p etnik millatchilar milliy ustunlik (shovinizm) hamda madaniy va diniy toqatsizlik g'oyalarini qo'llashadi (ksenofobiya). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Irqiy diskriminatsiyasining hamma shakllarini yo'qotish haqidagi konvensiya kabi hujjatlarda etnik diskriminatsiya (kamsitilish) qoralanadi va qonunga zid deb e'lon qilingan.

**KOLLABORATSIONISTLAR** (frans. Collaboration - hamkorlik) - Ikkinchi jahon urushi davrida fashist bosqinchilari bilan hamkorlik qilgan shaxslar. Keng ma'noda xalqaro huquqda ko'ngilli va ongli

ravishda dushman bilan hamkorlik qiluvchi, uning manfaatlariga xizmat qiluvchi va o'z davlatiga ziyon yetakzuvchilar tushuniladi. Tor ma'noda okkupatsiya qiluvchilar bilan hamkorlik qiluvchilarni anglatadi. Dastlab Fransiyada fashistlar Germaniyasi bilan hamkorlik qiluvchilar shunday atalgan. Keyinroq fashistlar Germaniyasi tomonidan egallangan deyarli barcha hududlarda u bilan hamkorlik qiluvchilarga nisbatan qo'llanilgan.

**KREOLLAR** – (frans. *créole*; ispan. *criollo* va portugal. *crioulo*, *kriolu*; lot. *creare* - «tashkil qilish, yashab ketmoq») Lotin Amerikaga dastlab ko'chib kelgan ispan va portugallarning avlodlari. Braziliya va Vest Indiya (G'arbiy Hindiston)da negr qullarning avlodlari. Alyaskada ham kreollar mavjud bo'lib, ular XVIII-XIX asrlarda ruslarning eskimoslar, aleutlar yoki hindular bilan nikohidan vujudga kelgan.

**KU-KLUKS-KLAN** - (ingl. *Ku Klux Klan*, *KKK*) qadimgi yunon tilida *κύκλος* - doira, g'ildirak, va ingl. *clan* - urug' jamoasi, klan ma'nolarida qo'llanilgan. U irqchilik terrorchi tashkilot. AQShdagi turli millatchi va irqchilik tashkilotlarini birlashtirgan. XX asr boshlarida tashkilot hatto kommunizmga ham qarshi bo'lgan. Dastlab AQShdagi fuqarolar urushida ishtirok etgan janublik askarlar tomonidan 1865-yil 24-dekabrda Janubning Pyulask shahri sudyasi Tomas Li Jons va uning urushda qatnashgan safdoshlari tomonidan maxfiy ravishda tashkil qilingan. Ularning ramzi olov bo'lgan. Ku-kluks-klanning dastlabki olti nafar a'zolari: Makkord, Lester, Kennedi, Krou, Djouns va Rid bo'lib, aynan Rid tashkilotga shu nomni bergan. Tashkilotning boshqa bir nomi Janubning ko'rinmas imperiyasi bo'lib, uni Buyuk Mag boshqargan. Har bir shtat esa alohida qirollik deb tushunilgan. 1868-yilda Buyuk Mag Forrestning ko'rsatib o'tishicha, o'sha paytda tashkilot a'zolarining soni 600 ming kishidan ortiqni tashkil qilgan. Tashkilot azolari terrorni amalga oshirish uchun 10 dan 500 kishigacha bo'lgan guruhlariga bo'lingan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1865-1880-yillar davomida 130 ming kishi ular tomonidan o'ldirilgan. Keyingi davrlarda bir necha marta tashkilot qayta tuzilgan. 1993-yilda tashkilot tarqatildi va «Oq konfederatlar» deb qayta nomlangan.

**KSENOFOBIYA** (qadimgi yunoncha: *xénos* – “begona” yoki “g'alati”, *phóbos* – “qo'rqish” ma'nosini anglatadi - begona yoki g'alati deb qabul qilingan narsalardan qo'rqish yoki nafratlanishni aks etuvchi termin. Bu ichki va tashqi guruh o'rtasidagi ziddiyatning ifodasidir hamda boshqasining harakatlaridan shubhalanishda, ularning



mavjudligini yo'q qilish istagi va milliylikni yo'qotish qo'rquvida o'zini namoyon qilishi mumkin.

**METIS** (frans. metis, so'nggi lot. misticius-aralash) – Odatda turli irqlar o'rtasidagi yoki duragay nikohdan tug'ilganlarga nisbatan qo'llaniladi. Amerikada oq tanli aholiga mansub kishi bilan hindular o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan avlod shunday atalsa, Braziliyada turli hindu qabilasi vakillari bilan portugallar nikohidan tug'ilgan «mamilyukos» nomi bilan atalib, mamlakat aholisining asosiy qismini tashkil qiladi.

**MIGRATSIYA** (lot. migratio-boshqa joydan ko'chish) bir mamlakatdan boshqasiga yoki mamlakat ichidagi ko'p miqdordagi odamlarning harakati.

**MILLATCHILIK** - millatni jamiyat birligining eng yuqori shakli va davlat shakllanishida birlamchi deb qarovchi siyosiy yoki g'oyaviy yo'nalishga aytiladi. Siyosiy harakat sifatida davlat bilan munosabatlarda ma'lum bir milliy jamoaning manfaatlarini himoya qilishga intiladi. Bugungi kundagi radikal harakatlar o'ziga millatchi tus berishi tufayli "millatchilik" yoki "natsionalizm" tushunchalari etnik, madaniy va diniy toqatsizlik bilan ko'p bog'lanadi. Bunaqa toqatsizlik millatchilikda mo'tadil oqimlar tarafdorlari tomonidan qoralanadi. Ko'pincha OAVda "millatchilik" so'zi ostida etnik millatchilik va unnig bir millatni boshqa millatdan ustun qo'yishga urg'u beradigan shovinizm va ksenofobiya kabi keskin shakllari nazarda tutiladi. Millatlar aro nizoni yuzaga keltirish va etnik diskriminatsiya kabi etnik millatchilikning ko'plab ko'rinishlari xalqaro qonunbuzarliklarga kiradi.

**MILLIY-MADANIY MARKAZLAR** - O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari. Milliy-madaniy markazlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to'g'risidagi amaldagi qonunlariga hamda o'z nizomiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi. Milliy-madaniy markazlari muayyan millatga xos bo'lgan milliy madaniyat, til, urf-odat, an'ana va taomillarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfa'atdor bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. O'z faoliyatini bevosita yoki jamoalardagi bo'limlari orqali O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi. Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar,

armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tuzildi. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. O'zbekiston mustaqilligi munosabati bilan ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada milliy-madaniy markazlar soni yil sayin ortib bordi. 1992-yil 10 ta milliy-madaniy markazlar ish olib borgan bo'lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga kelib esa 135 taga yetdi. O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini rivojlantirish, respublikamiz manfaatdor vazirliklari, idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish markazning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi. Markazlar musika va teatr studiyalarini, ona tili, tarix, yozuv, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr va rassomchilik san'ati, milliy urf-odatlar va hunarmandchilik, milliy sport va o'yinlar turlarini o'rganish bo'yicha o'quv guruhlari va yakshanba maktablarini amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzadi; milliy madaniyat, milliy til; milliy san'at turlari va milliy urf-odatlarni o'rganish va targ'ib qilish maqsadlarida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlarni; xor va badiiy jamoalarni tashkil etadilar. Milliy-madaniy markazlari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi muvofiqlashtiradi.

**MODERNIZM** - nuqtai nazaridan millatlar va millatchilik sanoat erasining boshlanishida paydo bo'lgan va davlatlarning kuchayishi hamda kapitalizmning rivojlanishi bilan bog'liq tarixiy hodisalar. Bu yo'nalishning tarafdorlari etnik mansublik millatchilikning kelib chiqishida, madaniyat esa millat shakllanishining yakunlovchi bosqichida rol o'ynashini inkor etmaydilar, lekin umuman millatchilikning etnik mansublik bilan bog'liqligini tasodif deb biladilar.

**MO'TADIL BURJUAZIYA** – burjuaziyaning murosaga intiluvchi, muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga, hukmron tabaqalar bilan kelishishga intiluvchi qismi.

**MULAT** – oq tanli va qora tanli kishilar o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan avlod. Bu atama birinchi marta XVI asr uchrab, kelib chiqishi ispan yoki portugallarga borib taqalishi nazarda tutilgan. *Mulato* so'zining kelib chiqishi bo'yicha ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarashga ko'ra, bu so'z arabcha muvallad so'zidan kelib chiqqan bo'lib, notoza qonli arablarga nisbatan qo'llanilgan. Ikkinchi qarashga ko'ra, *mulato* so'zi ispancha *mulo* – mul nafaqat xachirlarni, balki istalgan gibrit shakllarni anglatgan.

**MUXOLIFAT** (arab. kelishmovchilik, munosabatning teskarilashuvi) – amaldagi hukumat, uning siyosati bilan kelishmay boshqacha faoliyat yuritish tarafdorlari.

**O'RTA TABAQA** – aholining o'ziga to'q qatlami. Odatda moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini yetarlicha qondirishga yetadigan barqaror daromad manbasiga ega bo'lgan kishilarning ijtimoiy guruhi. O'rta tabaqaning mazmuni mohiyatini anglatuvchi turli xil yondashuvlar mavjud. Birinchi marta «o'rta tabaqa» tushunchasini dramaturg Yevripid miloddan avvalgi asrlarda «Iltijo qiluvchilar» tragediyasida qo'llagan. Jamiyatga nisbatan «o'rta tabaqa» tushunchasini Aristotel ishlatgan.

**PARTIZAN** (ital. *Partigiano* - alohida guruh tarafdori, partiya) - partizan so'zi davlatga qarashli bo'lmagan va harbiy maqsadlarda tashkil qilingan otryadlarga nisbatan qo'llaniladi va odatda o'z mamlakatini himoya qilish yoki mavjud hukumatga qarshi kurashish maqsadida tashkil qilinadi. Shuningdek partizan otryadlari urushlarda ishtirok etish davrida dushmanga qarshi sabotaj, diversiya, terror va boshqa usullarni qo'llashadi. Partizan otryadlariga odatda harbiy ishni yaxshi tushunadigan sobiq harbiylar va askarlar boshchilik qilishadi. Partizanlar va partizan otryadlarini xalqaro huquqda harbiy qo'shin turi sifatida ko'rsatilmagan.

**PLEBISSIT** (lot. *plebiscitum*, lot. *plebs* - plebs (oddiy xalq) va lot. *Scitum* - qaror qabul qilish) - fuqarolarning o'zlari yashayotgan hududdagi muhim masalalarni hal qilish uchun ovoz berishi va referendumning bir ko'rinishi. Bugungi kunda dunyodagi davlatlarda plebissit o'tkazish doimiy ravishda amalga oshirilib kelinadi.

**POMESHİK** - XV asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyada dvoryan yoki katta yer egasining mulki va boyligining umumiy nomlanishi, shu bilan birga katta yer egasini ham bildiradi. Pomeshik so'zi qadimgi rus tilidagi «ispomeahat» so'zidan kelib chiqqan va

yashash joyini ajratib olish, alohida yerga egalik qilish ma'nolarini bildiradi. Keyinroq pomestye Rossiyada XVI-XVII asrlarda yerga egalik qilishning asosiy shakliga aylandi. XIX asr va XX asr boshlarida pomeshik dvoryanning oddiy nomiga aylanib qoldi.

**PRIMORDIALIZM** - millatlarning prototiplari va millatchilik insoniyat tarixining boshlanishidanoq mavjud bo'lganliklarini va bir etnik guruhga mansub odamlarga xulqini belgilaydigan madaniy xususiyatlar boshidanoq va toabad xos bo'lishini ta'kidlaydi.

**PROLETARIAT** (nem. *proletariat*, lot. *Proletarius* - buyumsiz, mulksiz) - ijtimoiy sinf yoki ishlab chiqaruvchilar sinfi. Toynbining yozishicha, Qadimgi Rimda aholini ro'yxatga olish o'tkazilganda «bolalar» (*proles*) deb ko'rsatilgan. Aholining qashshoq qismi esa pauperlar deyilgan. Undan tashqari proletarlar harbiy ishlardan ozod qilingan deb ko'rsatilgan. XIX asrdan G'arbiy Yevropadagi sotsial-demokratik partiyalar o'zlarining asosiy tarafdorlari hisoblangan ishchilarni proletariat deb umumiy nom bilan atay boshlashadi.

**SEPARATIZM** (frans. *separatisme* - ajratilgan) - ajralishga, alohidalikka intilish; davlatning bir semiki milliy, diniy, etnografik, siyosiy, iqtisodiy sabablarga ko'ra, ajratib olib yangi davlat tuzilmasi tuzish yoki mamlakatning bir qismini muxtoriyatga aylantirish harakati. S.ning kuchayishi yoki pasayishi tashki va ichki omillarga bog'liq bo'ladi. Mamlakat hududida har bir millat, elat, xalqning manfaatidan kelib chiqib siyosat yuritilsa, ularning har tomonlama rivojlanishi, o'zini shu mamlakatning teng huquqli fuqarosi sifatida his qilishi uchun huquqiy, siyosiy, iqtisodiy shartsharoitlar yaratilgan bo'lsa, S.ga o'rin qolmaydi va aksincha. Ko'pincha ichki sabablarni kuchaytiruvchi, gijgijlovchi, o'z maqsadlari yo'lida foydalanuvchi kuchlar S.ning paydo bo'lishi va kuchayishiga olib keladi. Tarixda S. harakatlari ko'p bo'lgan, ular aksariyat hollarda mojarolarga, nizolarga olib kelgan va fuqarolar urushi orqali kechgan. Hozirgi vaqtda Ispaniyaning basklar yashaydigan hududlari, Buyuk Britaniyaning Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya, Fransiyaning Korsika, Belgiyaning vallonlar va flamandlar o'rtasidagi ziddiyatlar, Kanada Kvebekidagi harakatlarni S.ning ko'rinishlaridan hisoblanadi. S. milliy ozodlik harakatidan farqlanadi.

**QIZIL KXMERLAR** (*Khmer Rouge*) – Kambodja (Kampuchiya) kommunistik harakati agrar qanotining norasmiy nomi. Asosiy qismini etnik kxmerlar tashkil qilgani uchun ham shunday atalgan. 1970-yildagi

harbiy to'ntaruv natijasida hokimiyatga kelgan va AQSh madadiga tayanuvchi Lon Nol reaksion tuzumiga qarshi kurashish uchun tashkil etilgan. «Qizil kxmerlar» vetnamliklar yordamida avval qishloq tumanlarini, so'ngra poytaxt Pnom-Penni egallashga muvaffaq bo'lgan. Pol Pot boshchiligida ular mamlakatda ommaviy qonli «tozalashlarni» amalga oshirdilar. Buning natijasida deyarli barcha malakali kadrlar, davlat amaldorlarining katta qismi va budda rohiblari qatag'on qilindi. Shahar aholisining ko'pchiligi qishloq xo'jaligi ishlariga majburiy jalb qilindi, bu ishlarga chiday olmaganlarining aksariyati halok bo'lishadi. Umumiy hisob-kitoblarga ko'ra Pol Pot boshchiligidagi qizil kxmerlar 2 mlnga yaqin kishining yostig'ini quritdi, mamlakat iqtisodiyoti xonavayron bo'ldi. 1978-yilda Vetnam va Kambodja o'rtasida kelib chiqqan chegara ziddiyatlari, «Qizil kxmerlar» tuzumining ag'darilishi bilan yakunlandi. «Qizil kxmerlar»ning alohida yashirin otryadlari Tailanddagi bazalarda turib, yashirin kurashni davom ettirdilar. Faqatgina 1998-yilga kelganda ular to'lig'icha mag'lub etildi. Mag'lubiyatni tan olgan «qizil kxmer» qo'mondonlari konstitutsiyaga rioya qilish va siyosiy hayotga aralashmaslik majburiyatini olishdi. Ularning rahnamosi bo'lgan Pol Pot 1998-yilning aprelida vafot etdi.

**QULOQLAR** (ruscha termin bo'lib, "kulak", qishloqlarda ekspluatasiya qiladigan kishilarga nisbatan ishlatilgan) 1890-yillardan qishloqlarning o'ziga xos burjuaziyasi. Aslida dehqonlar orasidan yetishib chiqqan va ular yer miqdorining ortib borishi natijasida ijaradorlarga aylanib bordi. 1861-yildagi krepostnoylikning bekor qilinishi natijasida shakllana boshlagan. XX asr boshlarida eng ko'p sonli ekspluatator sinfiga aylandi. 1905-07-yillardagi inqilob natijasida ularning mavqeyi biroz pasaygan. 1917-yildagi inqilobdan keyin ularning soni doimiy ravishda kamayib boradi. 1930-yildan boshlab quloq xo'jaliklarini tugatish ishlari faollashib ketadi. Ularni surgun qilinishi tufayli bunday xo'jaliklar amalda tugatiladi. 1941-yilda turli surgun joylarida 930 ming sobiq quloqlar (taxminan 220 ming oila) yashaganlar.

**REAKSIYA KUCHLARI** – ilg'or g'oyalarni ta'qib etuvchi, eski tartiblarni saqlab qolishga yoki ularni qayta tiklashga intiluvchi kuchlar.

**SATELLIT** (lot. *satelles* - tansoqchi, yo'ldosh, hamfikir) – Qadimgi Rimda tansoqchilar satellit deb nomlangan. Keyingi davrlarda mazkur atama amalda mustaqil, ammo siyosiy va iqtisodiy jihatdan

boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolgan davlatlarga nisbatan qo'llanilmoqda. Bunga ikkinchi jahon urushi davrida Antikomentern paktiga qo'shilib, Germaniya ta'siriga tushib qolgan Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Finlyandiya, Tailandni misol sifatida ko'rsatish mumkin. Keyinchalik Varshava shartnomasi tarkibida bo'lgan Janubiy-Sharqiy Yevropa davlatlari ham shunday davlatlar sirasiga kiritilgan.

**SATIYAGRAXA** (sanskrit. «haqiqatga intilish») - Hindistonda ingliz mustamlakachiligi davrida mustaqillik uchun kurashning tinch yo'li bo'lib, fuqorolar bo'ysinmasligi va hamkorlik qilmaslik usullarida olib borilgan. XX asr boshlarida Moxandas Karamchand Gandining tushuntirishicha, kuch ishlatmaslik, yomonlik qilmaslik, vijdon amriga bo'ysunish va qonunni buzmaslik kabilardan tashkil topgan. Satiyagraxada passiv qarshilik ko'rsatish tushunchasi ham bo'lib, quroldan foydalanmaslik tushuniladi. Fuqarolar bo'ysunmasligi harakati hindlarga qarshi qonunlarga rioya qilmaslik, soliqlarni to'lamaslik, qamoqqa olishga qarshi noroziliklar kiradi.

**XUNVEYBINLAR** (xit. bosh, pinin: *hóngweibīng*, «Qizil qo'riqchilar», «Qizil gvardiyachilar») - 1966-1967-yillarda tashkil qilingan tashkilot bo'lib, talabalar, o'quvchi yoshlarning Madaniy inqilobda ishtirok etgan guruhlar. Xunveybin otryadlari Mao Szedunning raqiblari qarshi kurash uchun madaniy inqilob davrida tashkil qilingan. Xunveybin guruhlari huquqiy jihatdan muxtor tashkilot bo'lib, ma'lum bir hollarda erkin harakat qilishi mumkin edi. Ular hukumat uchun qatag'onlarni amalga oshirishardi va erkinlikni cheklashga xizmat qilishardi. Tashkilot a'zolarining ko'pchiligi ishchi va dehqonlarning farzandlari edi va shu sababli ular asosan iqtisodiy jihatdan boy oilalarga qarshi kurashdilar. 1966-yil 1-iyundan boshlab Daszibao radiosidagi chiqishdan keyin boshlab yuborildi. 1966-yil 26-iyuldan maktab va universitetlarning talaba va o'quvchilaridan 50 million nafar kishi jalb qilindi. 1967-yil kuziga kelib, millionlab kishilar (1970-yilda 5,4 million) boshqa joylarga majburiy ishlarga olib ketildi yoki uzoq muddatli qamoq jazosiga mahkum qilinadi.

**YOSH TURKLAR** - 1889-yilda tashkil etilgan turk burjua-pomeshchik partiyasi. «Birlik va taraqqiyot» partiyasi a'zolarining yevropacha nomi. 1908-yilda a'zolari uyushtirgan davlat to'ntarishi natijasida sulton Abdulhamid II ni taxtdan ag'darishib, hokimiyat tepasiga kelishga muvaffaq bo'lgan. Yosh turklar mamlakatdagi feodal

tartiblarni yo'qota olmaydi, agrar va milliy masalalarni hal qila olmadi, uning ustiga tashqi siyosatda Germaniya bilan yaqinlasha boshladi. Birinchi jahon urushida Turkiyaning mag'lubiyatga uchrashidan so'ng bu tashkilot tarqalib ketdi. Keng ma'noda yosh turklar XX asr boshlarida Turkiyadagi inqilobiy harakat ishtirokchilarini anglatgan.

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJIY  
MAMLAKATLAR BILAN DO'STLIK ALOQALARI QO'MITASI***

Respublika baynalmilal madaniyat markazi hamda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi faoliyatlari negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi №PQ-5046-sonli qaroriga asosan tashkil qilingan. Qo'mitaning asosiy vazifalari sifatida jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'p millatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash; do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish; davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash; mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish; xorijiy mamlakatlarda davlatimizning tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida O'zbekistonning maqsad va vazifalarini, shuningdek, bugungi kunda mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish; millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda ko'maklashish va bevosita qatnashish. Qo'mita millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

### III-BOB. XALQARO VA DAVLATLARARO MUNOSABATLARGA DOIR ATAMALAR

#### 3.1. Davlatlararo munosabatlarni bildiruvchi atamalar

**AGRESSIYA** (lot. *agressio*-hujum qilish, tajovuz) - bir davlat (davlatlar guruhi) tomonidan boshqa davlatning yoki xalqning (millatning) suvereniteti, hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi bo'lgan har qanday kuch ishlatish. Agressiyaning eng xavfli ko'rinishi qurolli kuch ishlatishdir; bir davlatning boshqa davlatga qurolli hujumi tinchlik va xalqlar xavfsizligiga qarshi og'ir xalqaro jinoyat hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasining 29-sessiyasi (1974-yil 14-dekabr) «Agressiyani belgilash to'g'risida»gi rezolyutsiyasida yakdillik bilan ma'qullagan. Agressiya biror davlatdagi inqiloblarga nisbatan kuch ishlatish yo'li bilan aralashish, xalqlarga nisbatan milliy va diniy tazyiq ham bosqin sifatida tushuniladi. 1945-1946-yil Nyurnberg va 1946-1948-yillardagi Tokio harbiy tribunallarida ham agressiya qattiq qoralanadi. Agressiyaga fashistik Germaniyaning Yevropadagi davlatlarga nisbatan ikkinchi jahon urushi yillaridagi qurolli bosqinini misol sifatida keltirish mumkin.

**ANARXO-SINDIKALIZM** (qad. yunon. "hokimiyatsizlik", himoyachi, frans. *syndicat* - ittifoq, kasaba uyushmasi) - xalqaro ishchilar harakatining anarxizm ta'sirida bo'lgan oqimi. Kasaba uyushmalarini mehnatkashlar tashkilotining oliy shakli, binobarin ishlab chiqarish vositalari mazkur uyushmalar qo'liga o'tishi lozim, deb hisoblaydilar. Anarxo-sindikalizm sabotaj, boykot, iqtisodiy ish tashlash va kurashning «oliy shakli» sifatida umumiy iqtisodiy stachka kabi «to'g'ridan-to'g'ri harakat» taktikasini yoqlagan. Mazkur atama P. J. Prudon va M. A. Bakuninlarning g'oyasi asosida shakllangan. XIX asr oxirlarida Fransiya, Italiya, Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlarida vujudga kelib, XX asr boshlarida eng ko'p tarqalgan. Anarxo-sindikalizmning teoretiklari sifatida Rudolf Rokker, Diyego Abada de Santilyana, Pyer Benar, Aleksandr Berkman, Emilio Lopes Arango, Anxel Pestanya, Isaak Puente, Avgustin Zuxi, Aleksandr Shapiro, Vsevolod Volin, Yakov Kirillovskiy (Novomirskiy D. I.) va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. *Anarxo-sindikalizm* atamasi ilmiy muomilaga 1921-1922-yillarda kiritilgan.



**ANKLAV** - (frans. enclave, lot. Inclavatus - yopiq berk) - boshqa davlat tomonidan hamma tomondan qurshab olingan va dengizga chiqish imkonidan mahrum bo'lgan mamlakat yoki uning bir qismi. Agarda davlatning hududi to'liq boshqa davlat tomonidan o'rab olingan bo'lsa to'liq anklav deyiladi. Hozirda 3 mamlakat to'liq anklav hisoblanadi: Italiya ichida Vatikan va San - Marino, JAR ichida Lesoto joylashgan. Agar anklav dengiz qirg'oqlariga ega bo'lsa, yarim anklav deyiladi. Yarim anklav davlatlar Malayziya, Portugaliya va h.k. Eksklav - mamlakatning asosiy hududidan ajralib qolgan va boshqa davlat tomonidan o'rab olingan hududga nisbatan qo'llaniladi. Yarimeksklav - mamlakatning asosiy hududlaridan ajralib qolgan qismi bo'lib, bir tomondan dengizga chiqish imkoniga bo'lgan hududga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Alyaska shtati AQShga yarimeksklav va Kanadaga nisbatan AQShning yarimanklavini tashkil etadi. Farg'ona viloyatiga qarovchi So'x viloyati va Shoximardon O'zbekistonga nisbatan anklav hisoblanadi, chunki ushbu ma'muriy hudud hamma tomondan Qirg'iziston bilan o'rab olingan.

**ANNEKSIYA** (lot. «annexio»-qo'shib olish) - mag'lub davlat hududi bir qismining g'olib mamlakat tomonidan zo'ravonlik bilan qo'shib olinishi. Anneksiya xalqaro huquqda qoralanadi va davlatlarning hududiy dahlsizligi himoya qilinadi. Anneksiyaga 1870-1871-yillardagi Fransiya-Prussiya urushi natijasida mag'lub bo'lgan Fransiyadan Elzas va Lotaringiyaning Germaniyaga qo'shib olinishini misol sifatida ko'rsatish mumkin.

**EKSPEDITSIYA** (lot.yexre - tartibga keltirish, tartib bilan yurish) - biror narsa (misol uchun xat-xabarlar, yuk va shu kabilar)ni jo'natish, tarqatish. Shuningdek muayyan narsani jo'natuvchi, tarqatuvchi muassasa, korxonalarining bo'limi. Boshqa bir ma'nosi biror maxsus (asosan ilmiy va harbiy) topshiriqqa ega bo'lgan shaxslar guruhi, otryadning safari, shunday tadbirlar ishtirokchilari guruhi. Ekspeditsiya odatda harbiy yoki ilmiy safarga nisbatan qo'llanilib, ma'lum bir o'ta muhim vazifani bajarish rejalashtirilgan bo'ladi. Quyida bir nechta ilmiy ekspeditsiyalarga misollar keltirib o'tilgan. Mannergeymning Osiyo ekspeditsiyasi (1906-1908), Britaniya Antarktika ekspeditsiyasi (1901-1904), Gollandiya ekspeditsiyasi (1799), Britaniya hamdo'stligining Transantarktika

ekspeditsiyasi (1955-1958), Rus flotining Shimoliy Amerika qirg'oqlariga ekspeditsiyasi (1863-1864).

**EKSTREMIZM** (lot. Extremus -o'ta, keskin) - siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Ekstremizmning siyosiy va diniy ko'rinishlari yaqqol ajralib turadi. Siyosiy ekstremizm namoyandalari o'zlarining g'arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanib, mavjud siyosiy tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo'qotishga harakat qiladi. Bu yo'lda ekstremistlar va ekstremistik tashkilotlar «demokratiya» niqobi ostida balandparvoz shiorlar, chaqiriqlar bilan chiqib, terrorchilik va partizanlik harakatlarini qo'llab-quvvatlaydilar, qonunga rioya etmaslik, ish tashlashlar, tartibsizliklar chiqarishga urinadilar, odamlarni gij-gijlaydilar, terror qilish usulidan foydalanadilar. Ekstremistik tashkilotlarning rahbarlari har qanday murosa va kelishuvni rad etadilar. O'ziga tobelarni o'z buyruq va ko'rsatmalarini ko'r-ko'rona bajarishga majbur etadilar. Siyosiy ekstremizmning millatchilik ko'rinishi turli millat va etnik guruhlar huquqini inkor etishda namoyon bo'ladi. Millatchi ekstremistlar faoliyati separatizm bilan bog'liq bo'lib, ko'p millatli davlatlarni yo'qotish, tub millat hukmronligini o'rnatishga qaratiladi. Bunday ekstremizm millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi va xalqlar o'rtasida mojarolar chiqishiga olib keladi. Diniy ekstremizm, avvalo, boshqa konfessiyalarga, ularning vakillariga nisbatan toqatsiz bo'ladi. Diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalanadi. Ekstremizmning turli ko'rinishlari so'nggi vaqtlarda dunyoning ko'p mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasida ham o'zini namoyon eta boshladi. Masalan, islom ekstremizmi – islomning qadimiy g'oyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakat bo'lib, bu harakat diniy mutaassiblikka asoslangan, muayyan ta'limotlarga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va ko'pincha muayyan siyosat va iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda islom dinini niqob qilgan turli diniy ekstremistik tashkilotlar («Hizbut-tahrir», «Tavba») yangidan mustaqillikni qo'lga kiritgan dunyoviy davlatlarga tahdid solmoqda. Ular vaqtinchalik qiyinchiliklarni ro'kach qilib, aholini, ayniqsa, yoshlar ongini aqidaparastlik g'oyalari bilan zaharlamoqda.

Farzandlarni yo'ldan urishga, o'z ota-onasiga, aka-ukasiga, o'zi tug'ilib o'sgan maskaniga, davlatiga qarshi qo'yishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda ekstremizimga qarshi kurash o'ta dolzarb vazifa hisoblanadi.

**EPIDEMIYA** (epi... va yunon. demos-xalq)-infeksion kasalliklarning ma'lum hududda, odatdagidan ko'p tarqalishi. Epidemiya epidemiyasi va pandemiya epidemiyasi farqlanadi. Infeksiya manbai (kasallik qo'zg'atuvchisi bilan zararlangan odam yoki hayvon), qo'zg'atuvchining yuqish sabablari, shuningdek, organizmning mazkur kasallikka beriluvchanligi uzoq vaqt saqlanganda epidemiya vujudga keladi va davom etadi. Bunda tez kasallik o'chog'ini topib, atrofidagi aholining xavfsizligini ta'minlash, kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarning bemorlardan sog'lom odamlarga o'tish yo'llarini bartaraf etish (masalan, o'lat epidemiyasida kemiruvchilarni yo'qotish, bemorlarni ajratib qo'yish) va kasallikka beriluvchan kishilarni emlash choralari ko'riladi. Tarixda bir qancha ayanchli epidemiyalar tarqalgan. Masalan, «Yustinian davri vabosi» (551-580), Sharqiy Rim imperiyasida boshlanib, u butun Yaqin Sharqqa tarqalgan. Taxminan 20 mln insonning yostig'ini quritgan. «Qora o'lat» - bu vabo o'lati epidemiyasi, XIV asrda Yevropada tarqalib, 50 mln odamning umriga zavol bo'lgan. «Ispan grippi» («ispanka») - Birinchi jahon urushidan so'ng 200 million epidemiya bilan kasallanganlardan 41,8 mln kishi halok bo'lgan.

**GEOSIYOSAT, GEOGRAFIK SIYOSAT** (yunon. Geo – yer va siyosat) - siyosatshunoslikdagi nazariya. Geosiyosat atamasi muayyan bir mamlakatning o'mi, tabiiy boyliklari, iqlimi va boshqa geografik omillarning davlat siyosati (geografik joylashuvi, siyosati strategiyasi)ga muayyan ta'sirini ifodalash uchun ishlatiladi. Geosiyosat tushunchasini birinchi bor Rudolf Chellen (Shvetsiya) muomalaga kiritgan. Geosiyosat nazariyasi XIX oxiri XX asr boshlarida Fridrix Ratsel (Germaniya)ning 1897-yilda nashr qilingan “Siyosiy geografiya” asarida ham ishlatilgan, A. Mexen (AQSh), Xelford Makkinder (BuyukBritanya) tomonidan ishlab chiqilgan. Geosiyosat, geografik siyosat - siyosatshunoslikdagi nazariya. O'zbekiston o'z tashqi siyosatida ma'lum darajada geosiyosatning asosiy tamoyillarini ham hisobga oladi.

**GETTO** (ital. *ghetto nuovo* «yangi metall quyish ustaxonasi») - ilk o'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida yahudiylar

yashashi uchun ajratilgan shahar qismi. Getto italiyancha ghetto - zambarak zavodi so'zidan olingan bo'lib, Venetsiyadagi ushbu zavod yonidagi yahudiylar yashovchi Kannaredjo mahallasida 1516-yili ta'sis etilgan. II jahon urushi davrida natsistlar tomonidan Sharqiy Yevropaning bir qancha shaharlarida gettolar tashkil qilinib yahudiylarning "qirish lageri"ga aylantirildi. Bu atama ba'zan huquqi poymol etilgan mayda millatlar joylashgan shahar tumaniga nisbatan ham ishlatiladi. 1239-yilda Aragoniyada ham yahudiylar uchun alohida kvartal ajratilgan. Keyinchalik gettolar Germaniya, Fransiya, Shvetsariya va Italiyada ham tashkil qilingan. Rossiyada getto XVIII asrda tashkil qilingan. Ikkinchi jahon urushida fashistlar Varshava gettosi (Polshada), Terezin gettosi (Chexiya), Minsk gettosi (sobiq SSSR) va boshqalar tashkil qilingan. AQSh va Afrikaning ayrim davlatlarida "rangli gettolar" ham mavjud bo'lgan.

**INTEGRATSIYA** (lot. *integratio*-tiklash, to'ldirish, birlashish, integer-butun so'zidan) - ma'lum bir qismlarning yagona holatga birlashishi yoki o'zaro bog'lanishi. Qo'llanilishi sohalariga qarab farqlanadi. 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi; 3) ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish. Hozirgi kunda Yevropa iqtisodiy integratsiyasi eng mashhurdir.

**INTERNATSIONALIZM** (lot. *Inter*-«o'zaro» va *natio* -«xalq») - xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va do'stlik munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan g'oya. Yevropa davlatlarida ishchilar yoki jamiyatning quyi qatlamlari o'zaro aloqalarning faollashuvi natijasida shakllana boshlagan. 1864-1876-yillarda Marks tarafdorlari birinchi internatsionalga asos solishdi. 1889-1914-ikkinchi Internasional faoliyat ko'rsatdi. Rossiyada kommunistlar hokimiyat tepasiga kelgandan keyin internatsionalning faoliyati yanada jadallashib ketdi va dunyo miqyosida ham tobora kengroq faoliyat yurita boshladi. Ayniqsa bir partiyali davlatlarda mazkur g'oyaga alohida e'tibor qaratilardi. 1991-yilda sotsialistik lager davlatlarining parchalanib ketishi natijasida bu atama ham salbiy ma'noda tushunila boshlandi. Bugungi kunga kelib

internasionalizm atamasi o'rinda globallashuv atamasi ko'proq ishlatilmoqda

**KOALITSIYA** (lot. *coalitio*-ittifoq) - siyosiy partiyalar davlatlar, tashkilotlar va alohida jamoalarning biror maqsad yo'lida birlashuvi. Koalitsiya tarkibidagi har bir ishtirokchi uning tarkibidan erkin chiqib ketishi va boshqa ittifoqqa kirishi mumkin. Harbiy-siyosiy bloklarni ham, koalitsion hukumatlarni ham misol sifatida ko'rsatish mumkin. Koalitsiyaga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Dahshatli koalitsiya - Ruminiya Milliy yig'iniga bo'lgan 1864-yildagi parlament saylovlaridan keyin tashkil qilingan.

**KONKISTA** - (1492-1898-yillarda ispanlarning Amerikani o'zlarining koloniyalariga aylantirishi konkista yoki konkvista deb nomlangan va *La Conquista tarzida aytilgan*), zabt etish, bosib olish. Kolomb tomonidan 1492-yilda Karib dengizi orollarida boshlangan jarayon 1898-yilda Ispaniyaning AQSh bilan urushdagi mag'lubiyatiga qadar davom etgan. Konkista siyosatining dastlabgi davrida Ispaniyadan ko'chib kelgan taxminan 600 ming atrofidagi erkaklarning 80% dan ortig'i yolg'iz bo'lganligi sababli ular mahalliy hindular yoki Afrikadan olib kelingan qora tanli ayollar bilan yashashi natijasida yangi millat va elatlar shakllana boshladi.

**KONSENSUS** (lot. *Consensus* -yakdillik, kelishuv) - xalqaro shartnomalar tuzishda parlament yoki kengashlarda tegishli qaror qabul qilish; bunda bahsli masalalarga rasman e'tiroz bildirilmasa va shu masalaga ochiqdan-ochiq qarshi chiqqan tomon bo'lmasa, ishtirokchilarning umumiy roziligi asosida rasmiy ravishda ovoz berilmaydi. Shu asosda Konsensus usuli, shuningdek, BMT organlarida tan olingan bo'lib, shu tashkilot doirasida o'tkaziladigan xalqaro konferensiyalar va kengashlarda qo'llaniladi. Umumiy tartibdagi rozilik deb tushunish ham mumkin.

**MUSTAMLAKA** - rivojlangan davlatlar tomonidan bosib olinib, ekspluatatsiya qilinuvchi mamlakat.

**MUSTAMLAKACHILIK** - kuchli davlatlar tomonidan zo'rlik bilan egallangan mamlakat yoki hududni siyosiy va iqtisodiy mustaqiligidan mahrum etib, o'ziga bo'ysundirish, qaram qilish, talash siyosati. XV asr oxirida Yevropa davlatlari (Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya, Fransiya) ana shunday siyosat yurita boshladilar.

Bunday amaliyot XIX oxiriva XX asr boshida avjiga chiqdi, natijada dunyoning katta qismi bir necha imperiyalar o'rtasida bo'lib olindi. Bu davrga kelib eski mustamlakachi davlatlar oldiga yangi; AQSh, Germaniya, Belgiya, Yaponiya, Rossiya qo'shildi. II jahon urushi tufayli kuchayib ketgan milliy ozodlik harakatlari sanoqli yillar ichida mustamlaka Imperiyariyaning yemirilib qulashiga olib keldi. BMT ning Bosh Assambleyasi mustamlaka mamlakatlari va xalqlariga mustaqillik berish to'g'risida Deklaratsiya qabul qildi (1960), unda mustamlakachilik insoniyatga qarshi jinoyat sifatida baholandi.

**MANDAT TIZIMI** – xalqaro vasiylik ko'rinishlaridan biri. Millatlar Ligasi tomonidan Osiyo va Afrikadagi sobiq Germaniya va Usmonli turklar davlatiga tegishli mustamlakalarni ittifoqdosh davlatlarning biri tomonidan boshqarilishi uchun joriy qilingan. Huquqiy jihatdan Millatlar Ligasining 22-bandida o'z aksini topgan. Unga ko'ra mandatlar uchta guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga Usmonli turklar imperiyasi qo'l ostidagi hududlar kirgan bo'lib, bunda mandat maqomi protektoratlikka yaqin turgan. Ikkinchi guruhga Germaniyaning Afrika qit'asidagi sobiq mustamlakalarining aksariyati kirgan bo'lib, mazkur mandatlar maqomi ayrim o'z-o'zini boshqarish erkinliklariga ega bo'lgan. Uchinchi mandat guruhiga Germaniyaning Janubiy-G'arbiy Afrikadagi (hozirgi Namibiya) va Tinch okeanidagi mustamlakalari kirgan bo'lib, ular amalda anneksiya qilib olingan. Buyuk Britaniya mandati ostiga Usmonli davlati tarkibida bo'lib kelgan Iroq, Falastin va Transiordaniya, Germaniya koloniyalarining bir qismi bo'lgan Tanganika, Kamerun va Togoning bir qismi berildi. Fransiya mandatiga Suriya, Livan, Kamerun va Togoning bir qismi, Belgiyaga – Raundu-Burundi, Yaponiyaga – Tinch okeanidagi Marshal, Korolin va Marian orollari, Janubiy Afrika Ittifoqiga – Janubiy-G'arbiy Afrika, Avstraliyaga – Nauru orollari, Yangi Gveneyaning br qismi va Tinch okeanining ekvatoridan janubdagi orollari, Yangi Zelandiyaga – G'arbiy Samoa berildi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin mandat tizimi qayta shakllantirildi va BMT nazorati ostiga o'tkazildi.

**PROTEKSIONIZM** (*lotincha* protectio - himoya, yashirish) - ichki bozorni chet elliklardan eksportni oshirish va importni cheklash, katta bojxona soliqlari belgilash va boshqa qator choralar vositasida himoya qilish siyosati. Iqtisodiyotdagi erkin savdo fritradan farqli ravishda bu siyosat milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan

siyosatdir. Bu siyosat Yevropada kapitalning dastlabki jamg'arilishi davri (XVI-XVIII asrlar)da paydo bo'ldi va yuzaga kelayotgan sanoatni rivojlantirishga yordam ko'rsatdi. Dastlabki bosqichda proteksionizm mamlakatlarni industrialashtirishga xizmat qilgan va ijobiy rol o'ynagan. Birinchi va ikkinchi jahon urushi yillarida va, ayniqsa, 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi davrida proteksion siyosat kuchaydi. Mazkur siyosat erkin savdoga o'zining salbiy tasirini ko'rsatgan bo'lsa-da, ammo mamlakatlarning ichki bozorini himoya qilishda asosiy o'rin egallab kelgan. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratiladi.

- *Selektiv proteksionizm* - aniq bir davlat yoki aniq bir mahsulotdan himoya qilish;
- *Sohaviy proteksionizm* - aniq bir sohadan himoyalaniish;
- *Kollektiv proteksionizm* - yagona ittifoqqa birlashgan davlatlardan himoyalaniish;
- *Yashirin proteksionizm* - bojxona ishtirokisiz boshqa usullardan foydalanish;
- *Mahalliy proteksionizm* - mahalliy mahsulotlar va kompaniyalarni himoya qilish;
- *Yashil proteksionizm* - ekologik huquqni ko'zlagan holda yordam berish;
- *Korrupsion proteksionizm* - qachonki siyosiy rahbarlar moliyaviy guruhlar va byurokratik tashkilotlar bilan birlashib saylovlarga e'tibor bermasa.

XVIII asrda Yevropaning yetakchi davlatlari proteksion siyosat olib borib, bunda Buyuk Britaniya, Prussiya, Avstriya, Shvetsiya va boshqalar. XIX asrda Genri Keri va Aleksandr Gamilton (AQSh), Jan-Antuan Shaptal va Sharl Dyupen (Fransiya), Rossiyada Yegor Fransevich Kankrin, Ivan Alekseyevich Vishnegradskiy va Sergey Yulyevich Vittelar proteksion siyosat tarafdorlari bo'lgan.

**QAMAL HOLATI** - biror bir davlatning tashqi aloqalarini cheklab qo'yish yoki butunlay to'xtatib qo'yish. Qamal holati quyidagilardan iborat. 1) Harbiy qamal. 2) Iqtisodiy qamal. Qadimgi va o'rta asrlarda bir davlatga nisbatan emas balki alohida shaharlarga nisbatan qamal holati qo'llanilgan. Alohida bir davlatga nisbatan qamal holati keng miqyosda birinchi marta Napoleon Bonapart tomonidan Buyuk Britaniyaga qo'llanilgan va unda Yevropaning deyarli barcha davlatlari

majburan bo'lsada ishtirok etgan. Bugungi kunda qamal holati asosan dunyo mamlakatlari hamjamiyati tomonidan kelishilgan holda bir qancha davlatlarga nisbatan qo'llanilib kelinadi va ulardagi siyosiy vaziyat va boshqa sabablarga asoslanib chiqarilgan qarorlar asosida qo'llanilib kelinmoqda.

**UCHINCHI DUNYO NAZARIYASI** - XX asming ikkinchi yarmida to'g'ridan-to'g'ri sovuq urushda va qurollanish poygasida ishtirok etmaydigan davlatlarni anglatuvchi geografik tushuncha. Bu atama hozirgi ma'nosida ilk bora fransuz olimi Alfred Sovining L'Observateur jurnalida 1952-yil 14-avgustda e'lon qilgan maqolasida qo'llanilgan. U maqolada Uchinchi dunyo davlatlarini an'anaviy jamiyatdagi uchinchi tabaqa bilan taqqoslagan. Dastlab uchinchi dunyoga sovuq urush davrida birinchi dunyo (NATO) va ikkinchi dunyo (Varshava shartnomasi tashkiloti) tarkibiga kirmaydigan davlatlar tushunilgan. Qo'shilmaslik harakati Uchinchi dunyoni mustaqil xalqaro kuchga aylantirish yo'lidagi bir harakat edi. 1980-yillar ikkinchi yarmidan sovuq urush nihoyasidan so'ng Uchinchi dunyoda aholi jon boshiga milliy daromadning past darajasini ko'rsatayotgan davlatlar kiritildi. Lekin 1990-yillarning o'rtalariga kelib ayrim Uchinchi dunyo davlatlari sobiq «rivojlangan sotsializm davlatlari» ko'rsatgichlarini ortda qoldirishga muvaffaq bo'lgan.

**URBANIZATSIYA** (frans. va lot. - shaharga mansub) - jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. O'rta asrlar va Yangi zamon davrida kapitalistik ishlab chiqarish unsurlari shakllana boshladi. Mazkur jarayon shaharlarda aholi sonining o'sib borishiga yoki konsentrasiyalashuviga olib keldi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yirik shaharlar paydo bo'la boshladi. Urbanizatsiyaning asosiy ko'rsatkichi shaharliklar sonining o'sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog'ining ortib borishidir. XX asming oxiri va XXI asr boshlarida dunyoda shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi, ya'ni urbanizatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa shahar aholisi salmog'ining ortib borishiga olib kelmoqda. 1950-yilda dunyo aholisining 28,9% i shaharlarda yashagan. 1960-yilda bu ko'rsatkich 33,9% ni, 1970-yilda 37,4%, 1980-yilda 41,1%, 1990-yilda 45,8% va 2000-yilda 51,2% ni tashkil etdi. Shahar aholisining salmog'i rivojlangan mamlakatlarda



ancha yuqori (2000-yilda AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiyada 75% va Germaniyada 94%, Rossiyada 73% bo'lgan). Osiyo va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya jarayoni dunyoning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past. 2000-yillarda shahar aholisining salmog'i Afg'oniston va Efiopiyada 11 - 14% ni, Misr va Turkiyada 45% ni tashkil etdi. Urbanizatsiyaning hozirgi bosqichida katta shaharlarda aholi konsentratsiyalashuvining o'sishi kuzatilmoqda. Bu jarayonda millioner (1 mln. va undan ortiq aholi yashaydigan) shaharlar alohida o'rin egallaydi. 1900-yilda dunyo bo'yicha millioner shaharlar soni o'nta bo'lgan bo'lsa, XXI asrga kelib bu ko'rsatkich 200 dan oshdi. Dunyoda aholisi 10 mln.dan ortiq yirik shaharlar Mexiko (25 mln.), Tokio (20 mln.), Seul (13 mln.), Pekin (11 mln.), Parij, Qohira, Buenos-Ayres va London (10 mln.) mavjud. O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni o'z tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega.

Uning rivojlanishi o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik hususiyatlari bilan bog'liq. O'zbekistonda 120 ta shahar bo'lib, ularda 8249,3 ming kishi yashaydi (2003). Ularning 38 tasida aholi soni 20 minggacha bo'lgan kichikroq shaharlar, 65 tasi 20 mingdan 100 minggacha bo'lgan o'rta shaharlar, 16 tasi aholisi 100 mingdan 500 minggacha bo'lgan yirik shaharlar va Toshkent millioner shahardir. XIX asrning oxiridan boshlab O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni rivojlanib kelmoqda.

**VATERLOO** - Hozirgi Belgiya hududidagi qishloqning nomi. Bu qishloq yaqinida 1815-yilning 18-iyunida Napoleon I armiyasi tor-mor etilgan jang bo'lib o'tgan va shu tariqa birinchi imperiya (1804-1814) qulagan, Bu hodisa tarixga «Vaterloo jangi» nomi bilan kirgan.

### **3.2. Xalqaro tashkilotlar va shartnomalarga oid atamalar**

**ALYANS** (frans. alliance-ittifoq, birlashma va ingl. The Combine. Ittifoq, hamdo'stlik, federatsiya)-odatda davlatlar, tashkilotlar ittifoqi. Alyans ayrim hollarda rasmiy va norasmiy ravishdagi kelishuvlarga nisbatan qo'llaniladi. O'z navbatida alyans samodagi yirik galaktikalar to'plamlari, yulduzlar turkumlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Tor doirada yer yuzidagi suvdan tashqari boshqa tabiiy boyliklarga ham alyans deyiladi.

**ANTANTA** (frans. Entente - "samimiy kelishuv", frans. Entente cordiale) – Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiyaning Germaniya,

Avstriya – Vengriya va Italiyadan iborat ittifoqqa qarshi tuzgan ittifoqi. Antanta 1904-1907-yillarda shakllangan. Har ikkala ittifoqning maqsadi XIX asr oxirida bo'lingan dunyoni qayta taqsimlash edi. 1- jahon urushi davrida Antantaga 20 dan ortiq davlatlar qo'shildi; 2) Yevropa tarixida boshqa bir qancha bloklar ham shunday nom bilan atalgan. Bolqon Antantasi - Afinada Fransiyaning faol aralashuvi va Angliyaning qo'llab-quvvatlashi bilan 1934-yil 9-fevralda tuzilgan Gretsiya, Ruminiya, Turkiya va Yugoslaviyadan iborat ittifoq. Birinchi jahon urushidan keyin Bolqonda yuzaga kelgan (Versal tizimi asosida) kuchlar muvozanatini saqlash uchun tuzilgan. II Jahon urushigacha faoliyatda bo'lgan. Kichik Antanta – 1920-1938-yillarda shakllangan. Chexoslovakiya, Ruminiya va Yugoslaviyadan iborat ittifoq. O'rtayer dengizi Antantasi - 1887-yilda shakllangan tarkibida Avstriya-Vengriya, Buyuk Britaniya va Italiya bo'lgan Fransiya va Rossiyaga qarshi qaratilgan ittifoq. Ingliz-german raqobatchiligi natijasida ushbu ittifoq o'z ahamiyatini yo'qotgan.

*ANZYUS* (ingl. ANZSYu - *Australia, New Zealand, United States davlatlarining bosh harflaridan olingan*) yoki «Tinch okeani xavfsizlik pakti» - uchta a'zo davlatlar – Avstraliya, Yangi Zelandiya va AQShning harbiy-siyosiy ittifoqi. Ushbu tashkilot ikkinchi jahon urushi yillarida uchchala davlat o'rtasida hamkorlikning kuchaya borishi, sovuq urush davriga kelganda ushbu hamkorlikni tashkilot (blok) ko'rinishida mustahkamlash zarurati natijasida paydo bo'ldi. Ushbu pakt San-Fransiskoda (AQSh) 1951-yil 1-sentabrda imzolandi va 1952-yil 29 aprelda kuchga kirdi. Paktda ko'ra shartnomaning amal qilish muddati cheklanmagan. Keyinchalik harbiy hamkorlik to'g'risda tomonlar o'rtasida ikki tomonlama shartnomalar imzolandi (AQSh-Avstraliya, Avstraliya-Yangi Zelandiya, AQSh-Yangi Zelandiya (1987-yilgacha)). Ushbu tashkilot aslida AQShning tashabbusi bilan Tinch okeani havzasida «kollektiv mudofaa bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish» uchun tashkil qilingan edi. 1978-yilda ushbu blok faoliyat doirasiga Hind okeani ham qo'shildi. Tashkilot Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi milliy-ozodlik harakatlariga va sobiq SSSRning mintaqadagi ittifoqdoshlariga qarshi kurashib keldi. Hozirgi vaqtda ham faoliyati rasman to'xtatilgan emas. Ushbu paktga asosan Oq Uy ma'muriyati Avstraliya va Yangi Zelandiyani «ittifoqchi» sifatida bilib,

o'zining tinchlikparvar operatsiyalarida ishtirok etishini talab qilmoqda va bunga erishmoqda.

*ASEAN* (ingl. Janubi-Sharqiy Osiyo millatlari Assotsiatsiyasi so'zlarining bosh harflaridan olingan) - 1967-yil 8-avgustda Bangkok shahrida imzolangan shartnoma natijasida tashkil topgan. 1976-yil Bali orolida rasman tashkil topgani qayd qilingan. Tashkilot tarkibida Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin, keyinroq Bruney-Darussalom (1984-yil 7-yanvarda, mustaqillik e'lon qilinganidan 6 kun o'tib), Vetnam (1995-yil 28-iyul), Laos va Myanma (1997-yil 23-iyul), Kambodja (1999-yil 30-aprel) davlatlari bor. Hozirgi kunda Papua-Yangi Gvineya tashkilotda rasmiy kuzatuvchi maqomida. 2002-yilda Sharqiy Timor kuzatuvchi maqomini olish uchun ariza bergan. ASEAN tashkilotiga a'zo davlatlar aholisi 500 mln kishi, umumiy maydoni 4,5 mln km<sup>2</sup> dan iborat.

*BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)* - xalqaro tashkilot bo'lib, davlataro aloqalarni faollashtirish, dunyoda tinchlikni saqlash maqsadida tashkil qilingan. BMT zamonaviy diplomatiya va xalqaro munosabatlarning eng muhim jihati hisoblanadi. Uning asosiy faoliyat tartiblari ikkinchi jahon urushi yillarida shakllangan edi va u antigitler koalitsiyasi sifatida «Birlashgan millatlar» deb nomlanib birinchi bor Birlashgan Millatlar Deklarasiyasi nomi bilan 1942-yil 1-yanvarda imzolangan shartnomadan boshlab shakllana boshlaydi. BMTning Nizomi San-Fransisko konferensiyasida (26 iyun 1945-yil) 51 davlat vakillari tomonidan imzolangan. Tashkilotning Nizomi rasman 1945-yil 24 oktyabrdan boshlab kuchga kiradi va shu kun BMT tashkil topgan kun sifatida qabul qilingan. Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash BMTning asosiy boshqaruv organlari hisoblanadi. Bosh Assambleya doimiy ravishda o'zining majlislarini tartib bilan o'tkazib boradi va bu har yili sentyabr oyining uchinchi seshanbasida o'tkaziladi. BMT bosh Assambleyasida quyidagi qo'mitalar faoliyat olib borishadi.

- Asosiy qo'mita - Assambleyaning asosiy ish kunini belgilab beradi va zarur joylarga chaqiruv qog'ozlarini yuboradi.
- Vakillarni tekshirish qo'mitasi - Assambleyada chiqish qiluvchi vakillarni belgilaydi.
- Xalqaro xavfsizlik va quolsizlanish qo'mitasi.
- Iqtisodiy va moliyaviy masalalar qo'mitasi.

- Madaniyat, ijtimoiy va gumanitar masalalar qo'mitasi.
- Alohida siyosiy masalalar va mustamlakachilikni tugatish qo'mitasi.
- Boshqaruv va budjet masalalari qo'mitasi.
- Huquq masalalari qo'mitasi.

BMT xavfsizlik kengashining Rossiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoydan iborat beshta doimiy a'zosi bo'lib, ular «veto» huquqiga ega. Undan tashqari yana 15 ta doimiy bo'lmagan a'zolar ham bo'lib, ular boshqa davlatlardan ovoz berish yo'li bilan tanlab olinadi.

**DOMINION** (ingl. *dominion*, lot. *Dominium* – mulk, hokimiyat) - 1867-1947-yillarda Britaniya imperiyasi tarkibida bo'lgan, ingliz qirol (qirolchasini) ni o'z rahbari deb e'tirof etuvchi, ayrim avtonom huquqlarga ega bo'lgan davlatlar (1867-yildan Kanada, 1901-yildan Avstraliya ittifoqi, 1907-yildan Yangi Zelandiya, 1910-yilda Janubiy Afrika Ittifoqi). «Dominion» tushunchasi 1926-yilgi Imperiya konferensiyasida o'sha vaqtlardagi Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri Artur Djeym Balfur tomonidan ilgari surildi. 1931-yildagi Vestminster statutlarida mustahkamlanib qo'yildi. Statutga ko'ra, «dominion» sifatida quyidagi hududlar tan olindi: Kanada, Avstraliya ittifoqi, Yangi Zelandiya, Janubiy-Afrika Ittifoqi, Irlandiya ozod davlati va Nyufaundlend dominioni. Britan Hamdo'stligi tashkil topganidan so'ng dominion tushunchasi o'z ahamiyatini yo'qotdi.

**FALASTIN OZODLIK TASHKILOTI (FOT)** (arab *munazzama at-Taxrir al-Filastiniya*, ingl. *Palestine Liberation Organization, PLO*) - 1964-yilda Arab Davlatlari Ligasi (q) tomonidan turli falastinliklar qarshilik guruhlarini birlashtirish va Falastin hududidagi isroilliklarga qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan. Tashkilotning birinchi raisi Axmed Shukeyri (1964-1967), qisqa muddat Yaxi Xammud raislik qilgan. 1967-yilda FOTda Yosir Arofat boshchiligidagi FATX yetakchilik qila boshladi. 1969-yildan Yosir Arofat FOT raisi etib saylanadi (to umrining oxirigacha, 2004-y). 2004-yilda Maxmud Abbos tashkilot raisi etib saylandi. Tashkilot avval Iordaniyada, so'ngra Livan va Suriyada qo'nim topgan. Livanga isroilliklarning hujumidan keyin FOT shtab-kvartirasi Tunisga ko'chirildi. 1988-yilda rasman terroristik harakatlardan voz kechdi. 1994-yilda Falastin Milliy Muxtoriyati tashkil topishi arafasida Isroil tomonidan muloqot bo'yicha sherik deb tan oldi.

O'z navbatida FOT ham Isroilni davlat sifatida tan oldi. Bugungi kunda FOTga BMT tarkibidagi kuzatuvchi maqomi berilgan.

**HARBIY BLOK** - davlatning umumiy siyosiy, iqtisodiy va harbiy vazifalarini hal etish uchun birgalikda harakat qilish maqsadida tuzgan harbiy siyosiy ittifoqi yoki shartnomasi. Harbiy bloklar qadim vaqtlardayoq tuzilgan. O'rta asrlarning so'nggi va yangi zamon davriga kelganda harbiy ittifoqlar tuzish avj oldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo 2 qutbga bo'linishi sharoitida harbiy bloklar tuzish yana qaytadan kuchayib ketdi. AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) tuzilgan bo'lsa, sobiq SSSR va uning ittifoqchilari Varshava shartnomasi harbiy blokini tashkil qilgandilar (1955-yil 14 may). Bu hol o'sha paytda har 2 qutb orasida ziddiyatlarning keskinlashishiga olib keldi. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining bir qismini birlashtirish maqsadida 1954-yil Manila (Filippin) shahrida AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Tailand, Filippin, Pokiston SEATOga a'zo bo'lib kirgandi.

**ISLOM KONFERENSIYASI TASHKILOTI** - xalqaro hukumatlararo tashkilot. Rabotda musulmon mamlakatlari davlat va hukumatlari rahbarlari konferensiyasida tashkil etilgan. Tashabbuskorlar Saudiya Arabistoni qiroli Feysal ibn Abdul Aziz Al Saud va Marokko qiroli Xasan II bo'lishgan. Dastlab tashkilotga Osiyo va Afrikaning 25 musulmon davlatlarini, shuningdek, FOTni birlashtirdi. IKT qoshida Islom rivojlanish banki mavjud. 1975-yildan IKTga BMT kuzatuvchisi maqomi berilgan. 2011-yilda IKT o'z nomini Islom Hamkorligi Tashkiloti (IHK) nomiga o'zgartirdi. Tashkilotning asosiy maqsadi a'zo bo'lgan musulmon davlatlari bilan birgalikda xalqaro hamjamiyatda ishtirok etish, a'zo davlatlarning barqaror rivojlanishiga erishish. Tashkilotga bugungi kunda 57 ta davlat a'zo. Bosniya va Gersegovina, Markaziy Afrika Respublikasi, Rossiya, Tailand, Shimoliy Kipr, Turkiya Respublikasi va qator tashkilotlar (BMT, Arab davlatlari ligasi, Afrika ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati) kuzatuvchi maqomidadirlar. Tashkilotning oliy organi davlat va hukumat boshliqlari, qirollarning uchrashuvi bo'lgan – sammit hisoblanadi. Uch yilda bir marta yig'ilish o'tkazadilar.

**KONTINENTAL KONGRESS** (qit'a Kengashi) – AQSHda mustaqillik urushi davrida oliy qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirgan organ.

**MARSHALL REJASI** (ingl. *Marshall Plan*, rasmiynomi *European Recovery Program*, «Yevropani qayta tiklash dasturi») - II jahon urushidan keyin Yevropani AQSh va Kanadanining iqtisodiy yordami bilan tiklash hamda rivojlantirish dasturi; bu rejani 1947-yil 5-iyunda AQSh davlat kotibi general J.K. Marshall (1880-1959) Garvard Universiteti talabalari bilan uchrashuv vaqtida e'lon qiladi va uni amalga oshirish 1948-1951-yillarga mo'ljallangan. 1947 -yilning 12-iyulida Parijda G'arbiy Yevropaning 16 ta davlati: Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Portugaliya, Avstriya, Shveytsariya, Gretsiya, hamda Turkiya Marshall rejasida ishtirok etishga rozi bo'ladi va Yevropa iqtisodiy jamiyatini tuzish haqidagi konvensiyani qabul qiladi. Keyinchalik, G'arbiy va Markaziy Germaniya ham jalb qilindi. Marshall rejasini 4-aprel 1948-yilda AQSh kongressi tasdiqladi va «Iqtisodiy hamkorlik to'g'risida»gi qonun qabul qilinadi. 4-aprel 1948-yildan 1951-yil dekabrgacha reja bo'yicha 13 mlrd. dollar berildi va unda Angliya (2,8 mlrd), Fransiya (2,5 mlrd), Italiya (1,3 mlrd), G'arbiy Germaniya (1,3 mlrd), Gollandiya (1 mlrd) yordam olishadi. Keyinroq Marshall rejasi Yaponiya va Sharqiy Osiyo davlatlari uchun ham amal qilgan. Marshall rejasi quyidagi natijalarga olib keladi.

- Davlatlardagi korxonalarining qayta tiklanishiga umid bo'lmagan holda ular qayta tiklandi va Yevropa davlatlari urushdan oldingi paytdagidan ham tezroq rivojlana boshladi.
- Yevropa davlatlari tashqi qarzlarini qaytarish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
- Yevropada sobiq SSSRning tasiri kamayib bordi.
- Yevropa davlatlarida o'rta qatlam yana shakllanib, natijada mamlakatlarning siyosiy holati yaxshilanib bordi.

**MILLATLAR LIGASI** (ing. *League of Nations*, frans. *Société des Nations*, ital. *Società delle Nazioni*, yapon. *Kokusay Renmey*) -Versal-Vashington tizimi va Versal kelishuvi (1919-1920) natijasida vujudga kelgan xalqaro tashkilot. 1934-yil 28-sentyabrdan 1935-yil 23-fevralgacha tashkilot safiga 58 ta davlat a'zo bo'lib kirdi va o'z faoliyatini 1946-yildagina to'xtatadi. Millatlar Ligasining rasmiy tillari: fransuz, ingliz va ispan (1920-yildan boshlab) tillari bo'lgan, ammo tashkilotning na bayrog'i va na shiori bo'lgan. 1920 va 1946-yillar oralig'ida umumiy hisobda 63 ta davlat Millatlar Ligasining azosi

bo'lishadi. 1946-yil 20-apreldan boshlab Millatlar Ligasi o'z faoliyatini to'xtatdi va uning o'rniga BMT faol ravishda xalqaro masalalarga aralasha boshladi.

**NATO** (ing. North Atlantic Treaty Organization - Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti so'zlarining qisqartmasi) - dunyodagi eng yirik harbiy-siyosiy tashkilot bo'lib, 1949-yil 4-aprelda AQSh, Kanada va Yevropa davlatlari tomonidan tashkil qilingan. Uning tarkibida dastlab 12 ta davlat, AQSh, Kanada, Islandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Daniya, Lyuksemburg, Norvegiya, Italiya va Portugaliya azo bo'lgan. Tashkilotning beshta harbiy shtabi bo'lib, ular

1. Sharqiy Atlantika,
2. G'arbiy Atlantika,
3. Janubiy Atlantika,
4. Zarba beruvchi flot,
5. Suvosti ittifoq qo'mondonligi.

NATOning rasmiy tillari ingliz va fransuz tili bo'lib, Shtab-kvartirasi Bryussel (Belgiya)da joylashgan. Keyingi yillarda NATOga Turkiya va Gresiya (1952-yil 18-fevral), Germaniya (1955-yil 9-may), Ispaniya (1982-yil 30-may), Vengriya, Polsha va Chexiya (1999-yil 12-mart), Bolgariya, Latviya, Litva, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya va Estoniya (2004-yil 29-mart), Albaniya va Xorvatiya (2009-yil 1-aprel) kabi davlatlar a'zo bo'lishgan.

**OPEK** – Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (ingl. The Organization of the Petroleum Exporting Countries; qisqacha OPEK) – neft narxini barqarorlashtirish maqsadida neft qazib olinadigan davlatlar tomonidan tashkil etilgan halqaro, hukumatlararo tashkilot (kartel ham deb nomlanadi). OPEK tarkibiga 12 ta davlat kiradi: Eron, Iroq, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Venisuela, Qatar, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Jazoir, Nigeriya, Ekvador va Angola (turli yillarda a'zolari soni o'zgarib turadi). Tashkilotga 1960-yil 10-14-sentyabr kunlari Bag'doddagi rivojlanayotgan neft qazib oluvchi besh davlat: Eron, Iroq, Quvayt, Saudiya Arabistoni va Venesuela tashabbus bilan chaqirilgan kofenrensiyada asos solingan edi. Ushbu tashkilotni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad yangi mustaqil davlatlarning o'z resurslari nazorat qilish va ulardan o'z milliy manfaati yo'lida foydalanishga erishish edi. Shtab kvartirasi dastlab Jenevada edi, 1965-

yildan boshlab Venaga ko'chgan. Tashkilotning vujudga kelishi o'sha vaqtlarda neft qazib olish ustidan monopoliya o'rnatgan «Yetti opa-singil» deb ataluvchi yetti transmilliy kompaniyalar - Exxon, Royal Dutch Shell, Texaco, Chevron, Mobil, Gulf Oil va British Petroleumlarning neft narxini tushirishlari ham sabab bo'lgan.

**OST-INDIYA** – Kolumbning sayohatidan so'ng Karib dengizi orollari Vest-Indiya – (G'arbiy Hindiston) deb atalgan, Vest-Indiyadan farq qilish uchun Hindiston yarim orolidagi mamlakatlar esa Ost-Indiya – (Sharqiy Hindiston) deb atalgan. Shu nomdagi kompaniyalar tomonidan mustamlaka qilinganligi uchun ham Ost-Indiya nomi uzoq vaqt saqlanib keldi. Quyidagi davlatlarning «Ost-Indiya» nomidagi savdo kompaniyalari mavjud bo'lgan:

- Britaniya kompaniyasi, 1600-yilda tashkil etilgan;
- Daniya kompaniyasi, 1616-yilda tashkil etilgan;
- Niderlandiya kompaniyasi, 1602-yilda tashkil etilgan;
- Portugaliya kompaniyasi, 1628-yilda tashkil etilgan;
- Fransiya kompaniyasi, 1664-yilda tashkil etilgan;
- Avstriya kompaniyasi, 1717-yilda tashkil etilgan;
- Shvetsiya kompaniyasi, 1731-yilda tashkil etilgan.

Hududiy nuqtayi nazardan olib qaralganda Ost-Indiyaning Britaniya Ost-Indiyasi va Niderlandiya Ost-Indiyasi farqlanadi. Britaniya Ost-Indiyasi (British Raj) – Britaniyaning Janubiy Osiyodagi XVIII asr o'rtalaridan to 1947-yilgacha bo'lgan mustamlaka hududi. Asosan hozirgi Hindiston, Pokiston va Bangladesh hududlaridan iborat bo'lgan. Golland yoki Niderland Ost-Indiyasi (*Nederlands-Indiye*) – Malayya arxipelagi orollari: Sumatra, Yava, Madura, Selebes hamda Kalimantan orolining bir qismi, Banka oroli, Kichik Zond orollari, Malukka va boshqa orollarini, Yangi Gvineyaning g'arbiy qismini qamrab olgan. Taxminan 1915 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etgan.

**PROTEKTORAT** (lot. *Protector* - homiy, himoyachi) - davlatlararo munosabatlar ko'rinishi, bir davlatning suveren huquqi ustidan boshqa bir davlatning boshqaruvi joriy qilinishi va uning ichki ishlariga aralashuvi. Misol uchun Qrim xonligi, Jazoir, Tripolitaniya ustidan Usmoniylar imperiyasi XVI-XIX asrlarda o'z protektoratini o'rnatgan. Undan tashqari Hindiston 1803-1858-yillarda Buyuk Britaniya protektorati ostida, Rech Pospolitaya 1775-1791-yillarda



Kartli-Kaxetin podsholigi va 1786-1801-yillarda Rossiya protektorati ostida bo'lib kelgan.

**SEATO** (ingl. *SEATO- South-East Asia Treaty Organization* frans. *OTASE*) - Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tashkiloti va harbiy-siyosiy bloki bo'lib, 1955-1977-yillarda faoliyat ko'rsatgan. SEATO shartnomasi 8-sentabr 1954-yil Manilada imzolangan. 1954-yil 2-dekabr kuni Tailandda tashkilotning yorlig'i tayyorlandi va 1955-yil 1-fevral kuni AQSh senati ratifikatsiya qildi. AQSh prezidenti esa 1955-yil 4-fevralda imzo chekdi. 1956-yildan boshlab tashkilot rasman faoliyat yurita boshladi, sababi shu yilga kelib, barcha a'zo davlatlar shartnomani ratifikatsiya qilib bo'lishdi. 1959-yildan boshlab SEATO o'zining bayrog'i va gerbiga ega bo'ldi. Tashkilotga Avstraliya, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Pokiston (1973-yilgacha), AQSh, Tailand (1975-yilgacha), Filippin, Fransiya (1974-yilgacha) a'zo bo'lgan. SEATO tashkilotining hamkorlari Janubiy Koreya, Janubiy Vetnam va Kambodja hisoblanadi. 1975-yildan Vetnam tashkilot bilan aloqalarini bekor qildi. SEATO ning oliy organi Vazirlar Kengashi bo'lib, u Bosh Kotib tomonidan boshqarilgan. Tashkilotning Shtab-kvartirasi Bangkok (Tailand)da joylashgan. Tashkilot quruqlik, harbiy-havo va harbiy-dengiz kuchlariga ega bo'lgan. Pokiston 1973-yil 7-noyabrda SEATOdan chiqib ketgan bo'lsa, 1975-yil Tailand ham tashkilot safidan chiqadi va 1977-yil 30-iyundan boshlab SEATO amalda o'z faoliyatini to'xtatgan.

**SENTO, Markaziy Shartnoma Tashkiloti** (Central Treaty Organization, CENTO) yoki **BAG'DOD PAKTI** (1955-1979), tarkibiga Buyuk Britaniya, Turkiya, Eron, Pokiston va Iroq kirgan kollektiv xavfsizlik tashkiloti. 1955-yilgi Bag'dod paktiga asosan tashkil etilgan, shu bilan birga SSSR tomonidan bo'ladigan tahdiddan himoyalash maqsadida tuzilgan bo'lsa-da, lekin Buyuk Britaniyaning arab mamlakatlaridagi ta'siri kuchaytirish maqsadi ham bo'lgan. Iroq tashkilot a'zolidan chiqqanidan so'ng (1958) tashkilotning shtab-kvartirasi Bag'doddan Anqaraga ko'chirildi. SENTO amalda 1979-yilda, Turkiya, Pokiston va Eron chiqib ketgandan so'ng faoliyatini to'xtatdi.

**«TO'RTLAR ITTIFOQI»** - 1915-yil 15-sentabrda Bolgariyaning Germaniya, Avstriya-Vengriya va Turkiya ittifoqiga qo'shilishi natijasida vujudga kelgan harbiy blok. Birinchi jahon urushida Antantaga qarshi turgan va urushda mag'lub bo'lgan.

**TRASEKA** (Trans Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori ma'nosini bildiradi) - 1993-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan taklif qilingan ko'p tomonlama hamkorlik dasturi. 1998-yil 12 ta davlat tomonidan imzolangan shartnoma asosida rivojlanib bormoqda. TRASEKAning hukumatlararo komissiyasi 2000-yilda tuzilgan va shartnomaning doimiy Kotibiyati shtab-kvartirasi Ozarbayjonning poytaxti Boku shahrida joylashgan. TRASEKA Bosh kotibiyati BMT, Osiy va Tinch okeani havzasi mamlakatlari tashkiloti (UNESCAP), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (OES) va boshqalar bilan o'zaro hamkorlik to'g'risidagi memorandumlarni imzolagan. 2007-yil dastur ishtirokchi davlatlarining vazirlar doirasidagi uchrashuvida Qora dengiz iqtisodiy hamkorligi tashkiloti bilan shartnoma imzolandi. 2008-yil fevralda TRASEKAg a'zo davlatlar G'arbiy Yevropadan G'arbiy Xitoygacha bo'lgan transport koridorini qurish ishlari uchun (2,309 km) 2,37 mlrd AQSh dollari miqdoridagi mablag'ni ajratish to'g'risidagi shartnomani imzolashdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda TRASEKA doirasida 60 dan ortiq loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 20 tasi sarmoyaviy loyihalardir. Ularni Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Jahon banklari moliyalashtirmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra birgina 2008-yilda TRASEKA transport koridori orqali 53 mln tonna yuk tashilgan va bu miqdor kelajakda doimiy ravishda ortib borishi kutilmoqda.

**VARSHAVA SHARTNOMASI** - 1955-yil 14-mayda GFRning NATOga qabul qilinganligiga javoban Bolgariya, Vengriya, GDR, Polsha, Ruminiya, SSSR, Chexoslovakiya va Albaniya (1968-yilda shartnomadan chiqib ketgan) o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida tuzilgan shartnoma bo'lib, ishtirokchi davlatlar xavfsizligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shartnoma 1955-yil 5-iyundan kuchga kirgan, 1985-yil 26-aprelda faoliyat muddati tugashi munosabati bilan yana 20 yilga muddat uzaytirildi. Varshava shartnomasi tashkiloti (VSHT) NATOga qarama-qarshi ravishda tashkil etilgan. 1991-yil 1-iyulda Pragada Varshava shartnomasi to'lig'icha tugatish to'g'risidagi shartnomadan so'ng VSHT harbiy ittifoq sifatidagi faoliyatini rasman to'xtatdi. Chexoslovakiya va Vengriyadan sovet qo'shinlari va harbiy texnikalari olib chiqib ketildi. So'nggi sovet (rus) qo'shinlari shartnoma tarkibidagi Germaniyani 1994-yilda tark etishdi.

**VETO** (lot. ta'qiqlayman) – davlat boshlig'ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kirishdan to'xtatib qo'yish huquqi. Veto huquqi ijtimoiy institut sifatida Qadimgi Rimda paydo bo'lgan. Rim respublikasi vaqtida ikki konsulning har biri boshqa konsulning harbiy va fuqarolik qarorlarining ijrosini to'xtatish vakolatiga ega bo'lgan. Shuningdek patriysiylar va plebeylar o'rtasidagi kurash jarayonida plebeylar manfaatini himoya qiluvchi xalq tribuni instituti tashkil etiladi. Mana shu tribun «veto», ya'ni qonunlarni ta'qiqlash huquqini oldi. XVII-XVIII asrlarda Polshada liberum-veto huquqi qo'llangan. Unga ko'ra, seym qarori faqatgina barcha deputatlar rozi bo'lgandagina kuchga kirgan. Bugungi kunda xalqaro miqyosda bu huquqdan BMT Xavfsizlik Kengashining a'zolari foydalanishadi. Xalqaro miqyosdagi masalalar bo'yicha chiqarilgan qarorlar Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolarining barchasi rozilik bildirgandagina qabul qilingan. Veto mutlaq (masalan, BMT Xavfsizlik Kengashidagi singari qaror qabul qilish uchun barcha ovoz zarurdir, ya'ni bitta qarshi ovoz ham mazkur qarorning qabul qilinmasligiga olib keladi) yoki suspensiv (ortga surish) (masalan, AQSh qonunchilik tizimiga ko'ra Vakillar Palatasi va Senat uchdan ikki ovoz bilan Prezident vetosini bartaraf etishi mumkin).

**XALQARO VALYUTA FONDI (XVF)** - (ingl. *International Monetary Fund, IMF*) - BMT ning maxsus, ixtisoslashgan boshqarmasi, shtab-kvartirasi AQShning Vashington shahrida joylashgan. 1944-yil 22-iyulda BMT ning moliya-valyuta masalalariga bag'ishlangan Bretton-Vud konferensiyasida tashkil qilingan. Shartnomaning yakuniy nusxasiga 22 ta davlat 1945-yil 27-dekabrda imzo chekishadi. Xalqaro Valyuta Fondidan birinchi bo'lib Fransiya kredit oladi. Bugungi kunda XVF ga 188 davlat a'zo bo'lib, unda 133 davlatdan 2500 nafar kishi faoliyat olib bormoqda. XVF qisqa va o'rta muddatlarga kreditlar beradi va davlatlar byudjetida yuzaga keladigan kamomadlarni bartaraf etishda moliyaviy yordam beradi. XVF ning asosiy vazifalari quyidigilardan iborat.

- Pul siyosatida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish.
- Jahon savdosini kengaytirish.
- Kreditlash.
- Valyutalarning kurs bo'yicha almashtirishni barqarorlashtirish.
- Qarzdor davlatlarga maslahatlar berish.

• Xalqaro moliyaviy munosabatlarni barqarorlashtirish va boshqalar.

XVF da eng katta ovozga 2006-yil holatiga ko'ra AQSh - 17,08 % (16,407 % - 2011); Germaniya - 5,99 %; Yaponiya - 6,13 % (6,46 % - 2011); Buyuk Britaniya - 4,95 %; Fransiya - 4,95 %; Saudiya Arabistoni - 3,22 %; Xitoy -2,94 % (6,394 % - 2011); Rossiya -2,74 % davlatlari ega.

**YEVROPA IQTISODIY HAMJAMIYATI (YIH)** - "Umumiy bozor" - 1957-yilda tashkil etilgan bo'lib, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida savdoda barcha cheklanishlarni sekin-asta bartaraf etish va bojxona siyosatini olib borishni ko'zda tutadi. Mintaqaviy integrasiya tashkilotlaridan biri, ba'zida «Umumiy bozor» deb ham atalgan. Dastlab Yevropadagi 6 ta mamlakat (Fransiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, ular «oltilik» deb atalgan) tashkilot a'zosi bo'lgan, keyin Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya (1973-yildan), Gretsiya (1981-yildan), Ispaniya, Portugaliya (1986-yildan) qo'shilgan. YelH qit'ada - iqtisodiy taraqqiyot darajasini ko'tarish yo'li bilan yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga xizmat qildi. 1992-yil Maastrixt shahrida (Niderlandiya) 12 ta a'zo davlatlar o'rtasida Yevropa Ittifoqini tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnoma 1993-yil 1-noyabrda kuchga kirgandan so'ng YelH rasman o'z faoliyatini tugatib, Yevropa Ittifoqiga tarkibiy qism bo'lib kirdi.

**YEVROPA ITTIFOQI (YeI)** - o'zida xalqaro tashkilot va federativ davlat hususiyatlarini mujassam qilgan davlatlararo uyushma. Dastlab Yevropa hamjamiyati («Umumiy bozor») nomi bilan atalgan. YeI to'g'risidagi shartnomaga 1992-yil Maastrixt shahrida (Niderlandiya) Yevropa Hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat va hukumat boshliqlari imzo chekkan. Yevropa mamlakatlarining siyosiy va valyuta-iqtisodiy ittifoqini vujudga keltirish to'g'risidagi bu shartnoma 1993-yil 1-noyabrdan kuchga kirgan.

YeIning maqsadlari: Yevropa xalqlarining mustahkam ittifoqini vujudga keltirish, ichki chegaralari bo'lmagan makon yaratish, iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirni kuchaytirish yo'li bilan muvofiqlashtirilgan uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish; iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish, yagona valyuta yaratish (bu maqsadga 2002-yil yanvarda erishildi, qit'aning 17 ta davlati yagona pul bo'lgan yevroga o'tishdi); birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida

siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofaa siyosatini ham olib borish yo'li bilan xalqaro sohada o'ziga xos bir xillikni qaror toptirish; adliya va ichki ishlar sohasida hamkorlikni rivojlantirish; umumiy boylikni saqlab qolish va ko'paytirish. Yel organlari: Yevropa mashvarati, Yevropa parlamenti, Yevropa Ittifoqi Kengashi, Yevropa komissiyasi, Yevropa sudi. Tashkilotga 15 mamlakat (Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, Shvetsiya) a'zo (2002-yil yanvar). Qarorgohi Strasburg shahrida (Fransiya) joylashgan. O'tgan yillar davomida Yevropa Ittifoqiga jami 28 ta davlat a'zo bo'lib kirgan (2013-yil). Hozirgi vaqtda qit'aning 5 ta davlati: Turkiya, Islandiya, Makedoniya, Serbiya va Chernogriya Yevropa Ittifoqiga kirishga nomzodlar maqomida bo'lib, ulardan Makedoniya va Serbiya a'zo bo'lish uchun hali muzokaralarni boshlamagan. G'arbiy Bolqon davlatlari, Albaniya, Bosniya va Gersogovina rasman Ittifoqning kengayish dasturiga kiritilgan.

**YEVROPA KENGASHI (YeK)** – Yevropa davlatlarining har tomonlama hamkorlik qilishiga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot. 1949-yil ta'sis etilgan. YeK ning maqsadi: a'zo mamlakatlar o'rtasida yaqin aloqalarni ta'minlash; Yevropaning demokratik va xavfsiz makonga aylanishiga, plyuralistik demokratiyani va inson huquqlarini mustahkamlashga, yevropacha o'zini-o'zi anglash va madaniy bir xillikni rivojlantirishga yordam berish. Yevropadagi 40 dan ortiq davlat a'zo hisoblanadi. YeKga a'zo bo'lib kirishni istagan davlat muayyan talablarga javob berishi kerak: uning davlat muassasalari va huquqiy tuzilishi demokratiyaning asosiy prinsiplariga, inson huquqlariga rioya etilishiga muvofiq bo'lishi lozim, xalq vakillari esa erkin, teng va umumiy saylovlar yo'li bilan saylanishi kerak. YeKga qabul qilishda, jumladan, fikrni ifodalash erkinligi bo'lishi, milliy ozchiliklar himoyalaniishi, xalqaro huquq me'yorlariga rioya etilishi mezon hisoblanadi. YeK a'zosi inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining qatnashchisi bo'lishi shart. YeKning quyidagi organlari bor: 1. Vazirlar qo'mitasi. 2. Parlament Assambleyasi. 3. Tarmoq vazirlari kengashi

**YKPB - Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi** - shartnoma 1951-yil 18-aprelda 50 yil muddatga imzolandi va 1952-yil 25-iyul kundan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya,

Gollandiya va Lyuksemburg o'rtasida tuzilgan bo'lib, bu mamlakatlar uchun ko'mir, po'lat va metallurgiya sohalarida umumiy bozorni yaratish va bojxona to'lovlarini man etishni ko'zda tutgan. Shu bilan birga bu tashkilot Yevropa davlatlarining integratsiyasida muhim qadamlardan biri bo'lgan. Mazkur tashkilotni tuzish g'oyasini dastlab 1950-yil 9-may kuni Fransiyaning o'sha vaqtdagi tashqi ishlar vaziri Robert Shuman deklaratsiya orqali taklif qiladi va shu orqali Fransiya hamda Germaniya o'rtasidagi ziddiyatni tugatishni rejalashtiradi. Bunda u yangi Yevropani qurishda har ikki mamlakatning ishtirokini va ikki davlat o'rtasidagi uzoq yillarga cho'zilgan raqobat hamda qarama-qarshilikni tugatish kerakligini alohida ta'kidlaydi. Boshqa davlatlarning tashkilotga kirishi esa aloqalarni yanada samarali bo'lishini ta'minladi. Shartnoma 2002-yil 23-iyunga qadar amalda bo'lishi lozim edi. 1955-yildayoq tashkilotga a'zo davlatlarda ko'mir qazib chiqarish 250 mln tonna va po'lat eritish 60 mln tonnadan ortib ketdi. 1973-yil 1-yanvardan boshlab Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya, 1981-yil yanvardan Gretsiya tashkilot a'ziligiga qabul qilindi. 1975-yilga kelib tashkilot G'arbiy Yevropadagi po'latning 90 % ini, ko'mirning 100 % ini va temir rudasining 50 % ini bera boshlagan. Tashkilot Yevropa davlatlarining integratsiyasi uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

### 3.3. Diplomatiya va xalqaro munosabatlarga oid atamalar

**SEPARAT SULH** (lot. separatus-alohida) - urush olib borayotgan mamlakatlar koalitsiyasiga kirgan davlatlardan birining o'z ittifoqchilarini ogohlantirmay yoki ularning roziligini olmay, dushman bilan tuzgan sulh shartnomasi yoki vaqtincha yarash bitimi. Masalan, 1795-yilgi Bazel sulhi, unga ko'ra Prussiya va Ispaniya Birinchi koalitsiya tarkibidan chiqib, Fransiya bilan sulh shartnomasini imzolagan. Brest tinchlik shartnomasi (1918) - Rossiya Antanta davlatlaridan alohida ravishda Germaniya bilan shartnoma imzolagan.

**ULTIMATUM** (lot. ultimus - eng oxirgi, so'nggi) - xalqaro huquqda biron masala yuzasidan bir davlat hukumatining boshqa davlat hukumati oldiga diplomatik hujjatda yoki og'zaki shaklda bayon qilingan, hech qanday bahs yoki e'tirozga o'rin qoldirmaydigan, qisqa muddatda hal qilishi lozim bo'lgan qat'iy talabi; Ultimatum qo'ygan hukumat agar bu talab ko'rsatilgan muddatda bajarilmasa muayyan choralar ko'rishini bildiradi. Keng ma'noda ultimatum tahdidli talabdir. Jahon tarixida

ultimatum holatlari ko'pincha urush ochish uchun bahona bo'lgan. Masalan, Avstriya-Vengriya hukumati ersgersogi Frans Ferdinandning fojeaviy o'limidan so'ng Serbiya hukumatiga ultimatum yuborgan. Tarixda bu ultimatum «Iyul ultimatumini» nomi bilan kirgan. 10 banddan iborat bo'lgan ultimatumning faqatgina 5-bandini Serbiya hukumati bajara olmaydi.

**OKKUPATSIYA**, harbiy okkupatsiya (lot. *Occupatio* - egallash, bosib olish) - xalqaro huquqda - urush olib borayotgan tomonning qurolli kuchlarining dushman hududini vaqtincha egallab olishi. Harbiy okkupatsiya rejimi 1907-yildagi 4-Gaaga konvensiyasi va «Fuqaro va aholini himoya qilish to'g'risida»gi Jeneva konvensiyasi (1949) bilan tartibga solinadi. Bu hujjatlarda okkupatsiya qilib turgan hokimiyat o'zi egallagan joylarda tartibni saqlashi, fuqarolarning sha'ni, oilaviy huquqlari va hayotini hurmat qilishi, mol-mulk, madaniy boyliklarni yakson qilmasligi, okkupatsiya qilingan hududning siyosiy taqdiri to'g'risidagi masalani hal etmasligi va h.k. nazarda tutilgan. Okkupatsiya tuzumini buzish xalqaro jinoyat hisoblanadi, bunda javobgar bo'lgan shaxslar harbiy jinoyatchilar deb qaraladi. Okkupatsiyani anneksiyadan farqlash kerak. Odatda anneksiya bir tomonlama tartibda davlatning boshqa davlat hududini to'liq yoki qisman qo'shib olishni anglatadi. Okkupatsiya odatda vaqtincha muddatni kasb etadi.

**AKVATORIYA** (lot. *aqua*-suv va *territoriya*, hudud) - dengiz, suv ombori yoki port hududida chegaralar bilan belgilangan suv havzasi yuzasining bir qismi. Port akvatoriyasi deganda portning quruqlikdagi qismidan tashqari suv qismi tushuniladi. Gidroaerodrom akvatoriyasi-suv yuzasining gidrosamolyotlar uchishi, qo'nishi va angarda turishi uchun ajratilib, maxsus jihozlangan qismi. Yangi qurol va texnikani sinab ko'rish uchun poligon sifatida foydalaniladigan suv maydoni ham akvatoriya deb ataladi. Shuningdek akvatoriya harbiy kemalar turadigan joyni ham o'z ichiga oladi.

**AUDIENSIYA** (lot. *audientia* - tinglash) oliy mansabdor (qoidaga ko'ra monarx, prezident, Rim papasi va sh.k.) huzuridagi rasmiy qabul marosimi.

**BARBAROSSA rejasini** (nem. *Barbarossa*) - fashistlar Germaniyasining sobiq SSSRni bosib olish rejasining nomi. 21.7.1940-

yilda ishlab chiqilgan va 18.12.1940 yilda tasdiqlangan. Muqaddas Rim imperatori Fridrix I Barbarossa (1155-1190) nomidan olingan. Barbarossa aslida laqab bo'lib, bu laqab unga Italiyada berilgan. Italyanchada barba, «soqol» va rossa, «sariq», ya'ni «sariq soqol» demakdir. Tarixshunoslikda u nemislarning sharqqa yurishlarining dastlabki ilhomchilaridan biri bo'lgan. Shuning uchun ham rejaga uning nomi berilgan. Ushbu rejaga muvofiq G'arbiy Dnestr va G'arbiy Dvinadagi sovet armiyasining asosiy kuchlari tezlik bilan yo'q qilinib, Arxangelsk-Volga-Astraxan chizig'iga chiqish nazarda tutilgan edi. Urushni uzog'i bilan 3-4 oy ichida tugatish ("blitskrig") rejalashtirilgandi. Gitleming 1941-yil 11-iyundagi direktivasiga ko'ra «Sharqqa g'olibona yurish» shu yilning kuz fasli oxirlarigacha tugatilmog'i kerak bo'lgan.

**BETARAFLIK, NEYTRALITET** (nem. neutralitet lot. neuter- u ham bu ham emas) – Asosan xalqaro huquqda keng qo'llaniladi. 1) ikki yoki undan ortiq tomonlarning nizo va tortishuvlariga aralashmaslik; 2) davlatning urushda harbiy siyosiy ittifoqlarida qatnashmaslik siyosati va o'ziga xos maqomi. Betaraflikning quyidagi turlari mavjud:

- eventual betaraflik (urush vaqtida) – davlatlarning biror bir urushda qatnashmasligi;

- doimiy betaraflik (Shvetsariya 1825-yildan, Avstriya 1955-yildan) – davlatning hech qachon urushni keltirib chiqaruvchi siyosat olib bormasligi;

- shartnomaviy betaraflik;

- a'nanaviy betaraflik; (uzoq vaqt davomida Shvetsariya amal qilayotgan betaraflik);

- ijobiy betaraflik – II jahon urushidan keyingi yillarda rivojlanayotgan mustaqil davlatlarning harbiy siyosiy ittifoqlarga aralashmaslik siyosati.

Biror bir davlatga harbiy hujum qilingan holatda ular BMT nizomiga muvofiq yakka yoki jamoa bo'lib o'zini himoya qilish huquqiga ega.

Qadimgi dunyoda betaraflik nisbiy tushuncha bo'lib, hech qachon shartnoma bilan mustahkamlanmagan. O'rta asrlarda davlatlar o'rtasidagi betaraflik diniy mazmun kasb etardi. Faqatgina XVI asrdan boshlab betaraflik jiddiy qabul qilinib, shartnoma asosida belgilab qo'yiladigan bo'ldi. Betaraflik haqidagi aniqroq yozma malumotlar



dastlab XI-XIV asrlarga oid ispan manbalarida tilga olinib, «Consolato Del Mare» deb nomlangan va unda dengizdagi savdo borasida so'z yuritiladi.

Mazkur tushuncha «Consolato Del Mare» 1756-yilda «Urush tartibi» sifatida Fransiyada tartibga keltirildi. AQShning mustaqillik urushi davrida Yekaterina II 1780-yil 28-fevralda «Qurolli betaraflik ittifoqi» deklaratsiyasini e'lon qildi va unga barcha Yevropa davlatlari qo'shilishdi. Keyingi davrlarga kelib, betaraflik tushunchasi Vena (1815-yil) va London (1871-yil) kongresslarida ko'rib chiqilgan va ma'lum bir belgilangan tartiblari ishlab chiqilgan.

**BOYKOT** (ingl. *boycott*-chora) – biror-bir davlat yoki korxonalar tovarlarini xarid qilishdan voz kechish. Siyosiy va iqtisodiy kurashning bir shakli. Ayrim shaxs, tashkilot, korxonalar, davlatlararo munosabatlarning to'liq yoki qisman to'xtatilishi. Biror davlat yoki korxonalar mahsulotini sotib olishdan voz kechish. Ko'plab ilmiy asarlarda iqtisodiy kurash sifatida talqin qilinadi. Boykot so'zi Charlz Boykot ismidan olingan bo'lib, 1800-yillardan boshlab irland ijarachilari tomonidan qo'llanila boshlagan. Birinchi rasmiy boykot Germaniyadagi yahudiylarga qarashli firma va do'konlar tomonidan 1933-yil 1-aprelda amalga oshirilgan. Undan tashqari Maxatma Gandi tomonidan ingliz mustamlakachilariga qarshi kurash, 1980-yilgi Moskva yozgi olimpiya o'yinlarining AQSh tomonidan boykot qilinishi va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**DAVLAT SUVERENITETI** (frans. oliy hokimiyat) – hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi.

**DAVLAT TO'NTARISHI** – davlat hokimiyatini qonunda ko'zda tutilmagan usullar bilan egallab olish.

**DEKLARATSIYA** (lot. *declaratio*-ma'lum qilaman, e'lon qilaman) - bir yoki bir necha hukumatlar, siyosiy partiyalar, xalqaro yoki jamoat tashkilotlarining dasturiy hujjat, muhim xalqaro voqea, qonun va boshqalarni umum e'tiboriga yetkazuvchi bayonoti; umumsiyosiy prinsiplarni tantanali ravishda e'lon etish. Boshqa tomondan konstitutsion huquqlarning umume'tirof etilishini ta'minlovchi hujjat. Deklaratsiya davlatlarning rasmiy hujjati bo'lib, ichki va tashqi siyosatda, xalqaro tashkilotlar bilan

aloqalarda ayrim savollarga oydinlik kiritadi. Iqtisodiyotda soliqlar, to'lovlar va boshqalarga nisbatan ishlatiladi. Bunda soliq, bojxona va mol-mulk deklaratsiyalari tuzilishini misol keltirish mumkin.

**DELEGAT** (lot. delegatus-vakil) – davlatlarning biror bir tashkilotga yoki davlatlarga yuborish uchun saylab olingan yoki maxsus tayinlangan, ma'lum bir huquqlar berilgan vakil. Ayrim davlatlarda (Rossiya Federatsiyasi) delegatlar sifatida kasaba uyushmalarida ishchilar guruhining manfaatlarini himoya qiluvchi vakillarga nisbatan ham ishlatiladi.

**DEMAGOG** (yunon. demagogos-xalq dohiysi) - dastlab Yunonistonda xalqni orqasidan ergashtirgan siyosiy guruhchalar rahbarlari, demokratik kayfiyatdagi siyosiy arbob; keyinchalik bu so'z salbiy ma'no olgan.

**DEPESHA** (frans. *dépêche*, *dépêcher* - shoshilmoq) - Dastlab Fransiyada Lyudovik XIV davrida diplomatik yoki kuryerlik xizmatida shoshilinch xabarlarga nisbatan qo'llanilgan xat depesha deb nomlangan. Fransiyada birinchi respublika davrida alohida depesha kengashi faoliyat olib borgan. Bugungi kunda depesha atamasi davlatlar tashqi ishlar vazirlarining o'zaro almashadigan xatlariga nisbatan qo'llaniladi.

**DIPLOMAT** (qad. yunon. diplomate «ikki buklangan xujab») – muayyan bir davlatning xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar yoki ularning vakillari bilan rasmiy aloqalarini yuritib turadigan va buning uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan lavozimli shaxs. Diplomatlarga hukumat tomonidan vakolat berilib, u chet davlatlarda daxlsizlik huquqidan foydalanadi (immunitet). Diplomatar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillaridan kelib chiqib ma'lum bir darajalar yoki martabalarga (rang) ega bo'ladi va bu uning qaysi maqomdagi diplomat ekanligini namoyon etadi. Diplomatik martaba diplomatning qaysi lavozimda ekanligini anglatmaydi, balki uning huquqiy maqomini ko'rsatib beradi. Diplomatar xuddi shu maqomdan foydalanib akkredetsiyadan o'tadigan davlatlarda turli imtiyozlardan foydalanishi mumkin.

**DIPLOMATIK MUNOSABAT** - xalqaro huquq me'yorlariga va xalqaro muloqot tajribasiga ko'ra davlatlar (yoki davlatlar ko'rinishidagi xalqaro huquq subyektlari) o'rtasida rasmiy

munosabatlarni yuritishning asosiy shakli. Diplomatiya munosabatlar davlatlar o'rtasida do'stona aloqalarni rivojlantirishga, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turishga ko'maklashishi zarur. Diplomatiya munosabatlar to'g'risidagi 1961-yil Vena konvensiyasiga binoan davlatlararo diplomatiya munosabatlar o'zaro kelishuv asosida yo'lga qo'yiladi. Diplomatiya munosabatlarni o'rnatish odatda biron-bir davlat va uning hukumatining boshqa bir davlat tomonidan huquqiy jihatdan tan olinishini anglatadi. Diplomatiya munosabatlar manfaatdor davlatlar vakillari bilan bevosita yoki bilvosita, uchinchi bir davlat diplomatiya vakillari bilan muzokara yuritish natijasida o'rnatiladi hamda davlatlar va hukumatlarning boshliqlari, tashqi ishlar vazirlari, maxsus vakolatli shaxslarning o'zaro maktub, telegramma va xatlar ayirboshlashi tarzida rasmiylashtiriladi. Tomonlar demokratik munosabatlar o'rnatilishi fakti haqida, diplomatiya vakilliklar darajasi (elchixonalar yoki missiya), bitimning kuchga kirish sanasi, uni e'lon qilish muddati va tartibi to'g'risida ham o'zaro kelishib oladi.

**DIPLOMATIYA** - davlatlarning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, chet elda huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyati. «Diplomatiya» atamasi yunon tilidagi «ikki bukilgan qog'oz» so'zidan olingan. Qadimda Yunoniston va Rimda taxtakach muhr va ichiga solingan xat elchilarga ular vakolatini tasdiqlovchi ishonch yorlig'i yoki hujjat sifatida taqdim etilgan. XVI asrga kelganda diplomatiya mustaqil tushuncha sifatida ishlatila boshlandi 1693-yilda nemis olimi Gotfrid Leybnis "Diplomatiya huquq kodeksi" asarida qo'lladi. Shundan boshlab "diplomatiya" xalqaro munosabatlarga taalluqli tushunchani anglata boshladi. Biz bugungi kunda tushunadigan diplomatiya tushunchasi 1716-yilda fransuz diplomati Fransua Kalyer tomonidan "Davlatlar bilan muzokaralar olib borish usullari haqida" deb nomlangan asarida batafsil izohlab o'tilgan. Diplomatiya davlat tashqi siyosatining eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi, ana shu siyosatning maqsad va vazifalari diplomatiya shakli va uslublarini belgilab beradi. Diplomatiya faoliyatning asosiy shakllari: diplomatiya kongresslar, konferensiyalar yoki kengashlar; nota, memorandum, bayonot va h.k. shakllardagi diplomatiya yozishma; xalqaro shartnomalarni tayyorlash va imzolash; davlatning elchixonalar va missiyalar orqali amalga oshiradigan chet eldagi vakilligi; xalqaro

tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish; tashqi siyosiy masalalar bo'yicha hukumat nuqtai nazarini matbuotda yoritish. Diplomatiya muassasalar va ularning mas'ul xodimlari diplomatik imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi. Xalqaro huquqqa binoan, diplomatik vakillarga o'zlari ishlayotgan mamlakat ichki ishlariga aralashish man etiladi. Diplomatiyaning shakllanishi davlatning yuzaga kelishi, uning muayyan organlari va lavozimdor shaxslari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. O'zbek davlatchiligi tarixida chet ellar bilan muntazam aloqalar yo'lga qo'yilganligi yaxshi ma'lum. Amir Temur davlati Fransiya, Angliya, Kastiliya, Konstantinopol, Genuya va Venetsiya bilan elchilar orqali aloqalarni yo'lga qo'ygan.

**EKSTERRITORIAL HUQUQ** – chet el fuqarolari shaxsining va uy-joyi, mol-mulki daxlsizligi hamda mahalliy davlat sudining ularni sud qila olmasligi.

**EMBARGO** (ispan. embargo - hibsga olish, xatga olish, man etish) - davlat tomonidan muayyan tovarlar, xizmatlar, valyuta yoki boshqa boyliklarni mamlakatga keltirish yoki boshqa mamlakatlarga olib ketish, chetga chiqarishni ta'qiqlab qo'yish. BMT qaroriga ko'ra, BMT Nizomini buzganligi yoki boshqa nojo'ya ishlari uchun jazo chorasi tarzida muayyan mamlakatlarning boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalarini to'sib qo'yish ham embargo hisoblanadi. Embargo quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin.

1. Davlatlarga boshqa bir davlatga oltin, chet davlat valyutasi, qurol-yarog'lar, zamonaviy texnologiyalar va boshqalarni kiritishni taqiqlashi.

2. Davlatlarga o'z portlari orqali kemalarni chiqarish, boshqa mamlakatlarning kemalarini qabul qilishni taqiqlab qo'yish.

BMT tomonidan belgilab berilgan davlatlar bilan qisman yoki to'liq ravishda savdo-sotiqni cheklab qo'yish, davlatlararo aloqalarni taqiqlash.

**INAUGURATSIYA** (lot. inauguro – bag'ishlayman) – davlat boshlig'ining oliy lavozimni bajarishga kirishishi munosabati bilan o'tkaziladigan tantanali marosim. Buyuk Britaniyadan tashqari boshqa barcha Yevropa davlatlarida monarxlarning toj kiyish marosimi shunday nomlangan va bu marosimlar ramziy ma'noda bugungi kunda ham mavjud. Misol uchun AQShda prezidentlarning inuaguratsiyasi Kapitoliy yaqinida ma'lum bir belgilangan kunda (20-yanvar)

o'tkaziladi. Meksikada 1 dekabr, Braziliyada 15-mart, Kolumbiyada 7-avgust, Germaniyada 1-iyul kunlarida o'tkaziladi.

**IRREDENTIZM** - Italiyaga qo'shni bo'lgan davlatlarda italyanlar qisman yashaydigan hududlarni qo'shib olishni targ'ib qiluvchi millatchilik harakati

**IZOLYATSIONIZM** (isolationism) – tashqi siyosat yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosida boshqa davlatlar, millatlar, etnoslar va xalqlarning ishlariga aralashmaslik g'oyasi yotadi. Iqtisodiyotda izolyatsionizmning qo'llanilishi avtarkik xo'jalikka olib kelishi mumkin. Qo'llash sohalariga qarab izolyatsionizm tushunchasi «proteksionizm», «kallaboratsionizm», «internatsionalizm» tushunchalarining qarama-qarshi ma'nolarini anglatadi. AQSh tashqi siyosat yo'nalishlaridan biri sifatida uzoq yillar qit'adan tashqaridagi ittifoqlarga qo'shilmaslik va davlatlarning ishlariga aralashmaslik tamoyiliga asoslanib kelgan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng o'z ahamiyatini yo'qotgan.

**KONFERENSIYA** (lot. konferentia-bir joyga to'playman) - hozirgi davrda davlat yoki partiya, jamoat va olimlar vakillarining muayyan masalani muhokama etish uchun yig'ilishi. XIX asming ikkinchi yarmiga qadar G'arbiy Yevropada, asosan, ma'muriy, madaniy, iqtisodiy va huquqiy masalalarga oid yig'ilishlar konferensiya deb atalgan. Keyinchalik konferensiya tushunchasi kongress atamasi o'mida ham qo'llanila boshladi. Konferensiya odatda ilmiy, biznes va press konferensiya turlariga bo'linadi. Bunda Exokonferensiya, Veb-konferensiya, Videokonferensiya, Konferens-aloqa, selektor yig'in-telefon aloqasi orqali (uch va undan ko'proq abonentlarning suhbat) konferensiya kabi turlari mavjud.

Biznes-konferensiya - bir yoki bir nechta kompaniya vakillarining biznes sohasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan o'ziga xos yig'ilishidir. Unda biznesga oid mavjud muammolar muhokama qilinadi va yangi biznes g'oyalar o'rta tashlanadi.

Press-konferensiya - odatda biror bir firma va kompaniya vakillarining jurnalistlar bilan uchrashuvi hisoblanadi.

**KONGRESS** (lot. Congressus -uchrashuv, majlis, birgalikda o'tiramiz) - odatda xalqaro miqyosda o'tkaziladigan qurultoy, kengash va majlis shunday nomlanadi. Boshqa bir ma'nosi ayrim davlatlarda parlament nomi (masalan, Hindiston milliy Kongressi, Ispaniya

deputatlar kongressi, Yaman Butunxalq kongressi, Liviya Butunxalq kongressi, AQSh kongressi va boshqalar shunday nomlanadi). Shuningdek ayrim xalqaro tashkilotlarning oliy organi. Diplomatiyada esa xalqaro masalalarni hal etish maqsadida tashkil qilinadigan va chaqiriladigan majlis. Misol sifatida Aaxen kongressi, Berlin kongressi, Vena kongressi, Parij kongressi va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

**KONVENSIYA** (lot. *conventio* shartnoma, kelishuv) ko'p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri. Hozirgi paytda xalqaro tashkilotlarning shartnomalari konvensiya deb ataladi.

**MEMORANDUM** (lot. Memorandum - nimanidir yodda saqlamoq) - diplomatik hujjat, savdo shartnomasi va boshqa ma'nolarda qo'llanilib, biror davlatning diplomatik yo'l bilan muhokama qilinishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan o'z nuqtai nazarini bayon qilib yozgan nomasi. Odatda, notaga ilova qilinadi yoki boshqa mamlakat vakiliga shaxsan topshiriladi. Xalqaro yoki iqtisodiy aloqalarga oid hujjat bo'lib, bunda biror taklif bildiriladi.

**MISSIYA** (lot.) - yuksak burch, ma'suliyatli vazifa; bir davlatning ikkinchi davlatga maxsus topshiriq bilan yuborgan vakillari. Cherkov tilida boshqa dindagi kishilar orasida o'z dinini targ'ib qilish uchun yuborilgan elchilik ham shunday ataladi.

**MORATORIY** (lot. *moratorius* -sekinlashish, keyinga surish) - xalqaro huquqda qaysidir harakatni mal'um muddat amalga oshirmaslik yoki uni keyinga surish borasida davlatlar o'rtasidagi ahdlashuv. Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi: Shartlashayotgan davlatlar shartnomani va kelishuvni aniq yoki noma'lum muddatga kechiktiradi. Kechiktirish to'lovlari, muddati va ularni qanday shartlar bilan tasdiqlanishi rasmiy ravishda qayd qilinadi.

**NOTA** (lot. belgi, tanbeh) - bir davlat hukumati tomonidan ikkinchi davlat hukumati nomiga yuboriladigan yozma rasmiy hujjat. Odatda qarshilik mazmunidagi informatsion hujjat ko'rinishida bo'ladi.

**PAKT** (lot. *pactum*-shartnoma, bitim) - muhim siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro bitim; xalqaro shartnomalar nomlaridan biri. X asr Vizantiya hujjatlarida yerning ijara haqini anglatgan.

**PANAFRIKA** - XIX-XX asrlarda vujudga kelgan siyosiy g'oya bo'lib, afroamerikan intelligensiya (misol uchun Edvard Blayden)

vakillari tomonidan AQShda qora tanlilarga siyosiy huquqlarni berishni talab qilib chiqqan g'oya. XX asrning birinchi yarmida panafricanizm Afrika davlatlaridagi mustaqillik uchun kurash olib borayotgan ijtimoiy-siyosiy guruhlar bilan mustahkam aloqalarni o'rnatish boshladi. Gananing prezidenti Kwame Nkruma 1960-yillarda Afrika davlatlarini birlashtirib Afrika Qo'shma Shtatlarini tuzishni taklif qiladi va keyinchalik mazkur taklif Libiyaning sobiq prezidenti Muammar Kaddafiy tomonidan qo'llab - quvvatlangan. Panafricanistlarning kongresslari 1919, 1921, 1923 va 1927-yillarda bo'lib o'tib, ularda Britaniya G'arbiy Afrikasi Milliy kongressi, G'arbiy Afrika talabalar kengashi, Negr irqini himoya qilish butunjahon ligasi kabi tashkilotlar ishtirok etishdi. Manchesterda 1945-yilda bo'lgan beshinchi kongressda Afrika siyosiy partiyalari yetakchilari Kwame Nkruma, Nnamdi Azikwe, (Nigeriya), Djomo Keniata (Kenya) va boshqalar qatnashishdi. Panafricanizm g'oyasi asosida 1963-yilda Afrika birligi tashkiloti tuziladi.

**PANGERMANIZM** (nem. Alldeutschum, lot. Pangermanismus) – XIX asrning 80-yillarida Avstro-Vengriyada paydo bo'lgan va Germaniya burjuaziya va yunkerlarning tajovuzkor g'oyalarini namoyon etuvchi siyosiy doktrina. To'lig'icha XIX asrning oxiriga kelib shakllandi. Pangermanizm tarafdorlari polyaklar, ukrainlar va Boltiqbo'yi hududlarini egallashning, dunyoda Germaniyaning hukmronligini o'rnatishning ruhlantiruvchilari bo'lib, mamlakatning harbiylashuvida va qudratli harbiy-dengiz flotining qurilishiga ta'sir o'tkazgan. O'ta millatchilik, shovinizm va irqchilik pangermanizm tarafdorlarini german nasizmining «ajdodiga» aylantirgan.

**PANOSIYO** - siyosiy g'oya bo'lib, Yaponiyada imperator Syova davrida Osiyo xalqlarini birlashtirish va yaponlarning ular ustidan hukmronligini targ'ib qilgan qarashlar. Panosiyo g'oyasi ayniqsa Ikkinchi jahon urushi yillarida o'z taraqqiyotining cho'qqisiga chiqdi va Yaponiya hukumati tomonidan keng miqyosda targ'ibot ishlari olib borildi. Yaponiya mana shu hududlarda de-yure yoki mustaqil davlatlar tuzish orqali katta natijalarga erishdi. Birma, Manchjou-go, Ozod Hind va boshqalar shular jumlasidandir. Panosiyo g'oyasining asosiy shiorida «Osiyo osiyoliklar uchun» deyilgan.

**RATIFIKATSIYA** (lot. *Ratificatio*, *ratus* - qaror, kelishuv + *facere* - qilmoq) - huquqiy kuchga ega bo'lgan hujjat yoki kelishuv. Qoida bo'yicha shartlashayotgan tomonlar tasdiqlagandan keyingina

kuchga kiradi. Ratifikatsiya qilingunga qadar shartnoma chuqur o'rganiladi va tahlil qilinib, keyin muhokama qilinadi. Shartnoma biror bir tomonning tasdiqlamasligi sabab kuchga kirmasligi mumkin. Ratifikatsiya dastlabki paytlarda konfederatsiyalar a'zolari o'rtasida imzolangan.

**REPARATSIYA** (lot. reparatio-qayta tiklash) (xalqaro huquqda) - moddiy xalqaro-huquqiy javobgarlik turi; davlatning boshqa davlatga yetkazgan zararini pul bilan yoki boshqacha shaklda qoplashi. Reparatsiyani natura shaklida, pul yoki boshqa moddiy kompensatsiya shaklida yoki bir vaqtning o'zida restitutsiya (g'ayriqonuniy egallab olingan va olib ketilgan mol-mulkni qaytarish) va zararlarni qoplash shaklida to'lash mumkin. Reparatsiyani amalda 1919-yilgacha mavjud bo'lgan kontributsiyadan farqlash kerak. Hozirgi xalqaro huquqqa ko'ra, davlatning agressiv urush boshlanganligi uchun moddiy javobgarligi, ya'ni harbiy reparaatsiya muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 1945-yilgi Qrim (Yalta) konferensiyasi va Berlin konferensiyasi qarorlarida Germaniyaning reparaatsiya to'lashi, 1947-yilgi sulh shartnomalarida esa, Ikkinchi jahon urushida Germaniya ittifoqchilari bo'lgan davlatlarning reparaatsiya to'lashi nazarda tutilgan.

**REZIDENSIYA** (lot) – davlat, hukumat boshlig'i yoki boshqa davlat mansabidagi (diplomatlarning) shaxslarning qarorgohi.

**SAMMIT** (ing. *summit meeting* - uchrashuv) - oliy darajadagi, ya'ni davlat yoki hukumat boshliqlarining uchrashuvi. Mazkur ingliz tilidagi atama 1980-yil o'rtalaridan rus tilida «oliy darajadagi uchrashuvlar» uchun qo'llanila boshlangan. Sammitlar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bo'lishi mumkin. Masalan, sakkizlar sammiti (dunyoning eng rivojlangan sakkiz davlat rahbarlari yoki hukumat boshliqlarining oliy darajadagi uchrashuvi), MDH sammiti, OTII (ATES) sammiti.

**SOVUQ URUSH** – bir tomondan, sobiq SSSR va uning ittifoqchilari, ikkinchi tomondan, AQSh va uning ittifoqchilari o'rtasidagi global, geosiyosiy, harbiy, iqtisodiy va mafkuraviy qarama-qarshilik. 1946-yildan to 1991-yilgacha davom etgan. Bu yerdagi «urush» tushunchasi shartli tushuncha bo'lib, chunki bu qarama-qarshilik haqiqiy ma'nodagi urush emas edi. Mafkuraviy omil bu qarama-qarshilikning eng asosiy jihati bo'lgan. Chunki «kapitalizm» va



«sotsializm» o'rtasidagi qarama-qarshilik sovuq urushning asosiy sabablaridan biri bo'lib qoldi. «Sovuq urush» atamasini ilk bora Djorj Oruell 1945-yil 19-oktyabrda «Tribyun» britan haftalik gazetasida «Sen va atom bombasi» maqolasida qo'llagan edi. Uning fikricha, atom bombalarining paydo bo'lishi jahonda 2-3 ta qudratli davlatlarning shakllanishiga olib keladi. Ushbu davlatlar atom bombasida har biri yengilmas holatga kelishi ularni doimiy «sovuq urush» holatida bo'lishiga olib keladi. Rasmiy ravishda ushbu atama 1947-yil 16-aprelda AQSh prezidenti Garri Trumenning maslahatchisining Janubiy Karolina shtati vakillari palatasi bilan uchrashuvi chog'idagi nutqida qo'llanilgan edi. «Sovuq urush»ning eng katta oqibatlaridan biri bu qurollanish poygasi bo'ldi. Rasmiy ravishda «sovuq urush» 1991-yilda, qarama-qarshilikning bir tomoni bo'lgan SSSRning parchalanishi bilan o'z yakuniga yetgan. Oksford elektron ensiklopediyasida bu qarama-qarshilik 1989-yil dekabr oyida Maltadagi sammitda J. Bush va M. S. Gorbachevning uchrashuvi chog'ida rasmiy ravishda «sovuq urush»ning tugaganligi e'lon qilinganligi keltiriladi.

**TRAKTAT** -1. Xalqaro shartnoma, bitim (masalan, Berlin traktati).  
2. Alohida masala yoki muammo qarab chiqiladigan ilmiy asar.

**XALSHTEYN DOKTRINASINI** (nem. *Hallstein-Doktrin*) 1955-yil dekabrda Bonnda GFR elchilari yig'ilishida qabul qilingan davlatning tashqi siyosat doktrinasi. Unga ko'ra GDR bilan diplomatik aloqa o'rnatgan har qanday davlatga nisbatan GFR o'z diplomatik aloqalarini to'xtatadigan bo'ldi. Bundan faqat sobiq SSSR davlati mustasno etildi. GFR Tashqi Ishlar vazirining davlat-kotibi V. Xalshteyn nomidan olingan. Amalda ikki marta bu siyosat qo'llanilgan: Yugoslaviya GDRni tan olganidan keyin 1957-yilda GFR u bilan, xuddi shu sabab tufayli 1963-yilda Kuba bilan diplomatik aloqalarni uzgan edi. Xalqaro huquq me'yorlariga to'g'ri kelmaganligi bois GFR bu siyosatni o'zgartirishga majbur bo'ldi. 1970-yilning fevralida GFR rasman Xalshteyn doktrinasining tugatilganligi haqida bayonot berdi. 1972-yilda GFR va GDR o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatilishi bilan bu doktrina amalda barham topdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Ahmedov B. Tarixdan qisqacha izohli lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1977.
2. Bekmuhammedov H.Yu. Tarix terminlari izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Lafasov M. Jahon tarixi (1918-2010). Toshkent: «Turon-iqbol», 2013
4. Islom ensiklopediyasi / Z.Husniddinov tahriri ostida. – Toshkent: O'zME, 2004.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jild. Toshkent: O'zME, 2000-2006.
6. ru.wikipedia.org
7. A. Kryukovskix. Slovar istoricheskix terminov, M.: 1998.
8. Natsionalnaya istoricheskaya ensiklopediya  
<http://interpretive.ru/>
9. Oksfordskaya Illyustrirovannaya Ensiklopediya Vsemirnaya istoriya (s 1800 g. i do nashix dney) ддд-  
<http://interpretive.ru/dictionary/960>
10. Mustaqillik izohli ilmiy - ommabop lug'at. -T., 1998.
11. Nabiev R.N. Iz istorii Kokandskogo xanstva. -T., 1973.
12. Novaya istoriya. - M., 1984.
13. Raxmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. -T., 2000.
14. Rtveladze Ye.V. Velikiy Shelkoviy put'. -T., 1998. N b
15. Saidboboev Z. Tarixiy atamashunoslik. Ma'ruzalar matni. -T., 2000.
16. Semenov V.P. O'rta asrlar tarixi. -T., 1973.
17. Slovar inostrannix slov. - M., 1990.
18. Fomchenko A.P. O'rta asrlar tarixidan izohli lug'at. - T., 1979.
19. Choriev 3. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug'ati. - T., 1999.
20. Ensiklopedicheskiy slovar. - M., 1987.



**Majidov Sh.F., Qurbonov Sh.Sh., Maxkamova N.A.**

**TARIXIY ATAMALARNI DARS JARAYONIDA  
QO'LLANILISHI**

*Guvohnoma raqami: 166-634*

**“SAMARQAND”** nashriyoti

*Mas'ul muharrir — Dildora TURDIYEVA*

*Musahhih — Anvar UMRZOQOV*

*Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV*

*Sahifalovchi — Zarina NUSRATULLAYEVA*

*Dizayner — Davron NURULLAYEV*

**“SARVAR MEXROJ BARAKA”** bosmaxonasida chop etildi.

**Guvohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.**

**Samarqand shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 3-uy.**

**Bosishga 24.02.2021 ruxsat etildi. Bayonnoma raqami: 7**

**Bichimi 60x841/16. “Times New Roman” garniturasida. 10,93 bosma taboq.**

**Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 67/2022**

**Tel/faks: +998 93 199-82-72, e-mail: [sarvarmexrojbaraka@gmail.com](mailto:sarvarmexrojbaraka@gmail.com)**

